2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘R QHT, 2017 y., 30-son, 729-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2013 yil 3 iyundagi 27, 18-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Maktabgacha ta’lim vazirligining 2019 yil martdagi «Pedagogika ta’lim sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchi kurs talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotlarini doimiy yashash xududlarida o‘tashlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi 10-q/q-son qarori.

РЕЗЮМЕ

Mamlakat ta’lim tizimida sifatni doimiy ko‘tarib borish barcha rivojlangan mamlakatlarning ta’lim jarayonini yaxshilash sohasida olib borilayotgan tajribalarini tahlil qilgan holda ta’lim tizimimizda sifatni ko‘tarib borish bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

Непрерывное повышение качества в системе образования страны, анализируя опыт всех развитых стран в области совершенствования образовательного процесса, описано повышение качества в нашей системе образования.

SUMMARY

Continuous improvement of the quality in the country’s education system, analyzing the experiences of all developed countries in the field of improving the educational process, the improvement of the quality in our education system is described.

O'SPIRINLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Saparniyazova R.M.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: to'g'ri kasbga yo'naltirish, ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, oila, fanlararo aloqadorlik.

Ключевые слова: профориентация, социализация, самооценка, технологическое образование, семья, междисциплинарность.

Key words: career guidance, socialization, self-assessment, technological education, family, interdisciplinarity.

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi.[1,156b]

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi ya'ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror bir kasb sohasida ta'lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi. Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlari yo'lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan

davrni o’z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog’lik emas, u ma’lum yoshga kelib o’z o’zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko’nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o’quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo’llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o’quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo’llash imkoniga ega bo’lamiz. [2,93-94- b].

Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi. Kasb – hunar to’g’risida har xil munosabatlar hosil bo’lishining asosiy sabablaridan biri – bu maktab o’quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo’lishidir. Motivlar o’rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo’ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo’lish ob’ektiv va qat’iy qarorni keltirib chiqaradi. V.A.Krutetskiy o’spirimlarda uchrashi mumkin motivlardan quyidagilarni alohida ta’kidlab o’tadi:

1) biror o’quv faniga nisbatan o’spirinning qiziqishi,

2) vatanga foyda keltirish istagi (o’zlarining individual-psixologik xususiyatini va qobiliyalarini hisobga olgan holda),

3) shaxsiy qobiliyatini ro’kach qilib ko’rsatish,

4) oilaviy an’analarga rioya qilishi (vorislik),

5) do’stlari va o’rtoqlaridan o’rnak olganligi,

6) ish joyining va o’quv yurtining uyga yaqinligi,

7) moddiy ta’minlanganlik,

8) o’quv yurti ko’rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Bundan tashqari, yoshlarda boshqa turdagi motivlar ham mavjud bo’ladi. Ular qatoriga shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, o’z oldiga qo’ygan maqsadi, unga intilishi, qunti, kasb to’g’risidagi ma’lumoti, uning sihat - salomatligi, asab tizimining xususiyati va temperamentining xususiyatlari kabi motivlarni sanab o’tish mumkin. Biroq motivlarning boshqa xillari ham uchraydi. Lekin holatning o’zgarishiga qarab ulardan unisi yoki bunisi bosh maqsadga aylanib turadi. [3]

Mazkur holatni tadqiq etgan yirik psixolog Ye.A.Klimov o’spirinlar kasb tanlash kezida; birinchidan, biror kasbning «nufuzli ekanligiga» baho berishdagi dogmalarga asoslanish, ikkinchidan, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, uchinchidan, biror kasb egasi bo’lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki

salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, to'rtinchidan, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga mahliyo bo'lish, beshinchidan, o'rtoqlarining ta'siri ostida «kompaniya uchun» kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaganliklari boisidan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib yetmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Shuning uchun yuqorida bayon qilib o'tilgan hatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xolatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatli umumiy tomonlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash.

2. O'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsulьtatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish.

3. O'spirinlarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish ; muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlari hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

4. Texnologik ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish

5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.

7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar.

Hozirgi davrda tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasb tanlashning metodlari va metodikalari ishlab chiqilgan. Kasblarning xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma'lum tartibga solib, tizimli ravishda tavsiflashga erishilgan.

Ayniqsa, Ye.A.Klimovning yaratgan sxemasi bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi.

1. Polizchi, chorvador, asalarichi, zootexnik, agronom, o'rmon barpo etuvchi - bionik mutaxassisligi "inson - tabiat».

2. Slesar, tokar, montyor, konstruktor, radiotexnik, injener - texnika mutaxassisligi «inson - texnika».

3. Ofitsiant, sotuvchi, hamshira, o'qituvchi, tarbiyachi, muhandis tashkilotchi – sotsionomik mutaxassisligi «inson - inson».

4. Bo'yoqchi, nusxa ko'chiruvchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardozlovchi, kompozitor, yozuvchi rassom - artonomik mutaxassisligi «inson - badiiy obraz».

Ye.A.Klimov insonning tabiat bilan munosabatga kirishishga moslashgan kasblarni bionik mutaxassisligi, insonning texnika bilan munosabatda bo'lishi natijasida yuzaga keluvchi kasblarni texnika mutaxassisligi, insonning inson bilan muomalasi orqali vujudga kelgan kasb - hunarlarni sotsionomik mutaxassisligi va nihoyat insonni badiiy obrazlar yaratishga undovchi kasblarni artonomik mutaxassisligi deb ataydi.

Oddiyroq tilda ifodalaganda:

a) insonni tabiatga xizmat qildirishga mo'ljallangan kasblar;

b) insonni texnikaga xizmat qildiruvchi kasblar;

v) insonni inson xizmatiga moslashtirilgan kasblar;

g) insonni badiiy obrazlar ustida ishlashga undovchi kasblar singari turlarga ajratish mumkin.

Lekin mazkur kasblar tasnifi mavjud barcha kasblarni birma - bir sanab o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaganligi sababli, ularning ko'pchiligi o'z ifodasini topmagan. Kasb tanlashga yo'llanma berishning va uni tashviqot qilishning usullaridan biri - ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish kilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmalarga qo'yishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish mumkin [4÷6].

O'spirinlarda hosil bo'ladigan praksik (lazzatlanish, rohatlanish) hislar kasbga mehrini oshiradi va unga nisbatan mustahkamlaydi Psixolog M.G.Davletshin kasb tanlashni uch boskichdan kelib chiqqan holda (kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish) shaxsning kasb - hunarga yaroqliligi (layoqati)ning ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi:

a) kadr tanlash davrida shaxsning umumiy yaroqliligi (layoqati);

b) kasb- hunar tanlashda uning qaysi kasb turiga loyiqligi;

v) kasbga o'rgatishda shaxs sifatlarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi. Muallifning fikricha, o'spirinning kasbga yaroqliligini aniqlaganda uch muhim narsaga eьtibor qilish

maqsadga muvofiqdir: kasbga munosabat, qobiliyat, qo'nikma va malakalar. Odamning kasbga yaroqliligini aniqlashda uning qiziqishi, irodasi, qobiliyati, maxsus bilimi, ko'nikmalarining jips aloqasini ifodalagan holda olib qarash oqilona yo'ldir. [7÷8]

Yuritilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar to'g'risida axborot, kasb haqida maslahat vositalari ongli kasb tanlash uchun yetarli emas. Shuning uchun o'spirim o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kasb tanlashda o'z kuchini muayyan faoliyatda sinab ko'rishga imkoniyat yaratadi. Lekin bu bilan kifoyalanish, qanoat hosil qilish shart emas, balki boshqa yo'l va vositalarni qidirish, izlash darkor. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda o'spirinlarning qiziqishi, mayli, ehtiyoji, iqtidori, malakasini hisobga olgan holda to'g'ri yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin hozirlaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b

2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.

3. Saeman, H. (1998, July/August). Survey: Psychologists' incomes plummet. The National Psychologist, 1–2.

4. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. — М., 1992.

5.Ғозиев Э.Ғ, Асомова Р. Касб психологияси курсидан маърузалар матни. Тошкент 2000.

6. Хўжаев Н., Тожибоева Д., Мамарахимов Б., Шомуратова Н. Касбий таълим методикаси. Ўқув қўлланма Т.: ТДИУ.- 2007. 190 б.

7. Saparniyazova Z.M. Interdisciplinary integration in the formation of professional competence of the future/ Science and Education in Karakalpakstan. 2022 №4/1 P. 222-225.

8. Ko'ysinov O.A Kunnazarov I.S., Saparniyazova Z.M., SaparniyazovaR. M., Kunnazarov O.I. Role of digital technologies in education// Journal of Positive School Psychology 2022, Vol. 6, No. 7, 1953-1958.

РЕЗЮМЕ

O'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirish hukumatimiz, siyosatimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish usullari haqida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

Направление студентов на правильную профессию было одной из актуальных проблем, стоящих перед нашим правительством и политикой. В данной статье описаны проблемы, в правильной ориентации студентов на профессию, недостатки на практике и пути их устранения.

SUMMARY

Guiding students to the right profession has been one of the pressing issues facing our government and politics. This article describes the problems in the correct orientation of students to the profession, shortcomings in practice and ways to eliminate them.

PROFESSIONAL TA'LIMDA TALABALARNING MEDIA KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI

Alimov Z.Ch.
Termiz davlat universiteti Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, axborot kompetentligi, axborot – komunikatsiya texnologiyalari, loyiha metodi, maktab, mediata'lim, mediasavodxonlik, mediakompetentlik, mediamahsulot, axborot texnologiyasi, axborot kommunikatsiya vositalari.

Ключевые слова: kompyuternaya gramotnost, kompyuternaya gramotnost, informatsionnaya gramotnost, informatsionno-kommunikatsionnыe texnologii, metod proektov, shkola, mediaobrazovanie, mediagramotnost, mediagramotnost, mediaprodukt, informatsionnыe texnologii, sredstva informatsionnoy kommunikatsii.

Key words: computer literacy, computer literacy, information literacy, information and communication technologies, project method, school, media education, media literacy, media literacy, media product, information technology, information communication tools.

Kirish. Kasbiy ta'limda media kompetensiyasining ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Bugungi raqamli asrda medianing turli shakllarini samarali boshqarish va ulardan foydalanish qobiliyati professional dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy mahoratga aylandi. Media kompetensiyasi bir qator ko'nikmalarni, jumladan, media xabarlarni tanqidiy baholash va tahlil qilish, yuqori sifatli kontent yaratish va ishlab chiqarish, raqamli platformalar orqali samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'nikmalarsiz mutaxassislar o'zlarini noqulay ahvolga solib qo'yishlari mumkin, chunki ular mijozlar, hamkasblar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqa o'rnatishda qiynalishi mumkin. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarini mohirona boshqarish va tushunish qobiliyati o'z sohasidagi dolzarb voqealar va tendensiyalardan xabardor bo'lish, mutaxassislarning raqobatbardosh va dolzarb bo'lib qolishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Umuman olganda, media kompetensiyasi kasbiy ta'limda muhim ahamiyatga ega, chunki u talabalarni bugungi tez rivojlanayotgan va texnologiyaga asoslangan jamiyatda ustunlik qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Professional ta'limda media kompetensiyasining ahamiyati

Talabalar orasida media kompetensiyasini rivojlantirishdagi muhim muammolardan biri texnologiyaning jadal rivojlanishidir. Media platformalar,

qurilmalar va raqamli vositalarning doimiy evolyutsiyasi bilan talabalar eng so‘nggi tendentsiyalardan xabardor bo‘lish va ushbu murakkab tizimlarda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallash muammosiga duch kelishadi. Bundan tashqari, turli xil ommaviy axborot vositalarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning katta hajmi o‘z-o‘zidan qiyinchilik tug‘diradi.

Talabalar o‘zlari duch keladigan ma’lumotlarning ishonchliligi va ishonchliligini tanqidiy baholay olishlari, haqiqiy manbalar va noto‘g‘ri ma’lumotlar o‘rtasidagi farqni bilishlari kerak. Bundan tashqari, onlayn maxfiylik va raqamli xavfsizlik bilan bog‘liq tashvish ortib bormoqda, bu esa media kompetensiyasini rivojlantirish muammolarini yanada kuchaytiradi.

Talabalar raqamli ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-hatar, masalan, shaxsiy hayotning buzilishi va havf haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va o‘zlarini himoya qilish uchun bilim va ko‘nikmalar bilan jihozlanishi kerak. Umuman olganda, ushbu muammolar kasbiy ta’limda talabalar o‘rtasida media kompetensiyasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishni ta’kidlaydi.

Kasbiy ta’lim sohasi talabalarni tez o‘zgaruvchan jamiyat talablariga tayyorlashning ahamiyatini uzoq vaqtdan beri tan olgan. So‘nggi yillarda ushbu tayyorgarlik turli shakl va platformalarda media-kontentni tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini anglatuvchi media kompetensiyasiga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilimlarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste’mol qilish usullarini tubdan o‘zgartirgan raqamli davrda media kompetensiya ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi.

Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan va hayotimizda ajralmas rol o‘ynamoqda, o‘qituvchilar o‘z o‘quv dasturlarida media kompetensiyasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, media kompetensiyasi nafaqat talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, balki ularga bugungi kunda mavjud bo‘lgan juda ko‘p ma’lumotlar to‘plami bo‘ylab samarali harakat qilish imkonini beradi va shu bilan ularga ongli qarorlar qabul qilish va raqamli jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, media kompetensiya media savodxonligini oshirish, raqamli fuqarolikni rivojlantirish va noto‘g‘ri ma’lumotlar va soxta yangiliklarga qarshi turish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Oxir oqibat, media kompetensiyasini rivojlantirish talabalarni kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga tayyorlash va ularni murakkab va o‘zaro bog‘liq dunyoda rivojlanish uchun zarur ko‘nikmalar bilan jihozlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Media kompetensiyasi professional ta'limda muhim rol o'ynaydi, bu odamlarga bugungi raqamli asrda mavjud bo'lgan keng ko'lamli media platformalar va vositalardan samarali foydalanish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Bir tadqiqotda ta'kidlanganidek, media kompetensiya bir qator ko'nikmalarni, jumladan, media-kontentni tanqidiy tahlil qilish va baholash qobiliyatini, shuningdek, media kontentini o'ylab va mas'uliyat bilan ishlab chiqarish va almashish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'limda media kompetensiyasi o'quvchilarga mazmunli va xabardor muhokamalarda qatnashish, bilim yaratishga hissa qo'shish va murakkab muammolarga innovatsion echimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, media kompetensiya bo'lajak mutaxassislarni turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish, tez rivojlanayotgan media landshaftlariga moslashish va o'z sohalarida texnologik yutuqlar salohiyatidan foydalanish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Shunday qilib, professional ta'limda media kompetensiyasini rivojlantirish odamlarni tobora o'zaro bog'langan va ommaviy axborot vositalari bilan to'yingan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun juda muhimdir.

Ommaviy axborot vositalari malakasi talabalarga turli imtiyozlarni taqdim etish orqali kasbiy ta'limni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Birinchidan, media-platformalar hamma joyda mavjud bo'lgan raqamli texnologiyalar davrida, media kompetensiya talabalarni mavjud bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish va tanqidiy baholash uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Swan and Biderman (2019) ta'kidlaganidek, media kompetensiya talabalarga manbalarning ishonchliligi va ishonchliligini aniqlash imkonini beradi, shu bilan ongli qarorlar qabul qilish va dalillarga asoslangan amaliyotlarni rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, media kompetensiya ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi, bu esa talabalarga muammoni hal qilish va muloqot qilish uchun media vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi (Kohtala, 2019).

Rill va Childress (2020) fikriga ko'ra, media platformalardan foydalanish qobiliyati nafaqat talabalar o'rtasidagi hamkorlik va faollikni kuchaytiradi, balki ularni ish joyida texnologiyadan ko'proq foydalanishga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, media kompetensiya raqamli fuqarolikni rag'batlantiradi, chunki talabalar onlayn hamjamiyatlarda mas'uliyatli va axloqiy munosabatda bo'lishni o'rganadilar (Lanham, 2018).

Raqamli harakatlarining oqibatlarini tushunib, talabalar maxfiylik, haqiqiylik va intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun yaxshi jihozlanadi (Mifsud va Bartolo, 2019).

Umuman olganda, media kompetensiya kasbiy sohaga kiradigan talabalar uchun asosiy ko‘nikmalar majmuasi bo‘lib xizmat qiladi, ularni ommaviy axborot vositalari bilan to‘yingan dunyoda rivojlanish uchun zarur vositalar bilan jihozlaydi.

Kasbiy ta’limda media kompetensiyasini rivojlantirishdagi muhim muammolardan biri texnologiyaning tez evolyusiyasi va uning media amaliyotiga ta’siridir. Texnologiya misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanishda davom etar ekan, ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarish, almashish va iste’mol qilish usullari doimo o‘zgarib bormoqda. Bu o‘qituvchilar uchun o‘z talabalariga media kompetensiyasini samarali o‘rgatish uchun eng so‘nggi tendentsiyalar va texnologiyalarga rioya qilishda qiyinchilik tug‘diradi.

Agarda «medikomretentlik» tushunchasining kelib chiqishga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

“Mediakomretentlik” umumiy ko‘rinishda shaxsning turli ko‘rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda medianing faoliyati murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan integrativ sifati tarzida tushuniladi.

Mediakomretentlik-mediasavodxonlik (media comretence/media literacy – turli shakllardagi xabarlarni (messages) qo‘llash, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati. Ma’lum bir mediakomretentlikni o‘zlashtirgan shaxs deganda o‘z sohasiga loyiq bilim va malakasi shakllangan, ijobiy fikr va samarali harakat qila oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak, “mediakomretenlik” - shaxsning ma’lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan harakatlarning o‘zaro bog‘liq sifatlari yig‘indisi, “mediakomrentetlilik” insoning harakatiga mos komretenlikni o‘zlashtirish.

Mediakomretentlik yuqori darajasiga ega bo‘lgan shaxs uchun quyidagi xususiyatlar harakterlidir:

- yangi ma’lumotlarni olish uchun harakat qilish (intilish);
- hayotining turli sohalarida o‘z shaxsiy komretentligini va har turdagi mediamadaniyat dunyosiga intilish;
- o‘qish uchun zaruriy ilmiy materiallar izlar torish;
- media mahsulotlar bilan “doimiy” muloqotda bo‘lish;
- media olamida mustaqil ravishda mediamatnlarni shakllantirish va tarqatish (mustaqil yoki guruh bilan birgalikda tayyorlash) malakasiga ega bo‘lish;
- mediaga bog‘liq bo‘lgan (o‘yinbor, badiiy, tadqiqot va. h.k) yorqin faoliyat yurita olishi.

Shunday qilib, pedagog shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish mediakomretentligi ma’naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlanitirish, irodaviy va hissiy jihatdan o‘z-o‘zini boshqara olishga qaratilgan. Malaka oshirish jarayonida umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining malakasini oshirish mediakomretentligini rivojlantirish jarayonida ishtirok etuvchi sub’ektlarning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy faolligi, shaxslararo munosabati va axborot vositalarining kasbiy rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta’siri va ishtirokini inobatga olish.

Talabalar orasida media kompetensiyasini rivojlantirishdagi muammolar

O‘quv dasturiga mediasavodxonlikni kiritish bilan bir qatorda, kasbiy ta’lim muassasalari talabalarning media-savodxonligini oshirish uchun turli strategiyalarni qo‘llashlari mumkin. Strategiyalardan biri o‘quvchilarga turli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tajriba orttirish imkonini beruvchi media vositalari va texnologiyalari bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishdan iborat. Bunga talabalarga turli xil media platformalarda tajriba o‘tkazish va shug‘ullanish imkoniyatini beradigan seminarlar, amaliyotlar yoki laboratoriya mashg‘ulotlari orqali erishish mumkin.

Yana bir samarali strategiya - tanqidiy fikrlashni va ommaviy axborot vositalari xabarlarini tahlil qilishni rag‘batlantirishdir. Media mazmunini tanqidiy tushunishni targ‘ib qilish orqali talabalar noxolis yoki manipulyatsion ma’lumotlarni ochish uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishlari va ommaviy axborot vositalarining yanada oqilona iste’molchilariga aylanishlari mumkin.

Bundan tashqari, talabalarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning axloqiy oqibatlarini tan olish va baholashga o‘rgatish ularning umumiy media kompetensiyasiga hissa qo‘shishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining mas’uliyatli amaliyotlari va axloqiy mulohazalar bo‘yicha munozaralarni rag‘batlantirish orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning mumkin bo‘lgan tuzoqlarini boshqarish uchun talabalarni zarur vositalar bilan jihozlashlari mumkin.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali kasbiy ta’lim muassasalari talabalarning media kompetensiyasini oshirishi mumkin, bu ularga turli media shakllari bilan samarali aloqa qilish va o‘zlari tanlagan sohalarga hissa qo‘shish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining, xususan, raqamli ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi va ulardan foydalanish imkoniyati odamlarning axborot va o‘yin-kulgilarni iste’mol qilish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ushbu tezkor o‘zgarish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy tahlil qilish, baholash va samarali foydalanish qobiliyati

sifatida tavsiflangan media kompetensiyasining muhim ahamiyatini ta’kidladi (Bukingem, 2006).

Axborot va aloqaning asosiy manbai sifatida ommaviy axborot vositalariga tayanayotgan talabalar soni ortib borayotganligi sababli, media savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, raqamli asrda media kompetensiyasining muhim mahorat sifatida e’tirof etilishi ortib borayotganiga qaramay, talabalar o‘rtasida uni rivojlantirishda muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu insho talabalar o‘rtasida media kompetensiyasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni o‘rganish va takomillashtirishning potensial yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

O‘quvchilarning media-savodxonligining etishmasligiga olib keladigan asosiy muammolardan biri bu maktablarda mediasavodxonlik bo‘yicha ta’lim yo‘qligi. Talabalar doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarining ko‘plab xabarlari bilan bombardimon qilinayotgan bugungi raqamli asrda ular ushbu xabarlarni tanqidiy baholash va tahlil qilish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari shart.

Biroq, ko‘pgina maktablar o‘z o‘quv dasturlarida media savodxonligi bo‘yicha ta’limga ustuvor ahamiyat bera olmaydilar. Media savodxonligi bo‘yicha to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq va ta’lim bo‘lmasa, talabalar turli media platformalar, jumladan reklama, ijtimoiy media va axborot vositalari tomonidan qo‘llaniladigan manipulyatsiya taktikasiga qarshi himoyasiz qoladilar. Shu sababli, media savodxonligi bo‘yicha ta’limni maktablarga integratsiya qilish o‘quvchilarga media xabarlarni samarali tarzda dekodlash va talqin qilish qobiliyatini oshirish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, media savodxonligi bo‘yicha ta’lim talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishi, xilma-xillik va inklyuzivlikni targ‘ib qilishi va ommaviy axborot vositalarida mas’uliyat hissini rivojlantirishi mumkin. Shunday qilib, ta’lim muassasalari media savodxonligi bo‘yicha ta’lim muhimligini tan olishlari va uni o‘z o‘quv dasturlariga kiritishlari juda muhimdir.

Ijtimoiy medianing talabalarning media kompetensiyasiga ta’siri bugungi raqamli asrda muhim muammoga aylandi. Facebook, Instagram va Twitter kabi ijtimoiy media platformalari talabalarning axborot va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatini o‘zgartirdi. Ushbu platformalar talabalarga ommaviy axborot vositalarining turli shakllari bilan shug‘ullanish va tengdoshlari bilan muloqot qilish va fikr almashish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi (Bukingem, 2017).

Biroq, bu ijtimoiy tarmoqlarga ko‘proq ta’sir qilish va ularga ishonish talabalarning media kompetensiyasini rivojlantirishga ham to‘sqinlik qilishi

mumkin. Axborotning doimiy oqimi va tarkibni almashish qulayligi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining etishmasligiga va noto‘g‘ri ma’lumotlardan ishonchli manbalarni ajrata olmaslikka olib kelishi mumkin (Krebs, 2018).

Bundan tashqari, ommaboplikka urg‘u berish va yoqtirishlar va sharhlar orqali doimiy tekshirish zarurati talabalarni turli nuqtai nazardan foydalanishdan uzoqlashtirishi va buning o‘rniga ularni tendensiyalarga rioya qilishga yoki yuzaki munozaralarga kirishishga undashi mumkin (Boyd, 2016).

Binobarin, ijtimoiy medianing talabalarning media kompetensiyasiga ta’sirini tan olish va ushbu raqamli davrda talabalar o‘rtasida tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi va mas’uliyatli media iste’molini targ‘ib qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Mutaxassislar mediakomretentligini rivojlantirish, malaka oshirish jarayonida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni malakasini oshirish mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, rsixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis mediakomretentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

1-jadval

O‘qituvchining komretentlik turlari

Kasbiy komretentlik	**Mafkuraviy komretentlik**	**Boshqaruv komretentlig**	**Media-komretentlik**
Kasbiy komretentlik muayyan fan bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakaga egalligi (masalan, fizika, kimyo, tarix, matematika va boshqa fanlar)	Mafkuraviy komretentlik – g‘oyaviy jihatdan aniq maqsadi bor, o‘z irodasi, iymon-e’tiqodi, vijdoni, qarashlariga egaligi, yot mafkuralarga qarshi kurasha olishi	Boshqaruv komretentligi - o‘qituvchining darsni boshqarishi, sinf jamoasini boshqarish uchun didaktik, rsixologik, metodik, texnologik tayyorgarlikka ega bo‘lish	O‘qituvchi (pedagog) mediakomretentligi – matbuot vakolatlari, uning sabablari, bilim, ko‘nikma va malakalariga (ko‘rsatkichlari: motivatsion, axborot, amaliy-tezkor, uslubiy faoliyati, ijodiy) ega bo‘lib, barcha yoshdagi ta’lim oluvchilarga mediata’lim bilimlarini targ‘ib qilish
Ta’lim-tarbiya beruvchi pedagog			

Ijtimoiy tarmoqlarning talabalarning media kompetensiyasiga ta’siri

Talabalarning media kompetensiyasiga soxta yangiliklarning jiddiy oqibatlaridan biri bu tanqidiy fikrlash qobiliyatining eroziyasidir. Axborotning haddan tashqari yuklanishi hukmron bo‘lgan davrda o‘quvchilar doimiy ravishda ko‘plab yangiliklar manbalari bilan bombardimon qilinadi, bu esa nima haqiqiy va nima bo‘lmaganini farqlashni qiyinlashtiradi. Soxta yangiliklarning ko‘pligi va ulardan foydalanish imkoniyati tufayli talabalar ommaviy axborot vositalari tarkibiga tanqidiy munosabatda bo‘lishlari, noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni qabul qilishlari, uning haqiqiyligiga shubha qilmasliklari mumkin (Mihailidis, 2017).

Tanqidiy baholashning yo‘qligi dunyoni noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi va o‘quvchilarning analitik fikrlash va yangiliklar yoki manbalarning to‘g‘riligini aniqlash qobiliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Binobarin, soxta yangiliklarning ta’siri o‘quvchilarning media savodxonligi va ularning fuqarolik nutqida ishtirok etish qobiliyatiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Bundan tashqari, ota-onalar va vasiylar o‘quvchilarning media kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular o‘z farzandlarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bo‘lgan munosabati va xatti-harakatlarini shakllantirishga qodir.

Tadqiqotlar bo‘yicha xulosa shuni ko‘rsatdiki, media-kontent bo‘yicha farzandlari bilan faol shug‘ullanadigan va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan ota-onalar media savodxonligi yuqori bo‘lgan bolalarga ega bo‘lish ehtimoli ko‘proq.

Adabiyotlar:

1. Babadjanov S. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining mediakomretenligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoreferat. – T., 2018.

2. Mamatova Ya., Sulaymonova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. –T.: “Extremum-rress”, 2015.

3. Mediaobrazovaniye. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklorediya. – M., 1993.

4. Fedorov A.V. Razvitiye mediakomretentnosti i kriticheskogo mыshleniya studentov pedagogicheskogo vuza. M.: Informatsiya dlya vsex, 2007.

5. Rotter W.J. Media Literacy. Thousand Oaks. London: Sage Rublication, 2001

6. Genri Jenkins. “Ishtirokchilik madaniyati muammolariga qarshi turish”. 21-asr uchun media ta’limi, MIT Press, 6/5/2009

7. Funk, Stiven S.. «Media savodxonligi orqali global kompetensiyalarni targ‘ib qilish.» Yildiz, Melda N., IGI Global, 30.11.2017.

РЕЗЮМЕ

Raqamli asrda texnologiya rivojlanishi davom etar ekan, professional ta’limda media kompetensiyasini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Media kompetensiyasi turli media formatlari yordamida ma’lumotlarga samarali kirish, baholash, yaratish va muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilanishi mumkin. Bugungi jamiyatda talabalarning ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari juda muhim, chunki ular o‘z faoliyati davomida turli xil ommaviy axborot vositalarida harakat qilishlari va ular bilan shug‘ullanishlari kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada kasbiy ta’limda talabalar o‘rtasida media

kompetensiyasini rivojlantirishni o‘rganish, uning ahamiyati, muammolari va potensial echimlarini o‘rganish, talabalarning rivojlanayotgan media landshaftida rivojlanish uchun zarur ko‘nikmalar bilan jihozlanganligi o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

Посколку технологии продолжают развиватся в эпоху сифровых технологий, развитие медиакомпетентности в профессионалном образовании становится все более важным. Медиакомпетентност можно определит как способност эффективно получат доступ, отсениват, создават и передават информатсию, исползуя различные медиаформаты. В современном обществе студентам важно приобретат эти навыки, посколку на протяжении всей своей кареры им придется ориентировватся в различных средствах массовой информатсии и взаимодействоват с ними. В этой стате рассматривается развитие медиакомпетентности среди студентов, получающих профессионалное образование, исследуются ее важност, проблемы и потенсиалные решения, позволяющие вооружит студентов необходимыми навыками для преуспевания в развивающемся медиа-ландшафте.

SUMMARY

As technology continues to advance in the digital age, the development of media competence in professional education is becoming increasingly important. Media competence can be defined as the ability to effectively access, evaluate, create, and communicate information using various media formats. In today’s society, it is important for students to acquire these skills because they will need to navigate and engage with a variety of media throughout their careers. This article examines the development of media competence among students in professional education, explores its importance, challenges and potential solutions to equip students with the necessary skills to thrive in the evolving media landscape.

TARBIYA FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Xaydarova M.X.
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, pedagogik jarayon, o‘qituvchi, mutafakkir, metod, faoliyat, ta’lim tizimi, tarbiya, mazmun, shakl, usul, vosita.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, педагогический процесс, учитель, мыслитель, метод, деятельность, система образования, воспитание, содержание, форма, метод, средство.

Key words: primary education, upbringing, pedagogical process, teacher, thinker, method, activity, educational system, upbringing, content, form, method, tool.

Kirish: Sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”, shu bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, tarbiyaviy ishlarga oid talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rgatish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarimizning ma’naviyatli, bilimli bo‘lishida O‘qituvchi bilan birgalikda Davlat siyosatining o‘rni ham beqiyos. Prezidentimiz o‘z nutqida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb ekanligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz”, deb ta’kidladilar. Muhtaram Prezidentimiz, mamlakatda yangi Uyg‘onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta’kidladilar.

“Bizning eng ustuvor vazifamiz ulkan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun vakolatli yoshlarni yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi”,

deb ta’kidladilar. Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkentning Chilonzor viloyatidagi uchrashuvlarda yoshlar tomonidan bildirilgan dadil g‘oya va tashabbuslardan juda mamnunligini aytdi.

“Ayniqsa, yaqinda bo‘lib o‘tgan Yoshlar forumida yigit-qizlarimizning ishtiyoq bilan yonayotgan ko‘zlarini, bilimga bo‘lgan ishtiyoqlarini ko‘rib, men juda katta kuch oldim. Va ular yana Ibn Sino aytgan jasur va qattiyatli yoshlar ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldim” dedi davlatimiz rahbari. “Ishonchim komilki, biz qudratli ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O‘zbekistonni barpo etamiz”, deya ta’kidladilar.

Tahlil va natija: Barkamol inson o‘zida ma’naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash uchun birinchi navbatda xalq og‘zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, ajdodlarimizning ma’naviy merosi hamda tarixiy kitoblar asosiy o‘rin tutadi. Bundan tashqari sharq mutafakkirlarining me’rosi, she’r va g‘azallari, badiiy ijod namunalari dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta’limiy qarashlariga tayanib ish ko‘rilsa, talabalarning tarbiyaviy ishlari jarayonini rivojlantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash ta’lim jarayonining asosi bo‘lgan, doimiy diqqat va e’tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir.

Ta’lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo‘lgan eng muhim dolzarb vazifa bo‘lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an’analari asosida tashkil qilingan. Ya’ni, ta’lim-tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an’analarimiz ko‘p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davlat o‘z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma’rifiy-ma’naviy ozuq bo‘ladigan axborotlar bilan ta’minlanishidan manfaatdordir. O‘zbekistonda ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma’naviy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan, prinsipial —axborot siyosati shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda. Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Zero, ushbu masala g‘oyaviy nuqtai nazardan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun prinsiplariga to‘la muvofiq keladi.

Ta’lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o‘rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta’limning milliy modeli tamoyillari

mohiyatan ta’limning milliy-ma’rifiy, milliy tarix, xalq an’analari, milliy merosimiz bilan uyg‘unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman ta’lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta’lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Chin ma’nodagi shaxs o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo‘ladi. O‘zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o‘z manfaati, o‘z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O‘z vazifasini millatning kuniga yarash, og‘irini yengil qilishda ko‘radi. Shu sababli u o‘z shaxsiy qobig‘idan chiqib ko‘tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o‘zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko‘proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g‘oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo‘lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-ona, oiladan tashqarida qarindosh-urug‘, qo‘shni-mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag‘batlantirib borish, so‘ngra oliy o‘quv yurtida - mafkuraviy bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy.

Ta’lim jarayoni dunyo bo‘yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma’noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o‘ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta’limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ta’lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo‘yadi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta’lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o‘z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ta’lim samaradorligi talaba bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o‘qitish uslublari, shakllari ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik – ta’lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi.

Shu jihatdan olib qaraganda o‘tmish allomalari, mutafakkirlarining ma’naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g‘oyat beqiyosdir.

Shaxs – Ta’lim tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi hamda ularni amalga oshiruvchisidir. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz ta’lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rganlar. Ma’lumki, tarbiya inson shaxsi, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta’lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: “Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi - tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir”.

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Umuman aytganda, tarbiya ta’lim berish jarayonining barcha ma’rifiy majmuasini ham vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim, tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga zamin bo‘ladi.

Tarbiya, xususan milliy tarbiya xaqida so‘z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Tarbiya so‘zi asli arabcha bo‘lib, «parvarish qilish, ta’lim berish, o‘rgatish» degan ma’noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma’naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun sub’ektiv omil bo‘lib, unga asos ham yaratadi Shuning uchun hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar.

Olimlarning ta’kidlashicha, informatsion yoki psixologik xurujlar ikki muhim ob’ektga zarba berishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu, **birinchidan**, kompyuterlar va ma’lumotlar tizimidir, chunki bugun hayotni axborot texnologiyalarisiz, Internetsiz tasavvur qilish qiyin. **Ikkinchidan** - har birimizning individual ongimiz hamda barchamizga xos bo‘lgan va biz amal qiladigan ijtimoiy xatti-harakat normalariga ta’sir alohida e’tiborga olinadi.

O‘qitish sharoitida zamonaviy metodlarni qo‘llash natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, zaruriy xulosalar chiqarish, o‘z fikrini erkin bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, faol muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari rivojlanib boradi. Bu metodlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga hamda interfaol metodlarni qo‘llash orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilg‘or

tashabbuskorlik ko‘rsatishlariga keng va innovatsion imkoniyatlar yaratilishi guruh jamoasi bir bo‘lib ishlashi uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish umumiy o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida foydalaniladigan metodlarni quyidagicha tavsiya qilish mumkin.

Tadqiqotchilik metodi Ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi egallangan bilimlaridan birgalikda yoki individual faoliyatda foydalanish, mustaqil tanqidiy fikrlash, muammoni ilmiy tahlil qilish, ijodiy izlanishlarni rivojlantirishda foydalanadi. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyat orqali muammoni hal etishda ilmiy yondashishga undaydi. Faoliyat jarayonidagi hamkorlik esa mavjud muammolarni tezroq anglab yetish va yechim qilish uchun keng imkoniyat yaratishi bilan ustuvorlik kasb etadi.

Loyihalash metodi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining turli g‘oyalariga doir rejalashtirish ishlarini bajarish bo‘yicha mustaqil ishlash qobiliyatini ko‘rsatishiga, o‘zining o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishga yo‘l ochib beradigan o‘qitish jarayonini nazarda tutadi. Bunda loyihada qatnashayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyati umumiy ko‘rinishda bo‘lib, maqsad va o‘zaro kelishilgan holda tanlangan metodlar va usullar hamkorlikda erishiladigan natijalarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Loyihalash metodi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish, mustaqil ravishda o‘z bilimini rivojlantirish bilan o’z pedagogik faoliyatida tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Bashorat qilish metodi ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik ba’zasini shakllantirishda yuqoridagi barcha metodlardan foydalanar ekan, ta’lim jarayonidagi o‘zgarish, yutuq va kamchiliklarni tahlil qilishi lozim. Bu uchun tavsiya etilgan barcha topshiriqlarni bajarib, natijasining yakuni haqida aniq tasavvur hosil qilishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi fan o‘qituvchisi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tanlaydigan har bir yo‘l va yechim mazmunini oldindan ko‘ra olishi baholanadi. Ma’lum rejalar va bosqichlar asosida olib borilgan ta’lim jarayonida ushbu metodlar to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi natijasida ijobiy ko‘rsatkichlar kuzatiladi.

Muammoli o‘qitish metodi o‘quv jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining diqqatini dolzarb muammolar va ularning yechimini topishga qaratish, ularning bilish faolligini oshirish va muammoni yechish bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Vaziyatlar tahlili metodi muayyan masalalarni yoki vaziyatlarni yechishni o‘rgatish yo‘li bilan ta’lim berishga asoslanadi. Ushbu metodni qo‘llashda

ma’lum qoidalar bo‘yicha muayyan, odatda, real hayotda ro‘y bergan vaziyatlar ishlab chiqiladi; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi olishi kerak bo‘lgan bilim va amaliy ko‘nikmalar kompleksi aks ettiriladi. Bunda, savollarni chiqaruvchi, javoblarni hisobga oluvchi, munozarani qo‘llab-quvvatlovchi, ya’ni hamijodkorlik jarayoni dispetcheri rolida bo‘ladi.

Produktiv metod Professor-o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni biroz ijodiy yondashib qabul qilish va yechim izlashga bog‘liq. Produktiv metod orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi berilgan topshiriqlar mazmunini ijodiy va qayta xotirlab tahlil qiladi, natijalarni tizimlashtiradi. Va, jarayonni rivojlantirish uchun individual protsessda davom etish imkonini yaratadi.

Reproduktiv metod tayyor bilimning yetkazilishi va qabul qilinishi bilan bog‘liq. Bu metodlarga hikoya, tushuntirish, ma’ruza, namoyishli tajribalar, darslik bilan ishlash, kompyuter texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Amaliyot bilan bog‘lash metodlari ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinfga tegishli fanlarni o‘rganishda uning amaliy jihatlarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Mazkur metod bilan ishlashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini nazariy olgan bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Yurtboshimiz, tarbiya, muallim hamda murabbiyning ta’lim tizimidagi o‘rnini atroflicha tahlil etib shunday degan edi: «Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, «Ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham shu yerda, o‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o‘zi ham shunday bilimga ega bo‘lishi kerak». Shu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag‘batlantirish, ularni o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Albatta bu masalani birdaniga yechish qiyin, lekin uni yechmasdan turib kelajak avlodning tarbiyasi to‘g‘risida gapirishning o‘zi mutloqo nomaqbuldir». Zero, biz yangi asrda va yangi bir sivilizatsiya davrida yashayapmiz. Bu sivilizatsiyada mehnat qilib, o‘zining ustida tinmay ishlaydigan, uzluksiz ta’lim oladigan, doimiy ravishda o‘z bilim ehtiyojlarini qondirib, olgan bilimlarini oilasi, xalqi va davlati rivojlanishiga sarf qila oladigan shaxsgina munosib o‘rinni egallashi mumkin. Shuning uchun ham Milliy modelimizda uzluksiz ta’limga katta ahamiyat berilgan. Chunki, jamiyatimiz o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsad – kelajagi buyuk O‘zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy mo‘ljalliga zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog‘liq.

Xulosa. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi o‘ta murakkab, qaltis va mas’uliyatli davri ma’naviy-ma’rifiy ishlar, mafkuraviy ta’lim-tarbiya markazida yosh avlod turishi zarurligini, farzandlarimizning aql-zakovatli, teran fikrli, mustahkam e’tiqodli qilib tarbiyalanishlariga jiddiy e’tibor berishni, ularning soddalik qilib soxta oqimlar yo‘liga kirib pana-pasqadamlarda pisib yurgan har xil johil odamlarning gapi va yo‘liga kirib ketishlariga aslo yo‘l qo‘yib, beparvo qarab bo‘lmaydi. O‘z navbatida, xalqimiz tarixidagi buyuk allomalarni, xususan, ma’rifatli dunyo Buxoriylar, Farg‘oniylar, Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklarni qanchalik izzat ikrom qilgan bo‘lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo‘lga kiritishimiz kerak.

Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, ta’lim hayotiyligini, uning milliy g‘oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.

3. Haydarova M.X. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik asoslari// O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. –Toshkent, 2022. B-221-224. ISSN 2181-7324.

4. Haydarova M.X. Model and psychological and pedagogical conditions conducive to the formation of managerial competenge of future primary school teachers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRS). - Vol. 7 No. 11, 2019. ISSN 2056-5852. P-90.

5. Haydarova M.X. Theoretical bases of preparation of future primary school teachers for teaching the subject of education// ICAESAS-London UK 2022. https://conferencezone.org/index.php/cz.

6. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. – T.: «Adolat». 2016. 224 bet.

7. Nazarova Z.A., Haydarova M.X. Development and growth of education// Philosophical Readings XIII.4 (2021,) pp. 282-290.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarlikni takomillashtirish haqida yozilgan. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlashning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о совершенствовании методической подготовки к преподаванию педагогической науки. Сегодня основная цель методической подготовки будущих учителей к преподаванию педагогической науки – сделать молодое поколение зрелыми во всех отношениях, всесторонне развитыми людьми, необходимыми для развития нашего общества.

SUMMARY

This article is written about the improvement of methodological preparation for teaching the science of education. Today, the main goal of methodical training of future teachers to teach the science of education is to make the young generation mature in all respects, well-rounded people necessary for the development of our society.

TALABALARNING LIDERLIK QOBILIYATI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM OMIL SIFATIDA

To‘raboyeva M.R.
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensita, raqamli kompetensiya, liderlik, mahorat, muloqot, munosabat, Soft Skills, hissiy intellekt.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, цифровая компетентность, лидерство, навыки, коммуникация, отношение, Soft Skills, эмоциональный интеллект.

Key words: communication, competence, professional competence, digital competence, leadership, skill, communication, attitude, Soft Skills, emotional intelligence.

Kirish. Dunyoda talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda, ta’lim subyektlari faoliyatini optimal rejalashtirish, talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish, natijalar uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, rivojlanayotgan sharoitlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish hissiyotini kengaytirish, jarayon va vaziyatlarni boshqarish ko‘nikmalari bo‘yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovasion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovasion tafakkurni shakllantirish, intelektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda .

“O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan kompetensiyalarni, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda” . Shu ma’noda ta’limning strategik vazifalarini hal qilishning samarali yondashuvlarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu ta’lim siyosati va amaliyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, sifatni ta’minlash mexanizmlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar tahlilil va metodologiyasi. “Kompetensiya tushunchasi tarkibiy qismlar sifatida bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar (tashabbuskoplik, maqsadga muvofiqlik, maqsad qo‘yish qobiliyati, mas’uliyat, bag‘rikenglik va

boshqalar), ijtimoiy moslashuv (jamoada va undan tashqarida ishlash qobiliyati), tanqidiy fikrlash" , shuningdek, tanlangan sohada professional faoliyat tajribasi kabilar belgilandi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi mazmuni kompetensiyaviy yondashuvlar asosida isloh etilayotgan pallada XXI asr kompetensiyalari alohida ahamiyatga ega. XXI asr kompetensiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq etilishi bir vaqtning o'zida bir nechta tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Xorijiy loyihalar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

OECD (Organisation for Economic Cooperation and Dovelopment – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) kompetensiyalari (DeSeCo – Definition and selection of competencies: theoretical and conceptual foundations – Kompetensiyalarni aniqlash va tanlash: nazariy va konseptual asoslari) asosiy kompetensiya sifatida texnikalardan interaktiv foydalanish kompetensiyarini belgilaydi . Ushbu kompetensiya kognitiv qobiliyat va bilimlarnigina emas, balki refleksiv fikrlar va harakatlarni ham o'z ichiga oladi.

OECD kompetensiyalar global va madaniyatlarapo muammolarni bilish va tushunishga e'tibor qaratadi. Madaniyatlararo, fuqarolik, ijtimoiy va transversal kompetensiyalar qadriyatlar, munorabat, ko'nikma, bilim va tanqidiy tushunchalarni qamrab oladi .

YUNECKOning madaniyatlararo kompetensiyalar doirasi, globallashgan dunyoda turmush uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni baholaydi. Ular kommunikativ kompetensiyalar (til, muloqot, xatti-harakatlar) va madaniy kompetensiyalar (shaxsiyat, qadriyatlar, munosabat va e'tiqod) sifatida belgilanadi . Har bir kompetensiyaga boshqasi nuqtai nazaridan qarash mumkin. O'quv jarayoni uchun YUNECKOning global ta'lim tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bolalar, o'quvchilar hamda talabalarga kerak bo'lgan kompetensiyalarni o'rganish va aniqlash maqsadida xalqaro ishchi guruh tashkil etilgan. Bu maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va oliy o'quv yurti ta'lim tizimini qamrab oladi. Ushbu tizilma barqaror rivojlanish maqsadida, "global ta'lim ko'rsatkichlari"ni ishlab chiqish uchun asos yaratishga mo'ljallangan. Ular uchun ushbu jarayonda "butun dunyodagi asosiy ta'lim imkoniyatlarini o'lchash va o'quv natijalarini baholashdagi tenglik" asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu loyiha "ta'lim va ko'nikmalar kelajagi. Ta'lim – 2030" yangi xalqaro konseptual ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Loyiha doirasidagi asosiy kompetensiya tuzilmasi DeSeCo tuzilishiga asoslangan. Bu yangi tuzilma doirasida uchta o'zgaruvchan kompetensiya (yangi qiymat yaratish; mas'uliyatni his etish; ikkilanishlarni yengish) uchun bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar tizimini belgilash ko'zda tutilgan.

Tadqiqot japayonida butun dunyoga mashhur bo‘lgan “Singapup: XXI asr kompetensiyalari” loyihasini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu loyiha doirasidagi kompetensiyalar tuzilmasiga quyidagilar kiradi: bilim olish; muammolarni hal qilish va yangilik qidirish; bilim egallash uchun axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish; aloqa; hamkorlik; bilim oluvchi tomonidan o‘z ishlarini mustaqil rejalashtirish, o‘quv jarayonidagi individual yutuqlarni nazorat qilish .

Bugungi globallashuv davrida shaxsning samapali faoliyati uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘zi yetarli emas, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash, tashabbuskoplik va mas’uliyat, moslashuvchanlik, tadbirkorlik, liderlik, hissiy aqlni o‘z ichiga olgan XXI asrning kompetensiyalarini egallash zarur. Bu kompetensiyalarni shartli ravishda uchta turga ajratish mumkin:

raqamli kompetensiyalar - axborot, kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) ish, dam olish va muloqotda ishonchli, samarali foydalanish;

tashabbuskorlik va tadbirkorlik kompetensiyalar - g‘oyalarni ijodkorlik, yangilik va xavflarni baholash orqali harakatga aylantirish qobiliyati, shuningdek, loyihalarni rejalashtirish va boshqarish qobiliyati;

Soft Skills kompetensiyalari - madaniyatlararo tarmoq aloqalarini (ijtimoiy va professional) qurish, o‘rganish va takomillashtirish qobiliyati va boshqalar.

Muhokama va natijalar. Liderlik ko‘pincha “yumshoq mahorat (Soft Skills)” deb ataladi. Biroq, o‘z kelajagiga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar “yumshoq mahorat”ni o‘rganish mumkin emas, deb xato qilmasliklari lozim. Darhaqiqat, liderlik shaxsiy va professional muvaffaqiyat uchun muhim mahoratdir va yaxshi rahbar bo‘lishni o‘rganish maktabdan boshlanishi va keyingi ta’lim jarayonlarini takomillashtirilishi mumkin . Yaxshi lider o‘z qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlay oladi va ularni maktabda yoki undan oldin taqdim etilgan imkoniyatlarga qo‘llashni boshlaydi.

“Yumshoq mahorat (Soft Skills)” – bu odamlar bilan muloqot qilishlari kerak bo‘lgan maxsus ko‘nikmalar to‘plamidir, bu insonga nafaqat martaba o‘sishiga, balki oddiy hayotda ham yordam beradi. Bu mahorat talabalarning o‘z faoliyatida yuqori natijaga erishishlariga ko‘maklashadi. Yumshoq mahorat asosini tezkorlik, kreativlik, fikrlarini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, liderlik kabi sifatlar tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlarning ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning liderlik qobiliyatini shakllantirish davlat va jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi mutaxassislar yetishtirishning muhim shartlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida jamiyatda yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy madaniyatga ega, dunyoni o‘zgartirish

jarayonida amaliy ishtirok etishdan faol manfaatdor bo‘lgan axloqiy, ma’naviy boy va ijodiy shaxslarga ehtiyoj ortib bormoqda. Oila va maktab shaxsning shaxsiyatiga asos soladi va kelajakda uning xatti-harakatining stereotiplarini shakllantiradi, lekin shaxsning yakuniy shakllanishi uning talabalik yillarida sodir bo‘ladi.

Mukammal jamiyatda har bir tabaqa yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o‘zining muayyan funksiyalariga ega bo‘lib, go‘yoki u vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan. “O‘zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularning baxt-saodatga erishuv darajasiga ko‘tarish har kimning qo‘lidan kelavermaydi. Kimda birovni baxt-saodatga erishtirish, zarur bo‘lgan ish-harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo‘lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo‘lsa, bunday shaxs sira ham rahbar bo‘la olmaydi” .

O.Kabeyn o‘z xulosalarida, “liderlik har birimizga u yoki bu tarzda xosdir va u hayotning turli bosqichlarida o‘ziga xos tarzda o‘zini namoyon qilishi mumkin” ligini ta’kidlaydi. U liderlik butunlay boshqariladigan va o‘rgatish hamda o‘rganish mumkin bo‘lgan jarayon ekanligiga urg‘u beradi.

Lider talabalar o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantirishlari kerak, bu esa boshqa muhim fazilatlarni, jumladan, kamtarlik, haqiqiylik va qat’iyatlilikni ta’minlaydi. Talabalarning liderlik fazilatlari ularga liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi.

O‘ziga bo‘lgan ishonch – lider ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng muhim fazilatlardan biridir. O‘ziga ishongan rahbar bu fazilatni boshqalarga doimo ko‘rsatishi shart emas. Buning o‘rniga, ular bu ishonchdan qiyinchiliklarni yengish uchun foydalanishlari mumkin va boshqalarga bo‘lgan ishonchni oshirishlari mumkin.

Kamtarlik – o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan birga kamtarlik ham keladi, chunki o‘ziga ishongan odamlar boshqalar bilan bo‘lishishdan qo‘rqmaydilar. Rahbarlik nafaqat o‘zini birinchi o‘ringa qo‘yish, balki butun jamoani yaxshi tomonlarini namoyon etishdir.

Haqiqiylik – o‘ziga ishongan odamlar ham o‘zlarining kimligini bilishadi va boshqalar bu ishonchli odam ekanligini bilib, haqiqiylikka javob beradi.

Talabalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantirar ekan, ular qanday qilib qat’iyroq bo‘lishni ham o‘rganadilar. Qat’iyatlilik degani, ular o‘zlarining muammolari haqida qanday so‘zlashni bilishlarini va tajovuzkorlikka berilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr almashishlarini anglatadi.

Tadqiqotchi-olim Forbes o‘z izlanishlarida zamonaviy liderning qobiliyatlarini quyidagilar sifatida sanab o‘tadi: chidamlilik; madaniyatni boshqarish; ko‘p avlod boshqaruvi; hamkorlik; hissiy intellekt .

Shuningdek, lider talabalar tanqidiy ko‘nikmalarni ham egallashlari lozim. Ushbu amaliy ko‘nikmalar ularga o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi va muvaffaqiyatga boshqalarni ham jalb qiladi. Quyida bularga batafsil to‘xtalib o‘tamiz:

- *Vaqtni boshqarish* murakkab bo‘lishi mumkin, ammo talaba bo‘lish turli usullar bilan tajriba o‘tkazish va eng yaxshisini topish uchun ajoyib muhitni taqdim etadi. Talabalar ilova, taqvim yoki oddiy ishlar ro‘yxatini topishlari mumkin, bu vazifalarni bajarish va ularga ustuvorlik berishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Ular, shuningdek, vaqtni behuda sarf qilmasdan, kutilmagan vaziyatlarni hal qilish uchun o‘z vaqtida qurishni o‘rganadilar.
- *Rahbarlik mas’uliyati* loyiha yoki jamoaning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari uchun yakuniy javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni anglatadi. Jamoa a’zolariga o‘zlari javobgarlikni o‘rganishga yordam berish muhim bo‘lsa-da, oxir-oqibat, rahbarlar bu yukning katta qismini o‘z yelkalariga olganlarida yaxshi natija bo‘ladi.
- *Maqsadni belgilash* - bu aniq va o‘lchanadigan maqsadlarni yaratishdir. Misol uchun, talabalar jamoasi uchun maqsad “ta’limni yaxshilash” sifatida belgilansa, lider aniq dastur yaratishi va maqsadni yanada aniqlashtirishi, o‘lchanadigan parametrlar va muddatni qo‘yishi lozim.
- *Himoya qilish.* Jamoa lideri qiyin vaziyatlarda himoya uchun chaqirilganda, aql va liderlik yonma-yon boradi. Har qanday da’volarni qo‘llab-quvvatlaydigan dalillarga ega bo‘lish va sabab haqida notiqlarcha so‘zlash boshqalarga nima uchun qaror qabul qilinganini tushunishga yordam beradi.
- *Muloqot* nafaqat yaxshi so‘zlash balki yozish qobiliyatidir. Bugungi liderlar turli platformalarda, jumladan, video va ijtimoiy tarmoqlarda bilimdon bo‘lishlari kerak. Oxir oqibat, muloqot ishontirish bilan bog‘liq bo‘lib, talabalar muammolari ustida ishlash rahbarlarga bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.
- *Qaror qabul qilish.* Hisobdorlik liderlik modelida qaror qabul qilish uchun yakuniy mas’uliyat rahbarga tushadi, lekin bu yo‘lda boshqalar bilan maslahatlashish yaxshiroqdir. Talabalar lideri aniq va mantiqiy ehtimollarga asoslanib qaror qabul qilishni o‘rganishlari kerak, lekin ular yangi ma’lumot olishlari yoki vaziyat o‘zgargan taqdirda ham burilishni bilishlari kerak.
- *Tarmoqqa ulanish.* Liderning muvaffaqiyati uchun boshqalar bilan munosabatlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati kabi bir nechta

ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Aloqalar tarmoqning markazida bo‘lib, talabalik davrida o‘rnatadigan aloqalar ular bilan butun hayoti davomida saqlanib qolishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, liderlik tajribasi talabalarning o‘rnak ko‘rsatish va hissa qo‘shish istagini oshiradi. Bu esa barchaga foyda keltirish bilan bir qatorda, jamoani va jamiyatni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko‘p jihatdan liderlik akademik mukammallikka erishish uchun muhim bo‘lgan ko‘nikmalar, yondashuvlar va amaliyotlarning kombinatsiyasini nazarda tutadi. Ko‘plab so‘rovlar buni qisqa va uzoq muddatli istiqbolda liderlik akademik samaradorlikni qanday oshirishini ko‘rsatish orqali tasdiqlaydi.

Liderlik tajribasi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqilligini, ya’ni talabalarning qaror qabul qilish va ta’lim maqsadlariga erishish uchun mustaqil harakat qilish qobiliyatini oshiradi. Faoliyatning qaysi sohasi yoki ishini tanlashidan qat’i nazar, bu foydali bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning hayoti va faoliyati davomida qoladigan muhim mahoratdir.

Talabaning liderlik salohiyati – bu berilgan obyektiv sharoitlarda liderlik fazilatlarini muvaffaqiyatli namoyish etish uchun uning qobiliyatlari va resurs imkoniyatlarining rivojlanayotgan tizimi sifatida belgilanadi. Liderlik salohiyati talabalar shaxsiyatining ijtimoiy-psixologik xususiyati bo‘lib, ularning shaxsiy va ta’limiy resurslari orqali boshqalarga ta’sir qilish qobiliyatini aks ettiradi. Liderlik salohiyati talabalarning aniq va yashirin imkoniyatlari va resurslarining dialektik birligi sanaladi.

Talabalarning liderlik salohiyatiga talabalik davrlaridan faollik nuqtai nazaridan yondashish kerak degan pozitsiyani ilgani surish lozim, chunki talabalik davridagi liderlik salohiyatini rag‘batlantirish va yo‘naltirish kerak. Shu bilan birga, o‘qish davrida liderlik salohiyatini faollashtirishning to‘liq va yakuniy jarayoni deyish ham o‘rinli emas. Negaki, bu uni rivojlanishining bir nechta, ammo printsipial jihatdan muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, ularning yanada takomillashtirilishi keyingi barcha kasbiy rivojlanish davrlarida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 19.01.2021 y., 09/21/230056-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son. https://www.lex.uz/docs/4676839

3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 189 b.

4. Богачева Л.С. Компетентность и компетенция как понятийно-терминологическая проблема // Актуальные вопросы современной педагогики: мат-лы II Междунар. науч. конф., июль 2012 г. Уфа: 2012. – С. 33-34. URL: https://moluch.ru/conf/ped/archive/60/2556

5. Кабейн О. Ф. Харизма. Как влиять, убеждать и вдохновлять : пер. с англ. М. : Альпина Паблишер, 2013.

6. Мироненко Е.С.Компетенции XXI века vs образование XXI века. Вопросы территориального развития. Вып. 2(47). 2019. – С. 11-12.

7. UNESCO, centre for Universal Education at Brooking, Towards Universal Learning. Recommendations from the Learning Matrix Task Force. September, 2013.

8. Znak N., Sedova N. Approaches to the development of key competences of the 21st century in the national research university higher school of economics. Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference, vol. I, May 25th-26th, 2018, – P. 656-666. Available at: http://dx.doi.org/10.17770/sie2018vol1.3238

9. https://spark.school/student-leadership-competencies/

10. https://aboutleaders.com/student-leadership/

11. https://www.linkedin.com/pulse/thomas-edisons-creative-thinking-habits-michael-michalko

12. www.oecd.org/pisa/35070367.pdf

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat uchun bo‘lajak mutaxassislarning liderlik qobiliyatini egallash zaruriyati va liderlik qobiliyatini tarkibiy qismlari, rivojlantirish usullari haqida fikr yurutilgan. Shuningdek, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish asosida ularning kasbiy kompetensiyasini o‘stirishdasi muhim jihatlar xususida atroflicha mulohazalar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается необходимость приобретения будущими специалистами лидерских качеств для современного общества, компоненты лидерских качеств и методы развития. Также на основе развития лидерских качеств студентов были даны подробные комментарии о важных аспектах развития их профессиональной компетентности.

SUMMARY

This article discusses the need for future specialists to acquire leadership skills for modern society, the components of leadership skills, and methods of development. Also, on the basis of the development of leadership skills of students, detailed comments were made about the important aspects of developing their professional competence.

TA’LIM PARADIGMALARI YANGILANAYOTGAN SHAROITLARDA O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLILIGI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Boynazarova S.R.
Termiz agrotexnologiyalar va innavatsion rivojlanish instituti. “O‘rmonchilik, dorivor o‘simliklar va manzarali bog‘dorchilik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: bilim, ta’lim, kompetentlik, kompetensiya, ta’lim paradigmalari, dual ta’lim.

Ключевые слова: знания, образование, компетентность, компетентность, образовательные парадигмы, дуальное образование.

Key words: knowledge, education, competence, competence, educational paradigms, dual education.

Kirish. Yuksak g‘oyalar, taraqqiyot sur’atini tezlashtirib yuboruvchi takliflar, fikrlar va tashabbuslarning tarixiy, ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi eng avvalo, paradigmal xarakterga ega bo‘lgan ta’limda aks etadi va aynan ta’lim vositasida amaliy tatbiq etilganlik kasb etadi. Bu jarayon esa umumiy tarzda ta’lim tizimiga, xususan, o‘qituvchiga asosiy e’tibor qaratilishi bilan bir vaqtda talabning ham mazmunan, hajman ortishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni o‘qituvchi muttasil yangilanib boruvchi ta’lim kontekstlariga muvofiqlasha borish asnosida, o‘z kasbiy faoliyat doirasidagi innovatsiyaviy jarayonlarga tayyor turishi lozim.

Hozirgi dinamik tarzda rivojlana borayotgan sotsium har bir shaxsdan o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil tarbiyalash orqali o‘z potensialini yuzaga chiqarib, jamiyatni rivojlantirishni va rivojlana borayotgan jamiyatning faol bir a’zosiga aylanishni talab qiladi. Bu voqelik esa alohida bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tadqiq etib borish, uning erishgan yutuqlarining asosiy omillarini tahliliy o‘rganib, bu omillarni yanada rivojlantirish, ayni vaqtda, kasbiy faoliyatida muammoga aylanib ulgurgan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan faktorlarni ilmiy o‘rganish va ehtiyoj doirasida zarur metodik, didaktik, pedagogik, psixologik tavsiyalar berish orqali korreksiyalar kiritib borishni taqozo etadi. Ta’limning paradigmal xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu vazifalarni monitoring texnologiyalarini

takomillashtirib borish, monitoring tashkil etish va uning mahsuldorligini ta’minlovchi omillarni aniqlashtirish usullarini o‘z ichiga olgan model qurish orqali muvaffaqiyatli bajarish mumkin[1, 35-b].

Tahlil va natijalar. Yangilangan ta’lim paradigmalari sharoitida o‘qituvchi (biologiya o‘qituvchisi) kasbiy kompetentliligi uning kasbiy faoliyatini strukturaviy faoliyati turlarini (o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, loyihalash, tadqiqotchilik va shu kabi) muvaffaqiyatli tashkil etishi uchun barqaror zamin yaratadi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi faqat mavzuga oid axborot, ma’lumot va aniq bilimlarni mohirona etkazuvchi shaxsgina emas, balki o‘quvchining yaqin maslahatchisi, yosh tadqiqotchining ilmiy rahbari, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar majmuasining loyihalashtiruvchisi, ta’lim muhitining “navigatori” kabi vazifalarni bajaruvchi ko‘pqirrali faoliyat egasidir (Ya.I. Kuzminov, I.D. Frumin va boshqalar)[2, 49-b].

O‘qituvchining zamonaviy ta’lim paradigmalari sharoitlarida shakllangan talablarga muvofiqlik darajasini o‘rganish bo‘yicha tuzilgan Yevropa mamlakatlari ishchi guruhining xulosasiga ko‘ra, bu muammoning echimi quyidagi vazifalarning bajarilishini o‘z ichiga olishi lozim:

a) o‘qituvchilar uzluksiz kasbiy ravnaq va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga qizg‘in jalb etilishi va ularning bu jarayondagi faoliyati rag‘batlantirilishi;

b) pedagog kasbiy kompetentliligi modeli va uning maqsadlariga mos tushadigan vositalar hamda texnologiyalardan foydalangan holda uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlovchi kompetentlilik darajasini tadqiq etish rejali tarzda olib borilishi;

v) butun kasbiy faoliyati davomida o‘qituvchi zarur kompetensiyalarni egallashi, o‘z kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borishi uchun zarur darajadagi imkon yaratilishi lozim[3, 61-b].

Xulosa shuki, ta’lim paradigmalari o‘zgaruvchan, ta’limning o‘zi tizim va jarayon sifatida paradigmal xususiyatga ega ekan, uning barcha sub’ektlari faoliyatini, binobarin, o‘qituvchi kasbiy faoliyatini (bizning tadqiqotimizda – o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini) monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli ham moslashuvchanlik xarakteriga egadir.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli qurishda o‘qituvchi shaxsi individual kasbiy tajriba manbai sifatida asosiy maqsad ob’ekti o‘laroq qaraladi va mazkur modelda biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligi strukturasidagi “etishmovchilik”, uning faoliyat sub’ekti sifatidagi ehtiyojlari hamda uning kasbiy takomilining asosiy yo‘nalishlari ham o‘z aksini topadi.

Biz mazkur bobning ikkinchi faslida biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligi shakllanganlik darajasini monitoring qilish metodikasini zamonaviy ta’lim paradigmalari sharoitlariga muvofilashtirish asnosida shaxsiy-jarayonli yondashuv talablaridan kelib chiqib, bu kompetentlilikning beshta strukturaviy majmuadan iboratligini hamda ular orasida psixologik va pedagogik kompetentlilik majmualari muhimlik darajasi bo‘yicha etakchi o‘rinda ekanligini qayd etgan edik. Biroq o‘qituvchi faoliyatining tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning etarli darajada ekanligiga qaramasdan, uning kasbiy kompetentliligining pedagogik va psixologik strukturaviy majmualarini to‘liq va ishonarli tarzda aniqlab beradigan metodikalar etarli emas[4, 29-b].

Shuning uchun o‘qituvchi kasbiy kompetentliligi shakllanganligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modelida biologiya o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining psixologik, pedagogik, metodik, umummadaniy va emotsional-axloqiy qirralarini o‘rganishning axborotli ta’minotini yaratish ustida ish olib borildi. Biz bu maqsadda pedagogik, psixologik, metodik testlar majmuasini ishlab chiqdik. Mazkur testlarni tahlil qilish orqali biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini tadqiq etish faoliyatli yondashuvni joriy etish orqali amalga oshirildi. Faoliyatli yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligi shakllanganlik darajasini bevosita faoliyat asnosida o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi.

Modelni qurishda biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini monitoring qilish – o‘qituvchi kasbiy takomilining axborotli asosi (kompetentlilikning “etishmaydigan” komponentlarini o‘rganish, kasbiy rivojlanish ehtiyojining darajasi haqidagi raqamli va matnli ma’lumotlar) ga ega bo‘lishni ta’min etadigan tashxisli-bashorat maqsadidagi kuzatishlarni o‘z ichiga olgan refleksiv baholash jarayoni ekanligi[5, 26-b] haqidagi fikrdan kelib chiqildi.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish modeli monitoring tashkil qilish va o‘tkazish texnologiyalari hamda metodikasida amal qilinadigan barcha tamoyillar asosida ishlab chiqildi. Bu tamoyillar quyidagilardir: ilmiylik, yaxlitlik, ob’ektivlik, usluksizlik, baholash mexanizmlariga asoslanganlik, mezonlar tizimining mavjud sharoitlarga moslashtirilganlik, shaffoflik, relevantlik, axborotning muhofaza qilinganlik va o‘qituvchining shaxsi bilan bog‘liq boshqa qator tamoyillar. O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli tizim va invariatlilik xususiyatiga ega bo‘lgan tuzilma sifatida qaraladi. Bu tuzilmaning tarkibi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

a) asosiy vazifalar (monitoring doirasida hal etilishi ko‘zda tutilgan);

b) vazifalarning bajarilishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan mundarijaviy mazmun;

v) monitoring jarayonini boshqarish va monitoring bosqichlari mantiqiy invariantli ketma-ketligini namoyon qiluvchi texnologik amaliyotlar;

g) monitoring jarayonining texnologik jihatdan mufassal o‘tishini ta’minlovchi shart-sharoitlar;

d) natijalar tahlili va tashxisi.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli doirasida ko‘zda tutilgan vazifalar sifatida quyidagilarni belgiladik:

– o‘qituvchining yangilangan paradigmalar sharoitida olib boradigan faoliyatining o‘zgarishini ta’minlaydigan nazariy-metodologik asoslarni aniqlashtirish;
– o‘qituvchi kasbiy kompetensiyalarining yangilangan ta’lim paradigmalari sharoitida pedagogik, didaktik, o‘quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan majmualarini monitoring ob’ekti sifatida ajratib olish va alohida o‘rganish;
– o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilishning mavjud metodikasini biologiya bo‘yicha yangilangan ta’lim paradigmalari sharoitlariga muvofiqlashtirish (bu vazifani ushbu bobning 2-faslida bajarilgan deb hisoblash mumkin);
– o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasining takomillashtirilgan variantining samaradorlik darajasini tajriba-sinov ishlari davomida amaliy sharoitlarda tekshiruvdan o‘tkazish;
– o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilishning takomillashtirilgan metodikasini amaliy sharoitlarga tatbiq etish natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalar asosida mazkur modelning samaradorlik darajasini tashxislash.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirishning ikkinchi komponenti – modelning mazmun-mundarijasi, uchta bosqichni o‘z ichiga oladi:

-biologiya o‘qituvchisi kasbiy tayyorlanganligining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish hamda bu boradagi “etishmovchiliklar”, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish ehtiyojining darajasini o‘rganish (o‘rganish metodikasi mazkur bobning 2-faslida keltirilgan);

-biologiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik darajasiga tayangan holda o‘qituvchi kompetentliligi shakllanganligini aniqlashning mezonlarini ishlab chiqish (mezonlar majmuasi mazkur bobning 2-faslida ishlab chiqilgan);

-biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini tegishli mezonlar bo‘yicha bevosita monitoringini amalga oshirish (mazkur bobning 2-faslida keltirilgan ilovalar, test-topshiriqlari, ijodiy testlar va biologiya bo‘yicha viktorinalar. Psixologik, pedagogik, metodik kompetentlilik strukturaviy majmualarini aniqlashga qaratilgan testlar, so‘rovnoma mazmuni tajriba-sinov ishlari davomida keltirib o‘tiladi).

Modelning monitoring jarayonini boshqarish va monitoring bosqichlari mantiqiy invariantli ketma-ketligini namoyon qiluvchi texnologik amaliyotlar deb nomlangan komponenti:

– shaxsiy yondashuvni joriy etish orqali o‘qituvchining erishgan yutuqlariga zamin yaratgan kasbiy sifatlarini, faoliyatni tashkil etish mahsuldorligini o‘rganish;
– jarayonli yondashuvni joriy etish orqali o‘qituvchining pedagogik, psixologik, kommunikativ faolligini o‘rganish;
– faoliyatli yondashuv asosida o‘qituvchining bevosita o‘quv-tarbiya faoliyatidagi o‘ziga xos shaxsiy va kasbiy jihatlarini o‘rganishni nazarda tutadi[6, 52-b].

Biologiya o‘qituvchisi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modelining monitoring jarayonining texnologik jihatdan mufassal o‘tishini ta’minlovchi shart-sharoitlar deb nomlangan komponenti monitoring o‘tkazish texnologiyasiga joriy etiladigan didaktik, texnologik, pedagogik va psixologik talablarning bajarilishi talab etadi. Bu talablar monitoring o‘tkazish jarayonida amal qilinadigan asosiy tamoyillarga amal qilishni o‘z ichiga oladi.

Va nihoyat modelning so‘nggi komponenti, ya’ni natijalar tahlili va tashxisi deb nomlangan komponent takomillashtirilgan metodikalar asosida olingan yakuniy natijalar, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini uning o‘z-o‘zini rivojlantirish va yangilangan ta’lim paradigmalari sharoitidagi talabalar asosida “to‘ldirish”, metodik tavsiyalar berishni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligining strukturasi, o‘quv-tarbiya jarayonidagi mohiyatli o‘rni va mazmun-mundarijasini to‘liq aniqlashtirish orqali bu fenomenni ob’ektiv va haryoqalma baholashga bo‘lgan yondashuvlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning ko‘plari biz belgilab o‘tgan strukturaviy majmualarni yuzaga chiqarish uchun zaxiraviy imkoniyatlarga ega emas. O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish texnologiyalari garchi ta’lim paradigmalari natijasida shakllangan talablar o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, ularning mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan variantlari ishlab chiqilmagan va aynan shu voqelik refleksif baholashga asoslangan ushbu modelni qurishimiz

uchun asos bo‘lib xizmat qildi. O‘qituvchi kasbiy kompetentliligi kategoriya sifatida o‘z talqini va tavsiyaiga ega bo‘lgani holda, fenomen sifatida mubhamlik xususiyatiga ega. Ya’ni bu fenomenni miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan ifodalash imkonining kamligi bois, monitoring o‘tkazuvchi shaxslardan tadqiqotning sifatga yo‘naltirilgan usullaridan mohirona foydalanishni talab qiladi. Buning natijasida:

1. Monitoringning yakuniy natijalari statistik metodlarning faqat ayrim o‘rinlarda qo‘llanilishi (faqat raqamli axborotlar olinganda, xususan, fan bo‘yicha kompetentlilikni aniqlashga qaratilgan testlar, ijodiy-topshiriqlar, viktorinalar natijalari umumlashtirilganda).

2. Kasbiy kompetentlilik darajasini ifodalovchi shaklaning ham sifatga yo‘naltirilgan tarzda o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini fenomen sifatida monitoring qilishda miqdoriy usullarning kam qo‘llanilishi bilan bog‘liq ravishda kuzatiladigan ushbu holat monitoringning pirovard maqsadi nuqtai nazaridan o‘zini oqlaydi. Ya’ni asosiy maqsad hisoblangan o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish jarayoni faqat individuallik xususiyatiga ega va olingan natija faqat alohida bir sub’ektga tegishli. Binobarin, natijalar ochiq talqin etilganda monitoringga taklif etilgan o‘qituvchi ularning qanchalik aniq va ob’ektiv ekanligini bilib olishi mumkin. Biz taklif etayotganimiz monitoring texnologiyasida o‘qituvchining barcha kompetentlilik strukturaviy majmualari bo‘yicha natijalari uning o‘z faoliyatini refleksif tashxislash asosida namoyon qilishini nazarda tutadi. Ya’ni o‘qituvchi kasbiy kompetentliligining barcha strukturaviy majmualari bo‘yicha bu majmualarning shakllanganlik darajasini baholashda ko‘proq o‘qituvchining so‘rovnoma, psixologik so‘rovnoma, testlar, suhbatlar, intervyularga bergan javoblariga tayandik. Faqat fan bo‘yicha kompetentlilikning uchta punkti bo‘yicha natija miqdoriy xarakterga ega. Biz o‘qituvchining o‘z faoliyatini refleksif-tahliliy tashxislashi asnosida bergan javoblarini tadqiqotning kuzatish, me’yoriy hujjatlar tahlili, erkin suhbat kabi usullar bilan yanada oydinlashtirdik.

Xulosa. Jamiyat, taraqqiyot va ilm-fan o‘rtasida barqaror aloqadorlik mavjud. Ya’ni ilm-fan taraqqiyot uchun etakchi kuch vazifasini bajaradi va shu barobarida jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Ayni vaqtda, jamiyat taraqqiyot oldiga sifat va miqdor jihatdan yangilangan talablarni qo‘yadi, bu esa “etakchi kuch”ning yanada ravnaq topishi uchun ehtiyoj yuzaga keltiradi. Ilm-fan, taraqqiyot va jamiyat o‘rtasidagi bir-birini rivojlantiruvchilik, bir-birini to‘ldiruvchanlik mazmunidagi bog‘liqliklarning boshlang‘ich nuqtasi ta’lim, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim sifati bilan uzviy va izchil aloqadorlik kasb

etadi. Ya'ni, shu yo'sinda jamiyatda ta'lim paradigmalari yangilanib, barqaror aloqada bo'lgan "uchlik" va ular o'rtasida bog'lovchilik vazifasini bajaruvchi tizim – ta'lim oldiga yangi talablar qo'yadi.

Yangilangan ta'lim paradigmalari ta'lim sifati, o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligi va kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini monitoring qilish, ta'lim parametrlari qatorida, ta'lim tizimini tashkil etuvchi barcha elementlarini mazmunan va mohiyatan o'rganib hamda zarur korreksiyalar kiritib borishni taqozo etadi. Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda biz o'qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish doirasida.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни, ИВ боб, 42-модда, Тошкент, 2019 й, 19 май.

2. Р.Х.Джураев, О.Қ.Толипов ва бошқалар, "Педагогик атамалар луғати", Тошкент – 2008, 42-б.

3. Абдуллаева Г. А., Аллаярова С. Н., Тарбия жараёни сифатини квалиметрик мониторинг қилиш: муаммо ва ечимлар, 65 "Замонавий таълим / Современное образование, 2021, 12.

4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования/ Интернет-журнал "Эйдос" – 2006г, 5 мая.

5. Козирева О.А. Феноменология профессионалной компетентности учителя, 2009, "Наука и образования", №4.

6. Селевко Г.К. Компетентности и их классификатсии // Народное образование. - 2004. - №4.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimidagi holatlar, O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidan keltirilgan fikrlar, O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarni atestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorda belgilangan vazifalarni o'qituvchi kasbi uchun keltirilgan jihatlari, hamda ta'limning bir qator shakllari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрено состояние системы образования на сегодняшний день, идеи из Концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года Кабинета Министров Республики Узбекистан «Дошкольное, общее среднее, среднее специальное». «Меры по совершенствованию порядка аттестации педагогических кадров профессиональных и нешкольных образовательных организаций» содержит мнения и комментарии по аспектам задач, поставленных перед педагогической профессией, а также ряду форм обучения.

SUMMARY

In this article, the situation in the education system today, the ideas from the concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan «Preschool, general secondary, special secondary, «Measures to improve the procedure for the certification of teaching staff of professional and non-school educational organizations» contains opinions and comments about the aspects of the tasks specified for the teaching profession, as well as a number of forms of education.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Raximov I. A.
p.f.n. Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milli markazi direktori

Tayanch so'zlar: kompetensiya, erkinlik, metodologiya, kompetentli yondashuv, uzluksiz ta'lim, tayanch kompetensiyalar, bilimlilik, kasbiy faoliyat, shaxsiy fazilat, pedagogik imkoniyat, tamoyillar.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, свобода, методология, компетентный подход, непрерывное образование, базовые компетенции, знания, профессиональная деятельность, личностная добродетель, педагогические возможности, принципы.

Key words: competence, freedom, methodology, competent approach, continuous education, basic competencies, knowledge, professional activity, personal virtue, pedagogical opportunity, principles.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 25-yanvar kuni ―Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4963 qaror imzolandi.Qarorga ko'ra, xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

O'zbekistonda ta'limni modernizatsiyalash sharoitida professional kadrlarni tayyorlash, ta'lim tizimida pedagogik kompetentligini rivojlantirish muhim sanaladi. Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi

natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda.

Har qanday fan, shu jumladan pedagogika, agar u tobora ko'proq yangi faktlar bilan to'ldirilsa, rivojlanib borishi mumkin, o'z navbatida, ularni to'plash, izohlash, tushuntirish, ilmiy asoslangan tadqiqotlar zarur bo'lgan nazariy printsiplar to'plamiga bog'liq.

Metodologiya komponentlarni tavsiflaydi ilmiy tadqiqotlar uning ob'ekti, tahlil predmeti, tadqiqot vazifalari, ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan tadqiqot vositalarining yig'indisi, shuningdek, tadqiqot vazifalarini hal qilish jarayonida tadqiqotchining harakatlari ketma-ketligi to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Metodologiya haqiqatan ham uslubiy printsiplarda mujassamlangan. Va ular o'z navbatida amaliyotni ilmiy asoslangan ko'rsatmalar va muvaffaqiyatning umumiy mezonlari bilan ta'minlaydilar. Shuning uchun metodologiya tushunchasini tahlil qilish bilan bir vaqtda asosiy uslubiy tamoyillarni ochib berish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni nazariy jihatdan yoritishda uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usullarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi.

Pedagogika (yun. paidagogike) - tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi.

Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish

natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

1. Metodologiya tushunchasini tahlil qilish. Ba’zi tadqiqotchilar metodologiyani struktura, mantiqiy tashkil etish, usul va vositalar tog’risidagi ta’limot deb hisoblashadi. Mashhur pedagogika metodisti V.V. Kraevskiy ushbu sohadagi yutuqlarni sarhisob qilar ekan, «Pedagogikaning metodologiyasi - bu pedagogik nazariyaning asoslari va tuzilishi, pedagogik voqelikni aks ettiruvchi bilimlarni olishning yondashuvi va usullari to‘g’risidagi bilimlar tizimi, shuningdek bunday bilimlarni olish va asoslantiruvchi dasturlar, mantiq va asoslar, usullari maxsus ilmiy pedagogik tadqiqotlar sifatini baholash», V.I. Zagvyazinskiyning fikriga ko’ra, pedagogik metodologiya quyidagilarni o’z ichiga oladi: pedagogik bilimlarning tarkibi va funktsiyalari, shu jumladan pedagogik masalalar to’g’risidagi ta’limot; uslubiy ma’noga ega bo’lgan boshlang’ich, asosiy, fundamental ijtimoiy-pedagogik qoidalar, amaliyotni takomillashtirish uchun olingan bilimlardan qanday foydalanishni o‘rgatish; ijtimoiy-pedagogik qidiruvning mantiq va usullari to‘g’risidagi ta’limot.

Ilmiy bilish uslubi va dunyoni o‘zgartirish haqidagi ta’limot sifatida metodologiyaning boshqa ta’riflari mavjud. Zamonaviy adabiyotda metodologiya ostida birinchi navbatda ilmiy bilish metodologiyasi tushuniladi, ya’ni qurilish tamoyillari, ilmiy va kognitiv faoliyatning shakllari va usullari to‘g’risidagi ta’limot tushuniladi. Pedagogika fanining metodologiyasini pedagogik bilimlar va voqelikni o‘zgartirish bo’yicha nazariy qoidalar to’plami sifatida ko’rib chiqish kerak.

Tegishli adabiyotlar tahlili turli mualliflarning ushbu muammo bo’yicha qarashlari, hech bo’lmaganda, pedagogika metodologiyasining mohiyatini aniqlash nuqtai nazaridan yaqinroq degan xulosaga kelishga imkon beradi: bu nazariya va amaliyot sohasidagi pedagogik faoliyatning tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, usullari va vositalari haqidagi ta’limotdir.

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik kompetetlikning nazariy-metodologik asoslari keyingi o‘n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta’lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e’tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim. Olimlarning fikriga ko‘ra, oliy ta’limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo‘llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv hisoblanadi. Uzluksiz ta’limda o‘qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o‘z-o‘zidan an’anaviy qarashlarni tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko‘nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko‘zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o‘qitish usullari, texnologiyalariga juda ko‘p e’tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta’kidlash mumkin. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko‘zga tashalanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda. Demak, ko‘plab o‘qituvchilarni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolyapti. Ularda zamonga xos tub o‘zgarishlarga mos kelish, munosib bo‘lish kabi sifatlar yetishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya – kompetensiya egasi bo‘lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlari o‘qitish tizimidan ko‘chirib olingan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorlamoqda. Kompetensiya masalasining dolzarbligi shundaki, eng avvalo, o‘qituvchi va pedagogning kasbiy konpetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammosini yechishni talab qiladi. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta’lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat ekanligini ta’kidlash zarur. Aniqrog‘i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi – vakolati zarurligini ko‘ramiz. Pedagogik kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishni uzviy birlashtiruvchi tizim ekanligini ta’kidlaymiz. Hozirgi paytda oliy pedagogik maktabning asosiy vazifasi, biz yuqorida tilga olib o‘tgandek raqobatbardosh, kompetentli

oʻqituvchilar tayyorlashdan iboratdir. Shiddat bilan oʻzgarib borayotgan oliy ta'lim maktablarida ishlay oladigan, oʻz kasbiy vazifalarini mustaqil va ijodiy yecha oladigan oʻqituvchilarga bizning mamlakatimizda ham talab kuchayib bormoqda. Kompetentlikning mezonlari qanday, oʻqituvchi kasbiy tayrgarligi qanday boʻlishi lozim? degan savollarga javob qidiramiz.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar.

Gʻarb psixologlarining kasbiy kompetensiya masalasidagi qarashlari diqqatga sazovor. Xususan, psixologiyaning differensial- diagnostika yoʻnalishi asoschilaridan biri F.Parson har bir inson oʻzining kasbiy qobiliyatlari bilan faqat bir kasbni bajarish layoqatiga ega deb hisoblaydi. V.A.Bodrov kasbiy rivojlanish nazariyasining umumiy qoidalarini umumlashtirgan va tahlil qilgan. Uning mohiyati: "Professionallikning muvaffaqiyati shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining amaliyot talablari bilan muvofiq kelish darajasi bilan belgilanadi. Har bir inson bir qator kasblar talablariga mos keladi". Shu tariqa, professionallikni umumiy ma'noda, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarning, shuningdek, shaxsning neyrodinamik va shaxsiy sifatlarining uygʻunligi deb ta'riflash mumkin. N.E.Kazakova va I.A.Valeyeva ta'rifi boʻyicha professional – bu, mehnat faoliyati jarayonida oʻzini ongli ravishda oʻzgartiruvchi va rivojlantiruvchi, kasbga oʻzining shaxsiy ijodiy ulushini qoʻshuvchi, oʻzining kasbiy faoliyati natijalariga jamiyatdagi qiziqishlarni vujudga keltiruvchi va jamiyatdagi oʻz kasbining obroʻsini oshiruvchi insondir.

Professionalning yana bir muhim sifatlaridan biri bu doimiy oʻz- oʻzini rivojlantirish va oʻz-oʻzini bilimini oshirish qobiliyati, shuningdek, refleksiyaga oid qobiliyatidir. Kasbiy kompetensiyaning mazkur jihatlarining asosi nazariy jihatdan hali maktab davridayoq - ta'lim oluvchilarda oʻz-oʻzini baholash, tahlil qilish va bilimini oshirish koʻnikmalarini shakllantirish yoʻli bilan qurilishi lozim. Pedagogning kasbiy kompetentligini qanday qilib aniqlash mumkin va uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik kompetentligini oshirish bir qator pedagogik-psixologik fanlarni, jumladan: Kasbiy pedagogika, Kasbiy psixologiya, ta'lim texnologiyalari, kasb ta'limi metodikasi, pedagogik mahoratni oʻrganish davomida amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu muammoni hal etilishida pedagogik amaliyotning oʻrni oʻziga xosdir.

Xulosalar. Shunday qilib, xulosa oʻrnida aytish mumkinki, kompetentlik – bu, oʻrganish mumkin boʻlgan (oʻqish davrida yoki amaliyotda) narsa, ya'ni oʻqituvchining pedagogik, psixologik va metodik savodxonlikka egalik darajasi, u yoki bu yosh guruhidagi ta'lim oluvchilar bilan ishlashda amaliy tajribaga egalikdir; kompetensiya esa - pedagog kasbi uchun zarur boʻlgan tugʻma yoki orttirilgan sifatlar: u yoki bu yoshdagi auditoriya bilan ishlay olish koʻnikmasi (har

bir o‘qituvchi, qoidaga ko‘ra, o‘z yosh toifasiga, ya’ni o‘zi uchun ishlashi qulay bo‘lgan yosh auditoriyasiga ega), o‘z fanini o‘rganish qobiliyati, sabr-qanoatlilik, empatiya, psixologik kuzatish va tahlil qilish qobiliyati. Zamonaviy pedagogika fanida o‘qituvchi shaxsini shakllantirish ham psixologik (B.G.Ananyev, A.G.Kovaleva, S.L.Rubinshteyn va boshqalar), ham shaxs (V.A.Slastenin, S.N.Arxangelskiy, L.P.Spirin) nuqtayi nazaridan qarab chiqiladi. Pedagogning kasbiy kompetentligi va pedagogik faoliyatning turli shakllariga oid ta’limni amalga oshirish jihatlariga doir ko‘plab tadqiqotlar mavjud: sinfdan tashqari ishlar tashkil etish, ota-onalar bilan ishlash, tarbiyaviy ishlar, o‘qituvchining didaktik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish, psixotahlil elementlaridan foydalanish qobiliyatlari.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.-https://lex.uz/ru/docs/4910391

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi «2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5544-sonli Farmoni. - https://lex.uz/ru/docs/3913188

3. Toshtemirova, S. A., Muxammadiev, L. G’. (2021). Ta’lim sifati boshqaruvi va bu yo‘nalishdagi xalqaro modellarning o‘ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2(3), 769-777

4. Zagvyazinskiy V.I. va boshqalar.Psixologik usul va metodlar pedagogik tadqiqotlar. - M., 2001 yil.

5. Smirnov V.I. Umumiy pedagogika. - M., 2000 yil.

6. Pedagogika Ed. P.I. Fagot. - M., 1996 yil.

7. Kraevskiy V.V. Pedagogikaning umumiy tamoyillari. - M., 1998 yil.

8. Slastenin M.N. Pedagogik tadqiqotning metodologiyasi va metodologiyasi. - M., 1986 yil.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta’lim tizimida pedagogik kompetenlikni tadqiq qilingan bo‘lib, bunda uning mazmuni, maqsadi va uni bo‘lajak pedagoglarda takomillashtirish zaruryati bo‘yicha to‘xtalib o‘tilgan, pedagogik kompetentlik adabiyotlar tahlili va uning tadqiq qilishning tadqiqot metodologiyasi bayon etilgan hamda bo‘lajak pedagoglarda kompetentlikni rivojlantirishning tamoyillari, usul va vositalari belgilab berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется педагогическая компетентность в системе образования, обсуждаются ее содержание, цель и необходимость ее совершенствования у будущих педагогов, описываются анализ литературы по педагогической компетентности и методика, а также принципы, методы и средства ее исследования; определены пути развития компетентностей будущих педагогов.

SUMMARY

Pedagogical competence in the educational system is researched in this article, in which its content, purpose and the need to improve it in future pedagogues are discussed, pedagogical competence literature analysis and research methodology of its research principles, methods and means of competence development in future pedagogues are described.

MODUL-KREDIT TIZIMI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA`LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH (PROFESSIONAL TA`LIM YO`LALISHLARI MISOLIDA)

Raximboyeva G.I.
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mehanizatsiyalash muxandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti tadqiqotchi

Tayanch so`zlar: kredit, modul, sistema, pedagogik texnologiya, pedagogik kuzatuv, motivatsiya, intelektual potensiya, metod.

Ключевые слова: кредит, модуль, система, педагогическая технология, педагогическое наблюдение, мотивация, интеллектуальный потенциал, метод.

Key words: credit, module, system, pedagogical technology, pedagogical supervision, motivation, intellectual potential, method.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori asosida "Oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida" NIZOM tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA =K1U1+K2U2+K3U3…+KnUn : K1+K2+K3…+Kn ga tengdir.

Bunda: **K** — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori; **U** — har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

Kredit — ta'lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to‘plash — ta'lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut).

O‘qish yuklamasi — talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari — ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko’nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baxolash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Muammoning qo`yilishi: Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma’lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma’ruzalar o‘qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o‘rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo’lib, o’qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o’lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Xorijiy tajribaga ko‘ra, kredit-modul tizimida o‘quv jarayoni har semestrda 2 — 4 tagacha moduldan iborat bo‘ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o‘zaro uzviy to‘ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo‘lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish ¬malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o‘quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- *o‘quv maqsadi hamda vazifalarning to‘liq ochib berilishi;*
- *talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo‘ladigan malakasiga qo‘yiladigan talablar;*

– *modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;*
– *o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.*

Tadqiqot uslubi: Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi. Bilim va ilmning shakllanishi esa bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Natijalar: Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va talaba muloqoti asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olishning asosiy vositasi - bu mustaqil ta'lim materiallaridir. Ular uzviy bog'langan tizim bo'lib, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko'rsatmalar, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o'qish mezonlari, uning o'z-o'zini mustaqil o'qishga yo'naltirib borishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o'z - o'zini baholay olishi uchun psixologik - pedagogik tavsiyalar mavjud bo'ladi. Mustaqil ta'lim materiallari o'quv-uslubiy qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, kompyuter dasturlari, audio va videomateriallar, mavjud an'anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbalari ko'rinishida bo'ladi.[2]

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik ta`limda amaliyotni o`tkazish va baholashni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish amaliyot natijalarining samarali bo`lishini ta`minlabgina qolmay, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan yuqori malakali o`qituvchilarni tayyorlashga zamin

yaratadi. Pedagogik kuzatishlar va faoliyatimiz natijalari quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirishga imkon berdi.

1. Innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotni modulli texnologiya asosida tashkil etish amaliyotchi faoliyatini to`g`ri rejalashtirilishini ta`minlaydi. Shuning uchun har bir modul uchun tuzilgan dastur sodda va amaliyotchi uchun tushunarli bo`lishi, o`rganilayotgan ob`ekt va jarayonning texnologiyasi, jihozlari va muammolarini o`rganishga imkon yaratishi lozim;

2. Modul dasturi asosida har bir moduldagi muayyan topshiriqlarni mustaqil o`rganish va bajarish, amaliyotchida mustaqil ishlash, o`rganish, bilmaganini surash, boshqalar bilan munosabatga kirishish kabi ko`nikmalarni shakllanishiga yordam beradi.

3. Har bir modul bo`yicha o`rganilgan bilimlarni ta`lim muassasasi muammolari bilan bog`liq bo`lgan nazorat topshiriqlarini bajarganligi asosida baholanish orqali, amaliyotchilarning pedagogik sifatlarini shakllanishiga, kasbni o`zlashtirish jarayoniga moslashishiga, sohaga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. -Toshkent, 2001.

3. Boltaeva M.L. Fizika ta’limi jarayonida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish. P.f.n. ... dissertatsiya. Toshkent. TDPU. 2004.

4. Muslimov N.A., Quysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. Toshkent: TDPU. 2006

5. https://daryo.uz/k/2020/08/13

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo`lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon, pedagogik innovatsiya, innovatsion yondashuv, talabalarining pedagogik amaliyot maqsadi, vazifalari, bosqichlari, oliy ta`lim tizimida malakaviy amaliyotni tashkil etish va o`tkazishga doir muammolar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описан процесс подготовки будущих специалистов к работе в новых условиях, педагогическая инновация, инновационный подход, цели, задачи, этапы педагогической практики их студентов, проблемы организации и проведения квалификационной практики в системе высшего образования.

SUMMARY

This article describes the process of preparing future specialists to work in new conditions, pedagogical innovation, innovative approach, goals, objectives, stages of pedagogical practice of their students, problems of organizing and conducting qualification practice in the higher education system.

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Tosheva N.T.
BuxDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi p.f.f.d (PhD), v.b professor

Tayanch so‘zlar: kasbiy kompetentlilik, innovatsion faoliyat, ta’lim-tarbiya, modernizatsiyalashtirilgan ta’lim, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘qituvchining pedagogik ijodkorligi.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, инновационная деятельность, образование, модернизированное образование, инновационная деятельность учителя, педагогическое мастерство учителя, педагогическое творчество учителя.

Key words: professional competence, innovative activity, education, modernized education, teacher’s innovative activity, teacher’s pedagogical skill, teacher’s pedagogical creativity.

O‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirish bugungi kunda o‘qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki o‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlarsiz samarali tashkil etishi mumkin emas. O‘qituvchining innovatsion faoliyati modernizatsiyalashtirilgan ta’lim jarayonida o‘ziga xos xarakterga ega.

Ma’lumki, o‘qituvchining innovatsion faoliyati bilan an’anaviy faoliyati umumiylik va farqli jihatlarga ega. Umumiylik haqida fikr yuritilganda quyidagi holatga alohida e’tibor qaratish lozim. Har ikki yo‘nalishdagi faoliyat ham o‘qituvchilar tomonidan o‘rganiladi, tahlil qilinadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Innovatsion faoliyatning asosiy ko‘rsatkichi shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida kafolatlangan natijani qo‘lga kiritishda ifodalanadi. O‘qituvchining an’anaviy pedagogik faoliyati esa o‘quvchilarga bilimlarni singdirish va ularning o‘zlashtirgan natijalarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu natijalar o‘quvchilarning mustaqillik darajalari bilan emas, balki bilimdonlik darajasini muayyan miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalash bilan belgilanadi. Biroq shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining an’anaviy pedagogik faoliyati bilan innovatsion yondashuvlari o‘zaro mutanosiblikda rivojlanib takomillashib borishi lozim. Innovatsion faoliyatni an’anaviy pedagogik faoliyati uning innovatsion faoliyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin:

– o‘qituvchining pedagogik mahorati;

– o‘qituvchining pedagogik ijodkorligi;
– o‘qituvchining innovatsion usullarni o‘zlashtirishi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida qo‘llash tajribasi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati – uning pedagogika ilmi va o‘z fanini o‘qitish metodikasida mavjud bo‘lgan, ilmiy jihatdan asoslangan usullar, metodlar, texnologiyalarni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash mahoratidir. O‘qituvchining pedagogik mahorati uzluksiz malaka oshirish jarayonida yangiliklarni o‘zlashtirishi va o‘z faoliyatida qo‘llashi natijasida boyib boradi. Muayyan kasbiy pedagogik faoliyat mahoratini egallagan o‘qituvchilar uchun quyidagilar xosdir:

– o‘quv topshiriqlarini ta’lim mazmuni va sinfdagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda tanlay olish tajribasiga egaligi;
– o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini boshqarish va munosib rag‘batlantirish ko‘nikmasining mavjudligi;
– o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini samarali tashkil etish, baholash va teskari aloqani yo‘lga qo‘ya olishi;
– modernizatsiyalashgan ta’lim jarayonini mustaqil tashkil eta olishi;
– o‘z ish uslubi va faoliyat yo‘nalishiga ega bo‘lishi;
– shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jaryonini muvaffaqiyatli tashkil etishi va kafolatlangan natija olish imkoniyatiga egaligi;
– o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatlarini samarali tashkil eta olishi;
– ta’lim jarayonini media, audio-video vositalari bilan tashkil eta olish tajribasini o‘zlashtirganligi kabilar.

Agar o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirmasdan, yangilik kiritmasdan uzoq davr mobaynida bir xilda o‘quvchilarga bilimlarni an’anaviy tarzda taqdim etish asosida amalga oshirsa, o‘qituvchining faoliyati an’anaviy pedagogik faoliyat sifatida baholanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy o‘qitish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ham ta’lim jarayonida yuqori natijalarni qo‘lga kiritishlari mumkin. Shunga qaramay ular o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini egallashlari, mustaqil ishlashlari va ularning shaxsiy erkinliklarini ta’minlashda turli to‘siqlarga duch kelmoqdalar.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga xos bo‘lgan usullardan biri – uning pedagogik ijodkorligidir. Ijodkor o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning muayyan elementlaridan samarali foydalana olish tajribasini o‘zlashtirganliklari bilan ajralib turadilar. Pedagogik ijodkorlik layoqatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z faoliyatlari davomida muayyan ish usullari va didaktik vositalarni modernizatsiyalashtirish,

yangi didaktik vositalarni tanlash, ularni amaliyotda qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy layoqatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Didaktik vositalarni bu tarzda modernizatsiyalashtirish bir qator holatlar bilan belgilanadi:

– o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyat modelini loyihalashtirish;
– alohida mavzular yoki o‘quv kursi bo‘limlari bo‘yicha o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan, ularni mustaqil o‘quv faoliyatiga undaydigan didaktik materiallarni tanlash;
– o‘quv jarayoni loyihalari tarkibiga yangi innovatsion va medio vositalarni qo‘llashni nazarda tutuvchi didaktik birliklarni kiritish;
– o‘quvchilar jamoasi va har bir o‘quvchi bilan alohida ishlash imkonini beradigan didaktik birliklarni tanlash va o‘z o‘rnida qo‘llay olish mahoratiga ega bo‘lish;
– o‘quvchilarning bilimlari va shaxsiy sifatlarini samarali aniqlash va baholash metodikalarini o‘zlashtirish kabilar.

O‘qituvchining ana’aviy hamda innovatsion pedagogik faoliyati orasida alohida o‘tish bosqichi mavjud bo‘lib, mazkur bosqich o‘qituvchining ijodkorligida o‘z ifodasini topadi. O‘qituvchining ijodkorligi uning o‘z malakasini uzluksiz oshirishida muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchining innovatsion usullarni o‘zlashtirishi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida qo‘llash tajribasi, ya’ni uning novatorligi – o‘quv-tarbiya jarayonini o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatlariga yo‘naltirish asosida loyihalash va tashkil etish yo‘llari, vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalarini o‘zlashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir.

O‘qituvchining novatorlik faoliyati uning ana’anviy faoliyatidan tubdan farq qiladi. Bunday faoliyat natijasida o‘qituvchi ta’lim mazmuniga o‘quvchilar va ular yashab turgan hudud aholisining ijtimoiy tajribasini uyg‘unlashtirishga intiladi. O‘qituvchi novatorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun u ishlab turgan ta’lim muassasasi o‘z ish uslubini innovatsion tajribalar asosida muntazam takomillashtirishi va pedagogik jamoaning malakasini uzluksiz oshirish uchun g‘amxo‘rlik qilishi lozim. O‘qituvchining pedagogik tajribalarini o‘zlashtirish sohasidagi faoliyati o‘zining sifat ko‘rsatkichlariga ega. Uning natija berishiga erishish uchun uzoq muddatli va mashaqqatli pedagogik mehnat talab qilinadi.

Pedagogik tajribalarni o‘zlashtirishda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilish lozim:

– shaklan va mazmunan yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va o‘z faoliyatida qo‘llash;
– o‘quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasiga ega bo‘lish;

– o‘quvchilarning bilimlarni faol qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan hamkorlikdagi ta’lim jarayonini tashkil etishga erishish;
– hamkorlikdagi ta’lim jarayonida teskari aloqani yo‘lga qo‘yish asosida kafolatlangan natija olishga erishish kabilar.

O‘qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida maktab rahbarlari ularning faoliyatlarini pedagogik mahorat, pedagogik ijodkorlik hamda o‘qituvchining innovatsion usullarni o‘zlashtirishi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida qo‘llash tajribasiga egaligi, ya’ni novatorlikka ajratgan holda amalga oshirishlari mumkin emas. Chunki o‘qituvchi innovatsion faoliyatining ushbu tarkibiy qismlari bir-birini taqozo qilib yaxlit tarzda rivojlantiriladi.

O‘qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirishda ularning innovatsion faoliyatiga yaxlit pedagogik hodisa sifatida metodologik nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi. Shundagina mazkur faoliyat quyidagi sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi:

1. Kafolatlangan natija olish imkoniyatining mavjudligi – bunda o‘qituvchi pedagogik hamkorlik va erkin muloqot metodidan foydalangan holda o‘quvchilar orasida sog‘lom ijodiy muhitni vujudga keltirish hamda pedagogik jarayonni samarali boshqarish orqali innovatsion faoliyat tajribasini qo‘llash usullarini egallaydi;

2. Innovatsion pedagogik faoliyatning barqarorligi, bunda o‘qituvchi innovatsion faoliyatining muntazamliligi va rivojlanuvchi xarakterga egaligi ta’minlanadi. Ta’lim jarayonini modernizatsiyalash imkoniyatlari kengayishi va chuqurlashishi jarayonida o‘qituvchi ham o‘z faoliyatini uzluksiz yangilash va barqarorlashtirishga intiladi;

3. Innovatsion faoliyatni egallashning qulayligi – o‘qituvchi uzluksiz malaka oshirish asosida bir-biriga o‘zaro muvofiq keladigan usullar, metodlar, texnologiyalar, turli ilmiy manbalar, pedagogik jamoaning boshqa a’zolari, hududdagi ilg‘or o‘qituvchilardan o‘zlashtiradi va o‘z faoliyatida qo‘llaydi;

4. O‘qituvchi faoliyatining yaxlitligi– o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar pedagogik jarayonda ta’lim-tarbiya uyg‘unligini ta’minlashga oid tajribalarni o‘zlashtirish asosida vujudga keladi;

5. O‘qituvchi pedagogik imkoniyatlarining kengligi – o‘qituvchi uzluksiz malaka oshirish tizimida o‘zining pedagogik bilimlari va mahoratini oshirish natijasida bir necha innovatsion usullardan foydalangan holda o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari va mahoratini o‘zlashtiradi;

6. O‘qituvchi nazariy-amaliy bilimlari uyg‘unligining ta’minlanganligi – mazkur yo‘nalishdagi innovatsion faoliyat doirasida modernizatsiyalashgan

ta’lim jarayoni oldida turgan asosiy muammolarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini mohirlik bilan tashkil etish, bunda noan’anaviy uslublardan foydalanish mexanizmlarini o‘zlashtirish nazarda tutiladi;

7. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining istiqbolligi va o‘quvchilarni rivojlantirish imkoniyatiga egaligi – bunday faoliyat jarayonida o‘qituvchi O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy rivojlanish maromini hisobga olgan holda ta’lim jarayoni oldida ijtimoiy buyurtma mohiyatini chuqur idrok etish asosida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirishga oid zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi kerak;

8. O‘qituvchi innovatsion pedagogik faoliyatining izchilligi va uzviyligi– bunday faoliyatni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi yangi pedagogik xarakterdagi bilimlarni izchil tarzda o‘zlashtirib borishi va ular orasidagi mantiqiy uyg‘unlikni anglashi talab etiladi;

9. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining ilmiyligi – bu alohida ahamiyatga ega bo‘lgan holat hisoblanadi. Chunki ilmiy jihatdan asoslanmagan usullarni innovatsion usullar sifatida ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin emas. O‘qituvchi o‘z malakasini uzluksiz oshirishi jarayonida turli ilmiy manbalar yordamida muayyan innovatsion usullarga xos bo‘lgan qarashlar va yondashuvlarning isbotlanganligi, pedagogik nazariyalarning haqqoniyligi va ulardan ta’lim amaliyotida foydalanish imkonini beradigan tavsiyalarning mavjudligi bilan yaqindan tanishishi lozim;

10. Pedagogik innovatsiyalarning maqsadga muvofiq tarzda qo‘llanilishi – o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion usullar obyektiv ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur usullar sinfdagi o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayoniga olib kirilishiga oid pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan o‘qituvchilarni qurollantirish uzluksiz malaka oshirish tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish va muntazam takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni yaratish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir. O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatlarini muntazam rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish uchun mazkur tizimning tarkibiy qismlarini mazmun jihatdan boyitish talab etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilarga quyidagi yo‘nalishlardagi bilimlarni singdirish muhim hisoblanadi:

– o‘qituvchilarni o‘quvchilarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishlarini ta’minlovchi innovatsion usullar bilan qurollantirish;

– o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash mahoratlarini muntazam oshirishga yo‘naltirilgan metodik xizmat mazmunini boyitish;
– o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatlarini davr talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan ta’lim mazmunini nazariy jihatdan asoslash kabilar.

Bunday vazifalarni ilmiy-amaliy jihatdan muvaffaqiyatli hal etish uchun dastlab o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish tizimini ta’lim oldida turgan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda metodologik jihatdan asoslash alohida ahamiyatga ega.

Mazkur qaror Respublikamiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim muassasalari pedagoglariga tegishli bo‘lib, u bilan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi barcha bo‘g‘inlarining:
– tegishli vazirlik va idoralarning bu yo‘nalishdagi vazifa va vakolatlari;
– Davlat test markazining vazifa va vakolatlari;
– vazirlik va idoralarning ilmiy, ilmiy-metodik markazlarning bu sohadagi vazifa va vakolatlari;
– uzluksiz ta’lim tizimi ta’lim muassasalarining (o‘z pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo‘nalishidagi vazifalari;
– xalq ta’limi boshqaruvi mahalliy idoralarining vazifa va vakolatlari;
– qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlarining pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilishdagi vazifalari hamda ish tartiblari aniq va ravshan ifodalangan.

Quyida biz maktab amalga oshirishi lozim bo‘lgan mana shu vazifalardan birinchisi, ya’ni maktab o‘z pedagoglarining kasb malakasi darajasini o‘rganishi masalasini qaraymiz. Shuni ta’kidlash joizki, maktab o‘z pedagoglarining kasb malakasi darajasini o‘rganishda tashkiliy va metodik jihatdan pedagoglar jamoasi, psixologi va metodistlari bilan amalga oshirsa ham optimallikka erishiladi. Bu maktab o‘z pedagog kadrlarini kasbiy kompetentliligini va shu asosda o‘qituvchilarning bilimi, malakasi va ko‘nikmalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni tabaqalashtirish, aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan dastur va topshiriqlarni tuzish ishlarini tuman xalq ta’limi bo‘limlarining tegishli sho‘ba va bo‘linmalari yordamida, ularning bevosita ishtiroki va rahbarligida amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktabda kasbiy kompetentlilikni aniqlashda rasman o‘rnatilgan tegishli o‘quv me’yorlari, ular asosida ishlab chiqilgan mezonlar, talablar, qolaversa dasturlar bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarorlarida “pedagoglarning kasb malakasining haqiqiy darajasini aniqlash”, “pedagoglarning kasb malakasi darajasini o‘rganish” kabi vazifalar belgilangan

bo‘lib, pedagogik adabiyotlarimizda va rasman qabul qilingan va joriy etilgan o‘quv-me’yoriy hujjatlarimizda “kasbiy tashxislash” orqali pedagogik faoliyatni talab qilinuvchi daraja asoslanib taqqoslashni, solishtirib ko‘rishni nazarda tutadi.

Mustaqillik sharoitida Pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonida inson omilini inobatga olish eng avvalo, o‘qituvchilarning har biri va jamoasining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning shaxsi va kasbiy faoliyatini har tomonlama o‘rganishni taqozo qiladi. Bu borada o‘qituvchi kasbiy faoliyatining sir-asrorlarini o‘rganish, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish muhim omil sanaladi. Ma’lumki, inson faoliyatiga salbiy ta’sir qiladigan, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan narsalarni qiyinchilik sifatida qabul qiladi. Agar u bu qiyinchilikni aniq va yetarli belgilay olsa va anglasa, tabiiyki, uni muqarrar ravishda bartaraf qilishga intiladi. Ayniqsa, bunday xhodisalar pedagogik faoliyatga ham tez-tez uchrab turadi.

Binobarin, pedagogik qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash muhim muammo bo‘lib, ularni hal qilmasdan o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirib bo‘lmaydi. O‘z vaqtida yechilmagan qiyinchiliklar, xatolarga ta’lim-tarbiya sifatiga hamda o‘qituvchi ishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy tashxislash guruh va jamoada o‘qituvchilar kasbiy mahoratini o‘rganishning metod va vositalari tizimi sifatida pedagogik qiyinchiliklarni aniqlash, mohiyatini anglash va ularni bartaraf qilishning ta’sirchan yo‘llarini topishga imkon beradi.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini pedagogik tashxislash muhim o‘rinni egallaydi va quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

– o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi har bir bo‘g‘inining imkoniyatlarini aniqlaydi;
– har bir bo‘g‘in faoliyatidagi ijobiy va salbiy jihatlarni o‘rganadi;
– o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishga yordam beradi;
– har bir bo‘g‘inning ta’sir doirasini aniqlab, ular o‘rtasida ikkiyoqlama aloqa shaklini belgilaydi;
– o‘qituvchi faoliyatining ta’sirchan mezonlari aniqlanadi va ishlab chiqiladi;
– o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirishda o‘qituvchi shaxsiy mas’uliyatini oshiradi;
– o‘qituvchi kasb malakasi darajasi uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmani qayd qilib boradi;
– pedagolarning psixofiziologik xususiyatlari bilan ularning motivatsiyasi va malakasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi;
– malaka oshirish tizimi uchun ta’limning optimal mazmuni va maqsadi, shakl, metod va vositalarini aniqlashda yordam beradi.

Pedagogik faoliyatni tashxis qilish uzluksiz bo‘lishi, ya’ni ta’lim muassasasi, fan metod birlashmasi, mahalliy metodik xizmat bo‘g‘inlari va malaka oshirish institutlaridan iborat tizim bilan birga amalga oshirilishi lozim. Bu tizim malaka oshirish mazmuni, shakllari va metodlari bilan uning oxirgi natijasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlab, o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini rivojlanishiga, ta’lim-tarbiyaning takomillashuviga olib keladi.

Pedagogik tashxislash o‘qituvchilar kasbiy mahoratini o‘rganishnng metod va vositalari tizimi sifatida pedagogik jarayondagi kamchilik va qiyinchiliklarni aniqlash, ularning mohiyatini anglash va bartaraf qilishning ta’sirchan yo‘llarini topishga imkon beradi. Shu bilan birga o‘qituvchi faoliyatidagi kuchli va kuchsiz jihatlarni aniqlash, ijobiy tomonlarini o‘stirish va mustahkamlash yo‘llarini belgilashga ham imkon beradi. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatiga aniqlik kiritib, uni ta’lim-tarbiyaning yechilmagan amaliy vazifalarini yechishga undab, o‘quv jarayonini optimal tashkil qilishga zamin hozirlaydi.

Professor K. Zaripovning ta’kidlashicha, pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak:

1) tashxislashning maqsadga yo‘nalganligi va aniqligi;

2) Tashxislash natijalaridan o‘qituvchi faoliyatini tashkil qilishda foydalanish;

3) har bir o‘qituvchini o‘rganishni pedagogik jamoa bilan bog‘liklikda amalga oshirish;

4) tanlangan pedagogik tashxis uslubi, metodi pedagogika fani rivojining hozirgi darajasiga va amaliyotiga mos kelishi;

5) o‘qituvchi faoliyati va shaxsini o‘rganishning tizimli va uzluksizlgi.

Keltirilgan pedagogik tashxislash prinsiplari uzluksiz malaka oshirish tizimining har bir bo‘g‘inida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi kasbiy kompetentliligi rivojlantirish maqsadiga qaratilganligi, uni tashkil qilish shakl, metod va vositalarining doimiy bir-biriga mos kelishini, oxirgi natija-o‘qituvchi kasbiy ehtiyojini qondirishi hamda o‘quv-tarbiya jarayonining sezilarli takomillashuviga olib kelishi bilan belgilanadi. Uning natijalaridan har bir o‘qituvchi faoliyatini tashkil qilishda foydalanish malaka oshirishning shakl, metod, muddatlari, mazmun, mohiyati o‘qituvchilarning yakka, jamoaviy, fan, ijtimoiy yo‘nalish va ma’lumot darajasiga mos kelishi asosida tashkil qilishni taqozo qiladi.

Umumiy talablardan tashqari, pedagog kadrlarga ta’lim turiga ko‘ra alohida talablar qo‘yiladi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim pedagog kadrlariga qo‘yiladigan talablarga ko‘ra o‘qituvchi oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lishi, quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak:

– umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti (umumiy qoidalar) shuningdek o‘qitilayotgan predmet bo‘yicha o‘quv dasturi talablari;
– umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlar;
– sinflar va kabinetlar (laboratoriyalar)ni tegishli o‘quv-laboratoriya anjomlari bilan jihozlash bo‘yicha talablar;
– o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta’minlash prinsiplari;
– o‘quv predmetlarining mazmuni va ularni o‘qitishdagi izchillik asoslari;
– o‘quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasi;
– o‘qitishning interaktiv metodlari;
– o‘quvchilarni milliy mustaqillik g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodologiyasi;
– o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish shakl va metodlari;
– o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan muomalada etika va estetika normalari;
– sinfdan tashqari (darsdan tashqari) ishlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi;
– belgilangan sanitariya-gigiyena normalari.

Amalda bu talablar pedagoglar malakasini oshirishning o‘quv reja va dasturlari asosida ro‘yobga chiqariladi. O‘quv reja va dasturlarning mazmuni mana shu pedagog kadrlarning tayyorlanganligiga qo‘yiladigan talablar asosida shakllantiriladi.

O‘qituvchining pedagogik-psixologik xarakterdagi bilimlarni pedagogik faoliyatining aniq sharoitlarida qo‘llashi alohida shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida malaka oshirish jarayonida kasbiy faoliyatga kirishish jarayonida uning xulq-atvoriga xos bo‘lgan muhim jihatlarni hisobga olish talab qilinadi. O‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish jarayonlarini tashkil etish va uning tarkibini belgilovchi sharoitlar, vaziyatlar, holatlarni aniqlashda mazkur yondashuvlar o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) – Toshkent. 2013.-279 b.

2. Abduquddusov O., Nuriddinov B.S., Kasb ta’limi o‘qituvchilari tayyorlash va malakasini oshirish muammolari. –Toshkent, 2001-yil, -113 b.

3. Avliyoqulov X.N. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2004-67b.

4. Danilchenko “Uchitel i globalnoye obrazovaniye”, Uchitel 2003 g, 64-st.

5. Zaripov K.Z. O‘qituvchi faoliyati va shaxsini pedagogik tashxis asosida O‘rganish. // Xalq ta’limi 2002. 3- son, 83-87b

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmanov S.A. Ta’lim menejmenti.- A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006-yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirish tamoyili asosida pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish shakllarini joriy etish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish kabi masalalar maqsadli tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на основе принципа непрерывного развития профессиональной компетентности педагогов рассматриваются такие вопросы, как внедрение форм повышения квалификации, направленных на удовлетворение профессиональных потребностей педагогов, совершенствование квалификационных требований к их подготовке путем обеспечения интеграция образования, науки и производства проведен целенаправленный анализ.

SUMMARY

In this article, on the basis of the principle of continuous development of the professional competence of teachers, such issues as the introduction of professional development forms aimed at satisfying the professional needs of pedagogues, the improvement of the qualification requirements for their training by ensuring the integration of education, science and production are targeted analysis done

GUMANISTIK YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASIDA TALABALARNING KASBIY VA SHAXSIY RIVOJLANISHI

Tillayev A.X.
"TIQXMMI" MTU
"International House-Toshkent" akademik litseyi direktori

Tayanch so'zlar: kasbiy va shaxsiy rivojlanish, gumanistik yo'nalish, litsey, ta'lim, ta'lim muhiti.

Ключевые слова: профессиональное и личностное развитие, гуманистическая направленность, лицей, образование, образовательная среда.

Key words: professional and personal development, humanistic orientation, Lyceum, upbringing, educational environment.

Dunyo davlatlarining ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilishning zamonaviy bosqichi o'quv jarayonini doimiy tashkil etishning barcha bosqichlarida insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirishning samarali texnologiyalarini izlashga ko'proq tayanadi. Bir tomondan, ta'lim tobora ko'proq tinglovchilarning shaxsiy rivojlanishining individual trayektoriyalarini izlash va amalga oshirishga qaratilgan, boshqa tomondan, shaxsning gumanistik yo'nalishiga asoslangan talabalarning hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Shaxsning gumanistik yo'nalishini shakllantirish jarayonini o'rganishga kelsak, uning shaxsni har tomonlama rivojlantirish g'oyasi va shaxsning jamiyat hayotidagi faolligi bilan bog'liqligini ta'kidlash kerak. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, shaxsni gumanistik shakllantirish g'oyasi ta'lim shakllari va usullariga taalluqlidir.

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning gumanistik yo'nalishini shakllantirish va insonning shaxsiy qadr-qimmatini, uning rivojlanish huquqini, erkinligini, qobiliyatlarini namoyon etishini, baxt va mustaqillikni tan oladigan tarixiy rivojlangan qarashlar tizimi bo'lgan, inson manfaati asosiy hisoblangan gumanistik ta'limni amalga oshirish o'rtasida chuqur bog'liqlik o'rnatiladi.[7, 7-bet].

Ta’lim amaliyotida shaxsning gumanistik yo’nalishini shakllantirishga turli xil yondashuvlar amalga oshiriladi, ularning aksiologik asoslari asosiy kontseptual g’oyalar to’plamidir:

– shaxsning individual rivojlanishining tabiatga muvofiqligi va madaniy muvofiqligi;
– inson tabiatining dialogikligi;
– shaxsning bilimdon ongining sub’ektivligi;
– shaxsning hayot vaqtini idrok etishining sub’ektivligi;
– ta’limning ochiqligi va pedagogik voqelikda gumanistik g’oyalarni amalga oshirishning turli shakllari, vositalari va sohalari.

Ushbu qoidalar universaldir, shu bilan birga ular dunyoning milliy-madaniy ko’rinishlarida talqin qilinadi va tarixiy voqelik bilan bog’liq.

Aksiologik asoslar ta’lim tushunchalarining xilma-xilligini shakllantiradi, insonparvarlik pedagogikasi dastlab pedagogik faoliyatning turli shakllari va vositalarini va har qanday konsepsiya yoki texnologiyani mutlaqlashtirishdan bosh tortishni o’z ichiga oladi degan fikrni tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsiyatning gumanistik funksiyalarini amalga oshiradi, masalan, shaxsiy va kasbiy o’sish uchun imkoniyatlarni ta’minlash, insonning ijodiy individualligini, o’z-o’zini rivojlantirish va uning ma’naviy salohiyatini ochish uchun sharoit yaratish funksiyalari.

Shaxsning gumanistik yo’nalishini shakllantirish maqsadga yo’naltirilgan ijodiy yondashuvni amalga oshirishni o’z ichiga oladi va ta’lim muhitida, ularsiz pedagogik yondashuvning barcha ishtirokchilari o’rtasida insoniy teng huquqli munosabatlarni o’rnatish mumkin emas. Bu yaxlit shaxsni tarbiyalash uchun sharoit yaratishni, o’quvchilarni o’z hayotining sub’ekti sifatida rivojlantirishni, shu jumladan, kasbiy faoliyatga «qo’shilish» ga moyillikni shakllantirishga tayyorlikni anglatadi. Shu bilan birga, ta’lim muhitining o’zi talabalarning shaxsiy rivojlanishida omil va manba bo’lishi kerak.

Biz ijtimoiy-madaniy makonning bir qismi sifatida «ta’lim muhiti» ning umumiy qabul qilingan ta’rifiga, ta’lim tizimlarining o’zaro ta’sir zonasiga, ularning turli xil elementlariga, o’quv materiallariga va ta’lim jarayonlari sub’ektlariga rioya qilamiz. Ta’lim muhiti katta murakkablik o’lchoviga ega, chunki u rivojlanishning bir necha darajalarini o’z ichiga oladi: federal mintaqadan ma’lum bir ta’lim muassasasining ta’lim muhitiga qadar [5].

L. N. Berejnova o’z tadqiqotlarida ta’lim muhiti inson rivojlanishini qo’llab-quvvatlovchi sharoitlarni tashkil etish uchun inson hayotini o’zgartirishga qaratilgan inson amaliyotining o’ziga xos shakli ekanligini ta’kidlaydi, bunda unga o’z hayotining muhim vazifalari va ta’lim vazifalarini hal qilish,

shuningdek, insonga bu dunyoda hayotni va o'zini bilishga imkon berishi uchun turli xil imkoniyatlar beriladi. [2, V.48].

V. I. Slobodchikov va E. I. Isaev ta'lim muhitini o'quv jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi faoliyati deb bilishadi. Shuning uchun biz, ta'lim muhiti ishtirokchilari faol pozitsiyani egallashi kerak, deb aytishimiz mumkin. Bu V. I. Slobodchikov tomonidan ishlab chiqilgan va o'quv jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim muhitining antropologik va psixologik modelining asosidir. Model muallifi asosiy parametrlar sifatida ta'lim muhitining to'yinganligini (resurs potensiali) va uning tuzilishini (uni tashkil etish usuli) ko'rib chiqishni taklif qiladi [6, 156-bet].

Shu bilan birga, V. I. Panovning fikricha, ta'lim muhiti-bu pedagogik va psixologik sharoitlar va ta'sirlarning butun tizimi bo'lib, ular hali namoyon bo'lmagan qiziqish va qobiliyatlarni ochish uchun ham, allaqachon rivojlangan qobiliyatlarni va talabalarning shaxsini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.[4, V.69].

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining International House-Tashkent akademik litseyida gumanizmga yo'naltirilgan, rivojlanayotgan ta 'lim muhitini barpo etish kontekstida maqsadli ta'lim ta'sirlari majmuasi amalga oshirilmoqda.

Litseyda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning maqsadi O'zbekistonning axloqiy, mas'uliyatli, tashabbuskor va barkamol fuqarosi tarbiyasini har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lib, u doimiy shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga qodir.

Tarbiyaviy ishlarning vazifalari quyidagi ketma-ketlikda tuzilgan:

- asosiy va qo'shimcha ta'limni birlashtirish orqali litseyning yagona ta'lim makonini shakllantirish;
- jamoalarda tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish;
- talabalar shaxsini tarbiyalash, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish dasturini joriy etish orqali asosiy milliy qadriyatlarni shakllantirishni davom ettirish;
- talabalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, ularga sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini singdirish, voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish;
- bolalarning ijtimoiy harakatlari va talabalarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish orqali litsey o'quvchilarida ijtimoiy tashabbus, ijodkorlik, mustaqillikni qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatning turli sohalarida o'quvchilarning ijodiy faolligini namoyon etish va rag'batlantirish uchun sharoit yaratish;

– uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish; ta’lim darajalari va bosqichlarining uzluksizligi;
– tadqiqot va loyiha faoliyatini qo’llab-quvvatlash;
– amaliy faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar va tarbiyaviy ish usullarini o’zlashtirish va ulardan foydalanish;
– talabalarning o’zini o’zi boshqarishning turli shakllarini rivojlantirish.

Maqsad va vazifalarni amalga oshirish talabaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo’shadigan yagona gumanistik yo’naltirilgan ta’lim muhitini yaratishni o’z ichiga oladi.

Ta’lim dasturiga muvofiq darsdan tashqari ishlar umumiy madaniy yo’nalish (fuqarolik - vatanparvarlik tarbiyasi, ekologik ta’lim) yo’nalishlari bo’yicha amalga oshirildi; (jismoniy tarbiya va sog’lomlashtirish ta’limi).

Litsey o’quvchilari nafaqat o’quv jarayonida qatnashadilar, balki - «Jurnalistika», «Zakovat», «Matematika», «Fizika» va «Ingliz tili», shuningdek, «Koreys tili», «Yapon tili» va boshqa to’garaklarda faol ishtirok etishadi, ular shaxsning har tomonlama rivojlanishiga erishishga qaratilgan qo’shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda muhim rol o’ynaydi, uning imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga intiladi.

Shu nuqtai nazardan, D. I. Feldshteynning o’sib borayotgan shaxs shaxsiy jihatlarining rivojlanishi haqidagi konsepsiyasi dolzarbdir [8]. Ushbu yondashuvga muvofiq, shaxsiyat ijtimoiy mavjudlikning yakuniy ma’nolarini amalga oshiradigan markazdir. Shu bilan birga, dialektika shundan iboratki, insonning o’zini o’zi anglashi ijtimoiy, bu esa faqat shaxsning o’zini o’zi anglashi orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy o’sish faktlarini anglash o’z-o’zini anglash yo’nalishlari va imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Ko’rib chiqilayotgan muammoga muvofiq, mahalliy psixolog I. D. Behning tadqiqotlari insonparvar, erkin va mas’uliyatli shaxsning rivojlanishi uning ma’naviy qadriyatlari tizimi bilan bevosita bog’liqligini ta’kidlaydi, chunki ma’naviyat xudbin manfaatlardan, shaxsiy manfaatlardan tashqariga chiqishni va insoniyatning axloqiy madaniyatiga e’tibor qaratishni o’z ichiga oladi. Shunday qilib, ma’naviy jihatdan yetuk shaxsning niyatlari individual qadriyatlar tizimida mavjud bo’lib, ular hayotda yo’naltirishning eng yuqori mezoni va shaxsiy o’zini o’zi belgilash uchun qo’llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. I. D. Behning konseptsiyasi insonni eng yuqori qadriyat sifatida tasdiqlashdan iborat bo’lib, uning atrofida boshqa jamoat ustuvorliklari jamlangan [3, 45-bet].

Gumanistik yo’naltirilgan ta’lim jarayonini shakllantirish kontekstida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim muhitini modellashtirish kerak, uning tashkil etilishida quyidagi pozitsiyalar belgilanadi:

– to’g’ridan-to’g’ri amalga oshirilgunga qadar o’quv jarayonini tashkil etish shakllari, usullari, vositalari va texnologiyalarini belgilash;
– modellashtirish va prognozlashdan ta’lim jarayoni, uning natijalari diagnostikasini ta’minlash;
– o’quv jarayoni sub’ektlari va ularning tarkibiy qismlarining shaxslararo munosabatlari darajasini o’rganish, ularni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish usullari va vositalarini ajratib ko’rsatish;
– o’quv motivatsiyasining mavjudligi, o’quv jarayoniga jalb qilingan shaxsning kuchini aniqlash;
– ta’lim muhitini rivojlantirish samaradorligini, qo’yilgan pedagogik muammolarni hal qilish samaradorligini tahlil qilish.

Ushbu pozitsiyalar litseyning samarali o’quv jarayonini qurishga qaratilgan, o’quv vazifalarining butun majmuasini hal qilishga, o’quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanish resurslarini aniqlashga qaratilgan strategiyalar sifatida qabul qilinishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества // Монография. - М.:МАКС Пресс, 2016. – 115 с.

2. Бережнова Л.Н. Полиэтническая образовательная среда. – СПб.: Питер, 2003. – 366 с.

3. Бех И.Д. Рефлекция психического здоровья у старшеклассников. – Запорожье: Липс ЛТД, 2010. – 234 с.

4. Панов В.И. Одарённость как проблема современного образования // Психология сознания: современное состояние и перспективы. Материалы I Всероссийской конференции. – Самара, 2007. – С. 67–82.

5. Педагогический терминологический словарь. – СПб.: Российская национальная библиотека, 2006.

6. Слободчиков В.И. Психология человека / В.И. Слободчиков, Е.И. Исаев. – М.: Школа-пресс, 1995. – 384 с.

7. Трушников Д.Ю. Воспитание в вузе: гуманистический аспект. – Тюмень: ТюмГНГУ, 2006. – 132 с.

8. Фельдштейн Д.И. Психология развития человека как личности // Избранные труды: в 2 т. – М.: Воронеж, 2005. – Т. 1.

9. Hardy K. The teacher as counselor in the teaching-learning process. Epitheorisi Symvouleftikis kai Prosanatolismou, No. 46-47, 1998, p. 33-63

10. Swan, D.; Leydon, M. Teacher induction. Standing Committee of Teacher Unions and University Education Departments; Dublin, 1997, 73 p.

РЕЗЮМЕ

Maqolada kasbiy ta’lim muassasasining ta’lim muhitida gumanistik yondashuvni amalga oshirishga qaratilgan pedagogik sharoitlar va yondashuvlar ochib berilgan, ta’lim texnologiyalari talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini boshqarish kontekstida ko’rib chiqilgan. Nazariy qoidalar TIQXMMI “International House-Tashkent” akademik litseyi (O’zbekiston) da o’quv jarayonini tashkil etish misollari bilan tasvirlangan.

РЕЗЮМЕ

В статье раскрываются педагогические условия и подходы, направленные на реализацию гуманистического подхода в образовательной среде профессионального образовательного учреждения, рассматриваются образовательные технологии в контексте управления профессиональным и личностным развитием обучающихся. Теоретические правила иллюстрируются примерами организации образовательного процесса в академическом лицее «Международный Дом-Ташкент» (Узбекистан).

SUMMARY

The article reveals the pedagogical conditions and approaches aimed at implementing a humanistic approach in the educational environment of a vocational education institution, and considers the technologies of education in the context of managing the professional and personal development of students. The theoretical provisions are illustrated by examples of the organization of the educational process in the International House-Tashkent Lyceum tiiimsh (Uzbekistan).

TALABALARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI O'QITISH JARAYONINI TASHKIL QILISH

Akobirova M.B.
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: metodik ta'minot, raqamli texnologiya, yondoshuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, integrativ yondoshuv, psixofiziologik xususiyatlar, gomogen guruhlar, kontseptual qoidalar.

Ключевые слова: методическое обеспечение, цифровые технологии, подход, современные педагогические технологии, инновационное образование, интегративный подход, психофизиологические характеристики, однородные группы, концептуальные правила.

Key words: methodological support, digital technology, approach, modern pedagogical technologies, innovative education, integrative approach, psychophysiological characteristics, homogeneous groups, conceptual rules.

Kirish. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim jarayoni sifatini yaxshilash, axborot metodik ta'minotni takomillashtirish, ilg'or tajribalar va raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish borasida muhim isholotlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini turli yondoshuvlar asosida takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ko'tarishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bizga ma'lumki "Yondoshuv" bu – ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'tkazish va baholashda o'qituvchining munosabati, qo'llaydigan qoidalari, usullari majmuidir.

Izlanishlarimiz doirasida ta'lim jarayoni qo'llaniladigan quyidagi turli yondoshuvlarini o'rganib chiqdik:

An'anaviy yondoshuv. Ushbu yondoshuv eng keng tarqalgan bo'lib, uning asosiy xususiyati bu o'qituvchi o'qitadigan fani mavzusi bo'yicha o'quv materiali mazmunini turli metodlarni qo'llab tushuntiradi, amaliy faoliyatni ko'rsatib beradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi, amaliy harakatlarni namoyishlar asosida

bajaradi , takrorlaydi. O'qituvchi savol beradi talaba javob beradi, O'qituvchi topshiriq beradi talaba bajaradi, O'qituvchi talaba bilimini va ko'nikmasini ishlab chiqilgan mezonlardan foydalani baholaydi. An'anaviy o'qitishda talabaning fanni o'zlashtirish darajasi, ta'lim sifati haqida o'qituvchi aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. An'anaviy yondoshuvni takomillashtirish sohasida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnika va texnologiyalar, bilimlarning kun sayin yangilanishi ta'lim jarayoniga boshqa yangi yondoshuvlarni qo'llashni ham talab qilmoqda.

An'anaviy yondoshuvning pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'limdan farqli jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari Q.T. Olimovning "Pedagogik texnologiyalar" kitobida batafsil yoritilgan(1).

Tizimli yondoshuv. Tizimli yondoshuv ham ta'limda keng tarqalgan bo'lib ta'lim jarayonini yaxlit majmua sifatida o'rganishga asoslangan metodologiya, ilmiy anglashni ta'minlovchi yo'ldir. Tizimli yondoshuvda ta'lim jarayoni ichki va tashqi aloqalarining integratsiyalashgan xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Ta'lim jarayonining ichki tuzulishini, uning tarkiblarini tizimli ta'minlashuvini belgilash uchun xizmat qiladi.

Texnologik yondoshuv. Texnologik yondoshuvning asosini texnologiya tushunchasi (mahorat, san'at) tashkil qiladi. Texnologik yondoshuvda ta'lim jarayonini o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar, modullarga bo'lishni, farazlar yoki amallarga ajratish, o'quv natijasiga erishish uchun bajariladigan harakatlarni tartiblashtirish va muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni loyihilashtirish nazarda tutiladi. Bu yondoshuvda ta'lim jarayonidagi tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldindan rejalashtirish va belgilangan qoidalar asosida ketma ketlikda bajarish amalga oshiriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv. Bu yondoshuv asosida ta'lim mazmunini loyihalashtirishda asosan talabaning individual xususiyatlarini , o'zlashtirish imkoniyatlarini inobatga olinadi. Talabaga o'quv materialining mazmunini o'zi tanlashiga, mustaqil o'rganishga va o'z-o'zini baholashga imkoniyat yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik ta'sirlar talaba shaxsini rivojlantirishga qaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi tamoyillarga tayanadi (1):

– shaxsning mavqei tan olinadi, sub'ektiv tajriba tarqatuvchi sifatida talaba faol qatnashadi va o'z-o'zini baholaydi;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish quyidagi shart-sharoitlar va talablar bilan qondirilishi kerak:

– ta'lim jarayonida barcha sub'ektlarni rivojlantirish, talabalar ustalar, o'qituvchilar, boshqaruv xodimlar uchun sharoit yaratib berish;

– ta’limi jarayonida shaxsning kasbiy kerakli zarur xislatlariga e’tibor berish va ularni rivojlantirish;
– shaxsni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik va psixologik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish;
– ta’lim sub’ektlarini himoya qilish, talabalar yutib chiqishlari uchun vaziyatlar tashkil etish;
– ta’lim sub’ektlarini kasbiy rivojlantirish uchun o’quv-uslubiy yordam ko’rsatish, doimiy va tez tashxisini tashkil etish;
– ta’lim jarayonida har bir talabaning sub’ektiv tajribasi ko’zda tutiladi;
– talabaning shaxs sifatida rivojlanishi faqatgina uning me’yoriy faoliyati bilan shug’ullanishdangina qoniqmaydi, doimiy ravishda tajriba orttirib o’z qobiliyatini rivojlanish manbaini kengaytirib boradi.

Innovatsion yondoshuv. Innovatsiya tushunchasi bu-yangilanish, o’zgartirish; yangilik kiritish; yangilikni o’zlashtirish jarayonidir. Ya’ni biron bir tizimning ichki tuzilishini o’zgartirish bo’lib, o’z ichiga ilmiy g’oyalar, texnologiyalar, metodlar va ularning amaliyotga kiritilishidir. Innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish orqali pedagogik tizimga o’zgartirish kiritiladi va taьlimda yuqori darajalarga erishish mumkin.

Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni sekinlik bilan, bosqichma – bosqich kiritish, uni qanchalik samara berishini atroflicha o’ylab, o’lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni tartibsiz, oldindan natija olishni mo’ljallamay amalga oshirish o’ylangan natijani bermasligi mumkin. Yuqori natijalar beradigan yangi g’oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma’nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish bugungi kun talabidir.

Innovatsion ta’lim o’qituvchi va talabaga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o’z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Integrativ yondoshuv. Hozirgi davrda ta’limda integratsiya jarayonining muhimligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda.

Ta’limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona, barqaror, umumlashgan-yaxlit tizimni hosil qilish degan ma’nolarni anglatadi.

Z. To’xtaevaning fikricha Ta’lim integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarni fanlararo bog’lanishi, balki o’qitish texnologiyalari, metod va shakllari integratsiyasi tushuniladi (2).

Integrativ yondoshuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko’nikma, malaka va tajribani integratsiya qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, fanlararo, modullararo

va mavzulararo aloqadorlik o'rnatilishi natijasida ta'lim samaradorligiga erishiladi.

Yuqoridagi yondoshuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir yondoshuvning o'ziga xos xususiyati afzalliklari mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Biz o'z tadqiqotlarimizni tabaqalashtirilgan yondoshuvni "Texnologik ta'lim" yo'nalishi bo'yicha amalga oshirishga qaratdik.

Tabaqalashtirilgan ta'lim — bu talabalarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o'quv dasturlar asosida olib boriladigan ta'lim turidir.

Pedagogikada o'quv jarayonini tabaqalashtirishning uch asosiy shakli keng tarqalgan: 1) ichki, ya'ni har bir guruh ichida; 2) tashqi, ya'ni maxsus o'quv imkoniyatlarini inobatga olgan holda; 3) individual shakli.

O'qitishni tabaqalash bu – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir (3).


Tabaqalashtirish yondoshuvda har bir talabaga tanlash imkoniyatining berilishi natijasida mustaqil faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib, o'z kasbiy sifatlarini shakllantirishni o'zi boshqara olishiga imkon beradi. Tabaqalashtirishda talabalarning qiziqishlari, xohish-istaklari, psixofiziologik xususiyatlari, o'zlashtirish imkoniyatlari, qobiliyatlari va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olinishi lozim.

Gomogen guruhlarda o'qitish – bu guruxda turli qobiliyatlarga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarning barchasi uchun o'zlarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va o'qishda muvoffaqiyatga erishish uchun barcha sharoitlarni yaratish shaklidir (4).

Biz tomondan oliy ta'lim muassasalarining "Texnologik ta'lim" yo'nalishida tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida o'qitish jarayoni tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasm). Tuzilmani qisqacha mazmunini ochib beramiz.

Tabaqalashtirilgan yondoshuvni amalga oshirishdan maqsad talabalarni qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirish orqali har bir talabadan yetarli bilim, ko'nikma va malakani shakllantitrishga erishish hisoblanadi. Vazifalarga guruhdagi talabalarni tahlil qilish, ularni qobiliyatiga ko'ra tabaqalariga ajratish, ta'lim muassasidagi sharoitlarni o'rganish, o'quv – metodik ta'minotni ishlab chiqish va ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazish kiritildi.

Kontseptual qoidalarga talabalarning o'qitilish darajasini tanlash huquqini tan olish, qiziqtirish, talaba o'qishdagi yutuqlarini his qilishi lozimligi kiradi. So'ngra xilma-xil o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.Bunda asosiy o'quv masadi o'zgarmasligi kerak. Ya'ni talabaning muayyan fan bo'yicha egallashi kerak



1 rasm.Tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida o'qitish jarayoni tuzilmasi.

bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bajarilishi kerak.

Tabaqalashtirilgan o'qitishda o'qitish jarayoni talabalarning gomogen guruhlarida bo'lib amalga oshiriladi. Mazkur yondoshuvda talabalarning talabalarni turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun tabaqalashtirish metodik, psixologik, pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlardan iborat shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda muassasadagi imkoniyatlar chuqur o'rganilishi kerak. Har bir gomogen guruhda amalga oshiriladigan ta'lim shakllari, metodlari va vositalari ishlab chiqiladi. O'qituvchidan har bir gomogen guruhdagi o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqishi talab etiladi. Ta'lim jarayoni yakunida har bir guruhdagi o'zlashtirish natijalari tahlil qilinadi. Zaruriyat tug'ilganda qo'shimacha mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

Tabaqalashtirilgan ta'limda asosiy o'quv predmetlari mazmunini chuqur o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida talabalar tanlangan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishadi.

Adabiyotlar:

1. Olimov K.T. va boshkalar. Pedagogik texnologiyalar.O'quv qo'llanma.Toshkent-2011y.
2. To'xtaeva Z. Sh. Oliy ta'limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash metodikasi. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish bo'yicha diss. Avtoreferati. Toshkent 2021 y.
3. Avliyokulov N.X. Yangi pedagogik texnologiyalar. Darslik.Toshkent.2000y.

4. https://yacht-sail.ru/chto-znachit/cto-znacit-gomogennoe-obrazovanie

5. Madina Bo'ronovna Akobirova, Mirjon Sharopov Nurxono'g'li, Teaching technology of hands crafts subject into English language. Asian Journal of Multidimensional Research, 2021. P-1549-1555

6. Отстающие в учении школники: проблемы психического развития / З.И. Кальмикова, И.Ю. Кулагина ред.ост. - Москва: 1986.

7. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательних технологий. В 2-х т. Т. 1. – М.: Народное образование.

REZYUME

Ushbu maqolada oliy ta'lim muasasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondoshuvni amalga oshirishning mohiyati, mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Ushbu yondoshuv talabalarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o'quv dasturlar asosida olib boriladigan ta'lim turi bo'lib, u uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыта сущность, содержание и значение реализации дифференцированного подхода в развитии профессиональной подготовки студентов в высших учебных заведениях. Данный подход представляет собой вид обучения, осуществляемый на основе отдельных образовательных программ с учетом способностей обучающихся, и означает создание различных условий обучения в разных однородных группах на основе комплекса методических, психолого-педагогических и организационно- управленческая деятельность.

SUMMARY

This article describes the essence, content and importance of the implementation of a differentiated approach in the development of professional training of students in higher education institutions. This approach is a type of education carried out on the basis of separate educational programs, taking into account the abilities of students, and it means creating different conditions for teaching in different homogeneous groups based on a set of methodological, psychological-pedagogical and organizational-management activities.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING MODIFIKATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mirzakulova N.I.
Buxoro davlat pedagogika instituti tayansh doktoranti

Tayansh so'zlar: pedagogik amaliyot, modifikatsion yondashuv, bilimni baholash, kasbiy ko'nikma, o'zgartirish, modellashtipish takomillashtirish, loyihalashtirish, maqsadli komponent, sifatini oshirish.

Ключевые слова: педагогическая практика, модификационный подход, оценка знаний, профессиональные навыки, изменение, моделирование совершенствования, проектирование, целевой компонент, повышение качества.

Key words: teaching practice, modification approach, knowledge assessment, professional skills, change, improvement modeling, design, target component, quality improvement.

Kirish. O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqishlarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o'zining samarasini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida xususan yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yuksak e'tibor qaratildi.

Oliy ta'lim muassasalarining "Texnologik ta'lim" yo'nalishlari bo'yicha talabalarni ta'lim sohasiga muvaffaqiyatli tayyorlash vositalaridan biri, kasbiy faoliyatga yuqori darajada yaqinlashtiradigan eng muhim jarayonlardan biri malakaviy pedagogik amaliyot hisoblanadi.Pedagogik amaliyot o'quv jarayonini tashkil qilish shakli hisoblanib, talabalarni kelgusi kasbiy faoliyat bilan tanishishga, kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash va mustaqil faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy, malakaviy ish tajribasini egallashga imkon yaratadi.

Malakaviy amaliyotning maqsadi oliy o'quv yurtida o'qish davrida umumta'lim maktabi sharoitida nazariy, ilmiy-metodik va amaliy tayyorgarlik bazasida bo'lg'usi kasbiy faoliyatni modellashtirish, talabalarda ta'lim muassasalarida "Texnologiya" fani bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish uchun zarur kasbiy malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarda malakaviy amaliyot kasbiy faoliyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlarda tashkil etiladi va talabalar tomonidan umumtexnika va servis xizmati sohasi mutaxassisi saviyasi talablariga mos

kasbiy faoliyatni egallashlarining uzluksizligi va ketma-ketligini ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Pedagogik amaliyot bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisiga pedagogik faoliyat yuritishni o‘rgatish, hayotiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilar bilan muloqot qilishi va ularning bilimini baholash malakasini shakllantirish imkoniyat yapatadigan ta’limiy muhit bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik amaliyot jarayonida ta’lim oluvchilar pedagogik madaniyat va mahoratga xos bo‘lgan me’yorlap, qoidalar, ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar va ta’lim oluvchilar bilan munosabat o‘rnatish qobiliyatlariga ega bo‘ladilar.


Bugungi kunda zamonaviy ta’lim talablari va ish beruvchilari ehtiyojlari pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik adabiyotlarda modifikatsion yondashuv - bu o‘quv dasturi, ta’lim, mazmuni, miqdori va o‘qitish jarayonidagi o‘zgartirishlarni anglatadi. O‘zgartirishlar malaka talablari va ta’lim va standartlarini ham o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Ba’zi hollarda guruhdagi talabalarning bir qismi bir xil o‘quv mazmunini o‘zlashtirishlari kutilmaydi. Bu talabalar guruhidagi qolgan a’zolari o‘rganayotgan o‘quv materialini o‘zgartirishni, ularni qanday baholashni ham o‘zgartirishni talab qilishi mumkin. O‘quv materiali talabaning o‘zlashtirish imkoniyati va qobiliyatiga moslashtiriladi. Shuning ushun ham ta’limda modifikatsion yondashuvni amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, o‘zgartirishlarni amalga oshirishdan oldin barcha oqilona strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Biroq, o‘zgartirishlar alternativ shakl sifatida belgilanishi tavsiya etiladi. Biz tadqiqotlarimiz doirasida “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish alternativ shaklda amalda oshirdik.

Biz izlanishlarimiz davomida pedagogik amaliyot jarayonini modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan modelini ishlab chiqishdan oldin modellashtirish tushunchalariga to‘xtaldik.

N.A.Muslimovning fikricha, pedagogik ob’ektlarni modellashtirish, shu jumladan, kasbiy ta’lim va kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ham, ob’ektni real ob’ekt, jarayon, hodisalarga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlarga mos keluvchi ko‘rsatkichlarda ifodalangan omillar tizimida keltiruvchi konseptual modellar ishlab shiqishni nazarda tutadi.Bunday konseptual modellarda tuzilmaviy, genetik va funksional modelning asosiy komponentlari sifatida kiritiladi. [1].

Yu.K.Babanskiy fikriga ko‘ra “Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish ko‘rgazmalilikni eng yuqori va maxsus shakli, ma’lumotni buyurtma qilish



1-Rasm. “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yisha pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘tkazish modeli

vositasi sifatida ishlaydi, bu esa o‘rganilayotgan hodisaning mohiyatini

chuqurroq ochib berishga imkon beradi" [2].

M. Movlonov dissertatsiya ishida pedagogik modellashtirish mavhumroq bo‘lib professor o‘qituvchiga ta’lim jarayonini o‘rganish va uni texnologik darajada tashkil etish imkonini beruvchi o‘ziga xos vosita vazifasini bajarishi keltirib o‘tilgan. [3]

Bizning fikrimizcha modellashtirish bu yangi yoki takomillashtirilgan o‘quv jarayonini loyihalashtirish va natijalarni prognoz qilish bo‘yicha yaxlit modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tarkibi va mazmuni jihatidan har qanday model ma’lum bir yaxlitlikni ifodalaydi, shuningdek, ta’lim oluvchining kasbiy shakllanishiga va rivojlanishiga qaratilgan o‘quv jarayoni va amaliyotni, hamda talabalarning ijtimoiy va amaliy faoliyati mazmunini o‘z ishiga oladi.

Biz tomondan amalda foydalanilayotgan pedagogik amaliyot dasturi tarkibida barcha faoliyatlar tarkibi, hajmi va mazmuni, didaktik vositalar va baholash jarayoni to‘liq o‘rganildi. Tadqiqotimiz davomida pedagogik amaliyot dasturi tuzilishiga, hajmiga va mazmuniga kiritiladigan o‘zgartirishlar ishlab chiqildi. Shuningdek, pedagogik amaliyotlarni o‘tkazishning an’anaviy, tizimli va mustaqil amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ko‘rib chiqdik. Bizning tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan "Texnologik ta’lim" yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘tkazish modeli (1-rasm) butun amaliyot jarayoni elementlari o‘zgartirilgan yaxlit ob’ekt sifatida ifodalangan.

Modelning asosiy komponentlari, ya’ni ijtimoiy buyurtma, maqsad, vazifalar, modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini tashkil etish va o‘tkazishning shart-sharoitlari, talabalarning amaliyot davrida shakllantirilgan ko‘nikma va malakasini baholash mezonlari va darajalari hamda natijaviy komponentlar belgilandi.

Ijtimoiy buyurtma. Oliy ta’lim muassasasi "Texnologik ta’lim" yo‘nalishi talabalarining pedagogik amaliyotida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qo‘yiladigan malaka talablari nazarda tutilgan.

Maqsadli komponent talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini samarali shakllantirish maqsadida pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda bitiruvchilar pedagogik faoliyat yuritish bo‘yicha kasbiy malaka va ko‘nikmalarni o‘zlarida yaxshi o‘zlashtirmaganliklari ularni ta’lim jarayoniga astoydil kirib ketishlariga va kasbiy faoliyat yuritishda qiyinchiliklarni keltirib shiqarmoqda. Asosiy maqsad pedagogik amaliyot davrida talabalar kasbiy ko‘nikmasini rivojlantirish

va malakasini shakllantirish hamda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlash deb belgilandi.

Vazifali komponentda biz pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida samarali tashkil etish va o‘tkazishga asosiy e’tiborni qaratdik. Amaliyot davrida talaba maktablardagi ta’lim jarayonining faol qatnashishiga aylanishi lozim.

Pedagogik amaliyotlarni tashkil etish va o‘tkazishning ilmiy asoslari va shart-sharoitlari blokida biz modifikatsion yondashuvni qo‘llash tamoyillarini, yondauvlarni, axborot metodik ta’minot va amaliyot davrida ta’limiy muhitni yaratilishi imkoniyatlarini aniqlashtirdik.

Modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish bu asosiy blok bo‘lib, unda modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyot dasturiga, mazmuniga, o‘tkazilish jarayoniga va baholash tizimiga o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan. O‘zgartirishlar kiritilgan dastur bo‘yicha pedagogik amaliyot tashkil etilishi, unda talaba va maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari orasidagi munosabatlar o‘rnatilishi, talabalarning turli pedagogik vaziyatli topshiriqlarini mustaqil bajarishi va amaliyotning yakunidagi taxliliy faoliyatni o‘tkazish belgilangan.

Metodlari, vositalari va shakllarida pedagogik amaliyotning tashkil etishning individual va juftlikdagi shakllari tavsiya etilgan.Oliy ta’lim muassasasi “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabalari bilan modifikatsion yondashuv asosida olib boriladigan pedagogik amaliyotini tashkil etish va o’tkazish shakllari, turlarini keltiramiz.

Yakka tartibda ishlash - ushbu ta’lim shakli o‘quv jarayonini individuallashtirish va talabalarni faollashtirishga ko‘maklashadi. Yakka tartibdagi ishni keng ko‘lamdagi o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo‘naltirilgan individual ish bilan almashtirmaslik lozim.

Juftlikda hamkorlikda ishlash - bu o‘quv mashg‘ulotini o‘qitishning dialogga ko‘maklashuvchi ijtimoiy shaklidir. U muvofiqiashtirish qobiliyatini o‘rganishga yordam berishi hamda fikr almashish va o‘zaro yordam tufayli qiziqtirishni va natijani yaxshilash mumkin. Bu shaklda o‘qitishni qisqa muddatda ham qo‘llash mumkin. Juftlikda hamkorlikda ishlashda paydo bo’lishi mumkin bo‘lgan muammolarga kutilmaganda vaqtga bo‘lgan ehtiyojning oshishi, talabaning bajarilgan ishga qo‘shgan shaxsiy hissasiga nisbatan yetarlicha baholanmaganligi yoki talabalarning ishga mazmunga bog‘liq bo‘lmagan mavzular bilan bandligi kiradi. Buni bartaraf etish uchun o‘qituvchi talabalardan bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida hisobot so‘rashi, zarur hollarda o‘zining fikrini bildirishi va natijani izohlashi lozim.

Kichik guruhlarda ishlash Kichik guruhlarda ishlash zamonaviy ta'limning eng samarali shakli hisoblanadi.

- Bu o'qitish shaklida bir necha kishi (guruhning maqbul miqdori - 3-7 kishi) guruhning yagona maqsadini ko'zda tutgan holda masala va muammolami mustaqil yechadi, guruhda barcha talabalar o'zaro munosabatda bo'ladi; Guruhda ishlashning shakllari.

Ish shakli	Guruh	-1	-2	-3	-4
-Guruhlarda bitta mavzu bo'yicha ishlash	- mavzu	-A	-A	-A	-A
-Mehnatni taqsimlashga asoslangan guruhda ishlash	- mavzu	-A	-V	-S	-D
- Oraliq shakl	- mavzu	-A	-A	-V	-V

Guruhiy ta'lim shakli. 25-30 talabadan iborat guruhlarda o'quv amaliyotlari o'tkaziladi.

Jamoaviy ta'lim shakli. Bu shaklda o'quv amaliyotlarini tashkil etishda 2 yoki 3 talabalar guruhlaridan iborat (talabalar soni 50-75 kishi) jamoada olib boriladi.[7]

Amaliyot davrida talabalarni mustaqil faoliyatga undovchi metodlardan foydalanish, shuningdek amaliyotning didaktik va raqamli vositalaridan foydalanish muximligi belgilangan.

Modelga muvofiq modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini o'tkazish metodikasi ishlab chiqilib, unga mos mashg'ulot shakllari, metodlari va vositalari aniqlashtiriladi.

Shuni ta'kidlash joizki majburiy fanlar va pedagogik amaliyotining o'zaro integratsiyasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zaro aloqani ta'minlash uchun amaliyot dasturini o'zgartirishda majburiy fanlardan talabalar egallaydigan bilim, ko'nikmalar inobatga olinishi lozim.

Pedagogik amaliyot yakunida talabalar kasbiy ko'nikma va malakasini rivojlanganligini aniqlash uchun "reproduktiv" "produktiv" "kreativ" – baholash mezonlari ishlab chiqiladi va har bir mezonni 3 ta darajada yuqori, o'rta va past darajalarda baholash ko'zda tutilgan.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar tomonidan ko'nikma va malakalar, pedagogik tajribasini o'zlashtirilishi hamda shaxsiy sifatlarning rivojlantirilishi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyasi shakllanganligini ko'rsatadi. Natijada esa, bo'lajak pedagogning ijtimoiy buyurtmachi talablariga to'liq javob beradigan pedagogik faoliyat yuritadigan, kasbiy ko'nikma va malakasi shakllantirilgan pedagog sifatida tayyorlanishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda oliy ta’lim muassasalari “Texnologik ta’lim” yo‘nalishlarida modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish orqali ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Pedagogika faoliyatga tizimli yondashuv muammolari; Kasb-hunar ta’limi, 2004. - № 3. – B.24

2. Babanskiy Yu.K., Pedagogika. - M.: Prosveщenie, 1983.

3. Movlonov M.K. Malakaviy amaliyotni loyihalash asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent .2023 y.

4. Sayfullayeva D., Mo’minova D. DIDACTICAL PRINCIPLES OF LABOR EDUCATION// Academicia Globe: Inderscience Research journal.2021. Noyabr.B-1-7

5. Olimov Kakhramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Khimmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich.Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1S, November 2019.B.425-429

6. Olimov.Q.T. va boshqalar.Pedagogik texnologiyalar.T.:“Fan va texnologiyalar”, 2011.-B.110

7. Olimov Q.T., D.F.Jalolova, M.N.Karimova, Sh.N.Nutfullayeva, N.G.Muzaffaroa, S.S.Shadiyev Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma –T.: «Fan va texnologiya», 2013.-B.116

РЕЗЮМЕ

“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yisha pedagogik amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘tkazish modeli ishlab chiqildi. Oliy ta’lim muassasalari “Texnologik ta’lim” yo‘nalishlarida modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish orqali ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyati yaratilishi asoslandi.

РЕЗЮМЕ

По направлению «Технологическое образование» разработана модель организации и трансфера педагогической практики на основе модификационного подхода. Обосновано создание возможности повышения эффективности и качества образования путем организации и проведения педагогической практики на основе модификационного подхода высших учебных заведений по направлениям «Технологическое образование».

SUMMARY

In the area of “Technological Education”, a model for the organization and transfer of teaching practice has been developed based on a modification approach. The creation of the possibility of increasing the efficiency and quality of education by organizing and conducting teaching practice based on the modification approach of higher educational institutions in the areas of “Technological education” is justified.

OLIY TA’LIM MUSSASALARIDA INKLYUZIV TA’LIM

Rizaeva Sh.A.
TIQXMMI MTU erkin izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: inklyuziv yondashuv, Ijtimoiy integratsiya, inklyuziv ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, moslashtirish, deinstitusiyalashda defektolog, Konventsiya, **jismoniy integratsiya, funksional integratsiya, ijtimoiy integratsiya, jamiyat integratsiyasi.**

Ключевые слова: дефектолог в инклюзивном подходе, социальной интеграции, инклюзивном образовании, интегрированном обучении, адаптации, деинституционализации, конвенции, физической интеграции, функциональной интеграции, социальной интеграции, интеграции в общество.

Key words: defectologist in an inclusive approach, social integration, inclusive education, integrated training, adaptation, deinstitutionalization, convention, physical integration, functional integration, social integration, integration into society.

Hozirgi davrda O’zbekiston ta’lim tizimida integratsiyalashgan model yaratilgan bo’lib, bu avvalgi modelga nisbatan sezilarli yutug’I - bu nogiron bolalarni o’zi tengdoshlari bilan o’qishi imkoniyatiga ega bo’lganligida. Integratsiyalashgan tizimning mantiqiy davomi bo’lgan inklyuziv ta’lim o’quv jarayonini tashkil etishga yangi, yanada rivojlangan va moslashuvchan yondashuvlarni taklif etadi.

Inklyuziv yondashuvni rivojlantirish YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy maktab tizimlarini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishi sifatida ko’rib chiqilmoqda, chunki yoshlarning sifatli ta’lim olish huquqini amalga oshirish va ijtimoiy integratsiya jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga teng munosabatda bo’lish g’oyalariga asoslanadi, bolalarni har qanday kamsitish ehtiyojlar chiqarib tashlanadi, maxsus ta’limga ega bo’lgan bolalar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi. Tajriba shuni ko’rsatadiki, har qanday qattiq ta’lim tizimidan bolalarning bir qismi o’z bolaligidan chiqib ketadi, chunki bunday tizimda o’qitish bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishga tayyor emas degan muammoni keltirib chiqaradi, Shunday qilib, bunday bolalar alohida bo’lib, umumiy tizimdan chiqa boshlaydi, inklyuziv yondashuvlar esa, bunday

bolalarni o'rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu ularning ijtimoiy va moslashish imkoniyatlarini beradi.

Inklyuziv ta'lim - bu ta'limni rivojlantirishning uzluksiz jarayoni bo'lib - ta'lim olish imkoniyati barcha turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar ekanligini tan olishimiz lozim. Inklyuziv ta'lim - ta'lim jarayoniga turli xil o'quv ehtiyojlarini qondirish uchun yanada moslashuvchan bo'lgan yondashuvni ishlab chiqishga harakat qiladi. Agar ta'lim va tarbiya inklyuziv ta'limning amalga oshirayotgan o'zgarishlari yanada samarali natija bersa, barcha ta'lim oluvchi bolalar g'alaba qozonadi (nafaqat alohida ehtiyojli bolalar).

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzokda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmokdalar.

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilgan. Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda etarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan pedagogikada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. **Integrasiyalashgan ta'lim** bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integrasiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) **jismoniy integrasiya.** Integrasiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) **funktsional integrasiya.** Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) **ijtimoiy integrasiya.** Itegrasiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab – quvvatlaydi.

G) **jamiyatga integrasiya** qilish kabilar. Integrasilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi. Umumta'lim maktab pedagogi maxsus matodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi.Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi. Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha etadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integrasilashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham umumiy ta'lim jarayoniga qo'shish mumkin. Inklyuziv ta'limda, ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar har xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni har xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muxitini yaratib berishga qaratilgan. Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab–quvvatlash. «Moslashtirish» deganda

nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan kandaydir foyda olishi va optimal o'quv rejasining mavjudligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida xar bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

«Inklyuziv ta'lim» o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;
- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;
- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni xal etish yo'llarini izlab topish;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashnig asoslarini o'rganish;
- inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish;
- ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining muhim vazifalariga nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatish, masus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o'qituvchilari va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hattoki nogiron bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar etkazilib turish kiradi. Resurs o'qituvchining asosiy maqsadi: umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi; har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish; o'quvchilar bilan yakka tartbda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni

kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash; sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish; sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish; muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baholash; maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash; zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga); o'kituvchilar hamda o'kuvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish; standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish; o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarni yangilash va baholash; mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa vositalarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish).

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini o'zi tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak: maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish; sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash; o'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish; bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni etkazib berishni boshqarish; yangi kelgan o'qituvchilarning ehtiyojlarini anglash va qondirish; maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish; agar kerak bo'lsa sinfdan tashqarida individual va guruhlarga asoslangan ko'rsatmalarni berish; individual dasturlarni muvaqqiyatli bo'lishini boshqarish; maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi; maxsus yordamchi vositalar va qo'llanmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish; inklyuziv ta'limni rivojlantirishni qo'llab – quvvatlashdan iborat.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'ldi.O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida Prezidentimiz har bir fuqaroning manfaatini himoyalashda uning jinsi, millati, irqi, yoshidan qat'i nazar qonun ustuvorligini taminlashni asosiy omil sifatida belgilaganlar. Bugun yurtimizdagi har bir

bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini takidlab o'tishimiz lozim. Ta'lim vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikasiya qilingan «bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya» tamoyillari asos qilib olingan. Bu:- kamsitmaslik masalalari - yashash va rivojlanish - bolaning shaxsiy manfaati - bolaning dunyoqarashi kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur tamoyillarni amalda qo'llash jarayonida bu vazifaning oson emasligi bilinadi. Bu borada quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: masalan, internat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko'pchiligini nogiron bolalar tashkil etadi.

Xalqaro tashkilotlarning tavsiyanomalarida deinstitusiyalashda inklyuziv metodni asosiy usul sifatida tatbiq qilish kerak deyilgan. Xo'sh, kar o'quvchining uyidan uzoqda o'qitilishi uning Konventsiyadagi haq-huquqlarini buzadi, deyish mumkinmi? Biz «ha» deb javob beramiz. Chunki bolani «kamsitmaslik» tamoyili va oilasi bilan yashash huquqidan mahrum etayapmiz. Agar bolani uyiga yaqin joylashgan qishloq umumtalim maktabida 35 nafar o'quvchi talim olayotgan sinfda o'qishga qoldirsak bunda uning «shaxsiy manfaatlari» tamoyilini buzgan bo'lamiz. Bola bu erda o'ziga etarli etiborni ololmaydi. Maktabda defektologlarning yo'qligi uchun o'quvchi maxsus muassasadagidek talim ololmaydi, oqibatda rivojlanishda orqada qoladi va kasb egallashga tayyorlana olmaydi. Bundan tashqari, bu o'rinda bolaning «shaxsiy fikri» tamoyili ham buziladi.

Adabiyotlar:

1. Алехина, С. В. Принципы инклюзии в контекс те изменений образовательной практики / С. В. Алехина // Психологическая наука и образование. – 2014. – № 1. – С. 5–16. Рассмотрены вопросы методологических оснований инклюзиив образовании. Проанализированы принципы инклюзивного образования, которые формулируют новые контексты в построении образовательных отношений участников инклюзивного процесса.

2. Воеводина, Е. В. Инклюзивное образование инвалидов : основные принципы и те хнологии реализации / Е. В. Воеводина // Социально-гуманитарные знания. – 2015. – № 5. – С. 254–266.

3. Гедранович, В. В. Управление в социальны х и экономических системах :инновационные подходы в образовании = Management in social and economic systems: innovative approaches in education / В. В. Гедранович, И. Н. Тонкович // Инновационные образовательные технологии. – 2016. – № 2. – С. 65–68.

4. Глебова, Е. Не ждать указаний : педагогические решения / Е. Глебова // Классное руководство и воспитание шко льников : Изда те льский дом «Первое сентября». – 2014. – № 7/ 8. – С. 36–38.О проблемах инклюзивного подхода к образовательному процессу в школах.

5. Годовникова, Л. В. Условия интегрированного образования детей с нарушениями развития / Л. В. Годовникова // Педа гогика. – 2008. – № 8. – С. 36–43. Интегрированное образование рассмотрено как возможность ребенка с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) обучаться в общеобразовательной школе совместно с обычны ми детьми.

6. Голиков, Н. А. Отношение к детям-инвалидам : реалии и перспективы / Н. А. Голиков // Народное образование. – 2015. – № 3. – С. 47–54.

7. Голоскокова, Л. И. Обучение слепого ребенка в общеобразовательной школе / Л. И. Голоскокова // Воспитание и обучение де тей с нарушениями развития. – 2012. – № 6. – С. 41–46. Представлено описание инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья.

8. Дементьева, И. Ф. Инклюзивное образование : проблемы и перспективы / И. Ф. Дементьева, С. А. Сопыряева // Народное образование. – 2012. – № 4. – С. 182–185.

РЕЗЮМЕ

Maqolamizda mamlakatimiz Inklyuziv ta'lim qay darajada olib borilayotganligi va uning ahamiyati yoritilgan bo'lib, Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga teng munosabatda bo'lish g'oyalariga asoslanadi, bolalarni har qanday kamsitish ehtiyojlar chiqarib tashlanadi, maxsus ta'limga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi. Bu ta'limni rivojlantirishning uzluksiz jarayoni bo'lib - ta'lim olish imkoniyati barcha turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar ekanligini tan olishimiz lozim.

РЕЗЮМЕ

В статье освещается, в какой степени в нашей стране осуществляется Инклюзивное образование и его значение, в основе инклюзивного образования лежат идеи равного обращения со всеми детьми, исключается любая дискриминация детей, создаются особые условия для детей со специальным образованием. Это непрерывный процесс развития образования - мы должны признать, что доступ к образованию-это дети со всеми различными потребностями.

SUMMARY

The article highlights the extent to which Inclusive education is carried out in our country and its significance, inclusive education is based on the ideas of equal treatment of all children, any discrimination of children is excluded, special conditions are created for children with special education. This is a continuous process of education development - we must recognize that access to education is for children with all different needs.

КИТОБ – БИЛИМ, МАЪНАВИЯТ, МАЪРИФАТ МАНБАИ

Eshmurodova D.N.
Guliston DU doktoranti

Таянч сўзлар: таълим жараёнида, китобхонлик маданияти, оила кутубхонаси, маънавият ва маърифат, китоб муотлааси, маданият, жисмоний тарбия ва спорт.

Ключевые слова: в образовательном процессе, культура чтения, семейная библиотека, духовность и просвещение, чтение книг, культура, физическое воспитание и спорт.

Key words: in the educational process, reading culture, family library, spirituality and enlightenment, book reading, culture, physical education and sports.

Китобларни фақатгина билим манбаи деган фикрда бўлсак, унинг моҳиятини тўлиқ англамаган бўламиз. Китоблар аслида бизни бахтли бўлишимиз, ҳаётимиз давомида юксак чўққиларни забт этишимизда улкан ёрдам беради. Зеро, ҳеч қайси дорихонада кишини тушкунликдан олиб чиқиб, иродали, сабрли, меҳнатсевар қилувчи дори топилмайди. Бироқ китоб жамийки орзуларимиз қаноти бўлиб, ундан ўқувчи нимани изласа шуни топади. Китоб – билим, маънавият, маърифат манбаи.

Китобларни турларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ. Зеро, китоб маданияти деган тушунча моҳиятан қандай китоб танлаш, неча ёшда нималар ўқиш, қўшимча адабиётларни қандай танлаш керак, касб танлаш учун, асосийси, ҳаётда ўз ўрнини топиш учун қандай билимларга эга бўлиш кераклигини қамраб олади.

Давлатимиз томонидан китоб мутолаасига ёшларда китобга бўлган қизиқишларни шакллантиришга қаратилган ислоҳотлар самараси жамиятимизнинг ҳар бир бўғинига ҳар бир ўқувчисига китоблар олами билан танишишларига имконият яратди. «Ёш китобхон» танловлари ўқувчиларни китобга бўлган меҳрларини янада ошишига, тафаккурида китобхон идеали шаклланишига сабаб бўлди. Ёшлар китоб келажак учун энг яхши ҳомий эканлигини тушуниб етди. Дарҳақиқат миллатни миллат, давлатни давлат, халқни халқ қилувчи ягона нарса китобдир. Юртбошимиз таъкидлаганидек: «Китобсиз келажак йўқ» [7].

Компьютер технологиялари ривожланаётган бир даврда китоб мутолаасига ёш авлодни, айниқса қизларни жалб этишдек муаммоли ҳолатга

барҳам беришда қизғин фаолият кўламида биз қуйидаги вазифаларни ҳал этишимиз керак:

1. Қизларда ўқишдаги мустақилликларнинг асосий жиҳатларини аниқ ажратиш, аммо қарама-қарши қўйиш учун эмас, балки уларни махсус китобхонлик тайёргарлиги ягона мажмуига мақсадга мувофиқ бирлаштириш.

2. Қизларнинг мустақил ўқишларига педагогик раҳбарлик жараёнида шахсий мазмунга эга бўлиши мумкин бўлган тахминий илгари сурилган китобларга мурожаатнинг мақсадли ва мотивацион фаолиятнинг аҳамиятли жиҳатларини эътиборга олиш.

3. Умумтаълим мактаб ўқувчи қизларида китобхонликка шахсий қизиқишни ва уларнинг мустақил китобхонликларини шакллантириш учун шароитларни яратиш мақсадида болалар китобхонлигининг таҳлилига ва ўқув жараёнини ташкил этишга эътиборни қаратиш.

“Она ўғлига китоб ўқияпти. Ўғли ҳали жуда кичик. У ўзи ўқишни ўргангунигача йиллар ўтади. Аммо у онаси ҳикоя қилаётганига қандай ҳаяжон билан қулоқ солади, сеҳрли саҳифаларга қандай қизиқиш билан назар солади. Улкан мўжизали дунё унинг олдида намоён бўлади ва бола сеҳрлангандек тинглайди. Шу тариқа инсон ҳаётига китоб кириб келади...”.

Демак, таъкидлаш жоизки китоб – инсонни улуғлайдиган, унда маънавият ва маърифатни шакллантириб, комил инсон даражасига етиб боришида муҳим тарбиявий кучга эга. Китоб икки дунё саодатига йўллайдиган йўлбошчи. Китоб дурбин мисоли узоқни кўра олади, ҳисоблагич сингари турли масалаларга ечим топади, оғир кунда ёғду сочиб, йўлимизни ёритади. Китоб – ҳаёт тўсиқларини енгиб ўтишимизда биз қизларга ёрдам беради, ҳар онда донишмандларнинг билим хазинасидан ошно этади. Инсон учун озуқа қанчалик муҳим бўлса, унинг ақлий ва ахлоқий тараққиётида ҳам маънавий озуқа жуда муҳим. Қизларнинг маънавий оламини бойитишда, катта орзу- мақсадлар сари етаклашда у бебаҳо воситачидир. Китоб инсониятнинг энг бой хазинаси, билим булоғи. У инсонни яхшиликка ўргатиб, ёмонликдан қайтаради.

Инсоннинг китоб билан ўзаро муносабати жараёнининг мураккаблиги тўғрисидаги фикр В.Н.Ляхов томонидан янада яққол ифодаланган. «Китоб – улкан миқёсдаги ижтимоий фаолиятнинг маҳсули – деб ёзади у. – Инсоннинг китоб билан алоқаси кўп қиррали ва мураккаб.... Инсоннинг китоб билан мулоқотида онг ва онг остининг шундай чуқур қатламлари жалб этиладики, шундай мураккабликдаги алоқа ва боғлиқликлар юза-

га келадики, уларнинг таҳлили ҳамон фан томонидан ўрганилмаган». Китобга муҳаббат ва мустақил ўқишга қизиқишнинг моҳияти тўғрисидаги зиддиятли фикрларни қиёслашни эрта ва энг сўнгги тадқиқотларга мурожаат этиб давом эттириш ҳам мумкин, аммо улар китобни инсон ҳаётига киритиш муаммоси ўрганилаётганида барчаси қанчалик "осон" ва барчаси қанчалик "мураккаб" эканлиги тўғрисидаги хулоса учун мавжуд асосга ҳеч нима қўшимча қилмайди.

Ижтимоий субъект сифатида инсон хулқини тартибга солувчи, боланинг фаолияти бошқаришга имкон берувчи тузилма, механизм ва омилларни белгиловчи қонуниятлар кўпинча ҳамон педагогикадан ташқарида – психология ва физиология, биофизика, биохимия ва хулқ-атвор генетикаси каби фанлар соҳасида қолмоқда ҳамда бу қатор ҳолларда педагогларни илмий далиллар ва исботларга эмас, балки қизлар таълими ва тарбиясини эмпирик даражада, интуитив тахминларга таяниб қуришга мажбур этади. Бундан "бола-китоб-жамият" муаммосини ўрганишдаги қўшимча қийинчиликларни туғдиради.

Тенгдош ўртоқларимизда мустақил китобхонликни шакллантиришга бағишланган изланишларда китоб бизни "ижтимоий инсон"ни тарбиялаш ва ўз-ўзини тарбиялаш воситаси сифатида қизиқтиради, чунки у маълумотга эга китобхонга сўз санъати орқали психикаси ва инсонлар хулқининг нозик нюансларини очади ҳамда шу тариқа бошқа инсонлар ҳамда ўз-ўзининг ҳақиқий қадриятини англайди.

Аммо мазкур қуролни эгаллаш учун, ўқувчи педагогнинг раҳбарлигида унинг мазкур сифатида ўрганиши, уни китобхонга айнан ўзи сингари китобхон билан танланган мулоқот қилиш чексиз тўсиқсиз имкониятини очувчи алоҳида фаолият объекти сифатида ўзлаштириши керак. Демак, етти ёшдаги бола – бу индивидуал шахс бўлганлиги сабабли, китобларни мулоқот воситаси сифатида ўрганиш, инсоният томонидан тарихий тараққиёт жараёнида тўпланган тажрибага эга бўлиш имконияти сифатида китобхонлик фаолиятини ўзлаштириш, мазкур фаолиятни интеллектуал қобилиятга айлантириш ва мулоқотнинг танловга асосланганлиги мақсадида китобга эҳтиёжни шакллантириш – буларнинг барчаси таълим билан белгиланган ва бизни қизиқтирувчи мустақил китобхонлик сифатини шакллантирувчи китобхонлик тайёргарлигининг поғоналаридир. Аммо улар бунинг якуний натижаларими ва агар уларнинг ташкилий компонентлари ҳисобланса, улар бир-бири билан қандай боғланган?

Биз томонимиздан ўрганилган тарихий давр (2017-йилдан ҳозирги вақтга қадар) кесимининг барча босқичларида китобхонлик саводхонлиги

бўйича дастурда китобхон-қизларни тайёрлашда қуйидаги йўналишларга эътибор кузатилади:

– болалар томонидан мустақил ўқилган матн билан ишлаш;
– китоб билан танишиш;
– китоблар олами билан танишиш;
– кутубхона-библиографик воситалар билан танишиш;
– китоб билан ижтимоий-фойдали фаолият.

Мазкур йўналишларни ажратиб ва шартли белгилардан фойдаланиб (юқорида ифодаланган етти босқичнинг ҳар бирида таълим жараёнида уларга максимал эътибор даражаси кўрсаткичи сифатида рангнинг интенсивлиги), биз қуйидаги диаграммага эга бўлдик:

Изоҳ:

– фаолият;
– кутубхона-библиографик маълумотлар билан танишиш;
– китоблар олами билан танишиш;
– китоб билан танишиш;
– мустақил ишлаш;
– ижтимоий-фойдали фаолият.

Ўқилган матнни тайёрлашдаги йўналишлар.

Адабиётлар:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992.- 82 b.
2. Alimov S. Kutubxonalarda ishlash: (Sinfdan tashqari ishlar) // Boshlang‘ich ta’lim.- 1993. 11-12-son. 7-8-sonlar.
3. Davlatov S. Kutubxonaga e’tibor zarur. Ushbu madaniy maskanlar millat ma’naviyatini aks ettiradi. // Xalq so‘zi.-2006.-26 yanvar.
4. Safo Matjonov. Kitob o‘qishni bilasizmi? T.: O‘qituvchi, 1993.- 140 b.

РЕЗЮМЕ

Мақолада таълим жараёнида ўқувчиларда китобхонлик маданиятининг ўрни ва роли тадқиқ қилинган бўлиб, бир қатор самарали усуллар тавсия қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется место и роль культуры чтения у студентов в образовательном процессе и даются рекомендации по ряду эффективных методов.

SUMMARY

The article examines the place and role of reading culture among students in the educational process and provides recommendations on a number of effective methods.

МУТАХАССИСЛАРИНИ ДУАЛ ТИЗИМИ АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Баратов М.
ТИҚХММИ МТУ таянч докторанти

Таянч сўзлар: фаолият, касб, интеграция, дуал таълим тизими, мутахассис, ишлаб чиқариш.

Ключевые слова: деятельность, профессия, интеграция, дуальная система образования, специалист, производство.

Key words: activity, profession, integration, dual education system, specialist, production.

Юқори технологияли ишлаб чиқариш талабларига жавоб берадиган малакали кадрларни тайёрлаш орқали миндақадаги инвестиция жозибадорлиги ва рақобатбардошлигини ошириш воситаларидан бири бу дуал таълм тизими бўлиб, унинг афзаллиги - бу мутахассисларни тайёрлашда ўқув ва ишлаб чиқариш соҳаларининг ҳамкорлиги ҳамда битирувчиларни юқори даражада иш билан таъминлашдир.


Дуал таълим замонавий профессионал таълимнинг таълим стандартлари асосида компетентлик ёндашувининг асосий тамойилларига (назария ва амалиётнинг бирлиги, ўқув жараёнида фанлараро комплекс ёндашув, кўникма ва билимларни касбий фаолиятда қўллашга эътибор) тўлиқ жавоб беради. Шунинг учун дуал таълимни профессионал таълимнинг ўқув жараёнига жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Олий таълим муассасаларидамуҳандис-педагогик касбий таълим мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг дуал тизимини қуришнинг назарий асосларини ишлаб чиқишда биз у қуйидагиларга мослиги нуқтаи назаридан келиб чиққанмиз:

– таълим мақсадларининг ижтимоий ишлаб чиқариш эҳтиёжларига;
– таълим фаолиятининг ижтимоий-фалсафий, илмий дунёқараш асосларига ташкилий ёндашув;
– муҳандис-педагогик касбий таълим методологик хусусиятининг дидактик асосларига.

Мазкур талабларга жавоб берувчи асосий, концептуал аҳамиятга эга ғояларга ойдинлик киритиш касбий таълимнинг махсус интегратив соҳаси сифатида муҳандис-педагогик касбий таълим ривожланишига ҳал қилувчи

таъсир ўтказувчи “ички”, феноменологик ва методологик, шунингдек ижтимоий педагогик хусусиятга эга тамойиллар асосида амалга оширилган.



1-расм. Узлуксиз таълимнинг таркибий тузилиши (В.Г. Осипов бўйича)

Тадқиқот изланишларининг биринчи йўналиши мамлакатимиздаги узлуксиз таълим тизимини шакллантиришнинг кенг кўламли илмий-назарий ва праксиологик жиҳатларини ўрганиш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш билан боғлиқ бўлган. Шу муносабат билан таъкидлаш жоизки, ҳозирги кунга келиб, мамлакат педагогикасида узлуксиз таълим муаммоларини интенсив тарзда тадқиқ этиш давом этмоқда. Шу билан бир қаторда мазкур муаммолар мажмуи алоҳида олимлар (В.Н.Гурченко, В.А.Горохов, Л.А.Коханова, Е.В.Ткаченко в.б.) томонидан етарлича методологик ва назарий жиҳатдан ёритилмаган.


Дарҳақиқат, аста-секин шаклланиб бораётган узлуксиз таълим тизими алоҳида бўғинларининг амал қилиши масаласи яхшироқ ўрганилган ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган (О.С.Абасова, А.М.Никитина,Т.Г.Калачева, Ю.А.Шумова в.б.).

Бироқ мазкур тадқиқотлар кўпинча тарқоқ тасодифий хусусиятга эга бўлиб, ҳамон концепцияни ривожлантириш босқичида қолиб кетган.

Узлуксиз касбий таълим тизимининг энг эҳтимолли ёки оптимал таркибий тузилишига нисбатан кўпгина нуқтаи назарлар мавжуд. Бунда ҳудудий ва соҳавий тизимларнинг кўпгина вариантлари пайдо бўлган бўлиб, уларнинг хилма хиллигини учта тургa бўлиш мумкин:

– узлуксиз касбий таълимнинг ташкилий-функционал таркибий тузилиши;
– тизимли узлуксиз касбий мазмун;
– инсон ўзидан ўзи ривожланувчи тизим.

Узлуксиз касбий таълимнинг ташкилий-функционал таркибий тузилиши тарафдорлари Б.С. Гершунский,В.Г.Осипов, А.А.Вербицкий, В.А.Юрисов, Ҳ.Ҳ. Нечаев, В.Г.Онушкин ва бошқалар мавжуд назарий ишланмалар асосида узлуксиз таълимнинг бир нечта моделини келтириб ўтган. Масалан,



2-расм. Узлуксиз таълим тизимининг таркибий тузилиши

В.Г.Осипов узлуксиз таълимнинг қуйидаги таркиби тузилишини таклиф қилади (1-расм).

Мазкур муаллифнинг фикрига кўра, агар узлуксиз таълим тизимининг барча таркибий тузилишини концентрик доиралар сифатида тасаввур қиладиган бўлсак, унинг энг марказига формал (расмий) таълимни жойлаштириш зарур; ундан кейинги доира бевосита норасмий таълимни ифодаласа, ва ниҳоят ташқи иккига бўлинаган доира информал таълим ва мустақил таълимни акс эттиради. Мазкур доирада энг муҳим унсур – формал (расмий) таълим ҳисобланади. У асосий бошланғич таълимни ифодалайди. Бу инсон томонидан касбий таълим бошланишидан аввал олинадиган таълимдир.

Узлуксиз таълимнинг моделитаркибий тузилиши 4-расмда келтирилган.

Умуман олганда, узлуксиз таълим мазкур муаллифлар томонидан муайян таркибий тузилишга эга бўлган бир бутун тизим сифатида кўриб чиқилади. Унга бир бутунликни хусусиятларининг интегративлиги, масалан, таълимда барча бўғинларнинг изчиллигига бағишлайди.

Узлуксиз таълимнинг ҳар қандай модели ва унинг таҳлили анъанавий таълим тизими билан қиёсланмаган бўлса тугалланмаган ҳисобланади. Агар узлуксиз таълим кўпчилик мутахассисларнинг фикрига кўра янги парадигма бўлса, у аввалгисидан қайси жиҳатлари ва ўлчамлари билан фарқ қилиши ва биридан иккинчисига ўтишининг сабаблари нимадан иборат эканлиги; узлуксиз таълим оддийгина анъанавий таълим тизимининг бузилишими ёки уни диалектик тарзда инкор этадими ва ниҳоят вақт мобайнида энг жиддий ва ҳаққоний текширувдан ўтганлиги текширилади.

Бизнинг фикримизга кўра, узлуксиз таълим ҳақиқатда таълим ривожланишининг янги мазмун-моҳият парадигмасидан иборат бўлиб, одатда анъанавий деб аталувчи эски таълим парадигмасидан етарлича радикал (кескин) тарзда ажралишни ифодалайди. Бошқача қилиб айтганда, таълим концепцияси, унинг мақсади, моҳияти, вазифалари, тамойиллар ва ташкилий ту-

зилиши қайта кўриб чиқилади. Чунончи, В.П.Зинченконинг фикрига кўра, узлуксиз таълим – таълим фаолиятининг янги усули бўлиб, унинг мақсади шахсни бир бутун ривожлантириш, ижодий салоҳиятини бойитиш, куч ва қобилиятларининг доимий равишда ўстиришдан иборат.

Шундай қилиб, мазкур жиҳатдан олий таълим муассасаларида муҳандис-педагогик касбий таълимнинг дуал тизимини қуриш учун узлуксиз муҳандис-педагогик касбий таълим гуманистик тамойилларни ишлаб чиқариш соҳаси ва жамият эҳтиёжлари билан оптимал тарзда мужассамлаштиришга имкон берадидеган қоида концептуал аҳамиятга эга бўлади.

Дарҳақиқат, олий таълимнмнг методологик хусусиятидан келиб чиққан ҳолда муҳандис-педагогик касбий таълимнинг дуал тизимини қуришнинг мақсадга мувофиқлигини таъминловчи концептуал аҳамиятга эга учинчи ғоясини қуйидагича изоҳлаш мумкин: муҳандис-педагог кадрларни касбий тайёрлаш жараёнида таълим тизимини дуал қайта қуриш унинг тизимли яхлитлигини ифодалаган ҳолда муҳандислик-педагогик таълимнинг интегративлигини таъминлайди.

Хулоса қилиш мумкинки, мазкур ажратиб кўрсатилган концептуал аҳамиятга эга ғоялар муҳандис-педагогик касбий таълимнинг дуал тизимини яратишнинг қадриятли-мақсадли (аксиологик), мазмунли-ташкилий (онтологик) ва технологик асосларини методологик яхлитлигини таъминлагани боис, улар таълимни концептуал моделлаштиришнинг назарий-методологик асосидир.

Адабиётлар:

1. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже. Дисс. … докт. пед. наук. – Ташкент, 2003. – 327 с.

2. Исмаилова З.К. Маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари: Дисс… пед. фан. д-ри. – Т.: 2006. – 345 б.

3. Исмаилова З.К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.: 2000. – 186 б.

4. Муслимов Н.А. Педагогик фаолиятга тизимли ёндашув муаммолари // Касб-ҳунар таълими. – 2004. - № 3. – Б.24.

5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари. Дисс. .. пед. ф. д. – Т.:2007. – 315 б.

6. Химматалиев Д.О. Интеграция ва фанлараро алоқадорлик тушунчаларининг мазмун моҳияти// Касб-ҳунар таълими. -Тошкент, 2016. №6. -Б.13-16.

РЕЗЮМЕ

Янги профессионал таълим тизимининг олдида турган асосий вазифаларидан бири маҳаллий ва хорижий меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ ва юқори малакали кадрлар тайёрлаш ҳисобланади.

РЕЗЮМЕ

Одной из основных задач, стоящих перед новой системой профессионального образования, является подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями местного и зарубежного рынка труда.

SUMMARY

One of the main tasks facing the new vocational education system is the preparation of highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the local and foreign labor market.

НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГ КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Холмуродов А.Ш.
Жиззах вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази директори, педагогика фанлари доктори

Tayanch cўзлар: узлуксиз касбий ривожлантириш, малака оширишнинг гибрид (аралаш) шакли, малака оширишнинг андрагогик, диагностик, адаптив, коррекциялаш, прогностик вазифалари.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, гибридная (смешанная) форма обучения, андрагогические, диагностические, адаптационные, коррекционные, прогностические задачи обучения.

Key words: continuous professional development, hybrid (mixed) form of education, andragogical, diagnostic, adaptive, corrective, predictive learning tasks.

Бугунги кунда мактбгача ва мактаб таълими тизимини ислоҳ қилишдаги асосий йўналишлардан бири сифатида ўқитувчиларнинг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш масаласи муҳим аҳамият касб этмоқда. Шундан келиб чиқиб, биринчи галда мактабларда фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг сифат таркибини яхшилаш ва уларнинг доимий малакасини ошириш, улар учун узлуксиз методик ёрдам кўрсатиш тизимини жорий этиш вазифалари белгилаб олинди.

Республикамизда умумий ўрта таълим мактабларида 509 минг нафардан ортиқ ўқитувчилар фаолият юритадиган бўлса, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш масалалари Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳузуридаги А.Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти ва ҳудудлардаги 14 та Педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий марказларда амалга оширилади.

Сўнгги йилларда мактбгача ва мактаб таълими тизимида малака ошириш жараёнларида ўзига хос трансформацион жараёнлар амалга оширилди:

– ўқитувчилар малакасини ошириш тизими узлуксиз касбий ривожлантириш тизимига трансформация бўлди, яъни эндиги тизимда ўқитувчилар доимий ўз устларида ишлашлари ҳамда билим ва малакаларини оширишлари талаб этилади;

– малака оширишнинг гибрид (аралаш) шакли таълим амалиётига кенг жорий этилди, бунда ўқитувчи ўзига маъқул шаклда (онлайн ёки анъанавий) истаган ва қулай вақтда (йил давомида ёки йилига 1 ҳафта) ва хоҳлаган жойда (платформада, педагогика марказида, нодавлат ташкилотда ёки ОТМда) малака ошириш имконияти яратилди;
– узлуксиз касбий ривожланиш динамикаси ҳамда компетенцияларини диагностика тизими жорий этилиб, бунда ўқитувчилар махсус платформа орқали ўз билимларини диагностика қилади ҳамда аниқланган билимдаги бўшлиқлар асосида – эҳтиёжларга йўналтирилган дастурлар асосида малака оширади.

Юқоридагилардан кўринадики, бугунги кунда ўқитувчилар малакасини ошириш тизимида узлуксиз касбий ривожлантиришнинг механизми ва инфраструктураси шакллантирилган бўлиб, мазкур жараёнларда асосий устуворлик малака ошириш жараёнларини самарали ташкил этиш ва инновацион ёндашувларга асосланган методик таъминотни яратишга қаратилиши талаб этилмоқда.

Таълимни модернизация қилиш ва жамиятдаги ижтимоий ўзгаришлар ўқитувчининг касбий кўникма ва компетенцияларни ўзлаштириш билан биргаликда, инновацион фаоллик, салоҳиятни ривожлантиришни ҳам талаб этмоқда. Яъни, инноватор ўқитувчи учун нафақат касбий тайёргарлик, балки муаммоларни ҳал қилиш ва тўғри қарор қабул қилиш, таълим мазмуни, воситалари ва технологиялари борасидаги инновацияларни ўзлаштириш ҳамда касбий фаолиятга татбиқ этиш, узлуксиз касбий ривожланиш, малака ошириш ва қўшимча касбий таълим олиш каби вазифаларни белгилайди.

Малака оширишнинг мақсади ҳам айнан ўқитувчиларнинг назарий билим даражасини ошириш билан бир қаторда уларнинг амалий кўникма ва малакаларини замонавий талабларга мувофиқ такомиллаштириб боришга йўналтирилиши лозим [7]. Бунда катталар таълими педагогикаси – андрагогика тамойиллари асосида, янги касбий билимларни ўзлаштиришга қаратилган шахснинг таълим эҳтиёжлари, махсус ва индивидуаллаштирилган билим, кўникма, шахсий фазилатлар ва қадрият йўналишларини белгилаш муҳимдир.

Кўриниб турибдики, касбий ривожланиш замирида малака ошириш жараёнлари яхлит таълим тизими сифатида, ўқитувчилар учун янги педагогик қадриятларни ўзлаштириш, таълимнинг янада самарали амалга оширилишини таъминлашга қаратилган инновацион жараён сифатида қайд этилади.

Бизнинг назаримизда, малака ошириш жараёнларининг муҳим жиҳати, бу мавжуд касбий бўшлиқларни тўлдириш ва коррекциялашга қаратилган инновацион даражадаги таълим шаклини англатади.

Замонавий малака ошириш тизимининг етакчи вазифалари қуйидагилардан иборат:

– диагностик – тингловчи-педагогнинг ижтимоий-касбий ривожланиш даражасини аниқлаш орқали ўқитувчиларнинг ривожланиш траекторияси (мотивлар, қизиқишлар, муносабатлар), уларнинг касбий малака даражасини аниқлаш, даражани белгилаш ҳамда касбий жиҳатдан муҳим фазилатлар ва қобилиятларнинг ифодалилигини аниқлаштириш;
– адаптив – касбий ҳаракатчанликни ривожлантириш орқали ўқитувчиларнинг ўз-ўзини тарбиялаш, ўзини ўзи бошқариш қобилияти, касбий фаолиятнинг индивидуал услубини шакллантириш;
– коррекциялаш-тузатиш - траекториядаги ўзгаришлар кўринишида касбий фаолият давомидаги инқирозларни енгиш, деформациялар ва турғунлик, уйғунликни сақлаш, шахснинг касбий ва психологик барқарорлигини таъминлашга эришиш;
– прогностик – ўқитувчиларнинг ижодий салоҳиятини очиб бериш орқали касбий ўсиш ва юқори поғоналарга кўтарилиш учун фикрлашни шакллантириш, лидерликка тайёрлик, инновацияларни яратиш ва қўллаш компетенцияларини ривожлантириш [5].

Юқоридаги келтирилган мақсад ва вазифаларни амалга ошириш, ўз навбатида нодавлат малака ошириш таълим ташкилотларидаги тегишли ташкилий-педагогик шарт-шароитларни белгилаш ва уларни амалга ошириш механизмларини аниқлаштиришни, такомиллаштиришни талаб этади.

Малака ошириш тизимидаги нодавлат таълим ташкилотининг вазифалари эса ўз навбатида:

– малака ошириш таълим дастурларини ҳар бир мутахассис, жамият ва давлат манфаатларини кўзлаган ҳолда амалга ошириш, тингловчиларнинг ўз-ўзини шахсий ва касбий ривожлантириши учун қулай шарт-шароитлар, ўз устида мустақил ишлаши ва қўшимча билим олиши учун имкониятлар яратиш;
– тингловчиларнинг касбий фаолият соҳасига оид янги замонавий билим, кўникма ва компетенцияларни ўзлаштиришларини таъминлаш, уларда мустақил билим олиш эҳтиёжини кучайтириш, таянч ва касбий компетенцияларни ривожлантириш;
– тингловчиларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш, уларнинг инновацион салоҳияти ҳамда амалий-касбий компетенция-

ларини ривожлантиришга хизмат қилувчи зарурий шарт-шароит яратиб бериш;

– таълим жараёнига юқори малакали педагог ва бошқа кадрларни, шу жумладан, хорижий мутахассисларни жалб этиш, таълим жараёнини самарали ташкил этиш учун уларга зарур шарт-шароитлар яратиш, ўқув-методик адабиётлар ва бошқа воситалар ҳамда жиҳозлар билан таъминлаш кабилардир.

Шу ўринда, нодавлат таълим ташкилотларида умумий ўрта таълим мактаблари педагог кадрларининг малакасини ошириш фаолиятига илғор хорижий давлатлар тажрибасининг самарали жиҳатларини қўллаш мумкин деб ҳисоблаймиз. Жумладан, таълимни режалаштиришда маркетинг технологияларидан фойдаланиш, таълим мазмуни бўйича эҳтиёжларга йўналтирилган фаолият, ўқитиш модели бўйича компетенциявий ёндашув асосидаги ривожлантирувчи таълимни жорий этиш, таълим технологияларида модулли, масофавий, мустақил таълим шаклларини киритиш, методология бўйича андрагогика билан бирга эвтагогикани жорий этиш, натижаларни таълим сифати менежменти асосида назорат қилиш ва баҳолаш, таълим хизматларининг тури ва мослашувчанлиги, рағбатлантиришда механизмлари нодавлат таълим ташкилоти ҳисобидан молиялаштиришни қоплаш (ваучер ва имтиёзли сертификатлар билан таъминлаш), бошқарувдаги академик ва молиявий мустақиллик каби ўзига хос хусусиятларини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Шу асосида давлат таълим муассасалари ва нодавлат таълим ташкилотларининг малака ошириш жараёнидаги фаолиятининг ўзига хос хусусиятларининг қиёсий таҳлили 12 та кўрсаткич асосида кўришимиз мумкин бўлади (1-жадвал).

1-жадвал.

Давлат таълим муассасалари ва нодавлат таълим ташкилотлари фаолиятининг қиёсий таҳлили

Таққослаш кўрсаткичлари	Давлат таълим муассасалари	Нодавлат таълим ташкилотлари
Таълим тури	Расмий, методик хизмат	Расмий, норасмий, информал
Таълимни режалаштириш	Марказлашган	Маркетинг технологиялари
Таълим мазмуни	Малака талабларига йўналтирилган	Малака талаблари+эҳтиёжларга йўналтирилган

Ўқитиш модели	Касбга йўналтирилган билим, кўникма ва малакалар ҳамда компетенцияларни ривожлантириш, коррекция	Шахсга йўналтирилган, компетенциявий ёндашув асосидаги ривожлантирувчи таълим
Таълим технологиялари	Анъанавий, инновацион	Инновацион, модулли, масофавий, мустақил таълим
Методология	Андрагогика	Андрагогика, эвтагогика
Назорат ва баҳолаш	Таълим натижалари назорати ва баҳолаш	Таълим сифати менежменти
Таълим хизматларининг тури ва мослашувчанлиги	–	Эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда таклиф этилади
Таълим натижаси	Билим, кўникма ва малакалар, ўзлаштириш даражаси	Билим, кўникма ва компетенциялар, шахсий ривожланиш
Сифат менежменти	Аттестация ва аккредация, Кузатув кенгаши	Ижтимоий ҳамкорлик, ўз-ўзини баҳолаш тизими, сифат менежменти
Рағбатлантириш механизмлари	–	Молиялаштиришни НТТ ҳисобидан қопланиши, ваучер ва имтиёзли сертификатлар
Бошқарув тизими	Марказлашган бошқарув	Академик ва молиявий мустақиллик

Мазкур қиёсий таҳлилга эътибор қаратадиган бўлсак, таълим хизматларининг тури ва мослашувчанлиги давлат таълим муассасаларига нисбатан нодавлат таълим ташкилотларида кенгроқ йўлга қўйилган, шунингдек, молиялаштириш ва бошқарув тизимида ҳам нодавлат секторидаги фарқларни кўришимиз мумкин.

Педагогик шарт-шароитлар таълим-тарбия жараёни субъектларининг ўзаро ҳамкорлиги, шунингдек, олий таълим муассасалари муҳитининг мақсадга мувофиқ тарзда ишлаб чиқилган чора-тадбирларида ифодаланган профессионал таълим муҳитининг имкониятларини ифодалайди. Шу билан бирга, ташкилий-педагогик шарт-шароитлар таълим вазифаларини самарали ҳал этишни таъминлайдиган муайян имкониятлар ҳамда мақ-

садли педагогик фаолиятига эришишга қаратилган, мазмуни, усуллари ва шакллари яхлитлиги билан белгиланган таълим жараёнининг имкониятлари мажмуи ҳисобланади [8].

Бугунги даврда малака ошириш тизимини бошқаришнинг таълимда амалга оширилаётган ислоҳотларга мутаносиб ва ҳозиржавоб механизмининг мавжудлиги; малака ошириш таълими мазмуни ва сифатига қўйиладиган давлат талабларининг табақалаштирилган ёндашув асосида ишлаб чиқилиши; таълим мазмунини шакллантиришда эҳтиёжларнинг ҳисобга олиниши; тизимда таълим сифатини мониторинг қилиш ва сифатни бошқаришнинг замонавий механизмларини жорий этиш каби ташкилий-педагогик шароитларни кўрсатди. Шунингдек, малака ошириш тизимидаги таълим сифатининг асосий ташкил этувчилари: таълим муҳитининг ташкил этилиши сифати (кадрлар, ахборот, техника, ўқув-методик таъминот); таълим жараёни сифати (малака ошириш курсларидаги таълим мазмуни, таълимнинг шакллари, методлари ва технологиялари, профессор-ўқитувчилар савияси) ҳам таълим сифати ҳамда уни бошқариш самарадорлигига таъсир этувчи муҳим омиллардан ҳисобланади [9].

Раҳбар ва педагог кадрлар касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш мазмуни ва зарурий педагогик шарт-шароитлари қуйидагича белгиланади:

1. Ташкилий шароит. Касбий компетентликни ривожлантиришнинг билвосита ва бевосита шаклларини амалиётга тўлиқ киритиш ва уларнинг натижаларини тан олинишига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

2. Мазмунли шароит. Бунда ДТС, малака талаблари, ўқув режалари, такомиллаштирилган таълим дастурлари, таълим технологиялари асосидаги ўқув-методик мажмуалар, илмий ва ўқув-методик ишланмалар, электрон дарсликлар, назорат воситалари: ижодий педагогик топшириқлар, кейслар, ижодий топшириқлар, мутахассислик йўналишлари билан боғланган лойиҳа ишлари алоҳида ўрин тутади.

3. Технологик шароит. Раҳбар ва педагог кадрлар касбий компетентлигини ривожлантиришда ҳамкорликдаги муносабатларга имконият яратувчи ўқитишнинг инновацион шакл, метод ва воситаларини амалиётга кенг татбиқ этиш, профессор-ўқитувчиларнинг касбий маҳорат даражасини ошириш ва амалиётга татбиқ этиш учун технологик шароит асос қилиб олинди.

4. Рефлексив шароит. Яратилган дидактик шарт-шароитларнинг натижавий-маҳсули сифатида касбий компетентликнинг сифат даражаси индикаторлари квалиметрияси ва монторингига хизмат қилувчи, шунин-

гдек, раҳбар ва педагогнинг фаолият натижаларидан қониқиш ҳисси ва ўз фаолиятини баҳолай олиши учун зарурий шароитларнинг яратилишига алоҳида эътибор бериш [6].

Шундан келиб чиқиб, ташкилий-педагогик шарт-шароитлар – бу педагогик назарияда ўрганилаётган педагогик тизим объектининг процессуал жиҳатини илмий асослаш учун қўлланиладиган имкониятлар (таъсир чоралари) йиғиндисини аниқлаш ва уларнинг самарали ишлаши ва ривожланиши учун қўлланиладиган шартларнинг ўзига хос мажмуасидир.

Нодавлат таълим ташкилотларининг бошқарув тузилмасидаги ўзига хослик, академик ва молиявий мустақиллик механизмларининг мавжудлиги мазкур таълим ташкилотларидаги ташкилий-педагогик шарт-шароитларни белгилаш ва амалга оширишдаги меҳнат бозори талабларидан келиб чиққан ҳолда, мослашувчанлик ҳамда рентабеллик жиҳатларига ҳам боғлиқ бўлади (2-жадвал).

2-жадвал.

Нодавлат таълим ташкилотларида ташкилий-педагогик шарт-шароитлар тизими

Ташкилий-педагогик шарт-шароитлар	Мазмуни ва хусусиятлари
Ижтимоий йўналганлик	Ташкилот мақсади, миссияси ҳамда фаолият йўналишларининг давлат, жамият талабларига, ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларга мослиги, таълим хизматлари истеъмолчилари ҳамда меҳнат бозори талабларига йўналганлиги
Норматив-меъёрий таъминот	Нодавлат таълим ташкилотининг амалдаги норматив-меъёрий ҳужжатлар, Низом ва тартиблар асосида иш фаолиятини ташкил этиши, ўз Уставига эгалиги, локал норматив ҳужжатларининг ишлаб чиқилганлиги
Таълим мазмуни	Малака талаблари асосида ўқув режа ва фан дастурларининг ишлаб чиқилганлиги, дастурлар мазмунининг замонавийлиги ҳамда таълим олувчиларнинг касбий ва шахсий ривожланиш даражасига мослиги
Бошқарув тизими	Бошқарув субъектлари-раҳбар кадрларнинг компетентлиги, инновацион салоҳияти, педагогик тажрибаси, бошқарув методлари ва улардан фойдаланиш, бошқарув қарорлари ва уларни қабул қилиш йўллари ҳамда раҳбарлик услублари борасидаги компетенцияларнинг шаклланганлиги

Педагогик-психологик қўллаб-қувватлаш	Таълим муассасасидаги педагог кадрларни ҳамда тингловчиларни замонавий билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришларига ёрдам берувчи ва қўллаб-қувватловчи қўшимча таълим хизматлари (facilitation, coaching, consulting, networking ва бошқалар), персонални шахсий ва касбий ривожланиши учун яратилган шароит, ижодий муҳит
Ахборот-дастурий таъминот	Таълим дастурларининг белгиланган даражасини амалга ошириш учун ўқув биноларини зарур дарсликлар, ўқув-методик адабиётлар ва замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва ўқитиш тизимларига асосланган (LMS) ахборот-дастурий таъминот, воситалар билан таъминлаш
Ижтимоий ҳамкорлик-экотизим	Таълим жараёнининг субъектлари: ота-оналар, иш берувчилар, жамоатчилик ташкилотлари ҳамда ижтимоий институтлар билан ўзаро ҳамкорлик асосидаги “экотизим”нинг яратилганлиги
Академик даража	Ташкилотнинг академик мобиллиги, кадрларнинг салоҳияти, илмий-тадқиқотчилик фаоллиги, рейтинг кўрсаткичлари
Молиявий стратегия	Ўқиш муддати ва шартлари, тўлов миқдори, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда бошқа шартлар белгиланган шартномага мувофиқ таълим олувчилар-тингловчилар билан ишларни ташкил этиш борасидаги бизнес стратегияларнинг белгиланганлиги
Маркетинг технологиялари	Ташкилотнинг меҳнат бозори талабларини эътиборга олган ҳолда самарали фаолият кўрсатишини таъминловчи ички ва ташқи имкониятларининг узоқ муддатга мўлжалланган форсайт стратегиясининг белгиланиши, бренд-менежмент

Кўплаб педагогик-психологик адабиётларда малака ошириш бу мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш асосида касбий вазифаларнинг самарали ечимини таъминлашга хизмат қилувчи касбий тайёргарликнинг амалий фаолиятда намоён бўлишига шароит яратувчи таълим тури сифатида изоҳланади. Шу билан бирга, малака ошириш жараёнлари мазмунининг мутахассис касбий тайёргарлик даражасига қўйиладиган малака талабларига ҳамда эҳтиёжларга йўналганлиги ҳам қайд этилади. Бу меҳнат бозорининг замонавий мутахассисларга бўлган талаблари, интегратив касбий-шахсий сифатлар мажмуаси ҳамда компетен-

цияларга йўналтирилган касбий фаолият мазмуни орқали ифодаланади. Шунга кўра, нодавлат таълим ташкилотларида малака ошириш жараёнларини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитларини мутахассисларнинг касбий фаолияти ва ҳаёти давомида доимий ривожланиш динамикасини таъминлашга хизмат қилувчи узлуксиз жараён сифатида баҳолаш лозим. Бу эса, нодавлат таълим ташкилотларидаги таълим мазмуни ва тузилмасини инновацион ёндашув талаблари асосида такомиллаштириш мақсадини белгилайди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637 сон Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сонли қарори

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 17 январдаги “Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 25-сонли қарори/Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.01.2022 й., 09/22/25/0033-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Нодавлат таълим ташкилотлари фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 24 декабрдаги 1028-сонли қарори

5. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования : учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Э. Ф. Зеер. – Москва : Академия, 2009. – 378 с.

6. Мирсолиева. М. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед.фан.док. дисс.-2019, Б-116-118.

7. Полонский В.М. Критерии и методы оценки качества педагогических и междисциплинарных исследований. М.: Образовательные технологии № 4/2015.

8. Эргашев Б. Профессионал таълим йўналиши талабаларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг педагогик стратегиясини лойиҳалаштириш. Пед. фан. док. ... дис. автореф. –Т., 2012. – 46 б.

9. Юлдашев М.А. Халқ таълими ходимларини малакасини оширишда таълим сифати менежментини такомиллаштириш: докторлик дисс. автореф. ...пед.фан.док. – Тошкент, 2016. – 92 б.

10. https://www.uzedu.uz

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада нодавлат таълим ташкилотларида педагог кадрлар малакасини оширишни ташкил этиш масаласи ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается вопрос организации повышения квалификации педагогических кадров в негосударственных образовательных организациях.

SUMMARY

This article discusses the issue of organizing advanced training of teaching staff in non-state educational organizations.

RAHBARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PORTRETI

Shamiyeva O R.
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
«ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasi

Kalit so'zlar: shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, rahbar shaxsi, shaxsiy xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlar.

Klyuchevыe slova: sotsialno - psixologicheskiye xarakteristiki lichnosti, lichnost rukovoditelya, chertы lichnosti, kachestva lichnosti.

Keywords: social and psychological characteristics of personality, personality of the leader, personality traits, personality traits.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq Respublikamiz hukumati tomonidan rahbarlik va boshqaruv masalalariga alohida etibor qilinmoqda. Insoniyat jamiyatda taraqqiy etib fan-texnika, ishlab chiqarish texnologiyalari va munosabatlari takomillashib borar ekan, bu jarayonlarni hal qiluvchi rahbarlik va boshqaruv muammosining dolzarbligi va unga nisbatan e'tibor tobora ortib boraveradi. CHunki bu muammolarning har tomonlama jiddiy o'rganilishi har qanday jamiyat va davlat taraqqiyotini taminlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada esa aynan rahbar shaxsi, uning muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyati uchun xos va zurur xislatlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kunda zamonaviy rahbarning yuqori mahorat darajasini ko'rsatadigan muhim kasbiy mezonlaridan biri bu professional kompetentsiyadir. U tashkilot faoliyati bilan bog'liq muammolarni hal qilishda rahbarning ko'nikmalari, qobiliyatlari, bilimlari va tajribasini o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetentsiya darajasining ko'rsatkichi rahbar tomonidan qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlarning samaradorligi va muvofiqligida ko'rinadi. Bunda quyidagi fazilatlar muhim o'rin tutadi.

Tashkilotchilik qobiliyatlari xodimlar guruhining ishini tashkil etish, uni malakali rejalashtirish va taqsimlash, rahbarlarni tayinlash va nazoratni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. [2, 25 b]

Pedagogik fazilatlar rahbarning o'z qo'l ostidagilarni tayyorlash va tarbiyalash, uning xatti-harakatlarini tahlil qilish, o'z faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini

ko’ra bilish, o’z bo’linmasi va butun tashkilot vazifalariga nisbatan harakat qilish qobiliyatini ko’rsatadi.

Kommunikativ fazilatlar - bu jamoa, katta menejer va hamkasblar va bo’ysunuvchilar, nazorat organlari va boshqalar bilan bevosita muloqotda amalga oshiriladigan fazilatlar.

Axloqiy fazilatlar - bu rahbarning shaxsiy tamoyillari va qadriyatlariga mos keladigan fazilatlar, masalan, halollik, kamtarlik, odoblilik va boshqalar. Rahbarning axloqiy fazilatlarining yuksak darajada rivojlanishi shaxsning kasbiy tuzilishining tashkiliy-pedagogik quyi tuzilmasini samarali shakllantirishga yordam beradi.

Rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik portreti quyidagi fazilatlar asosida shakllanadi:

– ishlab chiqarish sohasidagi kompetentsiya;
– tashkilotchilik intuisiyasi kasbiy bilim va tajriba birikmasi sifatida;
– faoliyatni tashkil etish qobiliyati;
– pedagogik qobiliyatlar;
– hissiy va irodaliy faoliyat.

Faoliyatni tashkil etish qobiliyati uchta komponentni o’z ichiga oladi: a) tashkilotchilik faoliyatiga tayyorlik; b) tashkilotchilik faoliyatini amalga oshirishda qulaylik-bezovtalik hissi; v) yuqori darajadagi samaradorlik, bu rahbarning uzoq vaqt davomida samaradorlikning keskin pasayishisiz tashkiliy faoliyat bilan shug’ullanish qobiliyatida namoyon bo’ladi.

Tashkilotchilik faoliyatiga tayyorlik shaxsning motivatsion sohasi bilan bog’liq. U o’z - o’zidan tashkilotchilik faoliyati bilan shug’ullanish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Tashkilotchilik faoliyatga aralashish zarurati shunchalik kuchliki, odam chetda turolmaydi. Bu xususiyat o’zini odamlarda erta yoshdan boshlab namoyon qiladi.

Hissiy – irodaviy harakat - bu rahbarni o’z xodimlarining kuchini oshirish, ularda qulay hissiy kayfiyatni shakllantirish qobiliyatidir. Bu sifat uchta komponentni o’z ichiga oladi: ijtimoiy yoki umumiy kuch, tanqidiylik va talabchanlik.

Ijtimoiy yoki umumiy kuch shundaki, bunda xodimlar qiziqish va ishtiyoq bilan rahbarning ular oldiga qo’ygan muammolarni hal qilishga kirishadilar. Bunday qobiliyatga ega bo’lgan rahbarning borligini ish jarayonida xodimlarining yuzidagi ifodasi orqali osongina aniqlash mumkin.

Talabchanlik - bu rahbarni qo’l ostidagilarning o’z kasbiy vazifalarini bajarishini izchil va qat’iy nazorat qilish qobiliyatidir. Bunday holda, mavjud vaziyat talablari va tashkilot maqsadlari o’rtasidagi muvofiqlik katta ahamiyatga ega. Talabchanlikning muhim xususiyati uning individualligidir. Agar rahbar qo’l

ostidagilardan muammolarni hal qilishni talab qilib, yuqori organlarga tayansa (talab qiluvchi o'zi emas, balki ular), demak, bu uning shaxsiyatida talabchanlik kabi ijtimoiy-psixologik xususiyat shakllanmaganligini ko'rsatadi. [4,7 b].

Tanqidiylik rahbarning maqsadga erishish uchun rejalashtirilgan dasturni amalga oshirishdagi muhim kamchiliklarni aniqlash qobiliyatini anglatadi. Me'yordan yoki mo'ljallangan yo'ldan kichik og'ishlar, shuningdek, bo'ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlari va harakatlari tanqid qilinganda, tanqidiylikni sinchkovlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Rahbarning ijtimoiy-psixologik portreti, aksariyat ekspertlarning fikriga ko'ra, sanab o'tilgan fazilatlardan tashqari, quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuqori darajadagi aql va yangi bilimlarni egallashga intilish; ijodkorlik va rivojlangan tasavvur; energiya va irodaviy o'zini o'zi boshqarish.

Internallik - bu insonning o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga moyilligi. Rahbarning muayyan kurash strategiyalarini shakllantirish va tanlashda internallikni rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Bu xususiyat unga o'z hayotini nazorat qilish tuyg'usini boshdan kechirish, bunday o'zgaruvchan va beqaror dunyoda xavfsizlik hissini oshirish imkonini beradi.

Bu fazilat, ayniqsa, mamlakatimizda tez o'zgarib borayotgan madaniy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yetakchilarning moslashuviga yuksak talablar qo'yayotgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyati, aksariyat hollarda, ikki tomonlama xususiyatga ega: yuqori boshqaruvga nisbatan ijro faoliyati va o'z bo'ysunuvchilariga nisbatan boshqaruv faoliyati. Ushbu kasbiy rollarni birlashtirish uchun rahbarga yuqori darajada javobgarlikni rivojlantirish kerak bo'ladi. [1, 9 b.])

Shunga ko'ra, ichki lokus nazorat internal, tashqi – eksternal sifatida belgilanadi. Lokus nazorati (lotincha locus-joy, manzil va fransuzcha controle nazorat tekshirish – shaxsning o'z faoliyati natijalarini va masuliyatni tashqi omillarga (tashqi lokus nazorati) ga yoki ichki omillarga va qobiliyatlari ichki lokus nazorati) ga yuklash ma'nosini anglatadi.

Bu tuzilmalarning ikkalasi ham barqaror bo'lib shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi. O'tmishdagi hayotiy tajribalar insonning xatti-harakati va keyingi voqealar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan kutishlarini shakllantirishga ta'sir qiladi. O'tmishdagi hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish asosida inson turli hodisalarga o'zi ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki jihatdan aniqlangan munosabatni shakllantiradi, bu holda odamda internal (ichki) yo'nalish rivojlanadi, yoki tashqi omillar, vaziyatlar va boshqa odamlarga qarab tashqi jihatdan belgilangan tashqi yo'nalish rivojlanadi. Tashqi yo'nalishning ekstremal

holati - bu o'rganilgan nochorlik hodisasi, bunda odam hech narsa unga bog'liq emasligiga va u nima qilsa ham vaziyatga hech qanday ta'sir qilmasligiga ishonch hosil qiladi. Internallik va eksternallik (ichkilik va tashqilik) birinchi navbatda, ijtimoiy mas'uliyatni belgilashga ta'sir qiladi.

G'alabalar va mag'lubiyatlar, yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklar uchun javobgarlik internal va eksternallarda farq qiladi. Eksternallar oqibatlar uchun javobgarlikni tashqi omillarga yuklaydi, muvaffaqiyatsizliklar bo'lsa sabablarini muammolarning murakkabligi, ularni hal qilish uchun vaqt yo'qligi, yuzaga kelgan aralashuv va boshqalarda deb dilishadi. Ular boshqa odamlarning baholariga asoslanishadi. Shuning uchun, muvaffaqiyatga erishgandan so'ng, ular faollik darajasini pasaytiradi va muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan keyin ular ko'proq harakat qilishni boshlaydilar. Eksternallarda ko'zlangan maqsadga erishish qobiliyati, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi past, ular ko'pincha o'z imkoniyatlariga mos kelmaydigan vazifalarni qo'yadilar, qisqa muddatli va ahamiyatsiz yutuqlardan qoniqadilar.

Internallar o'zlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun o'zlarini javobgar deb bilishadi. Ular muvaffaqiyatdan keyin faollashadi va mag'lubiyatdan keyin faollik darajasini pasaytiradi, ular murakkab muammolarni hal qilishni afzal ko'radilar, muvaffaqiyatdan keyin ularda hissiy kayfiyat mavjud, bu ularga qo'shimcha kuch beradi.

O'z - o'zidan ma'lumki, mutlaqo internal va eksternal odamlar yo'q, chunki u yoki bu yo'nalishning ma'lum darajasi har bir shaxsda shakllanadi. Agar ular teng ifodalangan bo'lsa ham, bir vaqtning o'zida faqat bitta turdagi yo'nalish paydo bo'lishi mumkin. [3, 12 b.]

14. Koziboeva Ozodkhan Mahmudovna,Mominov Daniyor Gulomovich, Abdinazarova Khidoyatkhan Oripovna, Yuldasheva Dilshoda Geoecological basis of south fergana nature protection and rational use of natural resources.International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022
15. Kuziboyeva O.M.Muminov D.G. Xabibullayeva M. Use of irrigated land and landscape-ameliorative assessment (in the case of andijan region. «Экономика и социум» №1(104)-2 2023.DOI-18581/2020
16. Қўзибоева О.М.Азимжонова Ш7.Кўзибоева О.М. Абдужалилов С. Бувайда тумани ер ресурсларидан фойдаланишнинг геоэкологик асослари. «Экономика и социум» №1(104)-2 2023.DOI-18581/2020
17. Quzibayeva Ozodakhan Makhmudovna, Muhammedjonova Nigora Zafarjon qizi. Ecological toponyms and their teaching in geography lessons sjif Impact Factor (2023): 8.574| ISI I.F. Value: 1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online) EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 8 | Issue: 3 | March 2023 - Peer Reviewed Journa

18. Қўзибоева О.М.Азимжонова Ш. Фарғона водийси табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг географик асослари. «Экономика и социум» №1(104)-2 2023.DOI-18581/2020

19. O.M. Quziboyeva, , M.I. Alijonova The role of shahimardonsoy and isfayramsoy rivers in the national economy of fergana region issn (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 9| Issue: 3| March 2023|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2023: 8.224 || ISI Value: 1.188

20. Кузибаева О., Муминов Д. Развитие географических основ для оптимизации геоэкологических ситуаций юго-западной Ферганы.2023 3\1 Миллий Университет хабарномаси

21. Қўзибоева О, Исроилова О Жанубий Фарғона ландшафтларини тадрижий ўзгаришлари билан иқлимий кўрсатгичларни ўртасидаги боғланишлар таҳлили//// Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/1/1. Тошкент, 2022. -Б. 151.

22. Muminov Daniyor Gulomovich. Some considerations on the ecological status of land resources. International interdisciplinary research journal (giirj). ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718. 2022.

23. Mominov Daniyor Gulomovich. Geoecological basis of south fergana nature protection and rational use of natural resources. International Journal of Early Childhood Special Education (INTJECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.

24. Муминов Дониёр Гуломович. Ландшафтно-экологические аспекты использования земельных ресурсов. Abay nomidagi Qozoq Milliy pedagogika universitetida “Парадигмы естественно-научного образования и науки в целях устойчивого развития” mavzusida o’tkazilgan yoshlar forumi. Noyabr, 2022. 146-150.

РЕЗЮМЕ

Картографик билимларни шаклантиришнинг асосий мазмуни, картографик билимларни шакллантириш усуллари ва атласлар, географик карталар устида ишлаш тўғрисида маълумотлар келтирилган.

РЕЗЮМЕ

Представлено основное содержание формирования картографических знаний, методы формирования картографических знаний и информация о работе над атласами, географическими картами.

SUMMARY

The main content of the formation of cartographic knowledge, methods of formation of cartographic knowledge and atlases, information about work on geographical Cards are presented.

ЯДЕРНО-ФИЗИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЕ РАДИОАКТИВНОГО РАВНОВЕСИЯ МЕЖДУ РАДИОНУКЛИДАМИ ^{226}RA/^{238}U В УРАНОВЫХ ОБРАЗЦАХ

Солиев Т.И., Суюнов У.А.
Навоийский государственный педагогический институт
Аллаберганова Г.М., Музафаров А.М.
Навоийский горно-технологический университет

Tayanch soz'lar: radioaktiv muvozanat koeffitsienti, radionuklidlar 226Ra va 238U, yemirilish omillari, yarim yemirilish davri, qaytarilish energiyasi, radioaktiv muvozanat koeffitsienti, yadroviy yemirilish qonunlari, muvozanat massasi.

Ключевые слова: коэффициент радиоактивного равновесия, радионуклиды 226Ra и 238U, факторы распада, период полураспада, энергия отдачи, коэффициент радиоактивного равновесия, законы распада ядра, равновесная масса.

Key words: radioactive equilibrium coefficient, radionuclides 226Ra and 238U, decay factors, half-life, recoil energy, radioactive equilibrium coefficient, nuclear decay laws, equilibrium mass.

Актуальность. Глобальная проблема дефицита электроэнергии и пути их устранение на сегодняшней день актуальны во всем мире. По этой причине разрабатываются различные способы решения этой проблемы. Одним из наиболее широко используемых методов производства электроэнергии является использование ядерной энергии. Для использования ядерной энергии в мирных целей предопределяет проводить ряд мероприятий и в том числе строительство атомных электростанций и обеспечение их ядерным топливом является ключевым аспектом решений проблем. Основным топливом для атомных электростанций во всем мире являются радиоактивный элемент - уран.

При производств урана возникает различные вопросы определения радиоактивного равновесия между изотопами - ^{226}Ra/^{238}U, так как в урановых рудах радий является главным источником, дающим вклад в удельную суммарную активность, его концентрация при равновесии с ураном 0,34 мкг/г.

В всех литературах приведено [1-2] что в цепочке распада урана радионуклиды - ^{238}U имеет $1{,}23 \cdot 10^4$ Бк/г удельной активности, а ^{226}Ra имеет $3{,}7 \cdot 10^{10}$ Бк/г удельной активности [3-5].

Проведённые в последних годах исследования [6-8]. показали, что радионуклиды ^{238}U и ^{226}Ra не всегда находятся во взаимном радиоактивном равновесии. Этот фактор является основным фактором, дающую информацию для определения мощности урановосного ролла. Значения радиоактивного равновесия между изотопами $^{226Ra/238U}$ - является явным показателем определений границ пустой породой с урановосной толщиной [9-12].

Учитывая вышеперечисленных, исследование причин нарушений радиоактивного равновесия между радионуклидами $^{226}Ra/^{238}U$ - является актуальным вопросам в ядерной физики, геохимии и радиоэкологии [13-15].

Техника и методы эксперимента Прежде чем изучать ядерно-физические факторы, влияющие на нарушение радиоактивного равновесия между изотопами $^{226}Ra/^{238}U$ познакомимся с закономерностями радиоактивного распада урана.

Согласно теоретическим расчетам, радиоактивного равновесия между изотопами $^{226}Ra/^{238}U$ в этой цепочке должен удовлетворить следующего:

$$Кpp = A(^{226}Ra)/A(^{238}U)=1 \quad (1)$$

здесь Кpp-коэффициент радиоактивного равновесия, $A(^{238}U)$ - активность радионуклида ^{238}U, $A\ (^{226}Ra)$ - активность радионуклида ^{226}Ra.

Однако полученные результаты показывают, что этот закон не всегда выполняется, то есть значение радиоактивного равновесия $K_{pp} \neq 1$. Рассмотрим факторы, влияющие на коэффициент радиоактивного равновесия. На рис.1 приведён смешения дочерных радионуклидов в цепочке распада урана.




Рис.1. Принципальный схематический вид смешения дочерных радионуклидов цепочки распада урана

Видно, что образовавщие от материнского радионуклида дочерные радионуклиды, после каждого альфа-распада получает энергии отдачи и данные дочерные радионуклиды отделяетяся от материнского ядро.

Альфа-распад материнских ядер происходить с определенной интенсивности или в несколько миллионов раз в течение определенной времены. При каждом акте радионуклиды отдельяется друг от друга на растояние для ^{238}U на 17,10 нм, ^{234}U на 19,81, для ^{230}Th на 19.99 нм, ^{226}Ra на 21,02 нм, ^{222}Rn на 24,81 нм, ^{218}Po на 27,87 нм, ^{214}Po на 36,44 нм и ^{210}Po на 25,61нм.

Таким образом полученные результаты показали, что дочерний радионуклид при альфа-распаде находится на большом расстоянии от материнского ядра. Отсюда можно сделать вывод, что дочерние ядра, образующиеся при реакции альфа-распадах, распределены в природе неравномерно из-за того, что образуются в несколько раз больших расстояниях вдали от радиуса материнского ядра, что может привести к нарушению радиоактивного равновесия между радионуклидов в цепочке.

Литература:

1. Возженников Г.С., Белышев Ю.В. Радиометрия и ядерная геофизика /Учебное пособие. - Екатеринбург: 2006. - 418 с.

2. Котляр В.Н., Баюшкин И.М., Данчев В.И. и др. Месторождения радиоактивных и редких металлов /Учебное пособие для ВУЗ. - М.:Атомиздат, 2001. - 371 с.

3. Рафальский Р.П. Гидротермальные равновесия и процессы минералообразования. - М.: Атомиздат, 2013. – 290 с.

4. Евсеева Л.С., Перельман А.И., Иванов К.Е. Геохимия урана в зоне гипергенеза. 2-е изд., перераб. - М.: Атомиздат, 2012. -280 с.

5. Аренс В.Ж. Геотехнологические методы добычи полезных ископаемых. - М.: Недра, 2004. – 320с.

6. Мамилов В.А., Петров Р.П., Шушания Г.Р. и др. Добыча урана методом подземного выщелачивания. - М.: Атомиздат, 1980, -248 с.

7. Толстов Е.А., Толстов Д.Е. Геотехнология. - Москва.: 1996, - 465 с.

8. Музафаров А.М., Саттаров Г.С. Исследование изотопного состава урана алфа – спектрометрическим методом. Горний вестник Узбекистана. 2005., №2.(21). стр 94-98..

9. Музафаров А.М. Методика предварителной оценки радиоактивности природных вод. Горный вестник Узбекистана, 2017. №1.(68). – С. 147-149.

10. Музафаров А.М. Саттаров Г.С. Радиоизотопы в природных водах Кызылкумского региона. Горный журнал, Москва, 2017. Спетс выпуск. – С. 86-89.

11. Музафаров А.М., Саттаров Г.С., Петухов О.Ф. Исследование изотопного состава урана альфа – спектрометрическим методом /Горный Вестник Узбекистана. 2005., №2.(21). стр 94-98.

12. Музафаров А.М., Саттаров Г.С., Глотов Г.Н., Кист А.А. О вопросе нарушения коэффициента радиоактивного равновесия между изотопами урана /Горный вестник Узбекистана, 2011. №2.(29). – С. 137-139.

13. Музафаров А.М., Саттаров Г.С. Радиоизотопы в природных водах Кызылкумского региона /Горный журнал, Москва, 2017. Спец ыпуск. – С. 86-89.

Глава 1 14. Allaberganova G.M., Turobjonov S.M., Muzafarov A.M., Kholov D.M. Assessment of the influence of the process of underground uranium leaching on soil and groundwater /International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). November 2019. – Washington DC, - p. 34-39.

15. Allaberganova G.M., Turobjonov S.M., Muzafarov A.M., JurakulovA.R. Method for conducting of uranium isotopic analysis in various natural waters of uranium-bearing regions of Uzbekistan /

International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR). October 2019. – Washington DC, - p. 52-55.

РЕЗЮМЕ

Tadqiqot ishi yadroviy fizik usullardan foydalangan holda qattiq uran namunalarida radionuklidlar tomonidan $^{226}Ra/^{238}U$ orasidagi radioaktiv muvozanatni buzuvchi omillarni aniqlash usullarini taqdim etadi.

Qattiq uran namunalarida $^{226}Ra/^{238}U$ gacha bo'lgan radioaktiv muvozanat koeffitsientiga ta'sir qiluvchi ko'plab yadroviy fizik omillar mavjud. Ulardan biri qattiq uran namunalaridagi $^{226}Ra/^{238}U$ radionuklidlar orasidagi radioaktiv muvozanat koeffitsientiga ta'sir etuvchi ona yadroning qiz yadroga o'tgan ortga qaytish energiyasidir. Shuningdek, hisoblash tadqiqotlari asosida yadro radionuklidlarining qaytish energiyasining yadro atom massasiga grafik bog'liqligi tuzildi.

РЕЗЮМЕ

В исследовательской работе представлены методы обнаружения факторов нарушения радионуклидами радиоактивного равновесия между $^{226}Ra/^{238}U$ в твёрдых урановых пробах с помощью ядерно-физических методов.

Существует множество ядерно-физических факторов, влияющая на коэффициент радиоактивного равновесия между $^{226}Ra/^{238}U$ в твёрдых урановых пробах. Одним из которых является энергия отдачи материнского ядра, передаваемая дочернему ядру, влияющая на коэффициент радиоактивного равновесия между радионуклидами $^{226}Ra/^{238}U$ в твёрдых урановых пробах. А также на основе расчетных исследований построена графическая зависимость энергии отдачи радионуклидов ядра от атомной массы ядра.

SUMMARY

The research work presents methods for detecting factors that disturb the radioactive balance between $^{226}Ra/^{238}U$ by radionuclides in solid uranium samples using nuclear physical methods.

There are many nuclear physical factors that influence the coefficient of radioactive equilibrium between $^{226}Ra/^{238}U$ in solid uranium samples. One of which is the recoil energy of the mother nucleus, transferred to the daughter nucleus, affecting the coefficient of radioactive equilibrium between $^{226}Ra/^{238}U$ radionuclides in solid uranium samples. And also, based on computational studies, a graphical dependence of the recoil energy of nuclear radionuclides on the atomic mass of the nucleus was constructed.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

KISHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILARGA ZAMONAVIY EKOLOGIK TA`LIM-TARBIYA BERISH MAZMUNI

Joldasbaeva A.
Nukus davlat pedagogika instituti
Masofadan oqitish kafedrasi stajor oqituvchisi

Tayanch so'zlar: tabiat, ta'lim, atrof-muhit, o'quvchi, pedagogika, ekologik ta'lim, maktab.
Ключевые слова: природа, образование, окружающая среда, ученик, педагогика, экологическое образование, школа.
Key words: nature, education, environment, student, pedagogy, environmental education, homeland, school.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiya asosida ta`lim-tarbiya jarayoniga yondashish o`qitish, rivojlantirish va tarbiyalashning yo`nalishlari, muammolari, echimlarini tez hal qilishga yordam bermoqda. Ta`lim tizimining yangi mazmuni, o`quv rejasi, darsliklar asosida o`quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashishni tashkil etish zaruriyati tug`ilmoqda. Shuning uchun Qoraqalpoq maktablarida boshlang`ich sinf o`quvchilariga ekologik ta`lim-tarbiya berishni yangi pedagogik texnologiya asosida o`qish darsilarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov farzandlarimiz ta`lim-tarbiyasiga alohida e`tibor qaratib, quyidagilarni ta`kidlaydi: «Mamlakatimiz istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma`naviy fazilatlar egasi bo`lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog`li faol munosabatda bo`lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog`lik ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta`lim mazmuni va o`quv materiallari tarkibini kengaytirish, shu asosda ekologik ta`lim-tarbiyani chuqurlashtirish lozim. Bunda nafaqat bilim, ko`nikma va malakalar, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak atrofga munosabatlarini ham kiritish nazarda tutilishi kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining tevarak atrofga ijobiy munosabatini shakllantirish jarayonida o`qish darsligi va o`qituvchi mehnati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, darslik va o`quv qo`llanmalarida fanlar erishgan yakuniy natijalar yaxlit holda aks etadi. Bu esa uning amaliyotdagi

ta`sirining xarakterini tashxis qilishimizga imkon beradi. Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarga o`qish darslarida ekologik ta`lim-tarbiya berish ishlari asosiy o`rinni egallashi lozim. Lekin ushbu talabga qaramasdan, boshlang`ich sinf o`qish darsliklarida berilgan har xil hikoyalar, qo`shiqlarda ekologik mazmundagi matnlar etarli darajada bayon etilmagan. Darslik mualliflari ekologik tushunchalarni singdirishga yo`naltirilgan o`quv materiallariga juda kam o`rin ajratganlar. Natijada boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`qish darslarida ekologik ta`lim-tarbiyani kuchaytirish uchun zarur bo`lgan metodik tavsiyalar, qo`llanmalarga juda ham muhtojdir.

Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizda boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarga ekologik bilim va tarbiya berishning ayrim qirralarini ochishga harakat qildik. Qoraqalpoq maktablarida boshlang`ich sinf o`quvchilariga o`qish darslarida ekologik tarbiya berishga qaratilgan bir qator ishlar mavjud. Boshlang`ich sinf «Alifbe» va «O`qish» darsliklarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik [1].

1-sinf Alifbe darsligi «1-sentyabr` O`zbekiston Mustaqilligi kuni» mavzusi bilan boshlanadi [1]. Darslikda O`zbekiston va Qoraqalpog`iston Respublikalarining Davlat bayroqlari, Amir Temur bobomiz haykali va uning orqasida go`zal tabiat manzarasi hamda Toshkent shahrining osmono`par imoratlari juda chiroyli tasvirlangan. 1-sinf o`quvchilariga birinchi darsning o`zidayoq tabiat haqida tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir.

Kitobning 3-betida Nukus shahri markazida joylashgan Berdaq haykali va uning atrofidagi daraxtzorlar tasvirlangan.

Kitobning 4-5-betlarida maktab va sinf xonasi tasvirlangan. Maktab va sinf honasi toza va ozoda, o`quvchilar ham maktab formasida ozoda kiyinganlar. 6-7-betlarda ham o`quvchilarning ertalab turib badan tarbiya, nonushta qilishlari, so`ngra maktabga borishlari, maktabdan qaytib o`z xonasini tozalashi, toza havoga chiqib o`ynashi, televizor ko`rishi, uxlashdan oldin dush qabul qilishi tasvirlangan. Yuqorida berilgan rasmlarni tushuntirish jarayonida o`qituvchi o`quvchilarni ozodalik, kun tartibiga rioya qilish, intizomli bo`lishga o`rgatishi lozim.

Kitobning 8-betida katta Qoraqalpoq oilasining rasmi tasvirlangan. O`qituvchi mazkur rasm orqali o`quvchilarga oiladagi tartib, dasturxon atrofida o`tirish va o`zini tutish, uyni ozoda va tartibli saqlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi xislatlarni singdirishi kerak.

16-17-sahifalarda tabiat manzaralari tasvirlangan. Tabiat qo`ynida futbol o`ynayotgan bolalar, tog` yon bag`rida qo`y-qo`zilarni boqib yurgan otaxon hamda uy hayvonlarining rasmi juda go`zal va rang-barang qilib tasvirlangan.

Kitobning 18-19-betlarida ham tabiat manzarasi, er haydayotgan traktor, traktor atrofida uchib yurgan qushlar, olisdagi tog`lar, moviy osmon tasvirlangan. Mazkur sahifalardagi mavzularni o`tish davomida o`quvchilarga bizni o`rab turgan go`zal tabiatni asrash, daraxt va gullar ekish hamda uy hayvonlarini parvarish qilish kerakligi haqida tushuntirish kerak.

24-25-sahifalardagi rasmlar orqali o`quvchilarni qushlarga mehribon qilib tarbiyalash, ular ham jonli tabiatning bir bo`lagi ekanligi haqida tushuncha berish maqsadga muvofiqdir.

Kitobning 36-37-sahifalarida go`zal dengiz, katta kema, uning atrofida uchib yurgan qushlar tasvirlangan. Mazkur sahifalarda berilgan mavzuni o`tish bilan bir qatorda, o`quvchilarga Orol dengizi nima uchun quriyotganligi haqida tushunchalar berib, o`quvchilarning ekologik bilimlarini oshirish zarur.

40-41-sahifalarda o`quvchilarga er haqida, erdan qanchadan-qancha noz-ne`matlar etishtirilishi haqida tushuncha berish orqali ularning ekologiyaga oid bilimlarini oshirish mumkin.

55-sahifada ham tabiat manzaralari tasvirlangan bo`lib, o`quvchilarga atrof-muhit, uni asrab-avaylash haqida hikoyalar dars jarayonida o`qib berilishi kerak.

Ayniqsa, darslikning 81-sahifasida «Tug`ilgan er» she`ri hamda 82-sahifada «Nukus» mavzusi berilgan bo`lib, ular o`quvchilarning ekologiyaga oid bilimlarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

B.Qutlimuratov, N.Tajenovlarning muallifligidagi 1-sinf o`qish darsligi A.Temur bog`iga bag`ishlangan ekologik ta`lim-tarbiyaviy qo`shiq bilan boshlanadi [2,76]. 1-sinf O`qish darsida O`zbekiston Respublikasining ramziy belgilari davlat bayrog`i, gimni matni, gerbining tasviri rasmiylashtirilgan kunlari har bir o`quvchi uchun o`rganishi zarur bo`lgan holatlar hisoblanadi. Bu ramzlar o`qish darsligining dastlabki sahifasidagi Qoraqalpog`iston Respublikasi davlat belgisini ifodalaydigan bayroq, gerb, madhiyadan boshlanadi. Qoraqalpog`iston Respublikasi davlat bayrog`ida ifodalangan paxta, bug`doy, quyosh tasvirlari Qoraqalpog`iston hududidagi o`simlik dunyosini tushuntirishda katta ahamiyatga egadir.

O`quvchilarni «A.Temur bog`imizda» nomli qo`shiq bilan tanishtirish jarayonida ularni tabiatni sevish, atrof-muhitga mehr-oqibatli bo`lish ruhida tarbiyalash, buyuk sohibqiron haqidagi haqiqatlarni oddiy so`zlar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir [3,55].

Bu yoshdagi o`quvchilarga tabiat fasllarini o`rgatish asosida ekologik ta`lim-tarbiya berish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinfda «Qish» mavzusini o`tish orqali o`quvchilarga qish mavsumi haqida kengroq tushunchalar berish

imkoniyati tug`iladi [3,78]. Bunda o`quvchi ongida qishda qanday o`zgarishlar bo`ladi? degan fikr-mulohazalar hosil qilish katta ahamiyatga egadir. O`quvchi bola qish mavsumi, uning o`ziga xos xususiyatini qay darajada tasavvur qila olishini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

1-sinf o`qish darsligidagi she`rlarda o`quvchilarga ekologik ta`lim–tarbiya berishga xizmat qiladigan fikrlarni ko`plab uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda bu yoshdagi o`quvchilar sevib o`qiydigan ertaklar yordamida ham ularga ekologik ta`lim berishda keng foydalanish mumkin. Masalan, B.Maxmudovning «Aqlli Dehqon bobo» mavzusidagi ertakni misol qilib olishimiz mumkin [87]. Ertakda o`z mehnati bilan atrof-muhitni gullatgan, rizqimizni boyitgan, erni qadrlab kelgan aqlli Dehqon bobo to`g`risida fikr yuritiladi. Uning bor yo`g`i ozgina eri bo`lib, unda qishi-u yoz tinmasdan mehnat qiladi. Dehqon boboning tinimsiz mehnati, erni bilish xususiyati uni yurtga tanitadi. Hatto uning erni parvarish qilish to`g`risidagi qobiliyati podshohga ham etib boradi. Podshoh Dehqon boboni chaqirtirib:

-Qani, aytchi, dunyoda nima barakali ?- deb so`rabdi.

Dehqon bobo:

-Dunyoda urug` barakalidir -deb javob beradi.

-Qanaqa urug`?

-Bahorda erga tushgan bir dona bug`doy urug`i, yozda bir siqm bug`doy, bir dona chigit, bir g`alvir paxta, jug`orining bir donasi ming dona bo`ladi. Menimcha dunyoda bundan boshqa barakali narsa bo`lmasa kerak,-debdi Dehqon bobo.

Podshoh aqlli Dehqonning o`rinli javobidan ko`ngli to`ladi va darhol unga o`n tilla olib kelib berishni buyuradi. Shunda Dehqon bobo:

-Menga o`n tillang kerak emas, uning o`rniga bir g`alvir urug`lik bug`doy ber deb, iltimos qilibdi. Bu javobni eshitgan podshoh Dehqon boboning haqiqiy dehqon ekanligiga ishonch hosil qilibdi va unga bir g`alvir bug`doy va o`n tilla berib siylabdi [4].

Bu ertakni o`quvchilarga oddiy tilda, obrazli qilib etkazishda urug`likning dunyoda tilladan ham ustun ekanligi tushuntirib beriladi.

Aqlli Dehqon erga bo`lgan hurmat-izzati, mehnatsevarligi, erdan olinadigan hosillarni qadrlay bilish hislatlari bilan podshohning ham ko`nglini to`ldiradi. Dehqon podshoh in`om etgan o`n tilladan ko`ra barakali bir g`alvir bug`doy urug`ini afzal ko`radi va o`zining haqiqiy dehqon ekanligini isbot eta oladi.

1-sinf o`quvchilariga ushbu jarayonni tushuntirishda tabiatni e`zozlaydigan har qanday inson hamma erda hurmatga sazovor bo`lishiga o`quvchilarni ishontirish, ularda ona zaminga , uning boyliklari, saxovatiga muhabbat

uyg`otish lozim. Dehqon bobo o`zining mirishkorligi tufayli boyigani, ya`ni bir g`alvir bug`doy bilan birga o`n tillaga ham ega bo`lganligini o`quvchilarga ibrat qilib ko`rsatish maqsadga muvofiqdir.

X.Saparov muallifligidagi «Buzog`im» va «Oq quyon» kabi qo`shiqlarda 1-sinf o`quvchilariga o`qish darslarida ekologik ta`lim-tarbiya berishda quyon, buzoq kabi hayvonlarga ham ta`rif beriladi [5].

O`qish darslarida ekologik tushunchalarni darsdan darsga boyitib borish, unda oldingi darsda aytilgan fikrlarni keyingilarida to`ldirish, kengaytirish talab etiladi. Masalan, «Nonni e`zozlaylik» [6] mavzusidagi dars jarayonida bug`doy urug`idan ungan nonning qadri haqida fikr yuritiladi. O`quvchilarga non tirikchilik manbai, inson umrining tayanchi, dasturxon ko`rkidir, degan fikrlarni obrazli tarzda etkazish samarali natijalar beradi. Birinchi sinf o`quvchilariga dars jarayonida kundalik ist`emol qilinadigan nonning qadr-qimmatini oshirish uchun uni tayyorlash kabi mehnat jarayonini oddiy ko`rgazmali qurollar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi sinf o`quvchilari nonning qanday bo`lishini biladilar, lekin ularning barchasi ham bug`doy nonining tayyorlanish jarayoni, unga sarflanadigan mehnatni bilmaydi.

O`quvchilarning atrof-muhitga bo`lgan ongli munosabatini rivojlantirish va dars jarayonida ekologik fikrlarini kengaytirish uchun Sh.Atamuradovaning «Non» qo`shig`idan foydalanish ham o`z samarasini beradi. Birinchi sinf o`quvchilari bu she`rni o`qib yod olishi jarayonida tabiat hodisalari, undagi o`simlik va boyliklarning qadr-qimmatiga etish ko`nikmalari rivojlanadi.

Shunday qilib, o`quvchilarning ekologik tushunchalari “Dehqon bobo” haqidagi ertak, “Nonni qadrlash” haqidagi mavzular, qo`shiqlar S.Salievning “El rizqi” mavzularini o`tish jarayonida yanada kengayadi va mustahkamlanadi. “El rizqi” mavzusida ham bug`doy urug`i, donning el rizqi ekanligi Otaxon tarafidan bolaning ongiga oddiy, obrazli usul bilan tushuntiriladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullah E. (2011). Integration of environmental knowledge across biology, physics and chemistry subject at secondary level in Malaysia. Procedia- Social and Behavioural Sciences, 15, 1024-1028.

2. Абдрашитова И.В. Формирование нравственного и эстетического компонентов экологической культуры студентов педвуза / Автореф. канд. пед. наук. – Казань, 2004. – С. 22.

3. Авазов Ш. Қишлоқ мактаблари юқори синф ўкувчиларини ўлкашунослик фаолияти жараёнида экологик тарбиялаш // Пед. фан. Номз. дисс. – Т.: 1993. – 161 б.

4. Aleksandr, R. & Poyyamoli, G. (2014). The effectiveness of environmental education for sustainable development based on active teaching and learning in high school is an example from the Puducherri and Cuddalore provinces of India. Journal of Sustainability Education, 7.

5. Алауаддинов С. Ислом дини манбаларида тарбиявий фикрлар ва уларни педагогик таҳлил этиш механизмлари // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. ¬– Нукус, 2019. ¬– 158 б.

6. Алеуов У. Қарақалпақ халқының педагогикасы жаслардың мийнет тәрбиясы ҳаққында. Қарақалпақ халқының этнопедагогикасы. Мақалалар топламы. ¬¬– Нөкис. «Билим»,1995. – Б. 27-36.

7. Алеуов У. Қарақалпақ халқының жасларға экологиялық тәрбия бериў дәстүрлери. // Вестник каракалпакского отделения АН Респ. Узб. 2001. – № 1-2. 82-91-б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu ilmiy maqola yaxshi usullardan foydalangan holda yoshlarni ekologik tarbiyalashning tizimli texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, o'qitish texnologiyalari alohida ishlab chiqilgan va yoshlarga ekologik ta'lim berishda ulardan foydalanish usullari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная научная статья направлена на совершенствование систематических технологий экологического просвещения молодежи с помощью хороших методов. При этом отдельно разработаны обучающие технологии и показаны пути их использования в экологическом просвещении молодежи.

SUMMARY

This scientific article seeks to increase the systematic technologies of environmental education of young people through proper methods. Moreover, teaching technologies have been developed separately and ways to use them in environmental education of young people are shown.

KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI FAZOVIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Kurbonova Yu.Dj.
Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta`lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: fazoyiy tasavvur, mo‘ljal ollish, mashg`ulot, harakat yo’nalishi, tana a`zolari, nishonni aniqlash, o‘yin mashlari, didaktik materiallar.

Ключевые слова: пространственное восприятие, прицеливание, тренировка, направление движения, части тела, идентификация цели, игровые сетки, дидактические материалы.

Key words: spatial perception, aiming, training, direction of movement, body parts, target identification, game meshes, didactic materials.

Faol harakat qilish fazoda mo‘ljal olishning zarur komponentidir, chunki inson fazoda “joyning bir nutqiasidan ikkinchi nuqtasiga harakat qilib, muvaffaqiyatli o‘tishini amalga oshirish uchun” fazoda mo‘ljal ola bilishi lozim bo‘ladi. Shuning uchun, fazoda mo‘ljal olish amalda har doim quyidagi uchta topshiriqqa amal qilinishi bilan bog`liq:

- harakat (yo‘nalishi)ni tanlash;
- shunga rioya (amal) qilish (yo‘nalishni saqlash);
- harakat oxirida maqsad (nishon)ni aniqlash.

Bundan harakatlarning o‘zaro muvofiqligi va aniq fazoviy mo‘ljal olganligi muhim komponentlar va shu bilan birga insonning fazoda mo‘ljal olishini egallashning ko‘rsatkichi ekanligi ko‘rish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining ikkinchi yilida (yurishga o‘rganishi bilan) tanish fazoni (xonani, uning qismini) ancha aniq tasavvur qila boshlaydilar, tanish buyumlarning joylashuvidagi ba`zi o‘zgarishlarni qiynalmay payqay oladigan bo‘ladilar. Bolalarda ikki yoshligidanoq tanish chegaralangan fazoda harakat qilish haqida dastlabki elementar tasavvurlar tarkib topa boshlaydi va bu tasavvurlar uning hayotiy faoliyati davomida rivojlanib boradi.

Bolalarning dastlabki fazoviy tasavvurlari ularning nutqida ham aks eta boshlaydi (“mana”, “bu erda”, “u erda” kabi). Shuning bilan bir vaqtda so‘zlar harakat yo‘nalishini yoki buyumni ko‘rsatuvchi imo-ishoralar bilan kuzatiladi.

Ana shu yoshda bolalar o‘ziga, boshqa odamga nisbatan mo‘ljal olishni egallay boshlaydilar. Kattalarning takliflariga binoan, qo‘g`irchoqning ko‘zlari, og`zi, burinini, qo‘lchalari qayerdaligini mamnuniyat bilan ko‘rsatadilar. Uch yoshga qadam qo‘ygan bolalar, masalan, o‘zlarining chap va o‘ng qo‘llaini farqlay boshlaydilar. Bunda katta odamning vazifasi bolaning shu malakalarni egallab olishiga yordam berishdan iborat bo‘ladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalar kun davomida bo‘lar ekan, nafaqat belgilangan mashg`ulotlarda, balki mashg`ulotdan bo‘sh vaqtlarda ham atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllanib boradi. Bunda tarbiyachilarning bolalar bilan ta`limiy jarayonlarni tashkil etishda qo‘llaydigan usullari muhim ahamiyat kasb etadi, Tarbiyachilar bolalarga fazoni idrok qilish haqida tushuncha berar ekan, tushunchalarini shakllantirishda turli metodlarni qo‘llaydilar.

Bolalarda fazoni mo‘ljalga olish tushunchasini shakllantirishda maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi kun tartibining har xil vaziyatlari (ovqatlanish, yuvinish, kiyinish, sayrga chiqishga yig`ilish) da foydalanish mumkin. Macalan bolalarga o‘z qo‘llarini farqlash malakasini hosil qilish uchun aniq pedagogik vaziyat: musiqa, matematika, harakatli o‘yinlar vaqtida va tjismoniy rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda bir necha daqiqa ajratish mumkin. Masalan, kichik guruhlarda tarbiyachi dasturdagi belilangan vazifalarni inobatga olgan holda jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida “o‘ng qo‘limizni ko‘tarishdan boshlaymiz kabi vazifalarni o‘zi ko‘rsatgan holda bajarishga undaydi. Bunda galdagi vazifa xuddi oldingidek, o‘z qo‘llarini farqlash ko’nikmasini takomillashtirishdan iborat. Shu asosda keyingi yosh guruhlarda tarbiyachi o‘z tarbiyalanuvchilarini o‘ng va chap oyoqlarini, ko‘zlarini bir-biridan farqlashga o‘rgatadi. Dasturning bu vazifasi bolalarni umumlashtirilgan idrokka, juft qarama- qarshi tomonlarni farqlashni o‘rganishga olib keladi.

Bolalarda fazoni idrok qilish tushunchalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan n metodilaridan biri o‘yinlardan foydalanish hisoblanadi. Mashqlarni guruh bilan yoki bitta bola bilan o‘tkazish ham mumkin. Mashqlarning o‘yin shakllarining samaradorligi, pedagogik jarayonda ulardan keng foydalanishning mumkinligi mazkur didaktik vositaning alohida ommaviyligidadir. Bolalar o‘yinlar jarayonida o‘z tana a`zolarini nomlari bilan farqlashni o‘rganadilar. Bunday mashqlarning davomiyligi 4-5 daqiqadan ortmaydi.

Masalan, “Qo‘llaring qayerda?” oyin mashqi. O‘yin qoidasi: bolalar qo‘llarini orqaga yashiradilar, tarbiyachi oldin bolaning o‘ng qo‘li qayerda, chap qo‘li qayerda ekanini topadi, so‘ngra bitta (yoki bir nechta) bolaga o‘z qo‘llarini ko‘rsatish va ularning nomini aytishni taklif qiladi.

“Zoldir qani?” o‘yin mashqi. O‘yin qoidasi: zoldirni kaftga berkitish. Tarbiyachining vazifasi zoldir qaysi qo‘lda - o‘ng qo‘ldami yoki chap qo‘lda ekanini topishdan iborat. Shundan keyin tarbiyachi bolalarga navbati bilan o‘zlarining chap va o‘ng qo‘llarini ko‘rsatishni, ularni atashni, zoldir qaysi qo‘lga yashirilganini aytishni taklif qiladi.

“Bayroqchani ol” o‘yin mashqi. O‘yin qoidasi: Tarbiyachi bolalar qaysi qo‘l o‘ng (chap) qo‘l ekanini eslashlarini, shu qo‘l bilan bayroqchani olishni; bayroqchani boshqa qo‘lga o‘tkazishni, qo‘lni yuqori ko‘tarishni, bayroqlani silkitishni va yana boshqa (chap) qo‘lga o‘tkazishni taklif qiladi. Yoki ko‘k bayroqcha (chap) qo‘lga o‘tkazishni taklif qiladi. Yoki ko‘k bayroqcha (lentacha) o‘ng qo‘lda, sariq bayroqcha chap qo‘lda. Topshiriq: bayrochalar o‘rinlarini almashtirish. Shunday keyin tarbiyachi so‘raydi: “Bayroqning rangi qanday? U qaysi qo‘lda?”.

“O‘yinchoq qaysi qo‘lda?” oyin mashqi. O‘yin qoidasi: Tarbiyachi oldin bolalardan biriga o‘yinchoqni o‘ng (chap) qo‘l bilan olishni aytadi, keyin esa, bola o‘yinchoqni qaysi qo‘liga olishni xohlasa, o‘sha qo‘liga olishini va o‘yinchoq qaysi qo‘lida ekanini aytishni taklif qilishi va u o‘ng qo‘lida qanday o‘yinchoq, chap qo‘lida qanday o’yinchoq borligini aytishi kerak.

“Toshlarni boshqa qo‘lingga o‘tkaz”. O‘yin qoidasi: Bir nechta (5-6 ta) toshni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazish kerak. Topshiriqni bajarish jarayonida bola o‘z qo‘llarini farqlaydi, ularni belgilaydi. Shu bilan bir vaqtda bola “bitta” va “ko‘p” atamalarini farqlashni o‘rganadi.

O‘z qo‘llarini farqlashga oid bundan keyingi mashqlar qiyinroq harakatlar bilan bajariladi.

“Nima og`ir?” Topshiriq: ikki buyumdan qaysinisi og`ir (yengil) ekanini aniqlang: qaysi qo‘ldagi (o‘ng yoki chap qo‘ldagi) buyum og`ir, qaysi qo‘ldagisi yengil ekanini aniqlash. Bolalar kichik guruhda olingan bilimlar asosida “o‘ngga, chapga” (fazoviy yo‘nalishlar) bilan tanishadilar. Bu yosh guruhlarida bolalar yo‘nalishlarni farqlashgagina o‘rgatiladi. (bilib olish, mustaqil aytish va ko‘rsatish).

Ushu vazifalarni bajarish natijasi sifatida bolalar quyidagilarga erishadilar:

1. Bolalar o‘ng va chap qo‘l bilan harakat qilish (ishlash)ning yetarlicha amaliy tajribasini to‘playdi. Oldin bu harakatlarning differensial harakterini (o‘ng qo‘lda qoshiqni, qalamni, mo‘yqalamni ushlash, chap qo‘lda taqsimcha, qog`oz varag`i va hokazolarni tutib turish) mustahkamlaydi, so‘ngra bolalarni qo‘llarining nomlari bo‘yicha farqlash va mustaqil nomlashga o‘rganadilar.

2. Qo‘llarning nomi bilan har qaysi qo‘l uchun xos bo‘lgan harakatlar xarakteri (bola o‘ng va chap qo‘li bilan nima qiladi) orasidagi aloqani tushina boshlaydi.

3. O‘rgatuvchi mashqlarda ikkala qo‘lning nomi va harakat xarakteri bo‘yicha qiyoslashga o‘rganadi.

4. Mashqlar sekin-asta murakkablashtirib borilishi kerak.

a) o‘ng va chap qo‘l uchun xarakterli bo‘lgan tabiiy harakatlarni bajarish jarayonini aniqlashdan bu harakatlar haqidagi tasavvurlar asosidagina farqlashgacha;

b) berilgan masala yagona va mustaqil bo‘lgan (“Sening qo‘llaring qayerda?”, “Bayroqchani ol”, “Zoldir qani?”) vaziyatda aniqlashdan, natijada uni bajarish jarayonidan (“Qaysi qo‘l bilan uzoqqa?”, “Qaysi qo‘l bilan aniqroq?”) farqlashgacha murakkablashib borishi kerak.

Kichkintoylarda birgalikda shug`ullanish, bir-birlariga xalaqit bermaslik, ishni bir vaqtda boshlash va tugatish, zarur bo‘lib qolganida o‘znavbatlarini sabr bilan kutish ko‘nikmalari tarbiyalanadi. Pedagog (tarbiyachi) odobli, xulqi namunali bolalarni maqtaydi va ularning bu fazilatlari nimada ekanligini aniq tushuntirib beradi.

Yosh bola gavdasini uzoq vaqt bir xil holatda saqlay olmaydi, bir xil ishni uzoq vaqt bajara olmaydi, shuning uchun tarbiyachi bolalarning qisqa muddatli dam olishlariga imkon beradi. “Jim o‘tir”, -deb ularni tergayvermaydi va boshqalar.

Kichik guruhda bolalar tarqatma material bilan ishlashning dastlabki ko‘nikmalarini egallaydilar. Didaktik material har birbolaga alohida qutichada, alohida to‘plami bilan beriladi. Mashg`ulot boshlangunga qadar u bolalar qo‘lida bo‘lishi kerak, ana shunda bolalar diqqatini o‘rganilayotgan narsalarga jalb etish osonroq bo‘ladi. Bolalarning foydalanishlari qulay bo‘lishi uchun o‘yinchoqlar va boshqa buyumlar haddan tashqari kichkina hamda og`ir bo‘lmasligi lozim. Kichkintoylar qo‘llanmalarni ehtiyotlik bilan ishlatishga, ishlatib bo‘lgandan keyin esa qutichaga terib, ko‘rsatilgan joyga olib borib qo’yishga o‘rgatiladi.

Bolalar fazoni o‘zlarini holatiga ko‘ra tusunishlarini inobatga olib, “orqangda kim turibdi”, “qo‘lingni oldinga uzat”, ”yoningdagi o‘rtog`ingni ismini ayt” kabi topshiriqlarni berish orqali ularga o‘ng -chap, orqada -oldinda kabi tushunchalarni shakllantiriladi.

O‘z navbatida uyda ota-onalar tomomidan beriladigan shu kabi ko‘rsatmalarning muhimligi ahamiyatli bo‘lib, bolalarning fazoviy tushunchalarni tezroq egallashlariga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavurlarini shakllantirish. T.: “Tafakkur, 2020.

2. Kurbonova Yulduz.Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yinning roli. Innovation in the modern education SYSTEM 2023.04.№29.

3. Курбонова Юлдуз ДЖумаевна .”Методы и приёмы обучения детей дошкольного возраста.”LXXV Internatsional correspondence scien tific fnd practical conference “Evropean research: Innavation in science, eduation and technology - International conference -2022.

4. Г.М Алтибаева.Особенности организации взаимодействия дошкольного образовательного учреждения семьями воспитанников. Вестник современной наукиб 19-22.

5. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.

6. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y. O‘quv qo‘llanma.

7. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari T.: 2015 y. O‘zPFITI. Uslubiy qo‘llanma.

8. “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi “Xalq so‘zi” 2017-yil 8 fevral.

9. Sh. A. Sodiqova, M. A. Rasulxo‘jayeva “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Fan va taxnologiya”- T.: 2012.

10. O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z.Nodirova “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot matbasi -T.: 2016.

11. Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar” – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.

12. L.A. Alibekov “Inson va tabiat” O‘quv va metodik qo´llanma “Fan va texnologiya” -T.: 2016.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tushunchalarga ega bo‘lishi hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to‘laroq o‘rganishga imkon yaratadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo‘ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta`limdan boshlanadi. Ruhshunoslarning fikriga ko‘ra, matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi murakkab va serqirralidir. Ushbu maqolada maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning fazoviy taushunchalarni o‘zlashtirishlari, tarbiyachi tomonidan bolalarga o‘z hatti-harakatlarini boshqarishni o‘rgatish usullari yoritib beriladi.

РЕЗЮМЕ

Овладение математическими понятиями детьми дошкольного возраста дает возможность глубже и полнее изучать мир, не отрываясь от жизни. Уровень развития математических представлений варьируется от человека к человеку. Его формирование требует постоянной тренировки. Эти упражнения начинаются с семейного и дошкольного образования. По мнению психологов, проблема формирования математических понятий сложна и увлекательна. В данной статье освещены вопросы усвоения пространственных представлений детьми дошкольного возраста, методы обучения детей контролю воспитателем своего поведения.

SUMMARY

The acquisition of mathematical concepts by children of preschool age makes it possible to study the world in a deeper and fuller way without being separated from life. The level of development of mathematical concepts varies from person to person. Its formation requires constant training. These exercises begin with family and preschool education. According to psychologists, the problem of forming mathematical concepts is complex and fascinating. In this article, the acquisition of spatial concepts by children of preschool age, the methods of teaching children to control their behavior by the educator are highlighted.

KICHIK MAKTAB O‘QUVCHI YOSHLARNING O‘QUV FAOLIYATIDA MNEMIK QOBILIYATLARNING O‘RNI XUSUSIDA

Jumayev X.S.
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: xotira, nutq, mnemik qobiliyat, miya, iqtidor, o‘quv samaradorligi, rivojlanish, ko‘nikma va malaka, bilim, ixtiyoriy va ixtiyoriy yodlash, mustaqil ¬vazifalar, o‘rganish, jarayon, fikrlash, tushunish, mantiqiy yodlash.

Ключевые слова: память, речь, мнемические способности, мозг, талант, успеваемость, развитие, умения и компетенции, знания, произвольное и непроизвольное запоминание, самостоятельные задания, обучение, процесс, мышление, понимание, логическое запоминание.

Key words: memory, speech, mnemonic ability, brain, talent, academic performance, development, skills and competence, knowledge, voluntary and involuntary memorization, independent tasks, learning, process, thinking, understanding, logical memorization.

Kirish. Inson xotirasini hayotdagi ma’lumotlarni eslab qolish, saqlash va ko’paytirish funktsiyalarini bajaradigan psixofizik va madaniy jarayonlar sifatida aniqlash mumkin. Xotira insonning hayotiy muhim asosiy qobiliyatidir. Xotirasiz shaxsning normal ishlashi va rivojlanishi mumkin emas. Jiddiy xotira buzilishi bilan og’rigan odamlarga e’tibor bersangiz, buni ko’rish oson. Barcha tirik organizmlar xotiraga ega, lekin u odamlarda eng yuqori darajada rivojlangan.

Boshlang‘ich bilim darajasining mavjudligi bilan belgilanadigan reproduktiv fikrlash maktab o‘quvchilarining har qanday faoliyatida muhimdir. Ushbu turdagi fikrlash asosida “mavzuga tanish bo‘lgan tuzilma” ning vazifalari hal qilinadi, “to‘g‘ri, mantiqiy asoslangan” yechimni ta’minlab, ilgari shakllangan aloqalar tizimlari yangilanadi.

Lekin bu jarayon xotira bilan bog‘liq bo‘lib, u bilimning mustahkamligini, ¬talablarga mos ravishda dolzarbligini ta’minlaydi. xotira va o‘quv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikning ahamiyati o‘quvchilarning yoshiga qarab o‘zgaradi. Bu bog‘lanishlar quyi sinflarda (uchinchi va beshinchi) sezilarli bo‘lib, sakkizinchi sinfda kamayadi va o‘ninchi sinfda butunlay ahamiyatsiz bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Kichik maktab o‘quvchilarining ishlashi ixtiyoriy va ixtiyoriy yodlash bilan bir xil darajada bog‘liq. Xotira maktab o‘quvchilarining ta’lim faoliyatida juda muhim rol o‘ynaydi. Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mnemik qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishi maktabda o‘qish davrida intensiv ravishda amalga oshiriladi. Bolaning maktabga qabul qilinishi uning oldiga darhol yangi talablarni qo‘yadi, bu bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, uni o‘z mnemik jarayonlarini o‘rganish vazifalariga bo‘ysundirishga majbur qiladi.

Xotiraning fiziologik asosi turli xil stimullar ta’sirida kelajakda tiklanishi va yangilanishi mumkin bo’lgan vaqtinchalik nerv bog’lanishlarining shakllanishidir. Neyrofiziologik va biokimyoviy darajalarda olib borilgan so’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar aloqalarni qurishda ikki bosqichni ajratish imkonini beradi.

Psixologik adabiyotlarda ko‘plab mualliflar nafaqat materialni yodlashda mnemik usullardan foydalanish samaradorligini ishonchli tarzda ko‘rsatibgina qolmay, balki ularni shakllantirishning ba’zi imkoniyatlarini ham ochib beradilar. A.A.Smirnov eksperimental tadqiqotida yodlash jarayonining ichki tomonini ko‘rsatib, bu faoliyatda guruhlash, kuchli nuqtani tanlash va korrelyatsiya kabi harakatlarga markaziy o‘rin ajratdi. Materialni semantik guruhlash ostida A.A.Smirnov semantik mazmuniga ko‘ra qismlarga (mikromavzular) bo‘linishni tushunadi. Faoliyat xarakteriga ko‘ra u matnlarni guruhlashning ikki turini ajratadi: “Ixtiyoriy-intuitiv” va “Ixtiyoriy -diskursiv”. Birinchi holda, qismlarni tanlash mustaqil harakat emas, ongsiz ravishda sodir bo‘ladi va bevosita o‘qish jarayonida amalga oshiriladi. Ikkinchi holda, semantik guruhlash ongli, mustaqil harakatga aylanadi, chunki jarayon muayyan vazifaga bo‘ysunadi. Matnni izlash, taqqoslash, ketma-ketligini baholash va tizimli o‘rganish jarayonida qismlar ajralib turadi. Yodlash usuli sifatida materialning semantik guruhlanishini ajratib ko‘rsatib, A.A.Smirnov uni yodlash jarayonini tushunish uchun eng adekvat deb hisoblaydi, chunki yodlash jarayonida aqliy faoliyat doimo mavjud bo‘ladi.

Semantik guruhlash, A.A.Smirnovning so‘zlariga ko‘ra, yodlashning kuchli nuqtalarini majburiy ajratishni nazarda tutadi, bu orqali u “Yodlashda hech qanday yordam emas, balki umumiyroq mazmunni almashtiradigan qisqa, ixcham narsani” tushunadi. Yo‘naltiruvchi nuqtalar yordamida nafaqat yodlash, balki ko‘paytirish jarayoni ham vositachilik qiladi. Kuchli nuqtalar turli xil bo‘lishi mumkin (tezislar, savollar, tasvirlar), lekin ular yodlash jarayonida materialni jamlash, umumlashtirish va tashkil qilishning yagona instrumental funktsiyasini bajaradi. A.A.Smirnov ta’kidlaydiki, yodlash jarayonida mos

yozuvlar nuqtalari bajaradigan funksiya A.N.Leontyev yondashuvidagi rag‘batlantiruvchi vosita vazifasi bilan bir xil bo‘ladi. Rag‘batlantiruvchi vosita va mos yozuvlar nuqtasi o‘rtasidagi farq shundaki, agar birinchi bo‘lsa tashqi tayanch vazifasini bajaradi, ikkinchisi, A.A.Smirnovning fikricha , ob’ektning o‘zi siqilgan tarkibdir.

Umumiy holda olingan tayanch nuqtalar material rejasini tashkil qiladi. Bu rejalar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, matnning mantiqiy rejalariga o‘xshamaydi. Ularning farqi, A.A.Smirnovning fikriga ko‘ra, og‘zaki formulalarning parchalanishidan iborat, mantiqiy shaklning to‘liq emasligi va boshqalar. Kognitiv va mnemik rejalar o‘rtasidagi farq I.P.Zinchenko tomonidan qayd etilgan. Uning fikriga ko‘ra, mnemik reja, kognitivdan farqli o‘laroq, ma’lum bir tarkibni tashkil qilishning individual usuli bo‘lib, ma’lum bir mavzuga tarkibni ma’lum bir tarzda belgilashga va takror ishlab chiqarish harakatini boshqarishga imkon beradi. Mnemik blok turli xil moddiy va semantik aloqalar guruhlarini mavjud ma’lumotlar, shaxsiy tajriba, bilim va sub’ektning qadriyatlari bilan munosabatlarini tavsiflovchi ichki va tashqi aloqalarni aks ettiruvchi turli xil tayanchlardan iborat.

Yoshi bilan, ularni o‘zlashtirgani sayin, ular yodlashning haqiqiy usullari sifatida tinglashadi va yodlash faoliyatining muhim daqiqalariga aylanadilar . nazorati ostida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Materialni tinglash paytida dok ham saqlanib qolgan, bu o‘z harakatlari ustidan o‘zini o‘zi boshqarish mavjudligini ko‘rsatadi. Yodlash jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilishdan foydalanish erishilgan natijalarga tanqidiy munosabatda, olingan ma’lumotlarni namuna bilan bog‘lash qobiliyatida ifodalangan. Semantik yodlashni shakllantirish va tashkil etishga qaratilgan o‘qitish eksperimentlari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab maktab o‘quvchilari, bir tomondan , aqliy harakatlarning shakllanishining etarli darajada yuqori emasligi, boshqa tomondan, olib borish qobiliyati bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. So‘zlarni yodlashning butun jarayoni ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish.

Taqdim etilgan materiallarga ko‘ra, kichik yoshdagi o‘quvchilarni yodlashning asosiy usuli - takroriy takrorlash. Deyl Karnegi takrorlashni xotiraning ikkinchi qonuni deb ataydi. Biz uni tez-tez takrorlasak, tafakkur chegarasidagi barcha ma’lumotlarni yodda saqlashimiz mumkin bo‘ladi”. Axborot miqdori qancha katta bo‘lsa, yodlash uchun shuncha ko‘p takrorlash talab etiladi. Katta hajmli ma’lumotlarni qismlarga ajratsa, yod olish osonroq kechadi. Yod olish uchun tanlangan materialni uzoq vaqt davomida takrorlash, uni ma’lum bir vaqt oralatib takrorlashdan ko‘ra kam samara beradi. Masalan, yigirma yetti tilda o‘z ona tilidek so‘zlasha olgan R.Berton tilni o‘rganishda 15 daqiqadan ortiq

shug‘ullanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Chunki, bu vaqtdan so‘ng miya tiniq ishlamasligini ta’kidlaydi. Avval yod olingan ma’lumotlarni takrorlash ularni xotirada yaxshiroq saqlashga yordam beradi. Yod olinayotgan materialga ko‘proq e’tiborli bo‘lish, diqqatni qaratish, takrorlashlar sonini kamaytirish mumkin. Materialning o‘rta qismidan ko‘ra boshi va oxirida nisbatan ko‘p takrorlangan ma’qul. Yod olish uchun kun davomida takrorlashning bir tekis taqsimlanishi materialni bira to‘la yod olishga nisbatan ikki martadan ko‘proq vaqtni tejaydi.

O‘rganish jarayonida yangi usullar bilan qurollangan xotira sifat jihatidan o‘zgarishlarga uchraydi: maktabgacha yoshdagi bolaning impulsiv yodlashidan kattaroq o‘quvchining semantik yodlashiga qadar. Inson xotirasining imkoniyatlari ko‘p jihatdan o‘quv jarayonida qancha ma’lumot olish mumkinligini, bu bilimlarni o‘zlashtirish uchun qancha vaqt ketishini, ular qanchalik kuchli, umumlashtirilgan va harakatchan bo‘lishini aniqlaydi. Shunday ekan, bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir.

O‘quv jarayonida xotiraning ishlashi bilan bog‘liq qiyinchiliklar, odatda, siz ko‘p vaqt va kuch sarflashingiz kerakligidan iborat. Yodlangan materialni qayta ishlashning tanlangan usullarini maktab yoshidagi bolalarda ularni rivojlantirish jarayonida A.A.Smirnov ko‘rib chiqdi. U bu usullarni qo‘llash dastlab sezilarli qiyinchiliklar tug‘dirishini va aniq vazifa bo‘lgan taqdirda ham bajarilmasligini, shuning uchun ularni yodlash maqsadida qo‘llash mumkin emasligini ko‘rsatdi. Odatda, bola rivojlanishi bilan bu usullarni yodlash jarayoniga kiritib bo‘ladi. Shunday qilib, kichik va o‘rta yoshdagi bolalar guruhlash yoki korrelyatsiyani hali tez va to‘g‘ri qo‘llay olmaydilar, lekin agar aniq vazifa bo‘lsa (masalan, o‘xshashlik yoki farqlarni ko‘rsatish), bu harakatlar bajarilishi mumkin.

A.A.Smirnov eksperimental tadqiqotlarda ma’lumotlarga ega bo‘lib, ushbu bosqichda ushbu usullar bolalar tomonidan tushunish uchun mavjud, ammo ularni yodlash usullari sifatida emas, balki mustaqil vazifalar sifatida. Bolalar ko‘p hollarda o‘rganish jarayonida o‘zboshimchalik bilan fikrlashni, tushunishni, mantiqiy yodlashni shunday sharoitda o‘rganadilar, agar o‘qituvchi bu tarbiyaviy vazifani aniq qo‘ymasa, o‘z e’tiborini faqat ta’lim vazifalarini bajarishga qaratadi. Biroq, bunday hollarda ular buni juda uzoq vaqt davomida o‘rganadilar va ularning ko‘plari to‘g‘ri o‘rganmagan holda, bu vaqt ichida mexanik yodlashning barqaror odatlariga ega bo‘lishga muvaffaq bo‘lishadi.

Xotiraning mohiyati va determinantlari haqidagi zamonaviy g‘oyalardan kamida ikkita chambarchas bog‘liq bo‘lgan xulosalar kelib chiqadiki, ular bilimlarni samarali va doimiy o‘zlashtirishga va o‘quvchilar xotirasini

rivojlantirishga yordam beradigan ta’lim sharoitlariga tatbiq etiladi. Birinchi xulosa shundan iboratki, talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishning barcha usullari nafaqat ularning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy qobiliyatlari, dunyoqarashi va shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularni imkon qadar tez yodlash va samarali o‘zlashtirishning zarur va asosiy shartidir. mustahkam bilim. Binobarin, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish yo‘llari o‘qituvchi ishiga qo‘shiladigan yoki qo‘shilmaydigan qandaydir “dabdaba” emas. Inson uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi juda katta bo‘lgan zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning faol aqliy faoliyati ularni o‘zlashtirishning asosiy, asosiy shartiga aylanadi.

Zamonaviy xotira tadqiqotlaridan kelib chiqadigan ikkinchi amaliy xulosa shundan iboratki, maktabda o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda uzoq muddatli semantik xotira operatsion tizimlarini shakllantirishga birinchi navbatda e’tibor qaratish lozim. Faqat shunday tizimlar o‘quv materialini chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilishni ta’minlashi mumkin va shuning uchun ¬bilimlarni samarali va doimiy o‘zlashtirishning etakchi ichki shartlaridan biri bo‘lishi kerak. darslar mnemik qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha harakatlar tizimini o‘z ichiga oladigan tarzda tuzilgan aniq konstruktiv o‘quv dasturi hali ham mavjud emas.

Boshlang‘ich maktab dasturida darslar rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishi, o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirishi kerakligi qayd etilgan. Biroq, bundan keyin bu ¬qoidalar hech qanday tarzda ko‘rsatilmagan, bu borada o‘qituvchiga tavsiyalar yo‘q. Shuning uchun haqiqiy pedagogik amaliyotda o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilar xotirasini rivojlantirish vazifasini qo‘ysa, ¬uni hal qilishga qaratilgan samarali ilmiy asoslangan harakatlarni amalga oshirmaydi.

Maktab ta’limi amaliyotida mnemik qobiliyatlarning operativ mexanizmlarini rivojlantirish muammosi holatini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mnemik qobiliyatlarni, ayniqsa operatsion mexanizmlarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Xulosa. Mnemik qobiliyatlarning operatsion mexanizmlari - tasniflash, semantik guruhlash, kuchli nuqtalarni tanlash, mnemik rejani tuzish - mashg‘ulot jarayonida o‘z-o‘zidan rivojlanadi. Sanab o‘tilgan mnemik usullar asosan o‘quvchilar tomonidan pertseptiv-reprezentativ darajada amalga oshiriladi. Yosh o‘quvchilar o‘rtasida yodlashning asosiy usuli bu materialni takroriy takrorlashdir, chunki ¬ular yodlashning mantiqiy usullariga ega bo‘lmagan holda, o‘z nuqtai nazaridan, o‘quv materialini yodlash usulidan eng “tabiiy” dan foydalanadilar.

Demak, kichik yoshdagi o‘quvchilarning mnemik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslangan metodologiyasini, ¬xususan, axborotni

qayta ishlash jarayonida mnemik qobiliyatlarning operatsion mexanizmlarini (ulardan biri tasniflash), o‘qitish tizimini yaratishga ehtiyoj bor.

Adabiyotlar:

1. Ananiyev B.G. Tanlangan psixologik asarlar: 2 jildda. - M.: Pedagogika, 1980. - V.1 - 230 b.; T.2 - 287 b.

2. Anastasi A. Psixologik test: 2 jildda - M .: Pedagogika, 1982. - V. 1 - 3 16 p.; T.2 -295 b.

3. Anoxin P.K. Funktsional sistema nazariyasining falsafiy jihatlari. - M.: Nauka, 1978. - 400 b.

4. Ansimova N.P. Ruhiy xususiyatlarni qoplash muammosi. / Kasbiy yo‘naltirish va o‘qitish. - Yaroslavl, 1988. - S. 10 -22.

5. Antonova I.P. O‘quv jarayonida 6-7 yoshli bolalarda xotira rivojlanishining xususiyatlari / Psixologiya savollari. - 1985. - No 5. - S. 151 - 157.

6. Antonova I.P. 6 va 7 yoshli bolalarda naqsh o‘rnatish qobiliyatining rivojlanish darajasi / Psixologiya savollari. - 1989. - No 2. - S. 62 - 67.

7. Antsiferova L.I. Chet el psixologiyasidagi materialistik g‘oyalar. - M.: Nauka, 1974. - 359 b.

8. Artemyeva T.N. Qobiliyatlar muammosining uslubiy jihati. - M.: Nauka, 1977. - 184 b.

9. Artemyeva T.N. Qobiliyat muammosi: shaxsiy jihat / Psixologik jurnal. - 1984. - T. 5. - No 3. - B. 46 - 55.

10. Nemov R. S. Psixologiya. M., 1995-yil

11. Kinyakina O. N. Miya 100% da. Intellekt. Xotira. Ijodiy. Sezgi, M. “Eksmo”, 2007-y

РЕЗЮМЕ

Maqolada xotira, mnemik qobiliyat, reproduktiv fikrlash, kichik maktab o‘quvchi yoshlar, maktab, iqtidor, idrok, eslda saqlashi va his-tuyg‘ulari, fikrlar, nutq, harakatlarni aks ettirishi kabilar haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о памяти, мнемических способностях, репродуктивном мышлении, младших школьниках, школе, таланте, восприятии, запоминании и отражении чувств, мыслей, речи, действий.

SUMMARY

The article talks about memory, mnemonic ability, reproductive thinking, young schoolchildren, school, talent, perception, remembering and reflecting feelings, thoughts, speech, actions.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdumuratova S.S.
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, natija, qobiliyat.

Ключевые слова: логическое мышление, развитие, эвристическая способность, методология, деятельность, результат, способность.

Key words: logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.

Kirish. Hozirgi sharoitda milliy ta’lim tizimlari rivojlanishi quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi: bir tomondan, ta’lim inson faoliyatining muhim sohalaridan biri bo‘lib qoldi, ikkinchi tomondan esa jamiyat hayotida ta’lim rolining oshishi iqtisodiy rivojlanishning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. O‘qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatgatayyorlashgatalabkunsayinoshibbormoqda,shusababliMamlakatimiz taraqqiyoti ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivoji hozirda bardavomlik kasb etmoqda. Shuning uchun oliy ta’lim muassasasida pedagoglarni tayyorlashga zamonaviy ilm-fanning so‘nggi yutuqlariga asoslangan talablar qo‘yib borilishi tabiiy. Bular boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni zamonaviy raqobatbardosh qilib, ya’ni innovatsion rivojlangan qilib tayyorlash davr talabi ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunday talablarni bajarish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

1. Boshlang‘ich sinf mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish.

Ta’lim jarayoni ko‘p bosqichli dinamik jarayon sifatida qaralib, ta’lim metodlari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgani hisobga olinadi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga har qachongidan ham ko‘proq e’tibor berish doimiy faoliyatga aylanadi[1-13]. Innovatsion metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ko‘rib chiqilayotgan ta’lim yo‘nalishidagi o‘quv rejasining fanlar bloklari va ularning

aloqadorligi hamda tayanch fanlar bilan integratsiyasi e'tiborga olinsa, mazkur soha bo'yicha istiqbolli pedagogik samara qo'lga kiritiladi.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashning axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish va ularni yangi talablar asosida yanada takomillashtirib borishga erishish.

Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlari quyidagi ketma-ketlik asosida olib boriladi:

– o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshirishda kompyuterlardan texnik-didaktik vosita sifatida foydalanish;
– boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kompyuterdan foydalanishining samarali shakllari bilan tanishtirish;
– boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kompyuterda ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning optimal yo'llarini topishga erishish;
– boshlang'ich sinf o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari va ularga mos holda ishlab chiqilgan muloqotli ishchi dasturlardan foydalanish ko'nikmalari bilan qurollantirish.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga oid tadqiqot ishlarini doimiy olib borish.

Bunda ta'limda axborotli ta'lim muhiti, shuningdek, innovatsion ta'lim muhitlari negizidagi innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga istiqbolli yo'nalish deb qarash lozim bo'ladi. Ushbu jarayon an'anaviy ta'lim jarayoni bilan intellektuallashtirilgan ta'lim jarayonlari o'rtasidagi intellektuallashtirilgan interfeysni o'rnatish orqali amalga oshiriladi va bunda dasturlashtirilgan ta'minot nihoyatda zarurligini e'tiborga olib ish yuritishga to'g'ri keladi.

4. Innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun o'qituvchining kasbiy intellektual salohiyati hamda muntazam yuksalishini doim e'tiborga olib faoliyat yuritish.

Bunda o'qituvchining o'z sohasiga oid fanlar asoslarini bilishi va ular bo'yicha egallagan bilimlaridan o'zi ta'lim beradigan fanni bayon qilishda samarali foydalanishi kerak, o'zi ta'lim beradigan fanlarga mos va xos innovatsion metod va texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi, muntazam ravishda jamiyatimiz va davlatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha o'quv-metodik, o'quv-dasturiy, o'quv-didaktik, axborotli metodik ta'minotlar kabilar bilan qurollangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning o‘quv-metodik axborotli ta’minotini mukammal yaratish. Bunda asosiy e’tibor qayd etilgan ta’minotning zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan mos ravishda yuksalib, takomillashib borishiga qaratiladi va ularni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalarni to‘liq egallash jarayonida axborot madaniyati shakllanishini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
– elektron o‘quv adabiyotlari: elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, fan bo‘yicha elektron portfel va elektron qomusiy lug‘at kabilarni tayyorlash;
– interfaol metodlar va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga “didaktik portfel” tayyorlash;
– internetdan foydalanib ta’lim jarayoniga tegishli fanlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va shu kabilar.

6. Kasbiy bilimlarni zamon talabi asosida muntazam takomillashtirib borishga erishish. Bunda:

– egallanishi lozim bo‘lgan mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish va ularni yanada boyitish vostalaridan samarali foydalanishga erishish;
– pedagogik va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish, ulardan amaliy-kasbiy faoliyatda og‘ishmay foydalanish va shu kabilar.

7. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ qobiliyatga erishish.

Kreativ qobiliyat quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo‘li kafolatlanadi:

– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammolari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;
– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘z mutaxassisliklariga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta’minot yaratish;
– oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash bo‘yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish kabilar.

8. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularning ma’naviy etuk va intellektual salohiyatli bo‘lishining muntazamligini ta’minlash.

Ushbu tarkibiy qismga qo‘yilgan talablarni bajarish quyidagi jihatlarga e’tibor berish orqali amalga oshirilishi mumkin:

– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda ma’naviy etuklik tuyg‘usini shakllantirish;
– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ta’lim dasturidagi fanlar bo‘yicha va ularga tegishli ma’lumotlardan muntazam ravishda foydalanish;
– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘qituvchi kasbining mas’uliyati, ya’ni jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
– ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bo‘yicha turli mavzularda ma’naviy tadbirlarni tashkil etishning mukammal istiqbolli rejasini ishlab chiqish va ularni olib borishning innovatsion uslublarini yaratishga doimo e’tiborli bo‘lish va hokazo.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati bu – tayyorlik darajasini, talabalar o‘rtasida innovatsion madaniyatni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ xususiyatdir. Professional sohada istalgan natija va tegishli darajaga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga har qachongidan ko‘ra e’tiborni kuchaytirish zarur.

<table>
<tr><th colspan="4">Pedagogik innovatsiyaning modeli</th></tr>
<tr><th>Nimaga o‘qitish?</th><th>Nima uchun o‘qitish?</th><th>Qanday o‘qitish?</th><th>Qanday qilib natijaga erishish?</th></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik innovatsiya- o‘qitish jarayonini rivojlantiruvchi va uning natijaliligini ta’minlovchi ta’lim tizimidagi har qanday yangilik</td><td colspan="2">Pedagogik innovatsion faoliyat – ta’lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, texnologiyalari, menejmenti va tashkiliy maqsadlaridagi har qanday
zamonaviy o‘zgarishlardir</td></tr>
<tr><th colspan="4">Pedagogik innovatsiyaning uch asosi</th></tr>
<tr><th colspan="2">Ijtimoiy-iqtisodiy</th><th>Pedagogik-psixologik</th><th>Tashkiliy-boshqaruv</th></tr>
</table>

1-rasm. Pedagogik innovatsiya modeli.

Innovatsion pedagogika – pedagogik texnologiyalarni muntazam takomillashtirish jarayoni, pedagogik ta’lim mazmunini boyitish, mazkur maqsadga pedagogik metodlar, vositalar va uslublarni maksimal darajada ta’lim jarayonida qo‘llashdir.

Innovatsion faoliyat sohasi	Kasbiy-professional vazifalar	Amalga oshirish Mexanizmi	Innovatsion faoliyat natijasi
Pedagogik qidiruv	Qidiruv - axborot	Mashg‘ulotlardagi kamchiliklarning noaniq ma’nosi.Qarama-qarshiliklarni qidirish va muammoli vaziyatni anglash	Shakllantirilgan innovatsion muammo. Haqiqiy o‘quv kursining tavsifi
	Analitik-tanqidiy	Innovatsiya muammosi bo‘yicha mavjud bilim va ma’lumotlarni tanqidiy baholash. O‘quv kursining analitik tavsifini tayyorlash. Qarama-qarshi o‘zgaruvchilarni aniqlash. Pedagogik innovatsiya mavzusining belgilanishi. O‘zgaruvchilarni operatsionallashtirish va dastlabki mezonlarni shakllantirish	Innovatsiyaning maqsadi va vazifalari. Innovatsiyalarni baholashning dastlabki mezonlari
Pedagogik yangilik yaratish	Modelli-Loyihaviy	Qarama-qarshi o‘zgaruvchilarga adekvat bo‘lgan mustaqil o‘zgaruvchilarni aniqlash.	O‘quv kursi loyihasi va innovatsion taklif ishlab chiqish
	Me’yoriy - Konstruktiv	Yangi didaktik, pedagogik retseptlarni ishlab chiqish. Tajriba o‘tkazish.	Pedagogik sinov Natijalari
Innovatsion faoliyat sohasi	Odatiy Profes- sional Vazifalar	Odatiy professional vazifalarni hal qilish uchun operatsiyalar	Innovatsion faoliyat natijasi
Pedagogik Innovatsiyalar- ni amalga oshirish	Dasturiy ta’minot va stsenariy	Innovatsion loyihani amalga oshirish dasturini yaratish. Innovatsion loyihani amalga oshirish uchun optimal stsenariyni ishlab chiqish	Pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish dasturi va chora-tadbirlar rejasi
	Tashkiliy-Boshqaruv	Approbatsiya, innovatsion stsenariyni bajarish.	Ktilayotgan Natijalar
Pedagogik-didaktik innovatsiyalarga yo‘naltirish	Tajribali-baholash	Mezonlarni tizimli yo‘naltirish. Pedagogik tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirish, amalga oshirish dasturini tuzish, dalillarni to‘plash, qayta ishlash va tizimlashtirish. Umumiy natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va izohlash. Xulosalarni shakllantirish va ularning harakatlari doirasini aniqlash.	Yangilangan mezonlari. Yangilik natijasida ta’siri. Xulosalar

2-rasm. Innovatsion faoliyatning ob’ektiv xususiyatlari.

Innovatsion pedagogika – ta’lim tizimida har qanday ijobiy natijalilikka olib keluvchi yangi tizimlar va yo‘nalishlar bo‘lib, ularni sifatli va oxirgi maxsulotni ishlab chiqarishga safarbar etishdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar innovatsion faoliyatining obyektiv xususiyatlari ishlab chiqildi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni innovatsion faoliyatni rivojlantirish, kasbiy faoliyatni yanada takomillashtirish, uni kasbiy mahorat darajasiga ko‘tarishdan boshlanadi. Bunday jarayon o‘qitishning mazmuni va usullarini uzluksiz izlashga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini yaratish, innovatsion onglilik va zamonaviy o‘qituvchining faoliyat modelini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, pedagogik faoliyat samaradorligining ikki vektorini uning innovatsion xarakteri nuqtai nazaridan ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– o‘qituvchi o‘z faoliyatida allaqachon yaratilgan texnika va texnologiyalarni kasbiy faoliyatning real sharoitlariga moslashuvi bilan amalga oshiradi;
– o‘qituvchi kasbiy faoliyatning ob’ektiv ravishda o‘qitishning yangi metod, vosita va texnologiyalarini yarata oladi.

Xulosa. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogikada dolzarb va istiqbolli ijtimoiy muammo ekanligi ko‘rinib turibdi. Innovatsion ta’limga yo‘naltirilgan texnologiyalar keng qamrovli, murakkab, ijodiy, pedagogik faoliyat ekanligini muntazam diqqat markazda bo‘lishi lozim. Chunki ular yordamida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin hamda ular asosida raqobatbardosh innovatsion faoliyati rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash kafolatlanadi.

Adabiyotlar:

1. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа// Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400б.

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика,1991. 479с.

3. Jumaeva, H. (2020). Some Shapes of Spiritual Attack, Its Influences and Outcomes for Educating the Youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

4. Djumayeva, H. M. (2021). Developing the pedagogical mechanism of preventing students from internal threats. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 331-338.

5. Джумаева, Х. М. (2018). Глоболлашув даврида, ёшларни маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилиш омиллари. Интернаука, (46-2), 70-71.

6. Djumayeva, H., & Turayev, A. (2022). Methodology of combinatory problems solving in the timss international assessment program in primary class mathematics lessons. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 1224-1228.

7. Muhammadjonovna, J. H. (2020). Model of protection of students from internal threats and its main components. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik qobiliyatini etnopedagogika yordamida rivojlantirish metodikasi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kreativ qobiliyat asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va texnologiyalari haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о методе развития творческих способностей учителя начальных классов с использованием этнопедагогики, возможностях подготовки учителей начальных классов к инновационной деятельности, основанной на творческих способностях, а также о формах, методах и технологиях совершенствования методики развития творческих способностей. способности учителя начальных классов.

SUMMARY

This article is written about the method of developing the creative ability of the primary school teacher using ethnopedagogy, the possibilities of preparing primary school teachers for innovative activities based on creative ability, and the forms, methods and technologies of improving the methodology of developing the creative ability of the primary school teacher.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATNI ANGLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Karimova S.Sh.
Guliston davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchilar, ta’lim jarayoni, o‘yin texnologiyalari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tabiatni anglash, tabiatni sevish, tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shakl, metod va vositalar.

Ключевые слова: начальное образование, учащиеся, учебный процесс, игровые технологии, естественнонаучная грамотность, природосознание, любовь к природе, развитие навыков природоощущения, формы, методы и средства.

Key words: primary education, students, educational process, game technologies, natural-scientific literacy, nature awareness, love of nature, development of nature awareness skills, form, methods and tools.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiat bag‘rida bo‘lishlari ularda tabiiy hodisalar hamda ob’ektlarning mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiribgina qolmay, shu bilan birga mavjud qiziqishning barqarorlashuvini ta’minlash, uni mustahkamlashga imkon beradi. O‘quvchilar tabiatda bo‘lgan chog‘larida tabiiy hodisalarning mohiyati, ularning ro‘y berish sabablari, umumiy jarayoni, o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida jiddiyroq fikr yuritishga harakat qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darslik yoki turli manbalar orqali tabiiy ob’ektlar, tabiat jismlari, chunonchi, turli toshlar, foydali qazilmalar, o‘simliklar va hayvonlar haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirib, ma’lum tushunchalarga ega bo‘ladilar. Biroq ularning qayd etilgan ma’lumotlar bilan tabiiy sharoitlarda tanishishlari hosil bo‘lgan tushunchalarning yanada mustahkam bo‘lishiga olib keladi. Binobarin, tabiat va uning asoslari to‘g‘risidagi bilimlarni tabiiy sharoitlarda o‘rganish va idrok etishning eng samarali omili hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi jism yoki hodisani tabiiy sharoitlarda kuzatar ekan, ularning alohida ob’ekt sifatida emas, balki bir butun ekotizimning muhim bo‘lagi sifatida qabul qiladilar, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni anglashga intiladilar. Buning natijasida o‘quvchilar e’tiboriga havola etilayotgan alohida ob’ektning o‘zigagina xos bo‘lgan tomonlarini ajrata oladilar, ularning o‘zaro ta’sir xususiyatiga ega predmetlar bilan taqqoslash,

umumiy jihatlarni guruhlash asosida o‘zlarini qiziqtirayotgan savollarga javob topib, «mantiqiy» xulosalarni chiqaradilar. Shu sababli tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida “Tabiiy fanlar” bo‘yicha aksariyat mavzularni o‘rganishda darslarning tabiiy sharoitlarda tashkil etilishiga jiddiy e’tibor qaratildi. Bu o‘rinda quyidagi holatlar inobatga olindi:

1. Mahalliy tabiiy sharoitni belgilangan mavzular asosida noan’anaviy shakl” (masalan, ekskursiya shakli)da o‘rganish imkoniyatini aniqlash.

2. Har bir mavzuning mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan ularning puxta o‘zlashtirilishiga imkon beruvchi aniq tabiiy ob’ekt (sharoit)ni avvaldan belgilab olish.


3. Muayyan mavzular bo‘yicha darslarni tabiiy sharoitlarda tashkil etilishi rejalashtirilayotganligi xususida o‘quv muassasasi rahbariyatini avvaldan ogoh etish.

4. Darslarni nostandart sharoitlarda uyushtirilishining o‘rta ta’lim maktablarining umumiy o‘quv rejasi va jadvaliga salbiy ta’sir etmasligining chora-tadbirlarini belgilash.

5. Tabiiy sharoitlarda tashkil etiluvchi darslarning aniq maqsadini belgilash hamda ularning muayyan loyiha asosida amalga oshirilishiga erishish.

6. Darslarni tabiiy sharoitlarda tashkil etishdan oldin o‘quvchilarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish, mashg‘ulotlar jarayonida ularning mazkur qoidalar hamda belgilangan tartibga qat’iy amal qilishlarini ta’minlash.

Tabiat va uning asoslari haqidagi darslarning noan’anaviy shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining chuqur mutaxassislik bilimlari, shuningdek, yuksak kasbiy mahoratga ega ekanliklari muhim ahamiyat kasb etadi.



2.3-rasm. Tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish shakllari

Tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish kuyidagi shakllarda amalga oshiriladi: Dars, amaliy, darsdan tashqari ishlar, tabiatni kuzatish, shu bilan birgalikda maktab tajriba uchastkasida o‘qituvchi bilan olib boriladigan faoliyat turlarini kiritish maqsadga muvofiq sanaladi (2.3-rasm).

Ta’limning bu shakllarini tashkil etishda o‘qituvchilarga noan’anaviy darslarda foydalanishlari mumkin bo‘lgan darslik, qo‘llanmalar, taqdimot materiallari, shuningdek, o‘quvchilarni amaliy ishlarini aks ettirgan o‘quv topshiriqlarini aks ettiruvchi metodik materiallar bilan ishlanadi.

Ma’lumki, pandemiya sharoitida o‘quvchilarning salomatliklarini aqlash maqsadida, o‘quv mashg‘ulotlari onlayn shaklda davom ettirildi va bu narsa o‘quvchilarning o‘quv materiallarini, uyga vazifalarini va mustaqil ishlarini o‘qituvchilar bilan onlayn ishlashga sabab bo‘ldi. Shunday hollarda “Tabiiy fanlar” o‘quv predmetini o‘zlashtirishda ham asosiy amaliy ishlar, laborotoriya ishlari va loyiha ishlari o‘quvchining oila a’zolar ko‘magida videolarga olinib telegramm kanallari orqali uzatildi va bu buyicha o‘qituvchilar bilan hamkorlikda tashkil etildi. Ta’kidlash joizki, 1-sinflar bo‘yicha ishlash biroz qiyinlik tug‘diradi. Chunki hali harflarni endi taniyotgan o‘quvchi o‘z fikrlarini yozma bayon eta olmaydi. Shu maqsadda tadqiqot davomida o‘quvchilarning oila a’zolari bilan bilan xamkorlik yaxshi natija beradi. Quyida 1 va 2-sinflarning darslari uchun dars ishlanmalari keltiriladi:

Tabiatda o‘simliklarni o‘sishini, tabiatning qaysi omillari ular uchun yashashni ta’minlashga xizmat qilishini tushuntirish va o‘z navbatida o‘quvchi buni anglashi uchun 1-sinf darsligidagi 4-mavzuda “O‘simliklar o‘sishi uchun nimalar zarur?” mavzusini ko‘rib chiqamiz.

Mashg‘ulot mavzusi: “O‘simliklar o‘sishi uchun nimalar zarur?”

O‘rganishdan maqsad: o‘simliklarning yashashi uchun nimalar zarurligini, ularning muhim hayotiy omil ekanligini, o‘simlikni o‘sishi va rivojlanishi uchun insonning doim mas’ul ekanligi haqidagi tushunchalarni anglashga o‘rgatish.

Jarayondagi asosiy vazifaar:

1. O‘quvchilarni ko‘rgazmali vositalar yordamida o‘simlikning hayotiy tarzi bilan yaqindan tanishtirish.

2. O‘quvchilarga o‘simliklaruchun hayotiy omillardan suv, havo, quyosh nuri, tuproqning muhimlili haqidagi elemantar ilmiy tushunchalarni berish.

3. 1-sinf o‘quvchilarini o‘simliklarga xos muhim belgilarn anglay olish layoqatini shakllantirish.

4. O‘quvchilarning o‘simliklarni asosiy ko‘zga tashlanuvchi belgilari asosida o‘zaro bir-biridan farqlay olishlariga o‘rgatish va pirovardida ularning o‘simliklarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish.

Kuzatish chog‘da qo‘llanilgan metodlar: og‘zaki hikoya qilish, tushuntirish, savol-javob, ko‘rgazmali namoyish etish, rasmli topshiriqlar berish.

Kuzatish vaqtida foydalanilgan vositalar: tabiiy vositalar – bog‘ va dalalardagi o‘simliklarning suratlari, ularning taibat omillari aks etgan kichik video materiallar, O‘zbekiston “Qizil kitobi”, o‘simliklarning bolalar uchun tayyorlangan ensiklopediyalari, rasmli topshiriq maeriallari. Kichik maktab o‘quvchilarining 1-sinflari tomonidan o‘zlashtirilgan asosiy tushuncha hamda nazariy bilimlar:

1) O‘simliklarning faol hayot kechirishi uchun zarur omillar (suv, havo, tuproq, quyosh va mineral moddalar);

2) O‘simliklarning yashash tarzi(Makka juxori misolida);

3) O‘simlik nega qurib qoladi;

4) O‘simlikka suvning ta’siri;

5) O‘simlikka havoning ta’siri;

6) O‘simlikka tuproqning ta’siri.

O‘simliklarni o‘sishi uchun zarur omillarni o‘rganish va tanishishga imkon bergan kuzatish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi (2.2.2-rasm).

O‘rganish va anglash jarayonini samarali bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha quyidagi topshiriqlar tayyorlandi:

1. O‘simlikni yaxshilab o‘rganing. Kuzating. (kuzatish va o‘rganish uchun darslikda makka jo‘xori tasviri berilgan, lekin o‘quvchilarga ko‘pgina o‘simliklarning rangli rasmlari berilishi va ular tanlashi maqsadga muvofiq).

2. Rasmga qarab, o‘simlik uchun zarur omillarni sanab bering;


3. Quyoshning issiqli va harorati nega kerak?

4. Tuproq o‘simlikka nega kerak?

5. Nima uchun havo o‘simlik uchun muhim deymiz?

6. Suvsizlik o‘simlikka qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Darsning boshlang‘ich qismi 1-2 sinflar uchun odatdagidek, tabiat, fasldagi o‘zgarishlar, bugungi ob-havo harorati, osmondagi o‘zgarishlar, xona gullarini parvarishi haqidagi umumiy so‘rovlar bilan boshlansada, bevosita bugungi mavzuni bog‘lash, o‘simlik dunyosiga zaruriy hayotiy omillarning muhimligi, biri ikkinchisisiz muhim vazifalarni bajara olmasgini ta’kidlab o‘tish zarur. Chunki o‘quvchiga “Tabiiy fanlar” dan mavzuni hayotiy munosabatlar, voqea-hodisalar, iqlimdagi o‘zgarishlar bevosita o‘tilayotgan mavzuga bog‘liqlik jihatlari bilan tushuntirilsa, o‘quvchilar uchun tabiat bilan bog‘liq ilmiy tushunchalarani anglash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bosqichma-bosqich davom etib boradi (2.4-rasm).



2.4-rasm. O‘simliklarni yashash tarzi uchun zaruriy omillarni anglashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi

Ma’lumki, “Tabiiy fanlar” o‘quv predmetini o‘zlashtirishda o‘quvchilar “Kundalik kuzatish” daftarini yuritib borishlari talab etiladi. Kichik maktabning 1-sinflarida hali harflarni tanish va uni yozishning dastlabki ko‘rinishlari amalga oshirilayotgan bir muhitda, ko‘pincha o‘quvchilarga savol-javoblar, tasvirlarni takrorlatish bilan chegaralaniladi.

2-sinflarda o‘quv mavzularini va amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish davomida kundalikni yuritish talabi ancha mas’uliyat yuklaydi. Shu ma’noda o‘quvchilarning tashqi olamdagi, o‘quvchi atrofidagi tabiat bilan bog‘liq

voqea-hodisalarni anglashda, uni kuzatishda va yozib borishda o‘qituvchining individual yondashuvi ham yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 19, 183-187.

2. Shahriddinovna, K. S. (2023). Introducing children of primary school age with the world. American Journal of Applied Science and Technology, 3(06), 09-14.

3. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.

4. Shahriddinovna K. S. Introducing children of primary school age with the world //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.

5. Karimova, S. (2022). The role and importance of» natural sciences» in the development of understanding of nature in general secondary schools. Science and innovation, 1(B6), 214-218.

6. Karimova S. The role and importance of» natural sciences» in the development of understanding of nature in general secondary schools //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.

7. Karimova S. Characteristics of natural teaching methodologny //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.

8. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. Modern Science and Research, 2(8), 161–163. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537

9. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg‘unboyeva, M. (2023). Education is upbringing, knowledge is salvation. Modern Science and Research, 2(8), 164–166. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538

РЕЗЮМЕ

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarimizni atrofimizdagi olam, tabiat bilan tanishtirish jarayonida asosiy diqqat e’tibor ekologik muammolarga qaratiladi. Bunda insonning tabiatga ta’siri, o‘simliklarning o‘simlik bilan, o‘simliklarning hayvonlar bilan, hayvonlarning hayvonlar bilan o‘zaro aloqasi va bog‘liqligi o‘rganiladi. Mazkur maqola tabiiy bilimlarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘ziga xos shakl, metod va vositalardan foydalanish samarasiga bag‘ishlanadi.

РЕЗЮМЕ

В процессе знакомства наших учеников младшего школьного возраста с окружающим миром и природой основное внимание уделяется экологическим проблемам. При этом изучаются влияние человека на природу, взаимодействие и связь растений с растениями, растений с животными, животных с животными. Данная статья посвящена эффективности использования конкретных форм, методов и средств в развитии навыков понимания естественных знаний.

SUMMARY

In the process of introducing our students of junior school age to the world and nature around us, the main attention is paid to environmental problems. In this, the influence of man on nature, the interaction and connection of plants with plants, plants with animals, and animals with animals are studied. This article is devoted to the effectiveness of using specific forms, methods and tools in the development of natural knowledge comprehension skills.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MILLIY XALQ O'YINLARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Suvanova S.B.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: "men" "ijodkorlik", "xotira" "diqqat", "tasavvur", "jamoatchilik", "o'yin","xalq".

Ключевые слова: «Я», «Творчество», «память», «внимание», «воображение», «сообщество», «игра». «народная».

Key words: «Me», «Creativity», «memory», «attention», «imagination», «community», »national».

Kirish. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning sifatli ta'lim –tarbiya olishlariga erishish, bolalarni kundalik faoliyatlarini mazmunli, qiziqarli tashkil etish, ularning qiziqishlarini qobiliyatlarini aniqlash va shuni inobatga olib ma'lum sohaga yo'naltirish, ta'lim va tarbiya jarayonini bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan darajaga olib kelishni ko'zda tutmoqda.

Yosh avlodni ta'lim-tarbiyasini asosiy va boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida bo'layotgan ko'plab yangiliklar, o'zgarishlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual jismoniy va ruhiy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolalarning ma'naviy me'yorlarining shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko'zda tutgan har tamonlama rivojlanishlari uchun qo'yilgan mustahkam poydevorni yaratmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy,estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida ularda o'zVatanini sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdod-Iarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o‘yinlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

– xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
– milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
– maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;
– xalq ertaklari, xalq og’zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
– bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;
– maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlar va musobaqalar o‘tkazish.
– Milliy harakatli o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi. l-2yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o ‘yin turlari. «Barmoqqa-barmoq», «G’oz-g’oz», «G’oz tursin», «Bo‘p-bo‘p», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» o‘yinlari go‘dak endi bir-ikki qadam tashlashni o‘rganayotgan vaqtda gavdasini to‘g’ri tutishga yordam beradigan o‘yinlar hisoblanadi. 3-4 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «O‘t o‘yin», «Kesak qo‘ydi», «Ko‘z boylag’ich”, «Choriy chambar”, «Awalakam», «Tayoq irg’itish”, «Quloq cho‘zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».4-5 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigon o‘yin turlari: “Chir-Aylanma”, “Chillak», “Tortishmachoq”, “Lafta», «Dor o‘yin»,»Ko‘pkari», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan».Katta yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar: «Chavandozlar»,»Doiraga tort», «Do‘ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», “Oq terakmi ko‘k terak». Bu o‘yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o‘z-o‘zini boshqara olish va o‘ziga ishonch tarbiyalanadi, qat’iyatlilik ko‘nikmalari shakllanadi, fikrlashga o‘rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo‘lishgatayyorlanib boradi.

O‘yinda bola shaxsining barcha qirralari ochiladi, ruhiyatida yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishga tayyorlaydigan sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.Bu bilan psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o‘yinning ulkan tarbiyaviy imkoniyatlari yuqoriligini aytishadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘qitish vatarbiyalash bolaning ijtimoiy, xissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu unga umri davomida mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini

amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatalr yaratish, ularni ko‘plab quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hukumati 2017-yildan kichik yoshdagi bolalarni sifatli o‘qitish va tarbiya qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilgan vaqtdan beri 2030- yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida qulay siyosiy shart-sharoitlar hamda tizimli komponentlarni yaratish bo‘yicha qator salmoqli ishlar olib borilmoqda.

O‘yinning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati:

- Bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga ko‘maklashadi. O‘yinda improvizatsiya qilsa, timsollar, vaziyatlarni o‘ylab topsa va shu tariqa atrof olam haqida yanada ko‘proq ma’lumotlarni olsa bo‘ladi;
- Ruhiy (psixik) jarayonlarni shakllantiradi; xotira diqqat, tasavvur, nutq va h.k.
- Bolalarga quvonch bag’ishlaydi, turli xissiyot va kechinmalarni uyg’otadi, bolalar uchun atrofimizdagi voqelikni anglash va ijodiy aks ettirishning qiziq va qulay shakli hisoblanadi.
- Ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko‘nikmalarini egallashga imkon beradi; boshqa bolalar bilan muloqatda bo‘lish, ular bilan turli munosabatga kirishish, umumiy o‘yin rejalarini amalga oshirish uchun kelish va birlashish, o‘yindagi sheriklarining manfaatlarini hisobga olish;
- Bolalarga jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushinish va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni kamaytirishga yordam beradi. O‘yinda bolalar ko‘nikmalaridan foydalanuvchi nazorat qiladigan harakat makonini yaratadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayoti aynan o‘yinda to‘liq faollashgan bo‘ladi.O‘yin bolalarga muloqatning turli shakllaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi.

O‘yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlar shakllanadi;

- O‘yin mazmuni, qoidalari bilan belgilanadigan munosabatlar;
- O‘yin bo‘yicha namoyon bo‘ladigan haqiqiy munosabatlar (rollarning taqsimlanishi, nizodan chiqish va h.k.)

Real munosabatlar shaxsiy bo‘lib, nafaqat o‘yinda balki maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning butun yashagan davri davomida shakllanadi. Shunday qilib,haqiqiy munosabatlar asosida bolalar “jamoatchilik” ifatlarini shakllantiradilar.

O‘ynayotgan bolalar guruhiga kirish, unda muayyan tarzda harakat qilish, sheriklar bilan munosabatlar o‘rgatish, jamoatchilik fikriga bo‘ysunish.

Munosabatlar asosida ijtimoiy his-tuyg’ular va odatlar shakllanadi; birgalikda va maqsadli harakat qilish qobilyati rivojlanadi; manfaatlar mushtarakligi anglanadi; o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘zaro hurmat qilish asoslari shakllanadi. O‘yin faoliyatining katta ahamiyati shundaki, u bolalar jamiyatini shakllantirish uchun juda keng imkoniyatlarga ega.

O‘yinlarda bolalar his-tuyg’ularini rivojlantiradilar, o‘z taassurotlarini aks ettiradilar, o‘zlari taqlid qilayotgan va chin dildan o‘xshashni istagan shaxsning bilimi va hatti-harakatini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. O‘yin davomida bolalar do‘stona munosabatlarga kirishadilar, birgalikda harakat qiladilar va zavqlanadilar.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda o‘yinlar ancha murakkab syujet bilan ajralib turadi. Unda odatda inson munosabatlari, ijtimoiy hayotning turli hodisalari aks etadi; o‘yinlarda bevosita kuzatuvlardan va bilvosita (kitob o‘qish, suhbatdan so‘ng va hk.) olingan tasavvurlar ulanib ketadi. Barcha yoshdagi bolalar o‘yinlarida bolalarning his-tuyg’ulari va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari yaqqol namayon bo‘ladi.

6-7 yoshga kelib o‘yinning roli va ahamiyati oshadi. Bolalar ularga tanish bo‘lgan o‘yinlarni o‘zlari tashkil qila oladi, ishtirokchilar tomonidan qoidalar aniq bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bevosita rahbarlik qilish usullari qo‘llanilishi davom etadi va o‘yin mavzusini taklif qilish, uni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berish va ayrim bolalarni o‘yin materiallarini tanlashga o‘rgatish shakllari qo‘llaniladi. O‘yinni boshqarishning o‘ziga xosligi shundaki, uni tashkil etish usullari o‘yin vazifasi va hayoliy vaziyat bilan chambarchas bog’liq bo‘lishi va pedagog hayrixoh ishtirokchi pozitsiyasini egallashi lozim. Katta yoshdagi bolalarda o‘yinchoqlar va o‘yin materiallariga ma’sulyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish odatini shakllantiradilar. Ular o‘z tashabbusi bilan stol o‘yinlari uchun qutilarni tamirlaydi, qo‘g’irchoq kiyimini yuvadi.

O‘yin bolalarning jismoniy , aqliy, ijtimoiy hissiy salomatligi va farovonligida markaziy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar hatto o‘ynash imkoniyatidan mahrum bolalar keyinchalik ijtimoiy va hissiy muammolarga duch kelishi mumkinligini tasdiqladi.

O‘yin bu bolalar olamni qanday qabul qilishi va o‘z tajribasini anglashidir.O‘yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning Bola huquqlari to‘g’risidagi Konvensiyasiga uning ahamiyati haqida quyidagi izoh qo‘shildi. Unda aytilishicha, o‘yinlar va o‘yin-kulgu bolalar salomatligi va

farovonligi uchun juda muhimdir, va ijodkorlik, tasavvur, o‘z-o‘ziga ishonch, samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va hissiy kuch va ko‘nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta’limning barcha jihatlariga hissa qo‘shadilar; o‘yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo‘lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyat ega. Ijodiy o‘yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi. Ijodiy o‘yinlar mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yinlar texnologiyasi.O‘yin texnologiyasining nazariy asoslari. Bugungi kunda ta’lim tizimida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida ham yan-gi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foydalanilmoqda.Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o‘qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. «Texnologiya» yunoncha so‘z bo‘lib, «techne» - «mahorat», «san’at» va «logos» - «tushuncha», «o‘rganish» demakdir.

Texnologiya so‘zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig’indisi, shuningdek, obyektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari tushuniladi. Ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim maqsadiga erishish quroli, ya’ni oldindan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta’lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni

ta’minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning samaradorligi,

qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi,amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog’Iiqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;

– o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
– ijtimoiylashuvlik.

S.A. Shmakovning ta’kidlashicha, o‘yinlar quyidagi to‘rt asosiy xususiyatga ega:

– erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda, yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;ijodiy xarakter, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
– emotsional ta’sir - bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g’olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
– asosiy va qo‘shimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.O‘yin strukturasiga maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish,natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi.Nazariy jihatdan o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi,o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta’biricha) quyidagilarniqamrab oladi:

– o‘ynash uchun olingan rollar;
– bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;
– haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
– o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;
– o‘yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun],

Har qanday texnologiyada, jumladan, o‘yin texnologiyalarida ham, o‘quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologi-yaning asosiy negizidir. Maqsad to‘g’ri qo‘yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o‘rgatmoqchi bo‘Iganligini bilishi kerak. Bitta mashg’ulotda bitta maqsad qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O‘yin texnologiyalari (ayniqsa, bog’cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojiantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya

jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan,o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g’ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog’ozlar, konstmktor-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ulrni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig’ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.Interfaol o‘yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to‘g’ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o‘rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o‘yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamin bo‘lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim:

1. Mashg’ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga ohsh.
4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e’tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to‘g’ri taqsimlash.
7. O‘yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. 0’yinning asosiy bosqichlari haqida tasawurga ega bo‘lish va natijalarini prognoz qilish.

Xulosa. Pedagogik nuqtayi nazardan to‘g’ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg’otadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O‘yin texnologiyasi an’anaviy tarzdagi o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog’liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3261-sonli qaror (09.09.2017).

2. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi qaror.

3. “Maktabgacha pedagogika”F.R.Qodirova,SH.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova . Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T. 2019

4. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.” A.Shin, Sh.Mirziyoyeva va boshqalar (Metodik qo‘llanma)T. 2020.

5. O‘yin orqali ta’lim olish. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T.2020.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishida xalq o‘yinlarining ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o‘yin terapiyasining ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatida hamda bolaning aqliy rivojlanishida xalq o‘yin usullaridan foydalanish yo‘llari.

РЕЗЮМЕ

Значение игры в творческом развитии детей дошкольного возраста. Значение игровой терапии в деятельности дошкольников, способы использования игровых методов в творческой деятельности дошкольников и психическом развитии ребенка.

SUMMARY

The importance of the game in the creative development of children of preschool age. The importance of play therapy in the activities of preschool children, ways of using game methods in the creative activities of preschool children and mental development of the child.

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Xudoynazarov E.M.
Ma’mun universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: fikrlash, mantiqiy fikrlash, qobiliyatlar, ichki motivatsiya, qadriyatlar.
Ключевые слова: мышление, логическое мышление, способности, внутренняя мотивация, ценности.
Key words: thinking, logical thinking, abilities, internal motivation, values.

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishning muhim asosi sifatida o‘quv faoliyatida interfaol ta’lim metodlaridan, ya’ni muammoli ta’lim (muammoli ma’ruza, muammoli vaziyatlar, muammoli misol va masalalar yechish, muammoli ishbilarmonlik o‘yini, aqliy hujum metodi va boshqalar), izlanish-tadqiqotchilik (tadqiqotchilik masalalarini qo‘yish va yechish, muammoli izlanish, izlanish-tadqiqotchilik faoliyati tashkil etish va boshqalar) mexanizmlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini takomillashtirishda interfaol metodlarni qo‘llash uchun quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: o‘qituvchi muammoli vaziyatning yechimini tayyor holda bermaydi, u ta’lim mazmuni bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratadi, talabalar esa muammoni hal etish yo‘llari va vositalarini qidiradi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil matematik mantiqiy fikrlashga undaydi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, yo‘naltiriladigan va nazorat qilinadigan bilishga oid masalalarni yechish uchun muammoli vaziyat yaratiladi.

Matematik mantiqiy fikrlash asta-sekin ijodiy jarayonga aylanadi. Materialni tahlil qilish, keys-stadi metodi, muammo va masalani shakllantirish, mustaqil o‘rganish, kuzatish va o‘lchashni amalga oshirish, mantiqiy yechimni qidirish va tadqiqotchilik tavsifidagi harakatlarni bajarish uchun muammoli vaziyatlar tashkil etiladi. Muammoli – vaziyatli topshiriqlar mustaqil bilim olishni, matematik mantiqiy fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi topshiriqlar to‘laligini yaratishga asos bo‘ladi. Muammoli ta’lim o‘zining

maxsus tushunchalariga ega bo‘lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg‘ulotlarni muammoli tashkil etib bo‘lmaydi. Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Muammoli ta’limda tayyor bilimlarning o‘qituvchi tomonidan berilishi yoki o‘quvchining mustaiql bilim egallashi izohli-ko‘rgazmali metod yordamida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo‘lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o‘rinli. Axborot shaklidagi savol tayyor javobi bo‘lgan, xoiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo‘lib, unga “Nima? Kim? Qachon? Qaerda? Qanday? Qancha? Qaysi?” kabi so‘roqlar yordamida zarur javob olinadi.

Muammoli ta’limning asosi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha “probet” so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq ma’nosini anglatadi. Tayyor javobga ega bo‘lmagan, o‘rganish, tadqiq etish, yechimini topishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson kundalik faoliyati davomida turli xildagi shaxsiy, ijtimoiy, ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lgan va shu kabi boshqa cheksiz muammolarga uchraydi. Mazkur muammolarning har biri o‘zinig yechim yo‘llariga ega. Ta’limga oid muammolar o‘quvchidan bir qancha aqliy jarayonlarni bajarishni talab etadi. Bu jarayonlar muammoli xususiyatidan kelib chiqib, bir-birilan farq qiladi. Muammoli savolda bajarladigan aqliy jarayon muammoli vazifanikidan muammoli topshiriqda bajariladiganlari muammoli vaziyatnikidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hayot davomidagi bunday muammoli vaziyatlardan chiqishning asosiy yo‘li inson mantiqiy fikrlashi va intellekt hisoblanadi.

Muammoli ta’limning keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol bo‘lib, u axborot shaklidagi savoldan farqli, mantiqiy fikrlash yo‘li bilan izlangan noma’lumni topini ta’minlaydigan so‘roq hisoblanadi. U alohida holatlarda muammoli vaziyat hamda vazifalarning tarkibida bo‘lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. “nima uchun? Nima sababdan? Buni qanday tushunsa bo‘ladi? Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?” kabi so‘roqlar muammoli savol paydo bo‘lishini va yechimini topishnit ta’inlaydi.

Bir nechta yechimni kutayotgan muammoni savolning bir-biriga bog‘liq holda qo‘yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo‘lgan, o‘qituvchi tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushuncha.

Muammoli vazifa mazmuni o‘quvchiga aniq bo‘lgan masalaning noaniq-ligi bilan ziddiyatlashuvidan iborat. Topilishi zarur bo‘lgan noaniq masala izlanish,

fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta’minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi [1].

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi muammolikni amalga oshirishda o‘qituvchidan quyidagilarga e’tibor berishni talab etadi: a) o‘quv masalalari va ularni qo‘yish yo‘li bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida muammoli vaziyatni yaratish va anglatish; b) muammoli vaziyatga xos xususiyatlarni o‘rnatish va yo‘naltirish; v) o‘quv mazmunini ochib berish uchun ish shaklini tanlash.

Matematikaning o‘quv fani sifatidagi o‘ziga xosligi ta’limda muammolilik jarayonining o‘ziga ham ta’sirini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida matematik mantiqiy fikrlashni fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuniga qo‘yilgan didaktik talablar, shuningdek, tadqiqot ishimizning mazkur qismidagi o‘ziga xos xususiyatlar hamda matematik mantiqiy fikrlashni shakllantirish darajalari talabalar matematik mantiqiy fikrlashini shakllantirishni talab etmoqda. Buning uchun o‘quvchilar bilan birgalikda boshlang‘ich sinf darsliklaridagi masalalarni muammoli vaziyat usullarida yechishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Muammoli masalalarni yechishda odatdagi masalalarni yechishdan bir qator farq qiladi [2]. Bunda masalalarni yechish talab qilinmaydi, balki masalada nima haqida gap borayotganligi hamda munosabatlarni taqqoslash, isbotlash, qonuniyatni to‘g‘ri o‘rnatish talab etiladi. Bunday ko‘rinishdagi masalalarni yechishda o‘quvchilarning topqirligi, zehnining o‘tkirligi, matematik mantiqiy fikrlashlari shakllanadi, matematik mantiqiy fikrlashi rivojlanadi.

Tadqiqot ishida muammoli o‘qitish vositalaridan foydalanib, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining matematik mantiqiy fikrlashini shakllantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda matematik mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishga moslab o‘quv materialini muammolashtirish; o‘quvchi faolligini tashkil etish; o‘qitishning o‘quv hayoti, turmush tarzi, mehnati bilan aloqadorligini o‘rnata olish. Bunda o’zaro deganda fanlararo, uzluksiz deganda semestrlararo o ‘qitiladigan fanlaaro bo‘g‘liqlik nazarda tutilmoqda.

Muammoli ta’lim ta’lim-tarbiyaviy jarayonni faollashtirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish jarayonga qiziqishlarining, xohish-istagining ortishiga sabab bo‘ladi.

Yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi tajribasining mohiyati muammoli ta’limda ko‘rinadi, u o‘z-o‘zidan muvaffaqiyat keltirgan o‘quv jarayoni shakli metodik

jihatdan amalda qo‘llanilganda texnik jihatdan jihozlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik jihatdan yaxshi tayyorlangan o‘quvchi yaxshi hisoblanadi. O‘quv jarayonini oliy cho‘qqi darajasiga olib chiqish muammoli ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o‘rganish demak, shu bilan birga ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirib olishda, mantiqiy fikrlashning shakllanishida kafolatlovchi omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish uchun matematika o‘qitish metodikasi fanidan dars mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatlar yaratish usullari quyidagicha ifodalanadi: o‘qituvchi rahbarligida boshlang‘ich sinf darsliklaridagi misol va masalalar yechish usullari bo‘yicha ziddiyatli holatni yuzaga keltirish va o‘quvchilarga yeimini topishni taklif qiladi; o‘quvchilar o‘rtasida amaliy faoliyatdagi nomutanosiblik, qarama-qarshilik hamda ziddiyatlar to‘qnashuvini vujudga keltiradi; o‘quvchilar tomonidan qo‘yilgan bitta muammoning o‘ziga har xil fikrlar bildiriladi; o‘quvchilarga hodisani har xil pozitsiyadan ko‘rib chiqishni taklif qiladi; o‘quvchilarni tahlil, sintezlashga, taqqoslashga, umumlashtirishga, muammolar yechimini topishda umumiy, xususiy, tipik holatlarni aniqlashga, xulosalar chiqarishga undaydi; o‘qituvchi aniq muammoli savollar qo‘yadi, vaziyatni, topshiriqlar yechimini so‘raydi[3,4].

Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematik mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishni ta’minlapshga qaratiladi. Sababi o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minolovchi asosiy omil uning mustaqilligida, ya’ni yuqori darajada mustaqil mantiqiy fikrlay olishida namoyon bo‘ladi. Agar ta’lim jarayoni o‘quvchini mustaqil mantiqiy fikr yurita olishga o‘rgatsa, unday ta’limni rivojlantirishga asoslangan o‘quv-bilish jarayoni deb qabul qilish mumkin.

Talabani mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan maxsus vositalarni qo‘llab, uni fanga qiziqtirish, erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta’lim deyish mumkin.

Matematika o‘qitish metodikasi fanidan dars mashg‘ulotlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faollashtirishda samarali metod va usullardan foydalanish ijobiy samara beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishda vaqtgacha amaliyotda mavjud bo‘lgan usullar ularning mantiqiyligi, izlanuvchanligi, fikrlashining yuqori daraja shakllanishiga bugungi kun nuqtai nazaridan qarasak, javob bera olmasligi aniq.

Muammoli ta’limda talaba tahlillarni qo‘llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish jarayonlarini amalga oshiradi, o‘zi mustaqil yangi axborotni izlab topadi. Mazkur jarayon o‘quvchi bilimini kengaytirishdan, chuqurlashtirishdan va notanish vaziyatlarda ham ularni qo‘llay olishdan iborat.

Talabada mantiqiylik, izlanuvchanlik xislatlarni shakllantirish uchun o‘qituvchi tomonidan materialar, ya’ni o‘quv qo‘llanma va darsliklarning berilishi maqsadga muvofiq emas. Aksincha, ularni mustaqil izlab topishga va foydalanishga o‘rgatish lozim.

Aqliy izlanish murakkab jarayon hisoblapnadi. U, asosan, darsda o‘qituvchi tomonidan murakkab muammoli savollar, vaziyatlar taqdim etilganda vujudga keladi. O‘qituvchi muammoli savol va topshiriqlarni shunday tuzishi kerakki, o‘quvchi yagona yechim bilan chegaralanib qolmasin.

O‘quvchi faoliyatini faollashtirish, uning yangicha va mustaqil mantiqiy fikrlashi, muammoning nazariy, amaliy tomonlarini hisobga olish, tahlil orqali yechimini o‘zi o‘ylagandek yakun toptirishga olib kelish lozim.

An’anaviy ta’limning bosh maqsadi o‘quvchini fanga oldindan ma’lum bo‘lgan bilimlar, ma’lumotlar va ular haqidagi tushunchalar bilan qurolantirishdan iborat.

Tadqiqot ishida bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish uchun mashg‘ulotlarda muammoli ta’limni amalga oshirish darajalari quyidagi 4 ta bosqichda belgilandi: birinchi bosqich muammoni to‘liq yoritgan va uning yechimini topib bergan o‘qituvchi o‘quvchilarni ixtiyoriy ravishda fikrlashga majbur etishda qarshi savollar bilan murojaat etadi. Ikkinchi bosqich muammo qo‘ygan o‘qituvchi uning mazmunini ifodalaydi, so‘ngra mustaqil izohlangan muammo yechimi topiladi. Uchinchi bosqich muammoni bayon etmagan o‘qituvchi muammoli vaziyat yaratganida mustaqil fikr yurituvchi o‘quvchi muammoli vaziyatdan chiqish yo‘llarini qidiradi. To‘rtinchi bosqich faqatgina izlanish sohasini belgilaydigan o‘qituvchi muammoga yaqinlashib boradi, ammo o‘quvchi mustaqil faoliyatga yo‘naltirilganda uning mazmuni va yechimi ko‘rsatilmaydi.

Tizimli tarzda muammolar qo‘yib borilganda muammoli ta’limda o‘qituvchi o‘quvchini murakkab tushunchalar bilan tanishtiradi, axborot beradi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub’ektiv shakli. U muammoli vaziyatda, ya’ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob’ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat.

Muammoli o‘qitish – o‘quvchilar o‘quv-bilish jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechilishi bo‘yicha takliflar, gipotezalar keltiradilar, qarashlarining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qiladilar [5].

Muammoli vaziyat – intellektual qiyinchilikda paydo bo‘lgan vaziyatlardan chiqish bo‘lib, bu insonga xos jarayon, bunda maqsad sari intilganda ma’lum va noma’lum faktlarga tayaniladi, mantiqiylikka, mahsulot olishga va yo‘l ochishga qiziqishlar orqali amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish uchun matematika fanidan dars mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatdan chiqish ketma-ketligi quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq: muamoli vaziyat → muammoning yechimini izlab topish → muammoning yechimi [6, 7]

Aqliy harakatlar orqali quyidagi ketma-ketlik asosida muammoli vaziyatlardan chiqish bosqichlari:

vujudga kelgan muammo; tushunishda qiyinchilikning nimadan iboratligi; qidirilganning yechimini topish yo‘llari; yechim bo‘yicha keltirilgan takliflar; isbotlanadigan taxminlar; to‘g‘riligi tekshirilgan muamo yechimi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishda matematika o‘qitish metodikasi fanidan talabalar bilan birgalikda mantiqiy, qiziqarli matematika elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masala. Sayyohlar uch kunda 360 km yo‘l bosdi: birinchi kuni ular yo‘lning 2/5 qismini, ikkinchi kuni 3/8 qismini bosib o‘tishdi. Sayyohlar uchinchi kuni necha km yo‘l bosgan?

Masalaning qisqa yozuvini quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

I – hamma yo‘lning 2/5 qismi

II – hamma yo‘lning 3/8 qismi 360 km

III – ? km

1-usul:

1) 360:5*2 (km) – sayyohlarning 1-kuni o‘tgan yo‘li;

2) 360:8*3 (km) – sayyohlarning 2-kuni o‘tgan yo‘li;

3) 360:5*2+360:8* (km) – sayyohlarning ikki kunda o‘tgan yo‘li;

360 – (360:5*2+360:8*3)=360 – (144+135_ = 360 – 279 = 81 (km).

2-usul:

1) 360-360:5*2-360:8*3 (km) – sayyohlar 3-kuni o‘tgan yo‘li;

360-360:5*2-360:8*3=360-144-135=81(km).

2-masala. Agar bir songa 7 ni qo‘shib, yig‘indini 7 ga bo‘lib, bo‘linmadan 7 ni ayirib, ayirma 7 ga ko‘paytirilsa, natija 7 chiqadi. Bu qanday son?

Javob: bu son – 49.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish maqsadida ushbu mantiqiy misol va masalar yordamida ularda aqliy faoliyatni rivojlantirish, matematik va mantiqiy fikrlash, matematik qobiliyat, xotira mustahkamligini rivojlantirishga erishiladi.

Izlanishlarimizda bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mantiqiy fikrlashini fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirish mexanizmi va vositasi bo‘lib o‘quv faoliyatida interfaol o‘qitish metodlaridan, ya’ni muammoli o‘qitish (muammoli vaziyat metodi, muammoli ma’ruza, keys – stadi metodi, muammoli ishbilarmonlik o‘yini, aqliy hujum metodi va boshqalar) metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Tadqiqot ishimizdada muammoli o‘qitish vositalaridan foydalanilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni fanlararo o’zaro va uzluksiz bog‘lab shakllantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish; muammoli vaziyatlar yaratish va ularni hal etish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish; an’anaviy va muammoli o‘qitishning o‘zaro aloqadorligi.

Adabiyotlar:

1. Атаханов Р.А. Математическое мышление и методики определения уровня его развития // Под ред. Давыдова В.В. -М. -Рига, 2000. – 208 с.

2. Бикбаева Н.У. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси.– Т.: “Ўқитувчи”, 2007. -208 б.

3. Зак А.З. Развитие творческого мышления у младших школьников. -М., 1984. -С. 42-43.

4. Пойа Д. Как решать задачу. //Пер. с анг. – Минск: “Квантор”, 1991. -215 с.

5. Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G‘.Q. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. darslik /– Toshkent: Bookmany print, 2023. – 212 b.

6. Xudoynazarov E.M., Sobirov S.J. Masala yechish bo ‘yicha praktikum. darslik /– Toshkent: Bookmany print, 2023. – 197 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni fanlararo shakllantirish mazmuni bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается содержание межпредметного формирования логического мышления у будущих учителей начальной школы.

SUMMARY

This article describes the content of interdisciplinary formation of logical thinking among future primary school teachers.

METAKOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA KOMPLEKS INTEGRATSIYADAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Nosirova R.X.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o`qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so’zlar: maktabgacha ta’lim tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliy-intellektual, metakognitiv, ko‘nikma, ma’naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

Ключевые слова: система дошкольного образования, учреждение, подрастающее поколение, умственное, интеллектуальное, метокогнитив, духовное развитие, подготовка к школе, совершенствование.

Key words: preschool education system, institution, the younger generation, mental, metocognitive, intellectual, spiritual development, preparation for school, improvement.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta’limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta’lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta’limni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta’lim sifatini oshirish muhim va zaruriy bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida “maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish”[1] vazifalarining belgilanishi tarbiyalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatlari, potentsiali, yoshiga xos psixik xususiyatlarini rivojlantirish, metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishning turli metodlarini qo‘llash hamda kompleks rivojlanishini ta’minlashga doir nazariy-metodologik asoslarni takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligi uyg‘unligini asoslovchi tizimni yaratishni taqozo etadi.

Tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlashda metakognitiv ko‘nikmalar (o‘z o‘zini tahlil qilish, mushohada yuritish, refleksiya)ni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limda integratsion yondashuvlarning didaktik imkoniyati xususida olimlar tomonidan zarur tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada M.N.Berulava [3], I.Ya.Lerner [4], B.Abdullayeva [2] va boshqalarning tadqiqot ishlarida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirish maqsadga muvofiq.

T.L.Xurvaliyevaning fikricha, “integratsiyada bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida mashg‘ulot mavzusi xizmat qiladi. Integratsion mashg‘ulotlarning muhim xususiyati shundaki, bolalarning harakatlari va faoliyat turlari almashib turadi. O‘zaro bog‘lash mumkin bo‘lgan faoliyat, masalan, ertaklarni sahnalashtirish, qurish, yasash materiallaridan dekoratsiyalar, o‘yin uchun atributlar tayyorlash; badiiy asarlar o‘qiganda musiqa tinglash, tasviriy san’at asarlarini tomosha qilish va rasm chizish bilan uyg‘unlashtiriladi. Faoliyat turlari almashishi bolalar diqqatini jalb etish, shu bilan birga diqqatni ko‘chirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, mashg‘ulot samaradorligini oshiradi, charchoq va zo‘riqishni bartaraf etadi” [5; 77-b.].

Bizningcha, integratsion jarayon tarbiyalanuvchilarda ijodiy faollikni yuzaga keltiradi. Bu esa pedagog-tarbiyachidan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidan to‘liq foydalanish, turli sohalardan ma’lumotlar olish, atrof-olam va bilishga oid voqea-hodisalardan namunalar keltirishini taqozo qiladi.

Integratsion yondashuv bolalarda bilish qobiliyatini rivojlantiradi, ularni maktabga tayyorlashda zarur omillaridan biri hisoblanadi. Mashg‘ulotlarda berilgan o‘quv topshiriqlari va o‘yinlar borliqda yuz beradigan jarayonlarni ko‘rsatadi, bolalarning turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishlariga zamin yaratadi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, organizmining umumiy charchashiga olib keluvchi omillar, ortiqcha zo‘riqishlarni bartaraf etish lozim. Bolalarni intelektual jihatdan rivojlantirish maktab ta’limiga tayyorlashning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni qo‘llash orqali bolalarni maktabga tayyorlashda ularning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo‘lishi rivojlanib boruvchi va o‘zgaruvchan jarayondir. Tadqiqot davrida bolalarni maktabga tayyorlashga yo‘naltirilgan “Context”, “Soil sorter”, “Abakus”, “Nima uchun”, “U kim, bu nima?” kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanildi. Quyida mazkur texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni misol tariqasida keltirildi:

KONTEKST (Context) texnologiyasi. Ushbu texnologiya asosida bolalarda qiyosiy tahlil, solishtirish, izlanuvchanlik va topqirlik sifatlari rivojlantirilishi ko‘zda tutiladi. Bolalarga har bir faslning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Mazkur texnologiyadan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha tayyorlov guruhi bolalari bilan “Gullab-yashnayotgan bahor” mavzusini o‘tishda foydalanildi.

Maqsad: o‘simliklarning urug‘lari, barg va gullari o‘rtasidagi farqni anglashga o‘rgatish. Bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish.

Jihozlar va materiallar: o‘simliklar urug‘lari, daraxtlar rasmlari, tuproq, suv, yashik, o‘g‘itlar va AKT vositalari.

“Ilm-fan va tabiat markazi”, “Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi”, “San’at markazi”da suhbat va tajribalar olib borildi.

Ta’limiy faoliyatning borishi:

– bahor fasliga oid videolavha namoyish etildi;
– videolavha haqida bolalarning fikrlari tinglandi;
– bolalar tomonidan stol ustiga qo‘yilgan turli xil o‘simlik urug‘lari (rayhon, kashnich, ukrop) va daraxt barglari qo‘yib chiqildi;
– o‘simlik va daraxtlarning farqi so‘zlab berildi;
– o‘simlik va daraxtlarga suv, tuproq va quyosh nurlari zarurligi sabablari haqida bolalarning fikrlari eshitildi;
– tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqida munozara o‘tkazildi;
– jonli va jonsiz tabiatning vazifalari xususida suhbat uyushtirildi.

Savol-javob va amaliy topshiriqlar o‘tkazildi:

1. Bolalar, o‘simlik urug‘larini qayerga ekamiz? Nima uchun?”, “Nega tuproq va suv kerak?” kabi savollarga bolalar tomonidan mustaqil javoblar topildi.

2. Bolalar, yashikka tuproq solib, uni yumshatib urug‘larni sochib chiqing va suv seping. Jarayonda “Nima uchun suv sepamiz?”, “Nega tuproqqa o‘g‘it soldik?” kabi savollarga javob izlandi.

3. Lolaxonga daraxtlarni gullariga qarab ajratib berishga yordamlashing. Bolalar gullagan daraxtlar rasmiga qarab ularning gullarini tanlaydilar.

4. O‘simliklarning urug‘i o‘sishi uchun suv va quyosh zarurligi haqida suhbat o‘tkazildi.

5. “Ilm-fan va tabiat markazi”da o‘simlik urug‘lari yashiklarga ekildi, tuproq va o‘g‘it arashtirildi. Daraxtlar barglari va gullariga qarab ajratildi.

6. “San’at markazi”da o‘simliklar va daraxtlarning rasmlari chizildi. Applikatsiya qilindi.

7. “Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi”da gullar, o‘simlik va daraxtlar haqida she’r va topishmoqlar aytildi.

8. Mashg‘ulot yakunida bolalardan nimalarni o‘rganganliklari so‘raldi.

SORTER texnologiyasi (saralash)ni qo‘llash asosida bolalarning so‘z boyligi oshadi, kognitiv ko‘nikmalari shakllanadi, butun olam haqidagi tasavvurlari kengayadi. Texnologiya “Er sayyorasi” mavzusini o‘tishga tatbiq etildi. Bolalar savol-javoblar asosida Yer sayyorasiga oid ma’lumotlarni o‘rganadi, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat munosabatlarini o‘zlashtiradi.

Maqsad: bolalarga Yer sayyorasi va undagi o‘zgarishlar haqida tushuncha berish. Kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish.

Jihozlar va materiallar: globus, jonli va jonsiz tabiat rasmlari, atrof-olamga oid narsa va buyumlar. Turli o‘yinchoqlar, 4 ta rangli savatcha.

“Til va nutq markazi”da ta’limiy faoliyat olib borildi.

1. Jonli va jonsiz tabiatga oid rasmlar stol ustiga qo‘yiladi. Bolalar ularning nomini aytadi.

2. Yil fasllarini farqlaydi va ajratadi.

3. Atrof-olamdagi voqelik va hodisalar haqida so‘zlab beradi.

4. Yer sayyorasi haqida suhbat o‘tkaziladi.

Amaliy topshiriqlar:

1. Fasllarga oid kiyimlarni alohida savatlarga soling.

2. Jonli tabiatga tegishli rasmlarni ajrating.

3. “Koinot sirlari” seriyali rasmlar bilan tanishing.

4. Bilmasvoyga jonsiz tabiat haqida so‘zlab bering.

5. Kuz faslida pishadigan mevalarni toping.

6. Qishki o‘yinlar nomini ayting.

Bolalar topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, “San’at markazi”da ixtiyoriy ravishda rasm chizadi, rangli qog‘ozlardan applikatsiya yasaydi.

SORTER texnologiyasi mashg‘ulotlar jarayonida hamkorlikda ishlash uchun keng imkoniyat yaratadi. Chunki bu jarayonda bolalar yuz bergan hodisalarga har tomonlama yondashadi, masalaning turli jihatlarini anglaydi. Bolalarga “Koinot” mavzusidagi applikatsiya jamoa bo‘lib bajartirildi.

Bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi o‘quv topshiriqlari va o‘yinlar buyum va narsa-hodisalarning xususiyatini ajratish, ularning turli harakatini tushunish uchun bir necha marotaba takrorlashni talab etadi. Didaktik o‘yinlarda pedagoglar ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, birinchidan, bilish jarayonini boshqaradi, bolalarning ta’lim olishini tashkil etadi, boshqa tomondan esa, “hamkor-sherik” rolini bajaradi. Har bir bolani o‘yin harakatini

bajarishga yo‘naltiradi, zaruriyat tug‘ilganda namuna ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlar faqatgina so‘zlar bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari, mantiqiy va ijodiy fikrlashga qaratilgan didaktik o‘yinlarni o‘tkazish ularning ruhiyatini boyitishni, intellektual anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Shunday qilib, klasterli yondashuvga asoslangan metakognitiv ko‘nikmalar asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik didlari shakllanib boradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019y., 07/19/4312/3106-son.

2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped. fan. dok. ... diss. –T.: 2006. – 264 b.

3. Berulava M.N. Integratsiya soderjaniya obrazovaniya. – M.: Pedagogika, 1993. –172 s.

4. Lerner I.Ya. Zachem uchitelyu didaktika // Narodnoye obrazovaniye. 1990. – №12. – S. 74-83.

5. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. – 77 b.

6. Hamidovna, N. R. (2020). Preparation of children in schools by making technological techniques in pre-school education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 120-124.

7. Nosirova, R. K. (2020). Methodology for teaching outdoor games in preschool institutions. Academic Research in Educational Sciences, 1(4).

РЕЗЮМЕ

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv tarbiyaviy faoliyatida metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi klasterni qo‘llash orqali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning metodik tizimi va uni amaliyotga tadbiq etish masalalari xususida fikr bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены вопросы реформирования системы дошкольного образования в нашей стране, через развитие и совершенствование образовательных учреждений, меткогнитивных методов в образовательной деятельности.

SUMMARY

The article presents issues of reforming the system of preschool education in our country, through the development and improvement of educational institutions, metocognitive methods in educational activities.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI YUZASIDAN BOLALARDA BAHOLOVCHI MUNOSABATLARNI O‘RGANISH

Abdiraxmonova G.M.
“Profi University” xususiy oliy ta’lim muassasasi
“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, Davlat talablari, bolalarda baholovchi munosabatlar.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, государственные требования, оценочные установки у детей.

Key words: children of preschool age, State requirements, evaluative attitudes in children.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

– milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
– ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
– kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi:
– Bolaning noyobligi;
– “Men” konsepsiyasi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli;
– bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi;
– bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
– bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variantivlik asosida yondashish.

Biz yuqoridagi ma’lumotlar asnosida, bolalarning 0 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davridagi baholovchi munosabatning rivojlanishini ko‘rib chiqdik. Kuzatuvlar natijasida:

0-1 yoshli bolalarda:

Bolani sevimli o‘yinchog‘i yaqiniga emaklab kelishini rag‘batlantirish, bolani qorindan orqasiga aylanishiga va qorniga o‘girilishiga rag‘batlantirish, bola qiziqayotgan predmetiga emaklab yoki xatlab yetishishi uchun imkoniyat yaratish natijasida undagi baholovchi reaksiyasini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bola har bir motivatsiyadan so‘ng keyingi harakat faoliyatini tezlik bilan amalga oshrish istagi paydo bo‘ladi. Rag‘bat asnosida qarsak chalish, ovozli qiyqirish, harakatlar betartibli asosidagi faoliyatlar yuzaga keldi.

Bolaning har bir muvaffaqiyatini rag‘batlantirish va muloqotda bo‘lish shu yoshda anchayin muhim ahamiyat kasb etishi tajribalar asosida mustahkamlandi.

Bu yoshda atrofdagilar kayfiyatini so‘zlashuv ohangiga qarab aniqlaydi (onam xursand bo‘lyapti, bobomning jahli chiqyapti); qarsak chaladi, xursand bo‘ladi, biron-bir tovush yoki harakati atrofdagilarga ta’sir qilishini anglasa, ushbu tovush va harakatlarni qaytaradi. Individual baholovchi munosabatlarini ko‘rsatadi.

Bu yoshda bolaning har bir yutug‘ini maqtash va qo‘llab-quvvatlash, o‘yinchoqlarga ovoz berib, turli hissiyot va harakatlarni tanish imkoniyatini berish, oilada emotsional ijobiy holatni yaratish va har kuni bola bilan o‘ynash, o‘yin vaqtida bolaga o‘ziga ishonch hissini oshirish uchun yaqin turishga harakat qilish va barcha birgalikda bajarilayotgan harakatlarni bolaga aniq va lo‘nda tushuntirish, baland tovush va shovqinlarni cheklashda bolaning baho munosabatini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

1-2 yoshli bolalarda:

Ushbu yoshga kelib bolada “yoqtirgan taom” va boshqa “yoqtirgan buyum” larga qo‘lini cho‘zadi ya’ni unda baholoashning yangicha ko‘rinishi namoyon bo‘la boshlaydi. “Sevimli” likopchani (piyola) ushlaydi va undan ichadi, suvni bir idishdan boshqasiga to‘kadi.

Shu yoshda bolaga bir necha taomdan birini tanlash imkonini berish, uning uchun baholash vaziyati ayni maq’bul holatdagi jarayon hisoblanadi.

Bu davrda bolani kun mobaynida mustaqil piyoladan ichishini rag‘batlantirish, bolaning urinishlarini rag‘batlantirish natijasida ko‘zguda, rasmda o‘zini taniydi, o‘z ismini biladi, kattalar talabi bilan uning istagi to‘g‘ri kelmaganda e’tiroz bildiradi, kattalar tomonidan o‘zining harakatlariga bildirilgan rag‘bat va tanbehni farqlaydi.

Bolaga o‘zini ijobiy baholashida ko‘maklashish: “men — yaxshi”, “men tirishqoq”, bolani boshqalar bilan bo‘lashishga o‘rgatishni boshlash, “o‘g‘il bolalar — kuchli”, “qiz bolalar — muloyim” kabi stereotiplardan qochish, “man etiladi” va “...mumkin emas” iboralaridan voz kechish, bolaga noto‘g‘ri harakatlar oqibatini tushuntirgan holda uni yo‘naltirish (“qum ko‘zingga tushsa, ko‘zing og‘riydi”) kabilar ushbu davrning yaqqol baholovchi namunasi hisoblanadi.

Bolaga baholovchi munosabat, u bilan bog‘liq bo‘lgan turli vaziyat va hissiyotlarni muhokama qilish ayni shu davrda juda samarali ahamiyat kasb etadi.

Bolaga rad javobini berilishi sababini tushuntirish, bolaning jahli chiqganda, xafa bo‘lganda yoki o‘zini yomon his etganda yonida bo‘lish ham baholovchi munosabatlarning shakllanishiga ko‘mak beradi. Shu asnoda bola kattalar harakatiga taqlid qilishga intiladi. Tovushi yoki harakati bilan boshqa bolaning diqqatini o‘ziga tortadi, quvonch yoki qoniqish hissini baxsh etuvchi harakat va tovushlarga erishish uchun predmetlar bilan harakatlanadi, musiqa, tovushlarga o‘zining shaxsiy baho munosabatini bildiradi. Ayni shu davrda bolalar o‘zi uchun noma’lum qiymatga ega kitoblarini varaqlaydi va undagi tanish ertak qahramonlarini biladi, “sevimli” kiyim tushunchasi paydo bo‘ladi, kiyimdagi rasmlarga e’tiborini qaratadi. Bahoning “yoqtirish” turida o‘zi uchun ma’lum bahoga ega bo‘lgan sevimli multfilmini tomosha qiladi.

2-3 yoshli bolalarda:

Bola bu davrga kelib baholovchi xarakterga ega past va baland ovozlarni ajratadi. Ayni shu vaqtga kelin baholovchi munosabatni rivojlantirish mqsadida bola bilan doimiy muloqotda bo‘lish, u bilan o‘ynash muhim hisoblanadi. Bolada suv muolajalariga nisbatan ijobiy baho munosabat shakllanadi. Bolaga organizm uchun nima foydali, nima zarar ekanligini tushuntirishga oid munosabat ham shu yoshda yuzaga keladi. Salomatlikni saqlash va mustahkamlashda shaxsiy namuna ko‘rsatishga doir baho munosabati ham ayni shu davrda jadallashadi.

Ayni shu yosh davrida bola o‘zi va buyumlari haqidagi sifat jihatdan bahosini beradi. Hamma ishni o‘zi bajarishga intiladi, o‘zi bajargan ishga sevinadi, o‘z narsalarini taniydi, o‘zini aniq bir jinsga mansubligini biladi, biror bir ishni mustaqil bajaradi.

Bolani boshqalar bilan muloqotda o‘zini tanishtirishga odatlantirish ayni shu jarayondagi muhim motivatsion jarayon hisoblanadi. Bu yoshda bolani yutuqlari uchun albatta maqtash, yutuqlar kichikroq bo‘lsa ham e’tirof etish joizdir. Bu vaqtga kelib bola bosh bo‘ladigan holatlarni tashkillashtirish jarayonini boshlash kerak, baho munosabati shakllanishining eng muhim jarayonini shu vaqtda bolaga moslashtirish mumkin. 2-3 yoshli bolalarda tanbeh berishdan o‘zini tiyish lozim. Chunki bu jarayon, baho munosabatining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yoshda muloqotda ochiq, ijobiy emotsional ruhiyat ustun, atrofdagilarga asossiz tajovuzkorlik ko‘rsatmaydi. Asosiysi bu davrda bahoning boshqalarga achinish, qayg‘urish, boshqa odamning emotsional holatini tushuna boshlash va shunga mos munosabat bildirish jarayonlari yuzaga keladi. Bola bilan suhbatda hissiyotlarni ta’riflovchi so‘zlarni qo‘llash barcha ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglarga tavsiya etiladi.

Multfilm qahramonlarining bahoviy yorqinligini tahlil qilish, hissiyotlarni ifodalovchi so‘zli o‘yinlardan foydalanish, kayfiyat va his tuyg‘ular haqidagi hikoyalar va she’rlarni o‘qish baho munosabatining shakllanishi bosqichining ushbu davri ayni shu yosh davrida mujassamlashgandir.[4]

Motivatsion munosabatning rivojlantirish uchun, bola bilan o‘yin mobaynida boshqalar bilan hamkorlik qilishni shaxsiy namuna asosida namoyish etish, muloqot jarayonida chegara belgilash, bolani boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik lozim.

Bola bu davrda istak va iltimosni ifoda etadi, kitob o‘qib berishlarini so‘rashi mumkin, rasmlar bo‘yicha kitobni taniydi. Bu jarayonlarning barchasi unda baho munosabatining shakllanayotganidan darak beradi.

Bu davrda bolaning so‘z boyligini turli didaktik o‘yinlar, kuzatuv va tomoshalar orqali boyitib boorish, kitob xarid qilishda bolaga tanlash imkonini berish lozim.

Bolani ayni shu yoshda kichik yutuqlari uchun doim rag‘batlantirish kerak. Sevimli kitobi va rasmlarni taniydi, bu ham bu davrdagi baho munosabati shakllanishining yaqqol namoyishidir.

2-3 yoshli bolalarda ertaklardagi jarayonga o‘z hissiyotlarini bildirish, sevimli qo‘shiqlarini tinglash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarda musiqiy baholash qobiliyatlari shakllanadi, bolalar musiqiy instrumentlarini chaladi. Dramatizm rivojlanadi va bolalar teatrga qiziqish bildiradilar. O‘ziga moslab kiyim tanlaydi, bu jarayon bolalarda bahoviy munosabatlarning munosib

xarakterda rivojlanayotganidan darak beradi. Shu o‘rinda “Yoshi ulg‘aygan sayin, ularning tanlovi muhim ahamiyat kasb etadi. Bola onasidan kiyimining rangi va modelini tanlashda unga murojaat qilishini xohlaydi. Bundan tashqari, ushbu davrda bolalar o‘zlarining kiyimlarini kiyishlari kerak. Bolaga kiyinishda yordam berish rivojlanishiga zarar yetkazish va uni kattalar shaxsiga bog‘liq qilish. Shuning uchun kiyinish va yechinish oson bo‘lgan kiyimlarni tanlash bolaning ishini osonlashtiradi va shu bilan unga muvaffaqiyat qozonishdan zavq bag‘ishlaydi.”[3]

Shu bilan birgalikda bu yoshda, bolaga hayvonlarni o‘xshatib, his-tuyg‘u bilan o‘qish kabi bahoviy munosabatlar rivojlanadi.

Bolaning musiqa bilan bog‘liq faoliyatini qo‘llab-quvvatlash (fonli klassik musiqa, bolalar qo‘shiqlari) ham ayni shu yoshda rivojlanadi. “Zamonaviy maktabgacha yoshdagi bola harakatchan, faol va erkindir. U bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyatni birlashtirib, ularni o‘yinga aylantiradi va shu bilan hayotini tartibga soladi. Maktabgacha tarbiyachining turli xil faoliyat turlariga moyilligi va qiziqishi bizni bolalar bog‘chasida baho jarayonini tashkil etishning yangi shakllari haqida o‘ylashga majbur qiladi.

1-3 yil (yetakchi faoliyat – obyekt-manipulyatsiya): shuning uchun onomatopeya, musiqiy barmoq, logotip-ritmik, motorli o‘yinlar, musiqali ertaklar, topishmoq qo‘shiqlar va boshqalar kabi shakllar qo‘llaniladi.

3-5 yil (o‘yin faoliyati, rolli o‘yin): shuning uchun qo‘shiq o‘yinlari, musiqiy o‘yinlar – fantaziyalar, musiqiy asosdagi o‘yin muammoli vaziyatlar, sayohat o‘yinlari, musiqiy didaktik o‘yinlar, musiqiy asarlar asosidagi o‘yinlari, topishmoq konsertlari, suhbatlar kabi shakllar qo‘llaniladi.

5-7 yil (murakkab integratsiyalashgan faoliyat): quyidagi shakllar qo‘llaniladi – muammoli va vaziyatli vazifalar, musiqiy va didaktik o‘yin, kompyuter musiqiy o‘yinlari, loyiha faoliyati, teatrlashtirilgan tadbirlar, dumaloq raqs o‘yini, musiqiy improvizatsiya o‘yinlari, musiqa tanlovlari, festivallar, kontsertlar, integratsiyalashgan tadbirlar, yig‘ish.[2]

Bolani chizishga rag‘batlantirish bu yoshda juda muhimdir. 2-3 yoshli bolalarda bahoviy munosabatlarni rivojlantirish uchun master klass, bayram, xalq sayllarida ishtirok etishni davom ettirish lozim.

3-4 yoshli bolalarda:

3-4 yoshli bolaning rivojlanish xaritasiga ko‘ra, “kichik soha: “Men” konsepsiyasi shakllanadi. O‘z hissiyot va xavotirlarini bildiradi. O‘yin vaqtida o‘ziga biror rol olishi mumkin. O‘z xatti-harakatlarini baholay oladi («buni men qildim»). Katta odamning iltimosini (topshirig‘ini) bajaradi. Mashg‘ulot

vaqtida diqqatini saqlay oladi. Muvaffaqiyatga motivatsiyasini namoyon qiladi. Omadsizlik, mag‘lubiyatdan tashvishlanadi.”[1]

Yuqoridagi Davlat dasturiga muvofiq bolalarda 3 hamda 4 yoshida baho munosabatlarining turli xil ko‘rinishdagi yo‘nalishlari rivojlanadi. Masalan, ertak, hikoya va multfilmlar qahramonlariga qayg‘uradi, xursandchilik, g‘am-tashvish singari hissiy holatlarni tushunadi.

O‘z hissiyotlari va tashvishlarini ifodalaydi (“menga yoqadi”, “men yoqtirmayman”). Baho munosabatining ayrim turlari, boshqa bolaning hissiyotlarini so‘z bilan ifodalaydi. Boshqalarga nisbatan hamdardlik ko‘rsatadi. Syujetli-rolli o‘yinlarda ishtirok etadi. O‘z oilasi haqida gapira turib, unga nima yoqishi yoki yoqmasligini aytib o‘tadi. Oila a’zolarini biladi, hamda ular tizimli rivojlanish xarakteriga ega tarzdagi bahoviy munosabatlarning shakllari namoyon bo‘ladi. Kattalar harakatiga taqlid qiladi, o‘z harakatlarida natijaga erishish yo‘lida qat’iylik ko‘rsatadi.

Bu yoshda kattalar va bolalar bilan hamkorlikda o‘ynaydi. Bolalarning salbiy xatti-harakatlariga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi. Jamoaviy o‘yin faoliyatida qatnashadi. Tengdoshlarga nisbatan xayrixohlik bildiradi. O‘zining ba’zi harakatlarini so‘zlar bilan birgalikda olib boradi. Rasmda ko‘rayotgan narsalar haqida gapiradi. Kattalarning turli savollariga javob beradi (yaqin doiradagi odamlar). Muloqotda faollik ko‘rsatadi, bahoviy munosabatlarning ma’lum jihatlarining yuksalishi kuzatiladi. Tanish asardan parcha eshitib, uning nomini aytadi, aynan, qahramonlarning ijobiy, salbiy hamda bahoviy munosabatlarning shakllanishiga doir so‘zlar ularning lug‘atida jamlanadi.

Kichik she’rni yoddan aytib beradi, undagi baho munosabatiga doir satrlarni idrok eta oladi. Kattalar tomonidan boshlab berilgan tanish ertak, hikoyani davom ettiradi yoki yakunlab beradi. Didaktik o‘yinlar o‘ynaydilar.

Bu yoshda ular “sevimli kitob” haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Kattalardan kitob o‘qib berishlarini iltimos qiladi. O‘z yoshiga mos kitoblarni ko‘rib chiqadi, hamda kitobdagi matn va rasmlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bolalar ayni shu yosh davrida “kitobiy baholovchi” munosabatning shakllanishiga guvoh bo‘lamiz. Tanish ertak qahramonlarini rasmlaridan taniydilar, ularning xarakter-xususiyatlariga ko‘ra, bola o‘zining shaxsiy bahosini bildiradilar. Predmetlarni bir baholovchi belgi bo‘yicha saralaydilar. Bu davrda bolalar oltita rangni farqlaydi va ajrata oladilar. O‘xshash juftlikni tanlay olishadi. Rasmlardagi predmetlarni taniydi va ularning nomini ayta oladilar. Jonli obyektlarga qiziqish ko‘rsatadilar. Predmetlar tayyorlangan materiallarni ajrata oladilar (qog‘ozdan, yog‘ochdan, temirdan). Xonani kuzatadi va o‘zi turgan joyni aniqlay oladi, u yerdagi qiymatga ega narsalarning

ozmuncha qismini idrok eta oladilar. Atrofdagi olamga qiziqish bildiradilar. Rasm, xalq amaliy san'ati asarlari, o'yinchoqlar, ob'ektlarni idrok qilishda hissiy (emotsional) kuyunchaklik ko'rsatadi. Tabiat ko'rinishlari, o'yinchoqlar, bolalarning kiyimlaridagi ranglar go'zalligini sezadi. Tanish o'zi uchun ma'lum bahoviy qiymatga ega qo'shiqlarni farqlaydi. Tovushlar, ohanglarni diqqat bilan eshitadilar va ularga nisbatan ma'lum o'zlarining qiymatlarini bera oladilar. Tasviriy san'at elementlaridan foydalanadilar. Ular orasida har bir elementlarga nisbatan har bir bolaning individual bahoviy munosabati mavjud bo'ladi.

5-6 yosh bolalarda:

Ushbu yosh davrida bolalar qiymatga ega ata, o'rtacha va kichik o'yinchoqlarni hajmi bo'yicha mos keladigan qutilarga joylashtira oladilar. Vitaminlarning bahoviy qiymatlarini, ovqatlanishdagi ahamiyati va rolini biladilar.

Salomatlik haqida g'amxo'rlik qilishning muhimligini anglaydilar. Bu jarayon ham bolalarning 5-6 yosh davrida ham baho munosabatlarining shakllanayotganligidan dalolat beradi. Bu yoshda bola o'ziga yuklanayotgan majburiyatlarni qabul qiladi va ularga rioya etadi. O'zining qaysi millatga mansubligini biladi, o'z istaklari, manfaatlarini aniq ifodalaydi. O'z bahoviy hissiyotlarini ifodalaydi, o'z-o'zini baholash qobiliyatini namoyon eta oladilar. Mustaqil ravishda o'zi uchun ma'lum bahoviy qiymatga, ahamiyatga ega mashg'ulot turini tanlaydi. Bahoviy g'oyalar taklif eta oladilar, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Samimiy va ochiq baholovchi kayfiyat turlarini aniq idrok eta oladilar. Bahoviy hissiyotlar va ularni boshqarishni aniq tahlil etishadi. Asosiy hissiyotlar sabablarini tushunadi, masalan, agar kimnidir xafa qilsa, aybdorlik hissini ko'rsatadi. Yaxshi yoki yomon xatti-harakatga baho berishga qodir bo'lishadi. O'yindagi g'alaba onlarida shodlanishni biladilar, bu ham bahoviy munosabatning yaqqol ko'rinishi hisoblanadi. O'z bahoviy hissiyotlari hamda kechinmalarini do'stlari va yaqin kishilari bilan o'rtoqlashadi. Qo'rquv va xavf nimaligini tushunishadi. Hammabop asarlarni mamnuniyat bilan tinglaydi va ular borasida o'z hissiy munosabatini bildiradilar. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda ham qiymat tushunchalari o'z o'rniga ega bo'ladilar. Muloqotda o'z fikri, hissiyotlari va tasavvurlarini namoyon eta olishadi. Guruhda va oilada tashkil etiladigan mehnat faoliyatida qatnashadilar. Iltimos yoki xabarni suhbatdoshiga yetkazishni bilishadi. Mustaqil, kattalardan nisbiy mustaqilligini namoyon etadi, bu jarayon ham baholash munosabatlarining ko'rinishlaridan biridir. Yordam ko'rsatishga tayyor bo'lishadi. Tanish insonlar bilan suhbatga oson kirishadilar va suhbatlarida ham baho munosabatiga oid so'z qo'llay oladilar.

Bu yosh davrida ijtimoiy axloq qoidalari va me'yorlariga bo'ysunadilar (mumkin, mumkin emas, yaxshi, yomon, kerak). Boshqa bolalar bilan barqaror

do‘stona aloqalar o‘rnata olishadi. So‘zlarni ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ri qo‘llay oladilar. “Sevimli” adabiy asarlar, ertaklar, hikoyalarning nomi va mualliflarini bilishadi. Rasm bo‘yicha syujetlarni eslab qoladi va hikoya qiladi. Izchil fikr yuritadi, xulosalar chiqaradi. Musiqa asariga hissiy munosabat bildiradi. Musiqa ohangiga mos ravishda turli harakatlar o‘ylab topishi mumkin. Bu jarayonda baho qiymatiga ega jarayonlarning ma’lum ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlar qahramonlari rolini o‘ynashi mumkin. Amaliy san’at turlari borasida dastlabki bahoviy tushunchalarga ega bo‘lishadi. O‘z loyihalarini yaratish g‘oyalarini bildiradi. Musiqiy uslublarni va ularning baho qiymatlarini ajrata bilishadi. Kichik ssenariylar tuzib sahna ko‘rinishini tashkil eta oladi, baho bera olishadi. Kostyumlarni bezatishi, guldastalar yasashi, oddiy retseptlar bo‘yicha ovqat tayyorlashlarida o‘z baholarini ifoda eta olishadi.

6-7 yoshli bolalarda:

Ushbu yosh davrining baho munosabati turlaridan eng avvalgi navbatda, o‘z tashqi ko‘rinishiga e’tibor beradi. Jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradilarga, ularga tavsifiy baho bera olishadi. Tabiat burchagi o‘simliklar va jonzodlarni parvarishlaydi, ular orasida ham “sevimli”, “chiroyli” va shu kabi baho qiymatiga ega rivojlanish shakllanadi. Ayni shu yoshdan sog‘lik uchun “zararli” bo‘lgan harakatlarni tushunishadi ya’ni baho qiymatining salbiy ko‘rinishlatriga nisbatan ham ma’lum rivojlanish jarayonlari shakllanadi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o‘yinlar va hokazo). MTTda, ko‘chada va transportda o‘zini tutishga doir baho qoidalarini bilishadi. Yo‘lovchi va velosiped haydovchilari uchun yo‘l harakatiga oid bahoviy qoidalarini biladilar. Yong‘in xizmati (101), militsiya (102), tez yordam (103), gaz xizmati (104) raqamlarini aytadilar.

Xavfli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni biladi va tushuntirishadi, ya’ni baho munosabatining ko‘rinishlari mavjud hisoblanadi. Supermarket, shahar, qishloq va dalada yo‘qolib qolganda bahoviy o‘zini qanday tutish kerakligini tushunadilar. Mustaqillikka intiladi, o‘z jinsi (gender), oilaviy mansubligi haqida ijobiy his-tuyg‘ularni tan oladi va his qiladi. O‘z millati, tili va madaniyatining bahoviy asosiy elementlarini bilishadi. Yuklanayotgan bahoviy vazifalarni qabul qiladi va faollikni ko‘rsatadi. O‘z qarorlarini qabul qila olish layoqatini namoyon qila oladilar. Boshqalarga o‘rnak bo‘lishga intiladilar. Hissiyotlar va ularni boshqara olishadilar, bu jarayon ham bahoviy munosabat shakllangandagina namoyon bo‘ladi. O‘z hissiyotlarini namoyon qilishni nazorat qila oladilar.

Turli ijtimoiy vaziyatlarda emotsional bahoviy javob qaytara oladilar. O‘z hissiy holatini so‘zlar bilan ifoda eta oladi. Boshqa odamlar yoki adabiy asarlar qahramonlari bahoviy hissiyotlari haqida gapira olishadi. O‘zini yomon his qilayotganlarga hamdard bo‘ladi va ularni ovuntiradi.

Kattalar va tengdoshlari bilan osonlik bilan baho munosabatiga oid muloqotga kirishadi. Qiyin bahoviy vaziyatlarda konstruktiv yechim izlaydi. Boshqalar xatti-harakatlari to‘g‘risida o‘z taassurotlarini ifoda etadi. Boshqalar muvaffaqiyatiga quvonish qobiliyatini namoyon qiladilar. Ziddiyatlarni hal qilishning bir nechta usulidan foydalanadi (tinchlantiradi, o‘z o‘yinchog‘ini beradi, muloyim so‘zlar aytadi). O‘yinlar o‘ylab topadi, syujetli-rolli o‘yilarda qatnashadi, turli ertaklarni dramalshtirishda qatnashadi.

Gapdagi sinonim va antonimlarni topib, berilgan so‘zlarga ularni moslaydi. Bu jarayon ham bahoviy munosabatning shakllangsanligidan dalolat beradi. Musiqa asarining kayfiyati va xarakterini aniqlashga qodir bo‘lishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chaqaloqlik davridan boshlab baho munosabati shakllanadi. Har bir yosh davrda turli ko‘rinishdagi bahoviy munosabatlar shakllanadi. Tarbiyalanuvchilarning yuqoridagi ma’lumotlari asosida bir qancha metodik ishlanmalar va nazariyalarda qo‘llash mumkin. Ma’lumotlar “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida shakllantirilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022

2. Лопатина А., Скребцова М. Сказочная математика. М.: Амрита-Русь, 2009.-9b

3. https://minikar.ru/uz/dengi/muzykalnoe-vospitanie-v-detskom-sadu/

4. https://uz.hillarykids.com/306-things-to-consider-when-choosing-baby-clothing.html

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari yuzasidan bolalarda baholovchi munosabatlarning 0 yoshdan 7 yoshgacha ko‘rinishlari o‘z ifodasini topgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье выражены проявления оценочных установок у детей от 0 до 7 лет в связи с государственными требованиями к развитию детей младшего и дошкольного возраста.

SUMMARY

This article expresses the manifestations of evaluative attitudes in children from 0 to 7 years old in connection with state requirements for the development of children of primary and preschool age.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING PEDAGOGIK MADANIYATI

Kadirova Sh.X.
Termiz davlat Pedagogika institute maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, milliy g‘urur, maktabgacha katta yosh, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, ertak, xalq pedagogikasi, tarbiyachining pedagogik madaniyati.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальная гордость, дошкольный возраст, духовно-нравственное воспитание, сказка, народная педагогика, педагогическая культура воспитателя.

Key words: preschool education, national pride, preschool age, spiritual and moral education, fairy tale, folk pedagogy, educator’s pedagogical culture.

Kirish. Ma’lumki, tarbiyachilar bolalarga insonni o‘rab olgan olamning murakkabligini, ajoyibotlarini, sirliligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarzi qulayliklarining garovi ekanligini tushunib yetishlariga shu sababdan tabiatni muhofaza kilishni idrok qilishlariga yordamlashadilar. Shuni unutmaslik lozimki, tabiatdagi hamma narsa, voqea-hodisalar bolalar uchun qiziqarli va sirli topishmoqday tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar. Bola dastlabki tizimli ta’limni maktabgacha ta’lim tashkilotida oladi. Binobarin, uning sog‘lom, xar tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishi bevosita pedagog-tarbiyachi faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ulari ularning ba’zi harakatlarida aks etib turadi. Lekin ularda Vatan, milliy g‘urur haqidagi fikrlar cheklangan. Ular Vatan va Vatanni ulug‘lovchi she’r, xikoya va ertaklarni bilishadi-yu, milliylikning mohiyatini yaxshi anglashmaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirish uchun tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi bilan birgalikda u quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

– yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo‘lishi;
– bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti -harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni tanlay va qo‘llay olishi;
– yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan habardor qilish uchun pedagogning fikri ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi, ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi, bolalar bilan malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalana bilishi;
– bolalarning xulqini, hatti-harakatini haqqoniy baholay olishi va yo‘naltirishi, kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi xar bir a’zoni etiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi;
– tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiradigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi;
– ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar o‘tkazib, axborot almashtirib turishi, hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi;
– bolalarga nisbatan hayrixoh bo‘lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo‘lsa ovuntira olishi, pedagogik jarayonlarni tahlil qila bilishi va uni yaxshilash yo‘llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyatlari uchun imkoniyat yaratishi kerak buni bolalar yuqori baholaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan qo‘llanilgan “milliy g‘urur” tushunchasining mazmuni umumiy ob’ektiv va sub’ektiv dialektik yaxlitligini birlashtiradi, bu ma’naviy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur muhim hodisaning haqiqiy, amaldagi holatini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ma’naviy ong mexanizmlarining ob’ektiv talablari va qonuniyatlariga tayanish, bir tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarini hisobga olish, boshqa tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning ma’naviy madaniyati ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot ishlari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda bolalarning o‘zbek xalqining milliy an’analari bilan izchil tanishtirib borish zaruratini ko‘rsatdi.

Biz, bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishni, ularni o‘zbek xalqining hayoti, madaniyati va san’ati bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqligiga amin bo‘ldik, chunki mazkur yosh davrida barcha tarbiya masalalarini aniq va tushunarli bo‘lishiga erishish mumkin.

Shuning uchun ham, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma’naviy madaniyatini kengaytirish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni inobatga olib va mazkur yosh davrida milliy g‘ururni tarbiyalashning nazariy, metodologik holatlariga asoslanib, quyidagi tanlov tamoyillari belgilandi.

I. Agar vazifalar pedagogik vazifalar singari aniqlashtirilgan, haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarni, o‘z xalqining bevosita uning hayot faoliyatiga yaqin bo‘lgan an’nalarini, tarbiyalanuvchi jalb etilgan ijtimoiy insonparvarlik munosabatlari tizimi inobatga olinsagina, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs ma’naviy sifatlari va xususiyatlarini to‘laqonli tarbiyalash mumkin.

II. Shaxsga yaxlit yondashuv tamoyili. Alohida cheklangan sifatlar tarbiyaning bevosita maqsadi bo‘la olmaydi, chunki sifatlarning o‘zi maqsad, vazifasi, mazmuni, ob’ektni o‘rganish, ta’sir etish metodlari tizimi ularni to‘g‘rilash, natijalarni hisobga olish kabilarni qamrab oluvchi tarbiyaviy jarayonning markaziga qo‘yilgan yaxlit shaxs mazmunidagina haqiqatda namoyon bo‘lishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyat tizimining optimal qurilishi holatlariga binoan, maktabgacha katta yoshdagi bolaning xulqi alohida cheklangan maqsadlar bilan emas, balki aniq sharoitlarda ularga erishish orqali belgilanishi sababli, shaxsning u yoki bu sifati kengaytirilmay, balki shaxsga tegishli barcha sifatlar va xususiyatlar to‘liq qamrab olinganda dasturning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-ahamiyatli motivlar asosidagi yaxlit shaxsining bunday sifatlar va xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1) maktabgacha ta’lim takilotlariga, uning hayot faoliyati tarziga, tarbiyachiga, tengdoshlar guruhiga, oilasiga, o‘z-o‘ziga ma’naviy-insonparvarlik xarakterdagi munosabat xususiyati bilan.

2) ijodiy ehtiyojlar va qobiliyatlarning to‘liq rivojlanishi asosida, faoliyatni bajarish usullarini egallashda yaratuvchanlik, jarayonga kiritilgan bolalar faoliyati turlarining hajmida turli-tuman qiziqishlar asosidagi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar uyg‘unlashuvi asosidagi faoliyat madaniyati bilan.

3) kattalarga hurmat, tengdoshlarini tan olish asosidagi ijobiy o‘zaro munosabatlarni ta’minlovchi guruhli o‘zaro ta’sir sharoitida muhim ijtimoiy funksiya sifatidagi muloqot madaniyati bilan. Shu orqali shaxsiy-sub’ektli munosabatlari insonparvarlik va hamkorlik asosida quriladi.

4) insonparvarlik munosabatlari tizimida namoyon bo‘luvchi shaxsning ma’naviy-irodaviy va ijobiy hissiy sifatlari hamda xususiyatlari bilan, ularni hayotdan mamnunlik, qadr-qimmat, pedagogga, boshqa katta insonlarga va tengdoshlariga ishonchli munosabat, kamtarlik, haqgo‘ylik, adolatlilik, ozodalik, do‘stonalik, mustaqillik tashkil etadi.

Sanab o‘tilgan tarkibiy tashkil etuvchilar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini tarbiyalash mazmunini belgilab beradi. Ular ma’naviy tarbiya jarayonining tarkibiy tashkil etuvchilari hisoblanadi, maktabgacha yosh davrida ma’naviy-barkamol shaxsni rivojlantirishni belgilab beradi.

Milliy g‘urur to‘g‘risidagi tushunchalarning funksiyalari tarbiya tizimiga pedagogik jarayonning “teskari aloqa” xususiyati va natijalarini ochib berish, yosh guruhlari orasidagi, shuningdek MTM va boshlang‘ich maktab orasidagi ichki jarayonning uzluksizligiga majmuaviy yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday yondashuv ahamiyatli bo‘ladi, chunki tarbiyalanuvchilarning ma’naviy qobiliyatlari, tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida pedagogik o‘zaro ta’sir, hamkorlikning rivojlanishini dolzarblashtiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishning tanlov tamoyillarining zarurati, ma’naviy-axloqiy madaniyat va qalb kuchi uchun ikki asosiy jihatlar zarur ekanligi bilan belgilandi:

birinchisi – xalqning ruhiy psixologik uslubini shakllantiruvchi milliy ong;

ikkinchisi – madaniyatning umuminsoniy elementlari, umuminsoniy qadriyatlarga aloqadorlik hissi.

Ma’lumki, milliy o‘z-o‘zini anglash milliy cheklanishdan xolis bo‘lgan xalqlardagina chuqur va moslashuvchandir. Shuning uchun tarbiyaviy dasturning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy an’analar bilan integratsiyasini, milliy ong, umuminsoniy madaniyatli millatning ruhiy madaniyati shakllanishining asosiy sharti deb hisoblaymiz.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Umumiy mazmunda madaniyat tushunchasi ostida ma’naviy va moddiy boyliklarni jamlash tushuniladi, katta inson esa ularni tarixdan hozirgi vaqtga va kelajakka yetkazuvchi hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va tarbiyalanuvchilarining ota-onalarida bir xilda yuzaga keladigan qator muammolarni ajratish lozim. Birinchidan, pedagogik madaniyat nima ekanligi

va uni namoyon etish usullari qandayligi to‘g‘risidagi yaqqol tushuncha mavjud emas. Ikkinchidan, ota-onalarning o‘z ishlarida, tarbiyachilar esa pedagogik jarayonni amalga oshirishda haddan ortiq bandliklari tufayli kattalarning teatrlar, muzeylar, ko‘rgazmalarga tashrif buyurishga vaqtlari yetishmaydi. Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha pedagoglari ham ota-onalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish metodikasiga bir xilda ega emaslar.

Milliy g‘urur, madaniyat bilan inson faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan ko‘proq bog‘liqdir. U jamiyatning alohida sohasi hisoblanib, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy insonni shakllantirishni amalga oshiradi, madaniy meros, shaxsni ijtimoiylashtirish, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun ham, mutaxassisning madaniyati uning kasbiy faoliyatida alohida rolga ega, u shaxsga yaxlit ta’sir ko‘rsatadi, kasbiy-shaxsiy munosabatlar tizimida mustahkam o‘rin egallashga, o‘zini va faoliyatdagi o‘z rolini anglashga ko‘maklashadi, tanlangan kasb doirasida ijodning integral ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Mutaxassis madaniyatining umumiy mazmundagi ko‘rsatkichi sifatida shaxsning dunyoqarashi kengligi va yo‘nalganligini, ijtimoiy faolligi darajasini, hissiy ta’sirchanlik xususiyatlarini ham qabul qilish mumkin.

Xalq tushunchasi darajasida, pedagogik madaniyat mutaxassislar pedagogik muloqot vaziyatida xulqni tashkil etishga amal qiladigan talab, me’yor, namunasi sifatida tushuniladi. Ba’zan pedagogik madaniyatni kasbiy savodxonlik, bilimlilik, pedagogik texnika yoki taktika bilan o‘xshatish sodir bo‘ladi.

Nazariy jihatdan pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida qaraladi, chunki u:

- insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasini birlashtiradi, alohida pedagog esa mazkur tajribani tarbiyalanuvchilarda belgilangan qadriyatlar va munosabatlar hajmi orqali aks ettiradi;
- o‘qituvchi ijtimoiy amaliyotining bir qismi hisoblanadi va uning talablar bilan an’analar, o‘zaro munosabatlar me’yorlari orqali o‘zaro ta’siri sohasida namoyon bo‘ladi;
- inson bilimlari sohasini ifodalaydi va o‘qituvchi amalga oshiradigan, mohir pedagog faoliyatining ahamiyatli komponenti hisoblangan pedagogik konsepsiyalar, tizimlar, texnologiyalarda o‘z ifodasini topadi;
- pedagog tomonidan jamiyatning ob’ektiv ehtiyojlarini aks ettirish usuli hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat – bu murakkab tuzilgan tizim bo‘lib, pedagogik ta’sir etish sub’ektining ko‘p darajali tarkibiga egadir. Shuning uchun ham pedagogik

madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi fikrni nafaqat mohir pedagoglarga nisbatan, balki butun jamiyat doirasida ham qo‘llash lozim.

Madaniyat insonning ixtiyoriy faoliyat turiga me’yoriy talablarni aks ettiradi. Shuning uchun ham, inson faoliyatining turlari qancha bo‘lsa, shuncha madaniyat turlari ham mavjuddir. Madaniyat – insonning hayot faoliyatida o‘zlashtirgan tajribasidir.

Aytilganlarga ko‘ra, pedagogik madaniyat pedagogik jarayonning integrativ tavsifini ifodalaydi. U insonlarning orttirgan ijtimoiy tajribalarini hamda bir avloddan boshqa avlodga yetkazib berish bo‘yicha bilimlar, ko‘nikma, malakalar, kompetensiyalar va maxsus institutlar ko‘rinishda mustahkamlangan mazkur faoliyatning natijalarini yetkazib berish bo‘yicha bevosita faoliyat yaxlitligidan tarkib topadi.

Agar madaniyat ixtiyoriy aniq bir faoliyat turiga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni ifoda etsa, unda pedagogik madaniyat yosh avlodni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha faoliyatga qo‘yiladigan talablarni ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat butun jamiyatning hamda har bir alohida insonning umumiy madaniyatini aks ettiradi. Shuning uchun ham, jamiyatning pedagogik madaniyati ommaning pedagogik madaniyati darajasi bilan belgilanadi va umumiy madaniyatning ajralmas qismini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida jahon pedagogik tajribasidan tashkil topadi, madaniy davrlarning almashinishi oqibatida bunga mos ravishdagi pedagogik sivilizatsiyaga olib keladi, ta’lim paradigmalarini o‘zgartiradi.

Har bir davr o‘z pedagogik madaniyatini shakllantiradi. Uning har xil turlarini ajratishga asos bo‘lib ma’naviy qayta yaralish jarayoni xizmat qiladi, uning ostida umumiy mazmunda ma’naviy qadriyatlardan foydalanish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi. Madaniyatning har xil ko‘rinishlari ta’lim va tarbiya jarayonida ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqishning turli modellarini hosil qiladi.

Pedagogikaning toifasi sifatida, pedagogik madaniyat ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, kasbiy-pedagogik, shaxsiy darajada o‘rganilishi mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik soha quyidagi usullar bilan belgilanadi:

– otalar va bolalar, kattalar va kichiklar munosabatlarini ifodalovchi an’analar, marosimlar, qoidalarni saqlash;
– umuminsoniy va milliy ma’naviy madaniyat bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik tajribani yetkazib berish va shaxslararo, insoniy munosabatlar;
– umuminsoniy va pedagogik qadriyatlarni shakllantirish;

– jamiyatning pedagogik tafakkuri, pedagogik ongida, amaliy bilimlar tizimida namoyon bo‘luvchi pedagogik nazariya, madaniy namunalarni boyitish;

Pedagogik madaniyat shaxsiy yo‘nalishlari ko‘rsatkichlari quyidagicha:

– pedagogning bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabati, uning tarbiyachi bo‘la olish qobiliyati;
– tarbiyalanuvchi nuqtai nazarida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik kompetent¬lik va rivojlangan pedagogik tafakkur;
– o‘qitadigan fan sohasi bo‘yicha bilimliligi, shaxsiy yo‘nalganlik asosida, ta’lim mazmuni va texnologiyasi bilan ishlashni bilish;
– o‘qituvchiga o‘z pedagogik texnologiyasi, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga mualliflik yondashuvini asoslash imkonini beruvchi ijodiy faoliyat tajribasi;
– kasbiy xulq madaniyati va o‘z-o‘zini rivojlantira olish qobiliyati;
– maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va to‘laqonli rivojlantirishga ota-onalarning qadriyatli-maqsadli yo‘nalganliklari .

Pedagogik madaniyatning shartli ravishdagi uchta darajasini ajratadilar.

Pedagoglarda ham, ota-onalarda ham pedagogik madaniyat asoslarini shakllantirish uchun quyidagicha metodlar guruhini qo‘llash mumkin: kattalarning rag‘batlantiruvchi refleksiv ko‘nikmalari (keys metodi, o‘yinli modellashtirish metodlari, o‘zining tarbiyaviy faoliyatini tahlil qilish). Yagona foydalanishda mazkur metodlar katta insonning bolaga nisbatan munosabatini shakllantiradi, egallangan bilim va kompetensiyalarni faollashtiradi; taqlidga asoslanmagan faol metodlar (munozaralar, bahslar, muhokamalar, treninglar, basket-metod va boshqalar). Sanab o‘tilganlardan kuzatuv metodi alohida hisoblanadi, uni pedagoglar va ota-onalarga kundalik yozuvlarni yuritish ko‘rinishida taklif etish mumkin .

«Pedagogik madaniyat» tushunchasining mazmun va mohiyatini o‘rganish xulosasini chiqarishda, ma’naviy va moddiy qadriyatlar eng ko‘p darajada aks etgan umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida, shuningdek avlodlar almashuvi va shaxs ijtimoiylashuvi (ulg‘ayishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun insoniyatga zarur bo‘lgan insonlar pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari sifatida ta’riflash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik madaniyat pedagogning pedagogik qadriyatlari, faoliyat usullari va kasbiy xulqi dinamik tizimini aks ettiradi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish madaniyatni jamiyat va alohida shaxsning ma’naviy holati asosiy ko‘rsatkichi deb olinishiga sabab bo‘ladi.

Madaniyat tufayli uning jamiyat hayotida qatnashishi sodir bo‘ladi, atrof-olamni aks ettirish qobiliyati hosil bo‘ladi, o‘zini yorqin individual sifatida namoyon etishning yangi metodlari va vositalarini izlash qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik madaniyat sababli shakllangan shaxs madaniyati jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtirishning holati va natijalari hamda mahsuldor jarayonidir.

Pedagogik madaniyat rivojlanuvchi hodisa sifatida komponentlarning uyg‘unligi va xilma-xilligini ifodalaydi, ular qatorida pedagogik munosabat va shaxsiy sifatlarni; kasbiy bilimlar va pedagogik tafakkur; kasbiy ko‘nikmalar va faoliyatning ijodiy xususiyati; shaxsning o‘z-o‘zini tartibga solishi va kasbiy xulq madaniyatini ajratish mumkin.

Pedagogik madaniyatning shartlari pedagogning pedagogik yo‘nalganligi, psixologik-pedagogik bilimdonligi va ma’lumotliligi, pedagogik mahorati va hokazolar bilan to‘ldirilishi mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda pedagog tarbiyachi ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikka kirisha olishi va ularni tarbiyaviy-ta’limiy hamda korreksion-rivojlantiruvchi jarayonga jalb eta olishi muhim hisoblanadi.

Xulosa. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirish uchun pedagoglar quyidagi sharoitlarni yaratishi lozim:

– tarbiyalanuvchilarning ota-onalarida ularning farzandlarining rivojlanish imkoniyatlari tashxisi natijalari bilan tanishtirish orqali hamkorlik hissini shakllantirish;
– muammoli seminarlar o‘tkazish vaqtida ota-onalar va pedagoglarda bolalarni MTM va oilada rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim berish vazifalari to‘g‘risidagi tasavvurlarini muhokama etish;
– tabaqalashtirilgan ota-onalar guruhlari bilan pedagogik hamkorlik maxsus muammolarini belgilash va individual hamda kichik guruhlar konsultatsiyalarini tashkil etish;
– an’anaviy va noan’anaviy muloqot usullarini qo‘llash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga hamkorlik funksiyalarini o‘rgatish;

— ijodiy loyihalar usuli bo‘yicha jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida bolalar va kattalarning aqliy va ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoitlar ota-onalar bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilib, unda quyidagi yo‘nalishlar nazarda tutilgan:

1. O‘zaro hamkorlikni modellashtirish.

2. Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikka yo‘naltirilgan ijobiy shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish.

3. Ota-onalarda bolaning yanada to‘liq obrazini va uni to‘g‘ri qabul qilishni shakllantirish.

4. Ota-onalarning pedagogik nuqtai-nazarlarini o‘rganish va maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda oilaviy muammolar bilan tanishtirish.

5. Ota-onalarni qiziqishlari bo‘yicha guruhlarga birlashtirish, oilaviy mehmonxona va oilaviy klublarni tashkil qilish.

Ishning barcha bosqichlari va davrlarida, ota-onalar bilan ishlashning turli-tuman usullari faol qo‘llaniladi: bayon etilayotgan material bo‘yicha ota-onalarga savollar; bahsli masalalar; muqobillari berilgan takliflar; adabiyotlardan misollar keltirish; shaxsiy tajribasidan misollar keltirish

Tajribalar ko‘rsatishicha, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va metodik kompetentligi qanchalik yuqori bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining mazkur ko‘rsatkichlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: -Фил. фан. номз. ... ёзилган. дисс. –Т.: 1994. -116 б.

2. Абдураҳимова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртакларидан фойдаланиш. Пед. фан. номзоди … дисс. – Т., 1998.

3. Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари. Фил.фан.ном....дис. – Т.: ЎзР.ФАА. А.Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2005.

4. Морева, Н. А. Основы педагогического ма¬стерства [Текст] / Н. А. Морева. - М.: Просвещение, 2006. - 320 с.

5. Зверева, О. Л. Семейная педагогика и до¬машнее воспитание детей раннего и дошкольного возраста [Текст] / О. Л. Зверева, А. Н. Ганичева, Т. В. Кротова. - М.: Сфера, 2009.-256 с.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, kerakli bilimlarni berishda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik madaniyati tasvirlangan.

РЕЗЮМЕ

Овладение педагогической культурой является одной из основных задач педагогов дошкольных образовательных организаций в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста через фольклор. Педагогическая культура учителей-педагогов характеризуется предоставлением высококвалифицированных, необходимых знаний для воспитания подрастающего поколения, формированием чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста.

SUMMARY

Mastering pedagogical culture is one of the main tasks of pedagogues of preschool educational organizations in forming a sense of national pride in older preschool children through folklore. Pedagogical culture of teachers-pedagogues is described in providing highly qualified, necessary knowledge for educating the young generation, and in forming a sense of national pride in children of preschool age.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR DIVERSIFIKATSIYASI

Erkinova M.R.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, islohot, davlat, bola, avlod, inson.
Ключевые слова: образование, воспитание, реформа, государство, ребенок, поколение, человек.
Key words: education, upbringing, reform, state, child, generation, person.

Kirish. Hozirgi kunga kelib mamalakatimizda va xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim yo'nalaishidagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizmini to'la boshqarish tizmlarini boshqarish, tizmlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish davlat ta'lim siyosati qilib belgilanib kelinmoqda. Ta'lim sifatining birinchi o'rindaligi, ta'lim tizmida olib borilayotgan siyosatining yadrosi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlab, ta'lim tizminig barcha bosqichlarida boshqaruvning foydali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb bo'lib kelmoqda.

Bunda maktabgacha ta'lim tizmining o'rni o'zgacha bo'lib, sifat darajasini ko'tarish, salohiyatini oshirish boshqa sohalar kabi ko'plab yutuqlarga erishish lozim bo'ladi Shu nuqtai nazardan insonning har tomonlama rivojlanishida yordam beruvchi g'oyalar deganda (B.S.Gershunskiy, E.N. Gusinskiy, B.T. Lixachev, E. Sh. Qurbonov, E.A. Seytxalilov, A.I. Subetto va boshqalar) gavdalanadi. Shu jihatdan ta'limni sifati bo'lg'usi zamonaning muhim ijtimoiy jarayonlari dinamikasini, shu jumlada, shaxs rivojlanishi ustivorligiga sabab bo'luvchi zarurat (E. Sh. Qurbonov, E.A. Seytxalilov) jamiyatning barqaror rivojlanishi modeliga o'tish jarayonini ta'minlashga qodir insonni shakllantirishni yuzaga keltiruvchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Talim sifati va uni nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizmini to'la boshqarish tizmlarini boshqarish, tizmlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish – davlat ta'limi siyosati ekanligini unutmasligimiz lozim.

Tahlil va natija. Maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning bazaviy komponentlarining o‘ziga singdirish jiddiy nazariy eksperemental tadqiqotlarga muhtoj bo‘lib kelmoqda. Nazariy tahlillar olib borilganda shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifati masalasi zamonaviy pedagogika sohasida kam ishlab chiqilgan masalalardan biri ekanligi barchamizga ma’lumdir. Bizga ma’lum adabiyotlarda keltirilishicha, (masalan, L.I.Falyushinov) ularda mazkur muammoni maktabgacha ta’lim tashkiloti hodimlarining ish vaqtidan oqilona foydalanib va pedagog kadrlar bilan metodik ishlarni tashkil qilish vositasida hal qilishga harakat qilinar ekan. Afsuski, sifatli ta’limni ta’minlashning belgilangan jihatlari uni yechish imkonini bermasligi tufayli ushbu muammoni kompleks tahlil qilishga imkon bermaydi.

Maktabgacha ta’lim Rossiya Federasiyasi o‘qitish tizimining birinchi pog‘onasidir. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta’lim olish imkoniyatini berish g‘oyasi 1918 yilda “Yagona mehnat maktabi to‘g‘risidagi Nizom” vujudga kelgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug‘ilganidan boshlaboq o‘qish huquqiga ega bo‘lishi mumkinligi kafolatlangan.Bugungi kun ta’lim standartlari “Bolalar huquqlari xalqaro Konvensiya”sida ifodalanib, unda quyidagilar ta’kidlanadi:

- bolalar ta’lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;
- kattalar bolalarga o‘qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;
- ta’lim o‘z ichiga kichik odamni jamiyat doi- rasida o‘z hayotini tushunib etishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo‘lishi zarur;
- o‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifoda- lashga asoslangan bo‘lishi kerak. Rossiyadagi maktabgacha ta’lim tizimi doimo o‘zgaruvchan holatda bo‘lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko‘rinishini o‘zgartiradi va mukam- mallashib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go‘dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya muas- sasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimi ko‘p funksionallik, rang-barang rejalashtirish, ustuvor rivojlantirish yo‘nalishi va tur li dasturlashni aniqlash erkinligi bilan ifo dalanadi. Rossiyaning maktabgacha ta’lim tizimi «O‘quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan.

Ingliz ta’lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi, Britaniya ta’lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta’lim berish kambag‘al ishchi oilalar bolalariga ko‘ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan. 1816 yilda Robert Ouen ilk bor SHotlandiyada o‘z fabrikasi ishchilarining far zandlari uchun ilk bor bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotsini och- gan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillan- larning tashabbusi bilan bir nechta bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari ochilib, ularda asosan kam ta’min- langan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovqatlanishlari uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan.

Ta’limga yondashuv. Buyuk Britaniyada odatda ta’lim berish o‘rganilayotgan predmet yoki o‘qituvchiga emas, balki bolaga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta’limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta’sir ko‘rsatgan. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o‘rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o‘qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg‘ayrat, deb taxmin qilinadi. O‘qitish bolaning o‘zi taklif qilgan o‘yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo‘li bilan emas, balki o‘yinni qo‘llab turish, unga tadqiqot o‘tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat. Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta’lim tizimini o‘rganish bo‘yicha Yukvong katta tadqiqot ishlarini olib borgan.

U bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari hodimlari va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazgan, bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini kuzatgan. Tadqiqot o‘tkazish uchun erkin ravishda 10 ta maktabgacha ta’lim tashkilotsi tanlanib, ulardan har birining ikki guruhida muntazam besh kunlik uzluksiz kuzatuv olib borilgan. Ingliz bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlar guruhlarida 25 na- fardan ortmagan miqdorda bola tarbiyalanadi (tarbiyachilar va bolalar soni birga o‘n nisbat- da olinadi).Natijalarning ko‘rsatishicha, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta’lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilishni noma’qul deb hisoblaydilar (masalan, bolalar o‘rtasida musobaqalashish shaklini).

Bunday pozitsiya negizida ilmiy asoslangan ma’lumotlar yotadi. Masalan, M.Lepper va D.Grin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizish (bolalar bunga juda qiziqadilar) uchun mukofotlanganlari misoli keltirilgan. SHundan so‘ng bolalar bo‘sh vaqtida o‘zicha rasm chizishni xohlamay, faqat mukofot uchun rasm chizishni istab qolganlar. Boshqacha qilib aytganda, bolalarda ichki motivatsiya yo‘qolib, uning o‘rnini tashqi motivatsiya

egallagan. Ingliz bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotsida bolalar uzoq mud dat mustaqil shug'ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 foizi pedagog raxbarligida guruh ko'rinishda o'qitishga ajratiladi. Bunday o'qi- tish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bo- lalardan tuzilgan kichik guruhlarda o'tkaziladi. Shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish qoidasi amalda qo'llaniladi. Deyarli hamma tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foyda- lanish kerak, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (amaldagi til va matema- tika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tash- qari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Mazmuniy-rolli o'yinlarga pedagoglarda deyarli vaqt qolmaydi.

Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beriladi, balki boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beri- ladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanish- ning olti yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy- emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p o'ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o'yin uchun vaqt qolmaydi. Masalan, savodhonlik borasida gap ketganda besh yasharlik bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- so'z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash;
- tovush va harflarni ajrata bilish;
- alifbodagi hamma harflarni aytish;
- oddiy so'zlar va gapni o'qish;
- o'z ismini yozish;
- oddiy so'zlarni yozishda fonetika bilim- laridan foydalanish.

Bunday maqsadlar yuqori texnologiyali das- turlar yaratilishiga olib keladi. Ularda har bir mashg'ulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadi- gan natijalar ham bayon etilgan.

"Bola 5 yoshgacha – qirol, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul, 15 yoshdan keyin esa barcha bilan teng huquqli inson". Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Al- batta, bu falsafiy iborani boricha qabul qi- lish shart emas. Lekin bolaning hayoti bir necha davrlarga bo'linadi va bulardan birinchi davrida bola hammani o'ziga maftun etadi, uni asrab-avaylashadi, erkalashadi. Yoshi ulg'aygach bolada lazzatlanishdan tashqari o'zining harakatlari uchun mas'uliyat va qator majburiyatlar paydo bo'ladi. Ulg'ayishning ma'lum yoshiga

etgach kechagi bolakay bugun jamiyatning teng huquqli va teng maqomga ega a'zosiga aylanadi. Buning hammasi Yaponiyaning ta'lim tizimida bir marom va ketma-ketlikda kuzatilib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasidagi bola tarbiya va mazmuni sifati maktabgacha ta'lim tashkilotning davlatga qarashli yoki xususiyligida emas balki aniq maktabgacha ta'lim tashkilotning o'ziga, u joylashgan hududi va pedagogik jamoasiga bog'liq bo'ladi.

Guruhlardagi bo lalarning soni ham turlicha bo'lib, 8 nafardan 40-50 nafargacha bo'lishi mumkin. Yaponiyada maktabgacha tarbiya tashkilotlarida ish soatlari turlicha. Misol qilib aytganda, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ikki xil ko'rinishda bo'ladi – to'liq ish kunidan iborat maktabgacha ta'lim tashkilot bo'lib, uning tartibiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilot har kuni va shanba (yarim kun) kuni qo'shilgan tarzda ishlaydi. Bunday maktabgacha ta'lim tashkilotga ikkala ota-onasi kuniga 4 soatdan ko'proq ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Kun bunday maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ertalab soat 8 dan bosh- lanib, bolani kechki soat beshgacha hoxlagan vaqtda olib ketish mumkin.

Qo'shimcha to'lov eva ziga bolaga kechki soat 7-gacha qarab turish mumkin. Ikkinchi ko'rinishdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlar, bu bolalarni yarim kunga qabul qiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlar. Bir xil kutilmagan sharoitlarda, masalan kuchli to'fon xavfi haqidagi ogohlantiruvdan so'ng ota-onalar bolalarni maktabgacha tashkilotdan olib ketishlari shart. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o'ta yuqori darajada. Ertalab vaqtli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u erda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotda ota- onalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlariga ko'ra maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi. Mana shu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul turli davlatlarda turlicha ekan. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul yoshi O'zbekiston 1yosh Germaniya 4oylik Yaponiya 3yosh Italiya, Xitoy 1yosh O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunning 34-moddasiga binaoan bolalar yoshlariga

qarab guruhlarga ajratilgan. Jumladan, ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha), kichik guruh (uch yoshdan to‘rt yoshgacha), o‘rta guruh (to‘rt yoshdan besh yoshgacha),katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha), maktabga tayyorlov guruhi (olti yoshdan yetti yoshgacha). Germaniyada esa bolalarga nafaqa chiqqan bobo, buvilar nabiralarga qarashi kerak degan tushuncha mavjud emas.

Shuning uchun ota-onalar farzandlarini 4 oylikdan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotga berishga majburdirlar. Ko‘pgina nemis oilalari farzandlarini ancha erta bog_chaga beradilar. Germaniyada maktabgacha ta‘limning 6 xil turi mavjud bo‘lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi va rang-barangligi bilan boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi. Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatida bolalar asosan 3yoshdan maktabgacha ta’lim tashkilotga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo_lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin. Masalan, Yaponiyada bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo‘lishi kerak. Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joyidan ma‘lumotnoma va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a‘zosi yo‘qligi haqida hujjatlar taqdim etilishi kerak bo‘ladi.Mamlakatimizda esa bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotga bir yoshdan qabul qilinadi.

Farzandi uch yoshga to‘lmagan onalarga mehnat qonunchiligida imtiyozlar belgilangan. Davlatimiz maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qamrov masalasini oshirish hamda maktabgacha tayyorlovni to‘liq amalga oshirish maqsadida yangi tahrirdagi qonun hujjatlariga tegishli normalar kiritildi. Jumladan, O‘zbeksiton Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunga muvofiq maktabgacha ta‘lim va tarbiya olti yoshdan yeti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang_ich ta‘limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Endilikda respublikamizdagi 6 yoshdan-7 yoshgacha bo‘lgan barcha ta‘lim olishga layoqati bo‘lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 1 yillik maktabgacha tayyorlov guruhida boshlang‘ich sinflarga tayyorlanadi va ularga sertifikat beriladi. Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Masalan, Italiyada bolalar 3 yoshdan-6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Bu jarayon davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va xususiy katolik bog‘chalarida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa 1988 yilda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirgan. Unda nafaqat ta‘lim standartlari, balki

bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta‘lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun ham majburiy ta‘limda o‘qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi.Singapurda ham maktabgacha ta‘lim ta‘limning boshlang‗ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o‘qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o‘rgatiladi. Singapurda davlatga qarashli maktabgacha ta’lim tashkilotlar yo‘q.Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining barchasi xususiy bo‗lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi.Maktabgacha tayyorlov guruhlari O‘zbekiston Angliya 6-7, Shotlandiya 5-6 yosh, Uels Shimoliy Irlandiyada Italiya Singapur 4-6 yosh.

Uzluksiz ta‘lim tizimida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganar ekanmiz, har bir davlat o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu xosliklar qaysidir jihatdan o‘sha mamlakatlarning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga ham xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga hattoki tarixning ham o‘zi guvohdir. Masalan, yaponlardagi bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta‘lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o‘qishdan tashqari bolalarga qo‘shiq aytish o‘rgatiladi, sport musobaqalari o‘tkazilib, muntazam sayrlarga chiqib turiladi.

Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o‘tkazilishidan maqsad – bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo‗shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo‘shiqchi qo‘llanilmaydi, musobaqa o‘tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g‘oliblikka erishiladi, mutlaqo yakka g‘olib bo‘lmaydi. Bu yapon jamiyatini modernizatsiya qilishda qo‘lni qo‘lga berishga yo‘naltiradi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun yapon sidqi dildan xizmat qiladi. Dunyo bozorini egallagan Xitoy ham bu natijaga ta‘limni isloh qiltish bilan erishdi.

Xitoy xalqi butun dunyoga o‘zining mehnatsevarligi bilan mashhur. Ikkinchi jahon urishidan so‘ng qisqa muddat ichida Xitoy mahsulotlari dunyo bozorini to‘ldirganligi buning yaqqol isbotidir. Xitoyliklar juda ham intizomli va sportsevar xalq. Albatta, farzand tarbiyasida ham bu o‘z aksini topgan. Agarda Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-ona mas‘ul bo‘lsa, Xitoyda bu narsa davlat zimmasidadir. Uch oydan boshlab chaqaloq bog‗chaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o‗rgatila boshlanadi. Bog‗chalarda tarbiya bilan birgalikda jismoniy rivojlanishga

katta e‘tibor beriladi. Bolaning qiziqishlari inobatga olinib, uning iqtidorini namoyish qilishga harakat qilinadi. Boshlang‗ich sinfdanoq intizomli bo‘lish, injiqlik qilmaslik va yaxshi o‘qish talab etiladi. Itoatkorlik va “men”ni yuzaga chiqarmaslik xitoy tarbiyasining asosidir. Xitoylik bolalarda bolaligidanoq uchta asosiy fazilat: mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat shakllantiriladi.

Ularga yoshligidanoq, nima bo‗lishidan qat‘i nazar, ular eng yaxshi bo‗lishi kerakligi o‘rgatiladi. Ehtimol shuning uchun xitoyliklar fan, madaniyat va san‘atning barcha sohalarida yetakchi o‗rinlarni egallab kelmoqdalar. Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta‘lim o‘quv rejasida nafaqat umumiy ta‘lim jarayoniga urg‘u beriladi, balki boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo‘nalishidagi aniq ko‘nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy-emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘p o‘ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o‘yin uchun vaqt qolmaydi.

Xulosa. Xullas, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning Bir yilni ko‘zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko‗zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko‘zlasangiz farzand tarbiyalang degan hikmatidan bugungi kunda zamonaviy davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda.

Shu nuqtai-nazardan, bizning mamlakat ham unib o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasiga katta e‘tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta‘lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad-uchinchi Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta‘limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Qilichova M.X.(2021)Maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati./ -Ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari‖ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax. 325-bet.

2. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.:―O‘zbekiston‖, 23-bet.

3. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. ―Science and Education‖ Scientific Journal.339-351-betlar.

4. Mamajonov I.G‗., Mamatov R.(2017) Germaniya davlati ta‘lim tizimi. ―Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar‖ ilmiy elektron jurnali. №6.

5. Kilichova M.Kh.(2021) Little features of foreign experience in education of children in preschool educational institutions. Journal American. (SJIF)Impact Factor-5.714. ―Current research journal of pedagogies. Pp. 241-246.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ―Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida‖gi VMQ 802-sonli Qarori. 2020-yil 22 dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasining -Ta‘lim to‘g‘risida‖gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.

8. Fazilova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o‘quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 60-bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatining xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Asosan rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlaridagi maktabgacha ta‘lim shakllari va sharoitlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Hamda mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan. Shuningdek maktabgacha ta‘lim va tarbiyaga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Uning metodologik asoslari haqida aniq fikrlar bayon etilgan. Ta‘lim tizimidagi ilg‘or tajribalar davlatlarning rivojlanishini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на основе сравнительного анализа изучается лучший опыт организации дошкольного образования в зарубежных странах. Представлены сведения о формах и условиях дошкольного образования в развитых странах Запада и Востока. При этом было освещено содержание реформ, реализуемых в сфере дошкольного образования и воспитания в нашей стране, и их результаты. Также особое внимание уделяется исследованиям, проводимым в связи с изучением зарубежного опыта, связанного с дошкольным образованием и воспитанием. Изложены четкие представления оее методологической основе. Раскрыты роль и значение лучших практик в системе образования в обеспечении развития государств.

SUMMARY

In this article, the advanced experience of preschool education and education in foreign countries is studied on the basis of a comparative analysis. Data on the forms and conditions of preschool education in mainly developed Western and Eastern countries are presented. The content of the reforms carried out in the field of preschool education and training in our country and the views on its effectiveness are also reflected.

Also, special attention is paid to the research carried out on the study of foreign experience in preschool education and education. On its methodological basis, specific opinions are expressed. The role and importance of advanced experience in the education system in ensuring the development of States has been revealed.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY- MUAMMO SIFATIDA

Altibayeva G.M.
Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshqarish, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish.

Ключевые слова: управление, планирование, организация, деятельность, возможность, частные категории, организация.

Key words: management, planning, organization, activity, opportunity, private categories, organization.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas. Mazkur qaror maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini birday rivojlantirish, mazkur tizimga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko'lamini darajasini kengaytirish, kasbiy kompetentliligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim qamrovini to'liq ta'minlash, bolalarni maktabga tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi[6].

Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish, ularda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish, ushbu tizimni boshqarish infrastrukturasini takomillashtirish vazifasi qo‘yilib, ilmiy-metodik ta’minotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tahlil va natija. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [10] maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Hujjat malakali pedagogik kadrlarining yetishmovchiligi, davlat MTMlarining to‘lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi, hamda davlat MTMlarining o‘quv-metodik materiallari bilan past darajada ta’minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son Qarorini amaliyotga joriy qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni intelektual qobilyatini rivojlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish; maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash; maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlashni o‘zida aks ettirgan. Mazkur konsepsiya o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan va senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Ushbu Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

– har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

– har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
– maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
– maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg‘unligi;
– bola shaxsining rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv; maktabgacha va umumiy o‘rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi; ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi; ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi; maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi kabilar ko‘rsatilgan [].

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi sohasidagi innovatsion yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy metodik jihatdan samarali tashkil etish hamda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni ta'minlashga intelektual yondashishga oid bilim va ko‘nikmalarga egallashi, ulardan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik vaziyatlar bilan bog‘liq jarayonlarni tashkil etish imkoniyatlari, muayyan funksional vazifalarni muvaffakiyatli hal etishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar, samarali shakl va vositalarga oid bilimlar maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosini tashkil qiladi. Buning uchun dastlab maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni intelektual qobiliyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilinishi bolalarni har tomonlama yetuk va intelektual ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning aqliy qobilyatini rivojalanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlaarini takomillashtirishda tarbiyachi va pelagoglar maskur jarayonning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo‘lishi, ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi. Buning uchun tarbiyachi-pedagoglar maktabgacha ta'lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullarini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi va kasbiy faoliyatdan ulardan samarali foydalani bilishi lozim. Bolalarni innovatsion texnologilar asosida intelektual qobiliyatini rivojlantirishda dastlab ularning aqliy va ruhiy rivojlanishini tashxis qilishning turli metodikalarini yaxshi bilishlari va o‘z vaqtida ulardan samarali foydalanishlari talab etiladi. Har bir tarbiyachi va pedagog bolalarni intelektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishga kirishar ekan ular zamonaviy insonparvarlik

konsepsiyalarni bilishlari va bola shaxsini tarbiyalash metodikasini egallagan bo‘lishlari muhimligini taqazo etadi.

Shu o‘rinda adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, intellekt tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingani, uni psixologik va pedagogik mazmunini ifodalashda esa qator yondashuvlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqatiga nisbatan qo‘llanishi haqida vikipedik ma’lumotlar keltirilgan[8 ;58-b.].

Insonning intellektual qobiliyatlarini o‘rganish, aqliy qobiliyatlarini aniqlash bilan uzoq vaqtdan beri nafaqat pedagoglar balki olimlar, faylasuflar, filologlar, fiziologlar, sotsolog hamda biologlar kabi turli malakali olimlar va mutaxassislar tadqiqotlar olib borishgan.

Shu o‘rinda intellektni – shaxsning turli tomonlarini o‘rganadigan aqlning tuzilishi sifatida ham talqin qilinganini ko‘rish mumkin.

“Intellekt” atamasi fanga XX-asrda avstriyalik olim V.Shtern tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, intellekt insonning yangi turmush sharoitlariga moslashishning ma’lum bir umumiy qobiliyatidir.

Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash kabi qator psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi bevosita tug‘ma iste’dod, miya imkoniyatlari, jo‘shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog‘liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.[vikipediya].

Intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, hozirgi kundagi ilmiy tadqiqot ishlari asosan integratsiyalashgan dastur asosida fanlararo umumlashtirish bilan olib borilayotganini ifodalamoqda[9;104-b].

“Intellekt” - bu sodir bo‘layotgan narsalarni samarali idrok etish va tushunish imkoniyatini ta’minlaydigan individual aqliy (aqliy) tajribani tashkil etishning o‘ziga xos shakli[10;79-b].

Intellektni tarkib topishi va shakllanishi bo‘yicha sakkizta asosiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular keyingi bir qator ilmiy manbalarda qayd etilgan:

Intellektga fenomenologik yondashuv: intellekt ong mazmunining asosiy shaklli sifatida qaraladi (V.Keller; K.Dunker; M. Vertgeymer; Dj.Kempion va boshqalar).

Intellektga genetik yondashuv: intellekt insonning tashqi olam bilan o‘zaro ta’sirlashuvining tabiiy sharoitidagi o‘rab turgan muhit talablariga qiyin moslashuvi oqibati sifatida qaraladi (U.R.Charlzvort; J.Piaje).

1. Intellektga sostio-madaniy yondashuv: intellekt insonning ijtimoiylashuvi, shuningdek, madaniyatning maqsadli ta'siri natijasi (Dj. Brunner; L.Levi-Bryul; A.R.Luriya; L.S.Vigotskiy va boshqalar.).

2. Intellektga jarayonli - faoliyatli yondashuv: intellekt inson faoliyatiningasos shakli sifatida (S.L.Rubenshteyn; A.V.Brushlinskiy, L.A.Venger; K.A.Abulxanskaya-Slavskaya va boshqalar.).

3. Intellektga ta'limi yondashuv: intellekt maqsadga yo'naltirilgan ta'limining mahsuli sifatida qaraladi (A.Staats; K.Fisher; R.Feyershteyn va boshqalar). 6. Intellektga axborot yondashuvi: intellekt axborotlarni qayta ishlashning elementar jarayonlari majmui sifatida (G.Ayzenk; E.Xant; R.Shternberg va boshqalar). 7. Intellektning funksional-darajaviy yondashuvi: intellekt har xil darajadagi bilish jarayonlarining tizimi sifatida (B.G.Ananev; E.I.Stepanova; B.M.Velichkovskiy va boshqalar)

4. Intellektning regulyatsion yondashuvi: intellekt psixik faollikni o'zini o'zi regulyatsiya qilish omili sifatida (L.L.Terstoun va boshqalar).

Insonning aqliy taraqqiyotini, intellektini tadqiqot qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim fazifalvardan biri bo'lib qolmasdan, balki bu muommo qadimgi davrdan beri mutafakkir, ma'rifatparvar olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xatto mazkur masala antik dunyoni yashab ijod etgan atoqli faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb etgan.

Ularning nuqtai nazariga ko'ra, "nuo" inson ruhining oliy, shuning bilan birga o'ziga xos aqlli tarkibi bo'lsa, Platon va Aristotellar olam hamda borliqni bilishning eng maqbul ekanligini takidlab o'tadilar. Xuddi shu boisdan, "aql" bilishning eng yuksak bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Mashur faylasuf Kantning ta'limotiga binoan intellekt nemischa "verstand"lar – bu bizdagi mavjud barcha tushunchalar tuzilishining strukturaviy bilish qobiliyati sifatida talqin qilindi[11;62-b].

Aql-idrok, intellekt tushunchasi psixologiyada eng ko'p muhokama qilinadigan hodisalardan biridir, ammo shunga qaramay, aniq nimani "intellekt" deb hisoblash mumkinligi haqida standart ta'rif yo'q. Ayrim tadqiqotchilar aql-zakovat, intellektni qobiliyat deb hisoblasa, boshqalari esa intellekt- bir qancha qobiliyat, malaka va iste'dodlarni o'z ichiga oladi, degan gipotezaga yaqinroqdir deya muhokamalar olib borishadi.

Eng so'nggi va eng qiziqarli nazariyalardan biri Xovard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko'p intellekt nazariyasidir. Gardner test natijalarini tahlil qilishga e'tibor qaratish o'rniga, inson aql-zakovatining raqamli ifodasi to'liq emasligini va insonning qobiliyatlarini to'g'ri tasvirlab bermasligini aytgan. Uning nazariyasi turli madaniyatlarda qadrlanadigan ko'nikma va qobiliyatlarga asoslangan sakkizta alohida intellektni tavsiflaydi:

- vizual-fazoviy intellekt;

- og‘zaki-lingvistik intellekt;
- tana-kinestetik intellekt
- mantiqiy-matematik aql
- shaxslararo aql;
- shaxsiy intellekt;
- musiqiy intellekt;
- naturalistik aql.

Robert Sternbergning “Intellektning uch komponentli nazariyasi”. Olim Robert Sternberg intellektni-inson hayotining real sharoitlarini tanlash, shakllantirish va moslashtirish bo‘yicha aqliy faoliyati deb ta’riflagan. U Gardnerning aql bir qobiliyatdan ko‘ra kengroq tushuncha ekanligi haqidagi fikriga qo‘shiladi, lekin Gardnerning ba’zi aql-zakovatlariga alohida iste’dod sifatida qarashni taklif qildi. Sternberg unga «muvaffaqiyatli razvedka» deb atagan g‘oyasini taklif qildi. Uning kontseptsiyasi uchta omildan iborat:

- Analitik aql. Ushbu komponent muammolarni hal qilish qobiliyatini anglatadi.
- Ijodiy intellekt. Aql-idrokning bu jihati o‘tgan tajriba va hozirgi ko‘nikmalardan foydalangan holda yangi vaziyatlarni hal qilish qobiliyatiga asoslanadi.
- Amaliy intellekt. Bu element atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashish qobiliyatini anglatadi.

Umuman olganda MTT tarbiyachilarning pedagogik-psixologik yondashuvi, pedagogik taktikasi va kasbiy-pedagogik faoliyati bir yoqlama xarakterga ega bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini shakllaantirish masalasi ikkinchi darajada qaralar edi. Tarbiyachilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan bunday munosabati va tutgan yo‘li to‘g‘ri va maqsadga muvofiq deb qaralardi. Ushbu jarayonni tadqiqotchi M.Berdieva quyidagicha izoxlaydi. ”Tarbiyachilar go‘yoki bolalarning salomatligi, hayoti, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, erkin rivojlanishi va yetuk inson bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilgandek bo‘lib ko‘rinadi. Ularning maqsadlari ham shunday, lekin bu jarayonda tarbiyachilar bolalarning intellektual rivojlanishlari uchun yordam ko‘rsatishning samarali yo‘llarini tanlay olmaydilar. Aksariyat hollarda bolalarga faqat buyruq berish, qo‘rqitishdan foydalaniladi. Bunday munosabat natijasida bolalar qaysar, o‘jar bo‘lib qoladilar. Tarbiyachilarning bu kabi harakatlari bolalarning intellektual rivojlanishlariga xalaqit berib, tengdoshlari bilan faol hamkorlik qilishga salbiy to‘siq bo‘ladi va bolalarning intellektual rivojlanishlari uchun kutilgan samarani bermaydi” degan fikrlarni ilgari suradi.

«Intellekt» (inglizcha - intelligence) tushunchasi ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida psixologiyaga 19-asr oxirida ingliz antropologi F.Galton tomonidan kiritilgan.

Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi ta'sirida u irsiyat omilini jismoniy va ruhiy jihatdan har qanday individual farqlarning hal qiluvchi sababi deb hisobladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarini itelektual qobiliyatini shakllantirishda pedagogikaga oid qarashlarning vujudga kelganligi, keyinchalik ushbu qarashlar negizida maktabgacha ta'lim tizimi bo'g'ini tarbiyalanuvchilarini aqliy qobilyati, dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash doirasi, nutqi, madaniyati, yurish va turishi bilan bog'liq jarayonlarni samarali tashkil etish va ularni bosqichma-bosqich ilmiy metodik jihatdan ta'minlash mexanizmlari yaratilganligi haqidagi nazariy va amaliy bilimlardan xabardor qilish maqsadga muvofiq ekanligini asoslaydi. Chunki, 6-7 yoshli bolalarni intelektual qobilyatini shakllantirishga oid ma'lumotlar, bu sohadagi bilimlar va tajribalar bizning ajdodlarimiz tomonidan o'rganilganlik darajalari, uning ahamiyati va ijtimoiy zaruriyati ilgari surilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti juda muhim tarbiya maskani sanalib, ularni sog'lom, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga sifatli tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshirilishi lozimliki ilgari surilgan.

Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'llaydigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va har tomonlama yetuk shakllangan, maktabda o'qishga sifatli tayyorlangan tarzda tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritilgan.

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish
- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

"An'anaviy maktabgacha ta'limdagi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasidagi ichki ziddiyatlar, bolalarning badjahl, qo'rs, kattalarga shubha bilan qaraydigan bo'lib shakllanishlariga olib keladi. Natijada bolalar tarbiyachilarga bepisandlik bilan qaray boshlaydilar va maktabgacha ta'lim muassasasidan beza boshlaydilar. Ular tarbiyachilardan himoyalanish yo'llarini izlaydilar. Ko'pincha vaziyatga moslashish, o'zliklaridan uzoqlashishga harakat qiladilar va bu orqali o'ziga xos tarzdagi ijtimoiy qulaylikka ega bo'lishni xohlaydilar."

XX asr davomida Intellektning mohiyatini tushunishga quyidagi yondashuvlar tekshirildi va tahlildan o'tkazildi:

– o’rganish qobiliyati sifatida (A. Binet, Ch. Spirman, S. Kolvin, G. Vudrou va boshqalar);
– abstraktsiyalar bilan ishlash qobiliyati sifatida (L. Termen, E. Torndyke, J. Peterson);
– yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati sifatida (V. Stern, L. Thurstone, Ed. Clapared, J. Piaget) [3].

20-asr rus psixologiyasida aqliy salohiyat tadqiqotlari bir necha yo’nalishda rivojlandi: umumiy aqliy qobiliyatlarning psixofiziologik moyilligini o’rganish (B.M.Teplov, V.D. Nebylitsin, E.A. Golubeva, V.M. Rusalov), intellektual faoliyatning hissiy va motivatsion tartibga solinishi (O.K. Tixomirov), kognitiv uslublar (M.A. Xolodnaya), «mahoratning aqlga ta’siri « (Y.A. Ponomarev). O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy adabiyot ma’lumotlarini o‘rganish (V.V.Zenkovskiy, J.Piaje, P.P.Blonskiy, M.K.Akimova, M.A.Xolodnaya, D.B.Elkonin va boshqalar). Psixologiya va pedagogikada intellekt va intellektual mahorat tushunchasi ikki xil talqin qilinishini ko‘rsatdi. .

G’arb psixologiyasi olimlarining aksariyati fikricha, irsiyat va muhit intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Frensis Galton «Daho va irsiyat» kitobida o’z tadqiqoti natijalarini e’lon qilib, intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi birinchi navbatda irsiyat bilan bog’liqligini isbotladi. Uning fikricha, yuksak yutuqlarning sababi insonning o’zida yotadi va avloddan-avlodga o’tadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intelektual qobiliyatini shakllantirishda, ularni aqliy rivojlanishini ta’minlashda, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tarkib toptirishda, ijtimoiy faolligini oshirishga va jismonan sog‘lom bo‘lishiga xizmat qiladi. Intellektual qobiliyatlarini shakllanmtirish manbalari bolalarning intellectual, kognitiv, kommunikativ, kreativ qobilyatlarini innovatsion shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltiriligan omillar sifatida ifodlanadi.

Bolalarda mazkur obiliyatlarni shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo‘lmaydi.Talabalarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan mazkur jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

1. Bolalarning intellektual imkoniyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg‘otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

2. Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual imkoniyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bolalarni shaxs sifatida shakllanishi va kamol topishida yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomilada bo‘lishi, munosabat o‘rnatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida shakllanishida uning psixik xususiyatlarini rivojlantirish aql, iroda, diqqat, harakat hayotda o‘z o‘rnini topa olishi, uning vatani xalqning ravnaqi yo‘lida e’tiqod bilan xizmat qilish haqidagi tayyorgarliklari uni shaxs darajasiga ko‘taradi. Bunday sifatlarni ro‘yobga chiqarish tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Bolaning kamolatiga , ruhiyatiga fe’l –atvori shakillanishiga qanday omillar tasir etadi. Bola tarbiyasiga, uning shakillanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va ta’lim va tarbiya tasir etuvchi omillar shular hisoblanadi. Inson intellekti uchun eng muhim narsa shuki u atrofimizni o‘rab olgan va olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasida bog‘lanishi va munosabatlarini aks ettirish hamda shu bilan ijodiy ravishda qayta o‘zgarish imkonini beradi. Demak, intellekt aqliy energiyaning umumiy omili sifatida ishlaydi. Har qanday intellektual faoliyatning muvaffaqiyati ma’lum bir umumiy omilga, umumiy qobiliyatga bog‘liq. Har bir inson ma’lum darajadagi umumiy intellekt bilan tavsiflanadi, bu odamning atrof-muhitga qanday moslashishini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.–T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.

2. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi» / monografiya // Toshkent, Real print. – 2017. 160 b.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: RTM, 2004.-B.104.

4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi (o‘quv-metodik qo‘llanma). - T.: “Fan va texnologiya”, 2008, 160 bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola innovatsion texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish ijtimoiy- muammo sifatida haqida yozilgan. Haqiqatdan ham bolalarni har tomonlama barkamol, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk qilib tarbiyalash va ularni maktab tizimiga sifatli tayyorlashda dastlab ularni intelektual qobilyati va salohiyatini yetarli shakllantirish va rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о формировании интеллектуальных способностей дошкольников с помощью инновационных технологий как социальной проблеме. На самом деле очень важно вырастить детей всесторонне развитыми, физически здоровыми и умственно зрелыми, а также подготовить их к школьной системе.

SUMMARY

This article is written about the formation of the intellectual ability of preschool children with the help of innovative technologies as a social problem. In fact, it is very important to raise children to be well-rounded, physically healthy, and mentally mature and to prepare them for the school system.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINING MAVJUD HOLATI

Mamatmuminova M.G.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim fakulteti
Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha, katta, yosh, bola, kitobxon, texnologiya, shakl.
Ключевые слова: дошкольный, взрослый, юношеский, ребенок, чтец, технология, форма.
Key words: preschool, adult, youth, child, reader, technology, form.

Maktabgacha ta'lim tizimi-bu har tomonlama mukammal rivojlangan komil va barkamol shaxsni tarbiyalash va katta hayotga bilimli hamda saviyali yetuk shaxsni ulg'aytirib beruvchi va bolaning butun bir kelajagini belgilab beradigaan maskandir.Shu bilan bir qatorda bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga milliy qadriyatlarimizni ham kelajagimiz bunyodkorlari qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta`lim-tarbiya o'chog'idir.Shuning uchun ham barcha davlatlar qatori bizning mamlakatimizda ham ushbu maktabgacha ta`lim sohasiga aloxida qaratilib,mavjud e`tibor yanada kuchaytirildi. Bugungi rivojlangan zaminda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada ulardan eng avvalo yuksak bilim bilan bir qatorda,ishdagi mukammal kasb qobiliyati, charxlangan zexn, mahorat, ilmiy va nazariy fikrlash hamda ularni ta`lim-tarbiya jarayonida qo'llay oliosh va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonlarida har bir bolani shaxs sifatida tan olish juda muhimdir, bolaning yoshi va yoshga doir xususiyatlari, imkoniyatlari jismoniy rivojlanganlik darajasi, qiziqishlari hamda extiyojlarini inobatga olgan xolda bilim, ko'nikma va malakalarini berish va mavjudlarini shakllantirish hozirgi kunning eng muhim talabi xisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz.Kitobni qadrlash,hurmat qilish lozim chunki u insonning fikrlash quroli, eng yaqin do'sti, hayotning ma'no-mazmuni va maslahatchisi, ma'nan ozuqaga ega bilim manbaidir.Kitob xazinalar kaliti hisoblanadi. Uni asrab-avaylashimiz lozim.

Kitobni ko‘r-ko‘rona emas balki uni tushunib mazmunini anglab,mag‘zini chaqib o‘qish orqali kitobning inson qalbiga chuqur va chuqur joylanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Kitobni mutoala qiluvchi har qanday inson yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lishi mumkin. Jamiyatimizda bugungi kunda kitobxonlik masalasiga katta e’tibor berilyapti.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13- sentabrdagi PQ -3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish boyicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning bo‘limlarida qarorda belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora tadbirlar asosida rejali va maqsadli ishlar yo‘lga qo‘yildi.Ayniqsa shuni takidlab o‘tishimiz lozimki mamlakatimiz boylab “Yosh kitobxon oila”, “Yosh kitobxon” tanlovlarining yo‘lga qo‘yilishi va g‘olib bo‘lgan kitobxonlarning turma-tur qimmatbaxo sovg‘alar bilan taqdirlanishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.Shu asnoda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida kitobxonlik malakalarini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.Kitobga mehr eng avvalooilada ota-ona,bobo-yu momolar ta`siri asosida uyg‘otiladi. Oilada kitobga mehr qanday bo‘lsa bolada ham ana o‘shanday mehr uyg‘onadi. Oilaning ta`sirida ,maktabgacha ta`lim tashkilotlariga chiqqan bola beixtiyor kitob bilan do‘ts tutunadi,uni sevadi,asrab avaylaydi.Shuning uchun ham bolaga kitobga bo‘lgan mehrni yanada oshirishda oilaning roli nihoyatda kattadir.

Oila va Maktabgacha ta`lim tashkiloti bu borada hamkorlikni yo‘lga qoysalar yana ham samarali natijaga erishadilar. Bundan tashqari maktabgacha talim tashkilotlarida bolalar qalbida kitobga oshnolik xissini uyg‘otishda tarbiyachi va pedagoglarni o‘rni ham benihoyat kattadir. Kitob boladagi yashirin qobilyatlarni yuzaga chiqaruvchi ,undagi aqliy va ma’naviytarbiyani yuzaga chiqaruvchi, estetikasini boyituvchi kelajakda yetuk inson bo‘lib yetishishiga yordam beruvchi beminnat xazinadir. Kitob —bu axborotlarni tarqatuvchi, g‘oya va obrazlarni namoyon etuvchi hamda bilimlarni saqlash va uni ommaga tarqatish,bundan tashqari ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va estetik qarashlarni shakllantirish vositasi hamdir. Bundan tashqari kitob bilimlar targ‘iboti va tarbiya qurolidir. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra 48 sahifadan kam bo‘lmagan, nodavriy nashrni kitob deb nomlash qabul qilingan. Kitobxonlik- bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish,ongida ma’lum tuyg‘ularni,e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish,uni o‘ylashga,hayotda qanday yashashga o‘rgatish ,fikr yuritishga o‘rgatishdir.

Kitobxonlik o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi,balki u tushunib o‘qish,ya’ni maqsadli o‘qishdir. Ko‘xna toshbitiklardan boshlangan kitob va kitobnavislik insoniyat tamaddunining eng buyuk, oliy kashfiyoti va mo‘jizasi sifatida qaraladi.O‘sha davrlardan kitobga oshnolik insoniyatning ong shuuriga meros bo‘lib qolgan.Eng Qadimgi turkiy toshbitiklardan tortib O‘rxun- Enasoy yozuvlarigacha, Zarautsoy g‘oridagi suratlaru Afraosiyob naqshlari, qadim Baqtriyaning ko‘xna Kushon xatlaridan toki Oltoy tog‘laridagi toshlarga bitilgan xarflarga qadar-butun bashariyat avlodiga xalqimiz tamaddunining nasl-nasabimizu ma’rifatimiz tomirlarining naqadar qadimiyligi bilan buyukligidan darak bermaydimi. Eng qadim va donishmand noshir sifatida xalqimiz “Avesto” singari ulkan nashrni insoniyat tamadduni va tarixining kitob javonida xanuzga qadar saqlab kelmoqda. “Temur tuzuklari” timsolida bizning ajdodlarimiz davlatchilik va sarkardalik, lashkar tutish va xarbu zarb yuritishning qomusiy tamoyillari va yo‘riqlarini tuzganlarida, bugun dunyoga dag‘dag‘a solayotgan ayrim mamlakatlarning Yer yuzida nomi nishoni xam yo‘q edi. Xolbuki, ayni shu davlatlarning armiyasida Amir Temur bobomiz tuzuklaridagi lashkar tuzish, jang yuritish san’ati va uslublari xarbiy taktika darslari sifatida xozirga qadar o‘qitilib, o‘rgatilib kelinmoqda. Bundan ko‘rinib turadiki bobolarimiz butun ro‘yu olamni,osmon-u falakniyu,butun yer zaminini bilim va tafakkur bilan zehn bilan,hammasining asosi bo‘lmish kitob bilan zabt etganlar.

Musaffo seryulduz falak go‘yoki Mirzo Ulug‘bekning duraxshon,ko‘xna kutubxonasiga o‘xshaydi. Termiziylardan Buxoriylargacha, Ibn Sinolar-u Beruniylar, Ulug‘beklar-u Farg‘oniylar, Xorazmiy kabi bobolarimiz bu olam-u zaminni aql-u zakovat, ilm-u xikmat bilan egallagan buyuk jaxongirlardir. Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob vatanga muxabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mexr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi.

Bu borada istiqlolimizning Bosh me’mori, mustaqil davlatimiz asoschisi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning jasoratlarga to‘la sermazmun xayot yo‘li bilan kitoblariyu xikmatlari yoshlarimiz uchun tom ma’noda matonat va sadoqat, yurtparvarlik va fidoyilikning betakror timsoli, xaqiqiy ibrat va ma’rifat dorilfununi bo‘la oladi. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, “ O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” kitoblari xazilakam kitoblar emasligini, ularda el-ulus bilan xalqni millatga, mamlakatni esa xaqiqiy Vatanga aylantira olgan ma’ruza va maqolalar borligini bugungi avlod bilmog‘i, yuragida, fikr-u yodi bilan jism-u jonida olib yurmog‘i kerak.Millatning buyuk bir farzandi, matonatli Buyuk shaxsning bedor yuragi urib turgan bu asarlar too‘zbek xalqi mavjud ekan, toki O‘zbekiston deb atalmish ozod Vatan paydo

ekan-xech qachon eskirmaydi, xamisha mardlik va shijoat, g‘urur va iftixorning chinakam tarjimai xoli va sadoqatnomasi bo‘lib yashayveradi. Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi,-dedi davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoev.-Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak.Axborot-kommunikatsiya soxasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, axolining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga aloxida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob vatanga muxabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mexr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi.

Mamalakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoev raxnamoligida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish xamda targ‘ibot qilish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda. Zero, “kitob bizni yerdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, qalbga yorug‘lik baxsh etadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o‘rgatadigan insoniyatning eng noyob kashfiyotidir”, deydi davlatimiz raxbari. “Ayni paytda, -deydi Shavkat Miromonovich, -axborot- kommunikatsiya soxasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga aloxida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jaxon adabiyotining eng sara na’munalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor bershimiz muhim axamiyat kasb etadi”.Ta’kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot soxasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti xujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan.

Zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta’lim tashkilotlarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari xamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitob savdo ta’minot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Farmoyishning ibratli jixati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini bugungi kundagi xolati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual saloxiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim tashkilotlarni ta’minlash, milliy va jaxon adabiyoti namayondalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta’lim va madaniyat tashkilotlari uchun kitob

xarid qilishga mablag‘lar etarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar xisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta’lim tashkilotlari, kutubxonalar va maxallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilagan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga aloxida e’tibor berilgan. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni erdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch xisoblanadi.Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustaxkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir ma’shala xisoblanadi. Shuning uchun xam bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish xar doim xam millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar xisoblanadi.

Arastu xakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayxon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan-Alisher Navoiygacha, Soxibqiron Amir TemurdanMuxammadshari Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada axamiyati yo’qolmaydigan tadqiqotu - kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o‘rganilishi, ular ilmiy-ma’rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi xam mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir. Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muxammad Jabalrudiyning kitob xaqidagi quyidagi fikrlariga bir quloq tutaylik:.”Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suxbatdosh yo‘qdir. Kitob fasoxat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan xoli xamroxdir.Yolg‘izlikda va g‘amli ayomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday xamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suxbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi.U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi.Uning suxbatidan senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan.Aksincha, aksar odamlar suxbatidan kishiga zarar etadi.Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu 23 xilm mujassamdirki, u “Kitob aql qalasidir”, deganlar” Kitob barcha muammolar kaliti ularni xal etishga yordam beruvchi kuchdir.Shuning tufayli xam yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig‘dek asraganlarni ziyoli deb ataganlar.Kitob-bu yorqin kelajak kafolati.

Kitob va kitobxonlik insonni yomon amallardan saqlabgina qolmay,tevarakatrofga yaxshilik urug‘ini sochish,kishilarni ezgu ishlarga chorlash undash va ko‘makdosh bo‘lib, nafaqat afsona ertaklarda balki halq og‘zaki ijodining boshqa janrlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, kitobning qadri va kitob sehri, kitobxonlik masalalari halq ijodining maqollarida aks ettirilganki,uni ta’kidlab o‘tishni istar edik; kitob o‘qigan o‘zar kitob o‘qimagan to‘zar, Kitob o‘qish boshqa, Uni uqish boshqa. Yoki Kitob ko‘p, umr oz, zarurini o‘qigan

kitobing mag‘zini uqi.Kitob-barcha davrlarda bolalarning dunyoni anglashi, do‘st orttirishi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘makchi bo‘lib kelgan.

Bola qalbida Vatanga muhabbat,yurtga sadoqat, odamlarga mehr oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlangan. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog‘liq.U insonni komillik sari etaklaydi. Darhaqiqat, bu ma’naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o‘stirib,xotirasini mustahkamlaydi.Kitob maslahatchi,sadoqatli hamrox,eng yaqin do‘st va bebaho boylik hisoblanadi.Bola tarbiyasida uning o‘rni muhim.Hamma asrlarda bo‘lgani kabi ayni davrda ham yoshlarni Vatanga muhabbat,yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. kitob o‘qigan bola o‘z bilimi, dunyoqarashi, ruhiyati va manaviyatini boyitib, olamni teran anglay boshlaydi. Hayot va go‘zallikni qadrlashni,ajdodlarimiz merosini asrab avaylashni o‘rganadi. O‘zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylash va kitobxonlik qadimiy an’analardan biri bo‘lib,xalqimiz ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Safo Matjonov kitobxonlik tarbiyasi haqida shunday yozadi: “Kitobxonni avvalo, asarda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Bunday qiziqish asta-sekin hissiyotga ta’sir ko‘rsatadi.Kitobxonda asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslash mayli uyg‘onadi” .Shuning uchun ham oilada ota - ona maktabda o‘qituvchi bolalarga kitob tanlashda yordam berishi zarur. Bu borada faqat badiiy asargina emas, o‘smir dunyoqarashini kengaytiradigan qiziqarli ilmiy ommabop kitoblar ham,turli ma’lumotnomalar ham muhim rol o‘ynaydi . Albatta bu ishda bolalarning individual qiziqishlarini ham hisobga olish zarur. Kitobxonlik malakasi qo‘lga tushgan kitobni o‘qish emas,balki inson qiziqishi va dunyoqarashiga ko‘ra tanlab o‘qish hamdir. Kitobxonlik malakasini shakllantirishning asosiy maqsadi,insonni bilim va ma’naviy barkamolligini oshirishdir.Yoshlarga munosib ta`lim beraolish va ularning ilm-u zakovatini yanada oshiraolishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ijtimoiy-tarbiyaviy tashkilotlaridir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan va o‘tkazilayotgan topishmoqli-adabiy soatlar, ertak va dostonxonlik, she’rxonlik va kitobxonlik oqimlari jajji farzandlarimiz uchun kelajagi buyuk davlat O‘zbekistonning barkamol insonlari bo‘lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning shaxs sifatida xar tomonlama mukammal rivojlanishi ma’naviyat ne chog‘lik keng va chuqur ildiz otganligiga hamda mustaxkamligiga bog‘liq. Kitobxonlik an’anasi qadimiydir,kitobxonlik malakasini shakllantirish texnologiyasi esa davomiyik hisoblanadi. Unda vorisiylik, merosiylik hissi o‘z aksini topadi.Mamlakatimizda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning aqliy va ma`naviy rivojlanish imkoniyatlaridan keng va to‘laroq foydalanishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talabiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi ro‘lini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqodlar olib borilmoqda.

Ayniqsa maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tarbiyasida ularning mukammal shaxsiyatini, hamda uning boshqalar va tengqurlari bilan o‘zaro samimiy va ijobiy munosabatini shakllantirishga ko‘maklashish, axloqiy xissiyotlarini rivojlantirish, vatanparvarlik tasavvurlarni uyg‘otishga alohida va keng e’tibor beriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi va vazifalari, ahamiyati, mazmuni, jarayonga samarali tomonlarini qayta ko‘rib chiqish; bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullarini aniqlash; so‘nggi o‘n yillikning nazariy izlanishlari (V.V. Abramenkova, N.E.Veraksa, M. B.Zatsepina, S.A.Kozlova, M.V.Komarova) boshqalarning ilmiy izlanishlarida aks etgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq faolligining psixofiziologik asoslarini, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan badiiy matnni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning o‘qish doirasini o‘rgangan D.B.Elkonin, D.D.Sharipova, R.M.Qodirova, F.R.Qodirova,D.R.Babayeva va boshqalar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida: bolalar adabiy asarini o‘qish va tinglash jarayoni, bola va kitob o‘rtasidagi aloqa jarayoni, maktabgacha yoshdagi yoshga oid adabiy bilimlarni egallash jarayonlari jihatlari bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud. Shunday ekan, mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklar yangilanishi shart. - ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishda o‘qishning asosiy ta’lim qobiliyati oshirish muhim masaladir.

Adabiyot, ta’limning barcha bosqichlarida muhim ekanligini isbotlash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga yo‘naltirilgan axborotmedia texnologiyalarining jadal rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayonining rivojlanmagan uslubiy asoslari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish hamisha zarurdir. Umuman olganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kitobxonlik malakasini va uning rivojlanishining konseptual asoslarini uzluksiz adabiy ta’limiy sharoitida rivojlantirishni har tomonlama o‘rganish zarurati mavjuddir. Mutolaa malakasi juda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi.Kitobni sevish, adabiyotga qiziqish va u bilan kengroq tanishish, kitob bilan qay tarzda ishlash , shuningdek kitobdan to‘la ravishda foydala bilishda maxsus bilimlarga ega bo‘lishga yordam beruvchi ko‘nikmalardan iborat. Kitobxonlik malakasi kitobxonga o‘qiyotgan asarini to‘laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g‘oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma’lumotnoma bibliografik apparatidan o‘zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi.

Bolalarga kitoblarni tanlashni, uni asrab-avaylab saqlashni, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya qila olish va uning mazmunini gapira olishni o‘rgatish,kitoblarni sevishni o‘rgatish bularning hammasi kitobxonlik malakasining tarkibiy qismlariga kiradi. Kitobxonlik malakasi haqidagi tushunchasi juda keng mazmunga egadir va qo‘llanilish darajasi ham kengdir.

Qisqacha qilib aytganda kitobxonlik malakasi bu asosan asarni anglash yetish hamda uning mag‘zini chaqaolish va tushunish uchun kitobxondan talab qilinadigan ma’lum bir tayyorgarlik va aqliy saviyadir. Kitob bilim beruvchi vositadir.

Uning har bir varag‘i shunchaki qog‘oz emas balki o‘ziga oshno qiluvchi sehrgardir. Kitob har bir insonning ayniqsa,rangli va rasmli kitoblar bo‘lsa bolalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini va qiziqishini yanada oshiradi. Bizning mentiaalitimizda kitobga oshno bo‘lish, mutolaa qilish,uni o‘qib o‘rganish va bilim olish alohida o‘rin tutadi. Bugungi rivojlanayotgan dolzarb va shiddatli zamonda butun dunyo axborot tasirida yashamoqda. Chunki dunyo bo‘ylab har kuni millionlab kitoblar bosilib nashrdan chiqmoqda.

Zero, kitob - qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir. Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorliq yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. Barchamiz yoshligimizdan turli ertaklarni eshitib va o‘qib katta bo‘lganmiz. Bolaga yaxshi xislatlarni so‘z bilan singdirish juda yaxshi samara beradi.Shuning uchun farzand tug‘ilishi bilanoq unga alla aytiladi.

Bolaga kechki uyqudan oldin turli ertaklar aytib, kitoblar o‘qib berish asnosida uning mutolaaga bo‘lgan qiziqishi oshadi.Bola kitobni sevishi uchun ota-onasining mutolaaga mehri baland bo‘lishi lozim. Buning uchun uyda kitob ko‘p bo‘lsa, ayni muddao. Agar uyga kitob olib kelib, oilada o‘qilsa, farzandlar, albatta, bu an’anani davom etiradi. Kishi bolalikdan kitob o‘qishni odat qilmas ekan, keyinchalik ham kitobga qiziqishi qiyin.Shuning uchun, bizning vazifamiz bolalar qalbida unga mehr uyg‘otishdir.Kitobxonlikni oilamizdan boshlashimiz kerak. O‘sib kelayotgan bolaning sog‘lom voyaga etishi va ma’naviy etuk bo‘lishida oilaviy muhit muhim o‘rin tutadi. Darhaqiqat, har bir ota-ona farzandi sog‘lom bo‘lib voyaga etishi, o‘qishi, hunar o‘rganishi, sport bilan shug‘ullanishi, ilm olishi uchun doimiy harakatda bo‘lmog‘i lozim. Komil farzandni tarbiyalash uchun hech qanday jihatni nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Unutmaylik sog‘lom bola ona vatanning ishongan tayanchidir. Xonadonlarimizda farzandlarimiz zo‘r qiziqish bilan o‘qiydigan “O‘zbek xalq ertaklari”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari, “Odam va olam ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi” va jahonga mashhur kitoblar o‘rin olsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqida qayg‘uradigan ota-ona unga albatta kitob o‘qib berishi kerak

ekan.Bolaga har kuni yotishdan oldin baland ovozda kitob o‘qib berilsa, uning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir etilar ekan.

Adabiyotlar:

1. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori PQ -3271 son “Xalq so‘zi”2017 yil 15 sentabr

2. Чуйкова И.В..Роль детской художественной литературы при формировании действенности речи у детей старшего дошкольного возраста. Журнал дошкольная педагогика и псхология 2016.

3. Xomidiy.X “Avesto qaydlari” T.: 2002 yil.

4. Xomidiy.A“Temur tuzuklari”.T.: Mavoroun nahr nashriyoti 2010y.

5. Loginova V. I. “Bola va kitob” Sankt-Peterburg «Aksident», 2006 yil

6. Qodirova F.Toshpo‘latova Sh.va boshqalar.Maktabgacha pedagogika-2018 yil.

7. Qodirova F,Toshpo‘latova Sh,A’zamov M.“Maktabgacha pedagogika”.-T.,“Ma’naviyat”,2013.

8. Sayidaxmedov N.S.Yangi pedagogik texnologiyalar.–T.,Moliya,2003.

9. Shodmonova Sh.Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.Fan va texnologiya.–T.,2008.

10. “Temur tuzuklari”.T.: Mavorounnahr nashriyoti 2010 y.

11. Mashriqzamin-xikmat bo‘stoni.-Toshkent,1997.39 bet.

12. Abu rayhon Beruniy“Saydana” T.:1992y.

13. Жонатан Свифт. Собрание сочинений в 3 т. - М.: Терра-Литература, 2000. - Т. I. - 480 с.; Т. II. - 480 с.

14. Смайлс, С. «Бўш қоп тик турмас» // Наука и жизнь. 2006. № 11.

15. Каринишина Л. М. «Пример самоотвержения» // Московский журнал. - 2014. - № 11. - С. 24-31.

16. Safo Matjon Komillik mezonlari.T.: Sharq 2010 y.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik texnologiyalarini shakllantirish malasasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishning o‘ziga xos metodik imkoniyatlari, ahamiyati, shakl va metodlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Maqola davomida maktabgacha ta’lim tashkiloti katta guruh tarbiyalanuvchilarida badiiy adabiyotlar orqali kitobxonlikka qiziqishini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlar olib borilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена вопросу формирования технологий чтения у дошкольников, в ней акцентируется внимание на уникальных методических возможностях, значении, формах и методах повышения интереса дошкольников к книге.

В ходе статьи посредством художественной литературы осуществлялись педагогические процессы, направленные на повышение интереса к чтению в большой группе воспитанников дошкольной образовательной организации.

SUMMARY

This article is devoted to the issue of the formation of reading technologies in preschool children, and it focuses on the unique methodological possibilities, importance, forms and methods of increasing the interest of preschool children in books.

In the course of the article, pedagogical processes aimed at increasing the interest in reading in a large group of pupils of a preschool educational organization were carried out through fiction.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Usmanova S.E.
Termiz davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: yosh, bola, kitobxon, texnologiya, shakl, metod, imkoniyat.
Ключевые слова: возраст, ребенок, читатель, технология, форма, метод, возможность.
Key words: age, child, reader, technology, form, method, opportunity.

Kitobxonlik bolalar uchun maqsadga muvofiq pedagogik yoshni va o'ziga xos psixologik xususiyatlarini talab qiladi.Bir xil va xar xil yoshdagi bolalarning kitobga qiziqishi va o'qishida o'ziga xos tafovutlar mavjud bo`ladi. Biroq bolalikning xar bir davrida o'qishning o'ziga xos xususiyatlari,o'qish sifatining o'z yoshiga muvofiq munosabati namoyon bo'ladi. Ayrim psixologik tekshiruvlardan shunisi malumki, bolaga kitob o'qib berilganida unda:.so'z boyligi oshadi;kitobga mehri paydo bo'ladi;.muomulasi chiroyli bo'ladi. Kitobda qanchalik mukammal so'zlar mavjud bo'lsa, kelajakda bolaga bu so'zlarni o'rganishi yanada oson bo'lar ekan. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa 5 daqiqa davomida bo'lsa ham kitob o'qib berish, uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydali ekan.

Yana bir tadqiqotning ko'rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ko'p kitob o'qilsa, ularning chap miya yarimshari rivojlanar ekan.Bu degani, bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobni o'qilishini ko'p eshitgan bola buyum va so'zlar orasida bog'liqlikni ko'p ko'ra boshlaydi. Bu esa bolaning miyasini ilmiy, akademik yo'nalishda rivojlanishiga turtki bo'ladi. Undan tashqari uyquga ketishdan oldin kitob o'qilsa, bola oson uyquga ketadi va tinch uxlaydi, ota-ona va bola orasidagi ruhiy munosabat yanada mustahkamlanadi. Siz bilan maktabgacha katta yoshdagi bolalarga qanday kitob tanlash lozimligi haqida aytib o`tamiz? Eng yaxshi kitob, bu klassik ertak va hikoyalardir. Lekin undan yaxshi tanlov, bola o'zi qiziqqan kitobini o'qib berish.Bu yoshdagi bola bilan kitob do'konlariga

tez-tez borib turish kerak. U yerda bolaga o‘zi qiziqib tanlagan kitobini olib berib, unga o‘qib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bitta o‘yinchoqning narxiga ba’zida 10 dona kichik kitob sotib olsa bo‘ladi.

Ota-ona pulni sifatsiz, keraksiz va ba’zida zararli plastikdan yasalgan o‘yinchoqqa emas, foydasi har tomonlama katta va qiziqarli kitobni olib berib, bolaning kelajagiga katta ijobiy xissa qo‘shgan bo‘ladi. Keyinchalik bola ham, o‘yinchoq do‘koniga emas, balki kitob do‘koniga borishni afzal ko‘rib qoladi. Shuning barobarida, ota-onalar o‘z farzandlarining kutubxonaga qatnashini rag‘batlantirishlari darkor.Kitob sovg‘a qilish an’anasini keng joriy qilish kerak. Hozirgi kunda yurtdoshlarimiz orasida bayram, to‘y va tug‘ilgan kunlarda kitob sovg‘a qilish ommalashib borayotgan bo‘lsa-da, ayrimlar haligacha kitob hadya etishdan or qiladi, uyaladi.Bugun kompyuter, televizor, uyali telyefonning ko‘pgina salbiy ta’siridan farzandlarimizni ajratib ololmaymiz. Demak yoshlarimiz butunlay texnika ta’siriga tushib qolmasliklari uchun yagona yo‘l – bu kitob hisoblanadi. Bolani fikrlashga, mushohada qilishga o‘rgatish bizning asosiy maqsadimiz. Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi.

Kitobga bo‘lgan qiziqish kitobsevarlarni kutubxona tomon chorlaydi. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, ularning kitobxonligini oshirishda kutubxonaning roli ham katta. Kutubxona – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitishga, kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatning oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson kutubxonalar ma’naviyat xazinasidan, bu cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanishi, o‘zining, o‘zgalarning hayotini boyitishi mumkin. Millatning ma’naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin.Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror 41 yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir.Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish nafaqat bizni ma’nan yuksaltiradi, balki jahonni tanitadi, ezgulikka etaklaydi. Bolalik — beg‘uborlik faslining oltin zinalaridan katta hayotga qadam qo‘yayotgan farzandlarimiz qo‘liga imkon qadar kitob tutqazaylik. Zero, ma’rifatli, ma’naviy boy va bilimli insonlargina yurtni obod qiladi. Ilm-fan va u orqali erishiladigan farovonlik bilan dunyoga tanilish esa bebahodir. Barkamol avlodni voyaga etkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin,aynan mutoala insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir.Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin.Sababi, eng yaqin do‘st, eng zarur hamroh bo‘lgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar

oʻtsada, oʻz oʻrnini hech nimaga boʻshatib bermagan moʻjizadir.Donolar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta'kidlashadi.

Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qoʻygan insonlarning jamiyatda oʻz oʻrni, odamlar orasida obroʻ-etibori alohida boʻladi. Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti deb ta'rif berganlarida, u inson ma'naviy olamini boyitishni nazarda tutganlar. Kitob Vatanga muhabbat yurtga sadoqat odamlarga mehr oqibat tuy'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasida sifatida qadrlanadi. Maktabgacha katta yoshidagi bolalarni savodxonlikka oʻrgatish boʻyicha olib boriladigan ishlar D.B.El'konin tamonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka oʻrgatishning bogʻcha yoshiga moʻljallangan shakl va metodlari D.B.El'konin metodi asosida L.E.Jurova tamonidan ishlab chiqilgan.Bolalar tamonidan savodxonlikni oʻrganishga hamda buning uchun eng optimal yosh davrini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotda N.S.Voronsova 5-6 yoshli bolalar savodxonlikni oʻrganishda tanlovchan tipdagi qabul qilish xususiyatiga ega ekanligini, 6-yoshdan esa oʻqishga e'tiborli boʻlishini aniqladi. Shundan kelib chiqib, N.S.Voronsova 5-yoshni tovushlarni analiz qilishga oʻrgatishning eng optimal davri,6 yoshni esa oʻqishga oʻrgatishning eng optimal(eng yaxshi va eng qulay)davr ekanligini ta'kidladi. Bu davrda bolalar kitobxonligi asosan ota –onalar va tarbiyachilar tamonidan amalg oshiriladi. Hali oʻqish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan butunlay behabar boʻladilar. Shunga qramay, kichkintoylar oʻzlarini qurshab olgan olamni tezroq bilib olishga,uni oʻrganishga intiladilar.Bunda ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari va ularga badiiy asarlardan parchalar oʻqib berishlari lozim. Bu davr bolalariga oʻqib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni soda boʻlishi talab etiladi.Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik boʻlishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tinglaydigan asarlarning koʻpchiligini alla-qoʻshiq, ertak topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq ogʻzaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan yuqoridagi talablarga toʻla toʻkis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qoʻl keladi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nuqtiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim. Bolalar shoiri Anvar Obidjon oʻzining "G`oz"she'rida bolalar yaxshi koʻradigan gʻozlar toʻgʻrisida soʻz

yuritadi.Biz bilamizki, bolalar jonivorlarga,ayniqsa, qushlarga ilk yoshlardan boshlab qiziqadilar. Umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o‘rganadi.Kutubxonashunoslik esa uning xulosalarga tayanib,bolalarning kitob o‘qishicha,ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o‘qish o‘rganishga ta’sir etadi. Katta maktabgacha yoshdagi guruhda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi.

Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari,kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko‘proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozli o‘qib ularning diqqatini o‘qilgan narsaga tortib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o‘yin orqali voqea va hodisalarni,kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko‘rgan, eshitgan,o‘qigan narsalardagi holatlarni,kishilarni,hayvonlarni “yaxshi” va “yomon” ga ajratadilar va ularga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o‘zlarini o‘rab turgan muhit,tabiat va undagi hayvonlar,o‘simliklar qiziqtiradi. Hali ular ilmiy bilim beruvchi kitoblar tabiat haqida tug‘ilgan savollarga javob berishini bilmaydilar. Shuning uchun ham ular o‘z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-hil savollarga ko‘mib tashlaydilar Endi ular voqea hodisalarga boshqacha ko‘z bilan qaraydilar,voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. “Nima uchun qarochig‘i bo‘ladi”, “Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi”, “Nima uchun qor yog‘adi” va h.k, savollar bilan kattalarga murojat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o‘sishida,o‘qitish va tarbiyalashda o‘ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishni talab etadi, kitobxonlar uchun kankret narsani obrazli fikrlash harakterlidir, o‘qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o‘sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozilishi masalaning qo‘yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish ular o‘qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu erda alohida kitobxonlarga ta’rif berdik xolos. Bolalar o‘qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tamonlama o‘rganish lozim. Jamiyat taraqqiyotining nihoyatda ilgarilab ketishi, fan va texnika maorif va madaniyatning rivojlanish kishilar ma’naviy dunyosining yuksalishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tehnik vositalardan-kino,televideniya,matbuot keng doirad bilim olishlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

Kitobxonlarni o‘rganish, ularning qiziqish vao‘ziga xos xususiyatlarini bilish tarbiyachining raxbarlik qilish sifatini oshiradi bolalarni kitobxonlikga

o‘rganish har xil usullarda olib borilsa ham quyidagi prinsiplarga asoslanadi. Asosiy prinsiplardan biri-yosh kitobxonni o‘rganishni uning shaxsini o‘rganish bilan bog‘liq xolda olib borish. Avvalo tarbiyachi suhbat kuzatish va boshqalar birgalikda kitobxon haqida to‘liq ma’lumot bera oladigan bo‘lishi lozim. Shunday qilib biz yosh kitobxonning qiziqishi va talablarini o‘rganish bilan birga uning o‘zini ham o‘rganamiz. Zero,kitobxonning qiziqishi,talabi uni o‘rab turgan muhit (oila,maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rtoqlari) bilan munosabati qo‘shib o‘rganishga, u haqda to‘liq ma’lumot beradi. Ikkinchi prinsip,pedagogik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqadigan fikrlar va xulosalar asosida yosh kitobxonni o‘rganish bilan birga uning qiziqishlarini tog‘ri yo’lga solib, yanada rivojlantirishdan iboratdir. Uchinchi prinsip shunga asoslanadiki, bolalar kitobini ilmiy va estetik jihatdan o‘rganish bilan uzviy alohida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga atalgan badiy,ilmiy, ommobop kitoblarni yaxshi bilish, uni pedagogik tomondan tahlil qila olish kerak.

Tarbiyachi bu kitoblarni o‘zining muloxozasi va xulosalari bilangina baholab qolmasdan,kitobxonning yosh xususiyati, saviyasi hamda nuqtai nazarini ham hisobga olishi lozim. Yosh kitobxonni o‘rganar ekanmiz yuqorida ko‘rsatilgan prinsiplarni birbiri bilan o‘zaro bog‘langan holda olib borish lozim.Shu prinsiplarni qo‘llashda, yuqorida ta’kidlanganidek,kitobxonning yosh xususiyatlari hisobga olish lozim. Kitobning bolaga ta’sirini, u qaysi qahramon va hodisalarni eslab qolishni,kitobning mazmuni va yozilishiga bo‘lgan munosabatini, kitobdagi ilmiy bilim beruvchi materiallarni qanchalik o‘zlashtirib olganini o‘rganish mumkin. Bu erda tarbiyachi o‘z oldiga yana ham aniq masalani qo‘yish, ya’ni bolalarning biron bir yozuvchining asariga bo‘lgan munosabatlarini janrdagi yoki mavzudagi (ertak, fantastika, urushlar) kitoblarni o‘qilishi va undagi materiallarning qabul qilishini aniqlash mumkin. Bu tarbiyachi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.Jumladan tarbiyachi bolalarning kitobga beradigan o‘ziga xos baholarini munosabatlarini aniqlab olish bilan ularga eng qo‘l keladigan usul vositasida kitob tavsiya etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kuzatish usuli yordamida esa kutubxonachi yoki tarbiyachi kitobxonni kitob tanlayotganda,ommaviy ishlarda qatnashayotganda, kitob o‘qiyotganida “o‘quv xonasida” bevosita ishlanadi.Suhbat usuli orqali u kitobxon fikrini,bilishini,qobiliyatini, qiziqishini, so‘zlab berish mahoratini bilib oladi.

Yosh kitobxonlar ko‘pincha begona kishi oldida uyalib gapirishga iymanadilar, shuning uchun ham bu yoshda ota-onalar tarbiyachilar ishtirok etsalar bolalar haqida bilimlarga ega bo‘lib oladilar.Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayotgan har xil savollar berilsa, bola hadiksiraydi,

shuning uchun ham savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lishi bilan bolaning o‘zini ko‘pro q gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak. Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini,kitobda nimalar bayon qilingan ekan? degan umumiy savoldan emas,balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta-sekin undan kitobni qanchalik tushunganini bilib oladi. Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qaxramon xarakterini tushunishga yordam beradi,muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o‘qiydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi kitobxonga asar g‘oyasini tushuntirishga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi. Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan,kitobxonlarga mustaqil ravishda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi. Shuning uchun bog‘cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotenalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Kitobxonning yosh xususiyatida katta farq bo‘lgani ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi. Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri,qiziqish mavjud bo‘lib,tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim.Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlashni va ularga yordam berish lozim. Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan,uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbatiga bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tish lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.

Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda unga shu kitobning boshidan ozgina o‘qib berib, kitob qahramonini xarakterlab beradi. Ertaklarda ko‘rsatilgan rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko‘rsatish maqsadga muvofiq emas. Rasmlarni bolaning hayajonini kuzatgan holda asta-sekin ko‘rsatish kerak.1-2 ta asosiy rasmlarni ko‘rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga,voqealarga,qahram onlarning harakteriga qiziqib qoladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ba’diy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos boladi: -Qahramonlarga qayg‘urish va ularga hamdard bo‘lish,shu tufayli vosita tashqi ifodalangan emotsionallikning pasayishi;-Voqealar zanjirini tiklash va asar ichida xamda asarlar o‘rtasida turli hil mazmunli aloqalar o‘rnatish qobiliyati; -Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko‘rish va qahramonlar hulq-atvoridagi ochiq mativlarni tushinish,ularning yashirin niyatlari manosiga va xarakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish; -Hosil bo‘lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko‘proq ertakka o‘xshash bo‘lishi uchun va adabiy vaziyatni talqin qilish va

o‘zgartirishga urinish; -Janr asosi(ertak,xikoya,she’r) va maqbul mavzularning (hayvonlar,sehrgarlik ko‘rinishlari,bolalar va boshqa) paydo bo‘lishi; -Tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo‘lishi; - Ba’diy asarlarning harakterli tuzilmasi va shakli xaqidagi ta’savurlarni o‘z ijodida ifodalash(kompozitsiyalarning uch qismliligi adabiy qahramonlarning asosiy xarakatlari va boshqa). Besh-yetti yoshdagi bolalarning o‘ziga xos hususiyatlari- bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo‘lgan uyg‘unligidan iborat. Bir tomondan-bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan-besh-yetti yoshli bolalarning taqlikchanlikka,meyoriylikka intilishi hammaga yaxshi malum. Bola qoidalarini,harakat usullarini oz’lashtirishga intiladi va u bunga qodirdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi Ish shakllari Mazmuni Shakl, metod va vositalari kitobxonlik malakasiga oid Mashg‘ulot, suhbatlar, guruhlrda ishlash nutq markazlardagi faoliyat rivojlantirish muhitini to‘ldirish (ertaklarga asoslangan rolli o‘yinlar, hikoya rasmlari bilan didaktik o‘yinlar); - pedagogik vakolatlar (davra suhbati, ma’lumot stendi); - otaonalar bilan ishlash (anketa, rolli o‘yinlarning karta indeksini ishlab chiqish, konferensiyalar, davra suhbatlari, munozaralar, ko‘rgazmalar, “Pochta qutisi”, bukletlar va boshqalar).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini va usullarini ishlab chiqish muhimdir. Inson har tomonlama rivojlangan yaxshi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Har bir bola o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, yurish -turishi, qobiliyati va imkoniyatlarining hammasini uning ota – onasigina ko‘proq biladi. Shuning uchun bolaning kitobni to‘g‘ri tanlay olish va undan o‘rinni foydalanishda tarbiyachi va ota – onaning o‘rni katta. Bundan tashqari, tavsiya etiladigan kitoblar bolaning yoshi, psixikasi, tushunish qobiliyatiga mos qilish maqsadga muvofiq. Shuni e’tiborga olish kerakki maktabgacha yoshdagi bolalarga ifodali o‘qishni tashkil etishda xalq og‘zaki ijodi na’munalari – ertaklari, hikoyalarga keng o‘rin ajratish kerak. Bunday asarlar sirli tomonlari bilan yosh kitobxonlarni o‘ziga tortadi va ular tarbiyachiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Chunki xalqning nodir ijod namunalari o‘zining teran xalqchilligi tilining jozibadorligi va yuksak badiiyligi bilan maroqlidir. Zotan ularda xalqning orzu – umidlari, qahramonligi, vatanparvarlik kitobga mehr –uyg‘otish tuyg‘ulari aks etgan bo‘ladi.Masalan savol – javob qilganda bolalar quyidagi savollarga javob beradilar. Qanday ertaklarni o‘qib, eshitgansiz va nimaga bu ertaklar yoqadi. Bulbulgo‘yo, “Badal qaroqchi”, “Uch og‘ayni botirlar”,

“Sehrli olma” va boshqa ertaklarni sevib eshitishlarini aytishdi. Yuqorida sanab o‘tilganlarda ta’sirchan, tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat ulkan sahnalar voqealar, xulosalar bo‘rttirib, takror e’tibor va urg‘u berib, alohida o‘tish tavsiya etiladi. Yana bolalarga savol bilan murojaat qildik.Qaysi qahramonlarni yoqtirasiz? Nima uchun? Shunda bolajonlar “Oygul bilan Baxtiyor” ertagida, qahramon, Zumrad va Qimmatdagi, Zumrad qizning qahramoni bolajonlarga ma’qul ekan. Bolalarning qiziqishlariga qarab, ertak hikoyalar qilib beriladi. Ifodali o‘qib yoki hikoya qilib beradigan kishi tanlangan kitob, hikoya, she’rni avvalo bir yoki ikkinchi martao‘qib chiqish, qiziqarli rasmlarga e’tibor berishi lozim.

Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayotgan har xil savollar berilsa, bola hodiksiraydi, shuning uchun ham savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lish bilan bolaning o‘zini ko‘proq gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak. Kitobxonlarni o‘qishga rahbarlik qilishda tavsiyaviy va o‘qilgan kitoblar haqidagi suhbat katta ahamiyatga ega.Tavsiyaviy suhbat bolaga kitob tanlashda yordam berishni, kitobga qiziqish uyg‘otishni, o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi. Tarbiyachi iloji boricha har qanday so‘roqqa javobi tavsiya suhbati o‘tkaziladi, kitobxonga mos keladigan kitoblarni tavsiya etadi. Bunda albatta xonadagi turli tavsiyaviy vositalar, kitob ko‘rgazmalari, rasmli kartotekalardan foydalanib kitobxon diqqatini jalb etadi va qiziqiarli so‘zlab berish orqali ularni kitobga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Tavsiyaviy suhbatning qimmati shundaki u kitobxonni tartibli ravishda ko‘proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi. Tarbiyachi kitobxon bilan kitob almashtirayotganda davra suhbati bilan quyidagi foidalarga amal qiladi; 1. Suhbat kitobxon qiziqishga ma’noli bo‘lish kerak, agar shunday bo‘lmasa, kitob tavsiyasi va tarbiyachining maslahati zo‘rma- zo‘raki g‘amxo‘rligi keraksiz bo‘lib qoladi. 2. Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan, bo‘lib kitobxonning qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim. 3.Bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishiga moyillik uyg‘otish kerak. 4. Tavsiya etilayotgan materialning to‘liq mazmunini aytib bermaslik lozim, unda kitobxonning materialga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi. 5. Tavsiya etilayotgan materialning qisqa ifodalik, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo‘lgan qiziqishni orttiradi. 6.Kitob haqida suhbatlashayotganda kiobni ko‘rsatish, uning muallifi, rasmlari ba’zi joylarida o‘qib berish ham mumkin bu esa suhbatini jonli o‘tishiga yordam beradi.Ko‘pgina maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so‘raydilar.Tarbiyachi haqiqiy qiziqarli narsalar haqida u bilan birgalikda eslaydi, shundan so‘ng qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi.Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini, kitobda nimalar bayon qilingan ekan? “degan umumiy

savoldan emas, balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta –sekin undan kitobni qanchalik tushunchanini bilib oladi.

Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qahramon xarakterini tushunishiga yordam beradi, muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o‘qiydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi kitobxonga asar g‘oyasini tushuntiriga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi. Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil ravishda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi. Shuning uchun bog‘cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotekalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kitobxonlarning yosh xususiyatida katta farq bo‘lgani kabi ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi. Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo‘lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlami va ularga yordam berish zarur. Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbati bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.Maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtojdilar.Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli – suhbatdan foydalaniladi. Tavsiyaviy suhbat o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi: - bolaga kitob tanlashga yordam belish; - kitobga nisbatan qiziqishni uyg‘otish bolaning kitobga juda ham qiziqishi kitobni oxirigacha yakunlashni yordam beradi; - o‘qishga qo‘llanma berishdan iboratdir.

Tavsiyaviy suhbatda so‘ralgan kitob xarakteriga, ya’ni so‘roq motiviga bog‘liq holda har xil tuziladi.Suhbat davomida bolalarga yoqqan yoki yoqishi mumkin bo‘lgan bir necha kitoblarni ko‘rsatadi, ular qiziqtira oladigan jihatlarni aytib beradi. Masalan mehr oqibat tuyg‘usini shakllantiruvchi “Yoriltosh ertagini bilasizmi?”. Bu kitob etim qizlar Gulnora va Oymomo haqida. Gulnora juda chiroyli, chaqqon, mehribon, ishlab charchamaydigan qiz bo‘ladi. Uning onasi vafot etganidan keyin otasi begona ayolga uylanadi.Ayol juda badjahil yolg‘on bo‘ladi. Gulnora singlisini o‘padi-da zor – zor yig‘lab qochib ketadi. Uni quvlab kelayotganlar etay deganda tog‘dagi tosh yorilib Gulnora uning uchiga kirib ketadi.

Quvlaganlarning hammasi kirib yoriltosh desa ham tosh yorilmaydi. Lekin hech kim yo‘g‘ida singlisi kelib yoriltosh desa u ochiladi, nimaga shunday

bo‘lganini kitobni o‘qisalaring bilib olasizlar deb kitobxonni qiziqtirib kitoblar tavsiya etiladi. Shu bilan bir vaqtda kutubxonaga yoki tarbiyachi bolaning diqqatini tortadi, ularga o‘zlari qanday qilib ko‘rgazmadagi qiziq kitoblarni topishlari kerakligini tushuntirishi kerak. Kitobxon bir mavzu bo‘yicha kitobning muallifi va nomini bilmagan holda kitob so‘raganda ham tavsiyaviy suhbat o‘tkazish kerak. Tarbiyachi bolaga “O‘rtoq uylari” kitobini tavsiya etadi. “Bu kitobda sen qanday qilib qoldirg‘ach o‘z uyini yo‘qotib qo‘yganini u qanday qo‘shnilarning uylariga borganini bilib olasan, qorong‘i tushadi hamma qushlar unga yotib qolishni taklif etishadi, lekin qoldirg‘och ko‘nmaydi, u o‘zining uyini qidiradi.

O‘qiganingda nima uchun qoldirg‘och hech kishnishida yotgani unamaginingni o‘ylab ko‘r?”. Kitobxon nomi aniq bo‘lgan kitobni so‘raganda ham tavsiyaviy suhbat zarur. Bu yoshdagi bolalarga kitobdagi alohida epizodlar, atamalar qiyinchilik tug‘dirishini kutubxonachi o‘z tajribasidan biladi. Bunday holda kutubxonachi yoki tarbiyachi bola nima uchun shu kitobni tanlayotganini, kitobni o‘zi o‘qiydimi yoki kattalar bilanmi? Shularni bilib oladi va bolani qiziqtirayotgan kitobni unga beradi.

Adabiyotlar:

1. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori PQ -3271 son “Xalq so‘zi” 2017 yil 14 sentabr.
2. Loginova V. I. “Bola va kitob” Sankt-Peterburg «Aksident», 2006 yil.
3. Qodirova F,Toshpo‘latova Sh,A’zamov M.“Maktabgacha pedagogika”.-T.,“Ma’naviyat”,2013.
4. Qodirova F.Toshpo‘latova Sh.va boshqalar.Maktabgacha pedagogika-2018 yil.
5. Shodmonova Sh.Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.Fan va texnologiya.–T.,2008.
6. Sayidaxmedov N.S.Yangi pedagogik texnologiyalar.–T.,Moliya,2003.
7. Xomidiy.A“Temur tuzuklari”.T.: Mavoroun nahr nashriyoti 2010y.
8. Xomidiy.X “Avesto qaydlari” T.: 2002 yil.
9. Чуйкова И.В..Роль детской художественной литературы при формировании действенности речи у детей старшего дошкольного возраста. Журнал дошкольная педагогика и псхология 2016.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik texnologiyasini shakllantirish metodikasi va unda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishning o‘ziga xos metodik imkoniyatlari, ahamiyati, shakl va metodlari haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о методе формирования технологии чтения у детей дошкольного возраста и об уникальных методических возможностях, значении, формах и методах повышения интереса детей дошкольного возраста к книгам.

SUMMARY

This article is written about the method of formation of reading technology in children of preschool age and the unique methodological possibilities, importance, forms and methods of increasing the interest of children of preschool age in books.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШДА ИННОВАЦИОН УСЛУБЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ

Шамиева М.Ф.
НавДПИ "Мактабгача таълим" кафедраси ассистенти

Таянч сўзлар: билим, ёш мутахассис, касб, касбий тайёргарлик, ижтимоий билимлар.

Ключевые слова: знание, молодой специалист, профессия, профессиональная подготовка, социальные знания.

Key words: knowledge, young specialist, professional training, social knowledge.

Фан ва техника юксак даражада ривожланаётган бугунги кунда олий таълим муассасаси битирувчисининг тайёргарлик даражаси замон талаби даражасида бўлиши асосий мезон сифатида қаралмоқда, бунда билим, кўникма ва малакаларни бўлажак касбий фаолиятда фаол жорий этишга имкон берувчи кафолатланган таълим бериш масаласи асосий ҳисобланади. Бу муаммонинг ечими касбий йўналтирилган ўқитишнинг инновацион технологияларини ўқув жараёнига қўллаш орқали амалга оширилади.

Бўлажак мактабгача таълим мутахассисларини тайёрлашда педагогик инновацияларнинг аҳамияти катта. Мазкур муаммони ечимини топиш кўп жиҳатдан тайёрланаётган мутахассислар сифатига боғлиқдир. Мутахассис сифати эса олий маълумотли мутахассислар тайёрловчи олий таълим муассасасидаги таълим – тарбия жараёнининг қандай ташкил этилганлигига боғлиқ. Замонавий таълим талабларини эътиборга олган ҳолда ўқитишни олиб боришда қуйидаги инновацион услублардан фойдаланиш лозим:

– Шахсга йўналтирилган ўқитиш (ишбилармонлик ўйинлари технологияси, муаммоли, табақалаштирилган, индивидуаллаштирилган, дастурлаштирилган, компьютерли, модулли ҳамда моделли ўқитиш технологияси ва ҳ.);
– Таълимни бошқаришнинг замонавий усуллари (таълимни бошқаришга "Тизимли ёндашув", таълимни бошқаришга "Комплекс ёндашув", таълимни бошқаришда ҳаракатдан моделлардан фойдаланиш ва ҳ);
– Таълимни такомиллаштириш ва бошқаришнинг ахборотли – ўқув муҳитини яратиш ва улардан фойдаланишнинг компьютерли тизимини вужудга келтириш.

Ушбу муаммоларни ижобий ҳал этиш қуйидаги кутилаётган кафолатланган натижани беради:

- билимларни механик тарзда ўзлаштиришдан янги билимларни мустақил эгаллашга ўтишини таъминловчи психологик – педагогик ишларни амалиётга кенг жорий этиш имконини беради;
- ахборот билан ишлашнинг замонавий усулларини ўзлаштириш;
- ўқув – билув фаолиятини индивидуаллаштириш;
- ўқитувчи ва талаба ўртасидаги компьютерли мулоқотни таъминлаш;
- турли ҳодиса ва жараёнларда кечаётган ҳолатларни компьютер мониторида ахборотлар ёрдамида бошқариш;
- тажриба натижаларини қайта ишлаш жараёнини автоматлаштириш;
- ўрганилаётган манба, ҳодиса ва жараёнлар ҳақидаги маълумотларни қайд этиш, тўплаш, тизимларга ажратиш, сақлаш ва қайта ишлашни ўрганиш.

Агар таълимда юқоридаги ўқитиш технологиясига амал қилинса, мутахассислик йўналиши бўйича фундаментал билимларга эга бўлган, таълим – тарбия жараёнини илмий услубий жиҳатдан таъминлашни ташкил эта оладиган, ўқув кўникмаларига эга бўлган кадрларни тайёрлашга эришилади.

Маълумки, дарс самарадорлигига эришишнинг 60 – 80 % и ўқитувчининг машғулотларга тайёргарлик кўришига, яъни таълим жараёнини тўғри лойиҳалаштириши, ташкил этиш ва уни амалга оширишга боғлиқдир. Бунинг учун педагог тинмай ўз устида ишлаши, билимини ошириб бориши зарур. Таълим соҳасидаги янгиликлардан хабардор бўлиш, ўз мутахассислик йўналишидаги фан янгиликларини ўрганиб бориши, ўзининг фаолиятига тадбиқ қилиб бориши зарур. Дарсга тайёргарлик кўраётганида ўқитувчи режадаги мавзуларни ўрганиб чиқиб, керакли жиҳозлар, кўргазмали қуроллар, методик қўлланмалар, техник воситаларни олдиндан тайёрлайди. Ҳар бир мавзуни қандай интерфаол услубларда ўрганиш мумкинлигини ижодий режалаштириб, ва шунга қараб тайёргарлик кўриши зарур.

Давлатимиз раҳбари ўқувчиларни фақат ёдлашга эмас, балки фикрлашга чорлайдиган методика яратиш зарурлигини таъкидлади. Ўқувчиларга интерфаол методларда таълим – тарбия бериш самаралари, уларнинг билимларни чуқур ва пухта ўзлаштириб олишлари, ривожланишларига кўп жиҳатдан боғлиқдир (1).

Педагогик технологияни доимий бир хил ҳолда (ҳатто маълум қисқа вақт оралиғида ҳам), яъни олдиндан лойиҳалаштирилган жараён деб бўлмайди. Бир сўз билан айтганда, педагогик технологияни бир қолипга сиғадиган, аниқ бир ўзгармас лойиҳа деб бўлмайди. Чунки ҳар бир аудитория, ҳар бир гуруҳ учун тингловчиларнинг маълумоти, илмий салоҳияти, ёши, жинси ва бошқа кўрсаткичларга боғлиқ ҳолда, керак бўлса гуруҳдаги ҳар бир тин-

гловчи учун алоҳида педагогик ёндошув ва унинг технологияси талаб этилади (1. - 7).

Янги инновацион технология таълим тизимининг рационал йўлларини ишлаб чиқарувчи жараён бўлиб, унда ўқитувчи асосий масъул шахс ҳисобланади. Чунки унинг асосий вазифаси ахборотни ўқувчиларга тез, аниқ ва тушунарли тарзда етказиб беришдан иборатдир. Ўқувчилар янгиликларни қабул қилишлари ва бунга мойилликлари ҳамда феъл – атвори ҳар хил бўлишига қарамай педагог ўқувчиларни мунозара қилиш, мустақил фикрлаш, мушоҳада қилиш, хулоса чиқаришга ўргатиши лозим.

Замонавий олий таълим жараёнида ижодкор, салоҳиятли мутахассисни етиштириш муҳим аҳамиятга эга. Бу стратегия шахсий ривожланувчан ва касбий йўналтирилган ўқитиш технологиялари устиворлигида олий таълим ўқув жараёни мазмуни ва шаклларига жиддий ўзгартиришлар киритишни талаб қилади.

Шунга кўра, олий таълим жараёнида ўқитиш технологияларини қўллашга қуйидаги талаблар қуйилади:

– талабаларнинг шахсий сифатларини ҳисобга олиш;
– мақбул технологияларни қўллаш;
– ўқитиш технологияларининг дидактик принципларга мувофиқ келиши;
– ўқитиш технологиялари талабаларнинг ўқув – билув имкониятларини кенгайтиришга йўналтирилган бўлиши.

Юқорида баён қилинган фикрлар асосида ўқитиш технологиясининг моҳияти қуйидагиларда намоён бўлади, деб ҳисоблаймиз:

– педагогик амалиётда ўқув жараёнининг олдиндан лойиҳаланиши;
– ўрнатилган дидактик мақсадларга эришиш сифатини объектив назорат қилиш имкониятларини башорат қилишни таъминлай олиши;
– ўқитиш технологиясининг таркиби ва унинг мазмунан яхлитлиги;
– энг мақбул методлар, шакл ва воситаларини ўқитиш технологиясининг барча элементлари билан қатъий ҳамда қонуний алоқадорликда танланиши;
– ўқитиш жараёнини ўз вақтида ва тезкор тузатишга имкон берадиган тескари алоқаларнинг мавжудлиги.

Демак, ўқитиш технологияси ўзида яхлит дидактик тизимини ифодалаб, педагогик масалаларни бирмунча самарали, кафолатли ҳамда сифатли еча олади.

Ўқув жараёнига қўйиладиган энг муҳим талаб таълим олувчиларда ижобий – шахсий сифатларни ривожлантиришдан иборатдир. Ижобий фаолият асосий турларининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, уни мунтазам равишда амалга ошириш инсонда ўзгарувчан шароитларда ўзини йўқотмаслик, муаммони аниқ кўра олиш, ихтирочилик, сезгирлик каби сифатларни шакл-

лантиришга кўмаклашади. Шу мақсадда замонавий ўқув жараёнида репродуктив усул билан бир қаторда маҳсулдор, ижодий қидирув усулларини ҳам қўллаш керак. Улар қуйидаги афзалликларга эга:

- мантиқий фикр юритиш ва муаммоларни илмий асосда ижодий ечишга ўргатади;
- зарур билимларни мустақил ижодий қидиришга одатлантиради;
- дуч келган қийинчиликларни енгиш кўникмасини ҳосил қилади;
- ўқув материалини тушунарли даражада баён қилиш имконини беради;
- ўқув материалини чуқур ва мустаҳкам ўзлаштириш учун шароит яратади;
- ўзлаштирилган билимларнинг аниқлиги ва ишончлилигини таъминлайди;

Бизнинг фикримизча, педагогик технологиянинг энг асосий негизи - қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил эта олиши, ҳар иккаласи ижобий натижага эришиши ўқув жараёнида ўқувчи-талабаларнинг мустақил фикрлаши, ижодий ишлаши, изланишини таҳлил қилсалар, хулоса қила олсалар, ўзларига, гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо бериши, ўқитувчи эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит яратишидир.

Юқорида келтирилган таърифлардан кўриниб турибдики, педагогик технология белгилаб олинган бошлангич мақсад ва мазмун асосида ўқув жараёнини лойихалаш сифатида талқин етилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, ўқитиш жараёнини олдиндан лойихшташтириш зарур, бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини. жой ва шароитни, энг асосийси, ўқувчининг имконияти ва эҳтиёжини ҳамда ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил эта олишини ҳисобга олиши керак, шундагина керакли кафолатланган натижага эришиш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиеев. Таълим – тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи. Халқ сўзи 30 октябрь. 2020.

2. О.Д.Рахимов, О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев Замонавий таълим технологиялари /Тошкент, “Фан ва технология нашриёти”, 2013й., 200 бет.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мактабгача таълим мутахассисларини тайёрлашда инновацион услубларни жорий қилиш масаласи ҳартомонлама ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно исследован вопрос внедрения инновационных методов в подготовку специалистов дошкольного образования.

SUMMARY

This article examines in detail the issue of introducing innovative methods in the training of preschool education specialists.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Suyunova M.A.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, atrof-muhit, ekologik pedagogika, ekologik tafakkur, tabiat, jamiyat, maktabgacha yosh davri.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическая культура, окружающая среда, экологическая педагогика, экологическое мышление, природа, общество, дошкольный возраст.

Key words: ecological education, ecological culture, environment, ecological pedagogy, ecological thinking, nature, society, preschool age.

Jahonda tabiatni ekologik mantiqiy ya'ni tushuncha nuqtai nazaridan o'zlashtirish qadriyatlarning mazmunini belgilaydigan mezonga aylanadi. Ayni paytda ekologik inqiroz va halokatlar oldini olishning tarixiy zaruriyati bu qarashlarni nazariy ong darajasiga ko'tardi. Ayniqsa, tabiatga antropogen va texnogen ta'sirning kuchayishi bilan ekologik madaniyatni rivojlantirishning obyektiv zaruriyati yuzaga keldi. Har qanday tarixiy davr rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga bog'liq bo'lgan. Bu ziddiyatlarning hal qilish vositalari ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish, axborot ta'lim muhiti sharoitida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, zamonaviy dunyoning global ekologik muammolari O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Ushbu davrda mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim vazifalarini hal qilmoqda, bu o'rinda ekologik muammolar jamiyatda ekologik madaniyatning yetishmasligi tufayli yanada og'irlashishi mumkin. Ekologik ta'lim sifatini o'zgartirmasdan ekologik muammolarga yechim topish mumkin emas. Ilmiy tadqiqotlar shuni isbotladiki, bolaning eng jadal rivojlanishi maktabgacha yoshdan boshlanadi, rivojlanishning ushbu bosqichida ekologik ta'lim - tarbiyani o'z ichiga olgan

umumiy madaniyatga mustahkam poydevor yaratish juda muhim sanaladi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

Maktabgacha yoshda shaxsning umumiy madaniyatiga poydevor qo'yiladi, Bu davrda bolalar o'simlik va hayvonat dunyosi, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik va aloqalar haqida, shuningdek, sog'lomlashtiruvchi, kognitiv, axloqiy, estetik, amaliy singari tabiat qadriyatlarining xilma-xilligi, tabiat insonning yashash manzili ekanligi haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar. Bolalarga ekologik ta'lim - tarbiya berish - hozirgi zamonning o'ta muhim muammosi hisoblanadi. Insonning ekologik tafakkuri va ekologik madaniyatigina sayyoramizni va insoniyatni bugungi inqirozdan olib chiqishga yordam beradi.

Ma'lumki, ekologik pedagogikaning rivojlanishi "Ekologik ta'lim nimadan iborat" degan savolga javob izlashdan boshlangan. Ekologik ta'lim muammolari, mazmuni, ekologik tafakkur va ekologik madaniyat kabi tushunchalarning mohiyatini anglash yo'lida rivojlanadi. Ekologik bilimlarni shakllantirish uchun ular qay tarzda, qayerdan, qanday qilib, kim tomonidan o'qitilishi, ekologik bilimga nimalar kiritilishi zarur, nimani o'qitish lozim degan savollarga javob izlanadi. Ekologik ta'lim asoslari, uning xususiyatlari va shart-sharoitlarini G'arb olimlari, Rossiya va MDX, jumladan, O'zbek olimlari o'z tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

- Y.A.A.Komenskiy nuqtai nazaricha insonda tabiiy, mustaqil va o'z-o'zini harakatga keltiruvchi kuch mavjud degan qarash ilgari surilgan holda, ta'limning muntazamligi asosida bola dunyoni anglash va zaruriy bilimlarni egallashda o'zini-o'zi faoliyatga undovchi tamoyil nazariyasini shakllantiradi, degan fikrlarni ilgari surgan.
- Tabiat va unga bo'lgan munosabat bolaning yoshligidan paydo bo'lishi haqidagi qarash va nazariyalar J.J.Russo ijodida ham alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, uning nuqtai nazaricha bolaning "tabiiy rivojlanishi" tarbiyaning uchta kombinatsiyasiga, ya'ni tabiat, inson va jamiyatning uzviy bir-biriga ta'sir va doimiy aloqasiga bog'liqligiga asoslanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonida J.J.Russoning fikriga ko'ra bola tabiat qoidalariga rioya qilishi zarur.
- O'quv jarayonida axloqiy-ekologik ta'lim konsepsiyasini N.M.Egamberdiyeva taklif etadi. Konsepsiyada axloqiy - ekologik tarbiya asosida nafaqat his - tuyg'ular, balki ekologik bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi uqtiriladi. Ekologiya ko'p tizimli soha sifatida qaraladi va ekologik empatiya, fantaziya, refleksiya, g'amxo'rlik, ikki

yoqlama obrazlar, tabiat obyektlarni qayta badiiy jonlantirish usullarining samarali ekanligi ta'kidlanadi.

- A.N.Nigmatovning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ekologik ongi shakllanishi uchun ularning ko'ziga yaqqol tashlanayotgan atrof tabiiy muhit (yer, suv, osmon, quyosh, o'simlik, va hayvonot dunyosi kabilar) bilan " Ona tabiat" mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari, rasmlar chizdirish, atrof, olam haqidagi she'rlarni yod oldirish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi o'yinlarni o'ynatishdan boshlanadi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativlik jarayoni xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy g'oyaning o'quvchilar ongida aks etishidir. Kreativlik, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshi-shiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyati to'g'-risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish orqali shakllantiriladi.
- Shu o'rinda ekologik tushuncha merosini bilish va kreativ ya'ni ijodiy o'zgarishni munosabatning maxsus shakli sifatida farq qilish metodologik jihatdan zarur. Bir tomondan, tabiiy me'rosni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlar doirasida baholash ekologik qadriyatlardan tashqarida mustaqil bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, bu manfaatlar ekologik moddiy va ma'naviy merosni rivojlantirish ehtiyoji bilan bog'liq va uning mavjudligini ta'minlovchi motivi sifatida namoyon bo'ladi
- G.O.Komilova ekologik tafakkurni shakllantirishda O'zbek xalq topishnoqlaridan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, X.A.Raxmatova tomonidan ekologik - gigiyenik ta'lim o'rganiladi. Ekologik - gigiyenik ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni, ekologiya, atrof - muhit muhofazasi, inson salomatligini muhofaza qilish borasida bilimlarni o'quvchilarga yetkazish zarurligi uqtiriladi. Ammo nima sababdan ekologiya va gigiyena tushunchalari birlashtirilganligi tushuntirib berilmaydi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasini qo'riqxonalar muhitida olib borishning pedagogik asoslarini P.V.Aksenova ko'rib chiqadi. Olimaning fikriga ko'ra, atrof - tabiiy muhitini muhofaza qilishga

yo‘naltirilgan barcha sayi harakatlar oxir - oqibat ekologik ta’limga borib taqalmoqda.

Jumladan, ekologik muammolar yechimi tabiat va jamiyat majmuasining ichki mutanosibligi, biosfera muvozanati insonning tabiatga nisbatan ijtimoiy ekologik tushunchalarni shakllantirish asosida axloqiy-madaniy mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Ekologik tushuncha insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy-ilmiy g‘oyalarning majmuasi bo‘lmasdan, ma’lum jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy holatlari, hissiyotlari, kayfiyatlari va intilishlarini ham qamrab ekologiya maqsad-manfaatlari doirasida mushtarakligini ifodalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga javob beradigan va didaktik talablarga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasi. Ta’kidlash joizki, tabiatga ekologik madaniy munosabat stixiyali tarzda vujudga keladigan hodisa emas. Insonning tabiatga nisbatan moddiy munosabati ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida insonni o‘rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit ta’siridagi ekologik merosning tarixiy rivojlanish jarayoni natijasidir.

Ekologik moddiy va ma’naviy me’rosni saqlash va rivojlantirish umumiy ijtimoiy rivojlanishning manfaatlaridan kelib chiqib, “tabiat-jamiyat-inson” majmuasida ularning mutanosibligini ta’minlovchi tarixiy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman, madaniyat tarixining ma’naviy, moddiy merosi ekologik madaniyatni rivojlanishiga asos bo‘lgan. Shuning uchun ham umumiy madaniyat tarixini ekologik manfaatlar doirasida ijodiy, tarixiy o‘rganish ekologik madaniyat yo‘nalishlari metodologik asos bo‘lib hisoblanadi.

Darhaqiqat, yoshlarga ekologik tushunchalar berishning vazifalaridan biri faqat o‘tmishning mushtaraklashgan ekologik nazariyalarini, amaliyotini hozirgi davr nuqtai nazaridan baholashga, undan tegishli xulosalar chiqarishga o‘rganishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Hozirgi sharoitda o‘tmishning nazariya darajasiga ko‘tarilmagan oddiy urf-odatlari, an’analarini rag‘batlantiruvchi yoki taqiqlovchi motivlarini, ularni takomillashtirib, bugungi ko‘rinishga aylantirish qonuniyatlari ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ekologik tarbiya bolalarda yoshligidan singdirilishi lozim bo‘lgan axloqiy va estetik tuyg‘ular majmuasini o‘z ichiga oladi. Ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik madaniyat va ekologik dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirish sog‘lom jamiyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo’luvchi avlodni tarbiyalash muhim hisoblanadi. Tabiatni hurmat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish orqali qachondir bizning bolalarimiz, bizdan farqli o‘laroq, atrofdagi dunyoni

qadrlashlarini, zamonaviy odamlar singari uni buzmasliklarini yoki yo‘q qilmasliklarini ta’minlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 62 b.
2. Abirkulov X.I. va boshqalar. Ijtimoiy ekologiya.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2004. -112 b.
3. Alimov T.A.,Rafikov A.A. Ekologik xatolik sabablari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1991.-70 b.
4. Aydarov Ye.B. O‘quvchi yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.-Chirchiq, 2021. -134 b.
5. Isaqulova N.J. O‘quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T.: Fan, 2011. -140 b.
6. P.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. -T.; O’qituvchi, 1994. -121 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada bolani maktabgacha yoshdan ekologik tarbiyalash jarayonini rivojlantirish, ularga ekologik madaniyat, ekologik bilim, ekologik savodxonlik, ekologik ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, yosh avlodni ma’naviy - axloqiy va ekologik milliy ruhda tarbiyalash, yaxshi xislatlarni tarkib toptirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni va ekologik madaniyatni shakllantirish, uning mazmuni, shakl va metodlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы развития процесса экологического воспитания ребенка с дошкольного возраста, воспитания у него экологической культуры, экологических знаний, экологической грамотности, экологического воспитания, а также воспитания подрастающего поколения в духовно-нравственном и экологическом национальном духе, формирования добродетельных качеств, формирования экологического мировоззрения и экологической культуры у дошкольников, ее содержание, формы и методы освещенный.

SUMMARY

This article covers the development of the process of environmental education of a child from preschool age, providing them with ecological culture, environmental knowledge, environmental literacy, environmental education, as well as educating the younger generation in a spiritual and moral and ecological national spirit, composing good qualities, forming an ecological worldview and ecological culture in preschool children, its content, forms and methods.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA TABIATNING O‘RNI HAQIDAGI SHARQ VA G‘ARB OLIMLARINING FIKRLARI

Turdiyev A.G‘.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: bola, tabiat, model, didaktik, imkoniyat, ta’lim, metod.
Ключевые слова: ребенок, природа, модель, дидактика, возможность, образование, метод.
Key words: child, nature, model, didactic, opportunity, education, method.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish orqali tarbiyalanuvchilarda aqliy, etetik, axloqiy, ekologik jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish bir so‘z bilan aytganda barcha tarbiya turlarini rivojlantirish mumkin. Bu mavzu hamma zamonlarda ham o‘ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma‘naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon sanalib, uning natijasida insonning xulqiy go‘zalligi, estetik didi ortadi. Inson ilk bolalik yillaridan atrofdagi dunyo, jonli va jonsiz tabiat haqidagi juda kichik elementar bilimlarni oladi shu tariqa tabiatga atrof olamga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim dasturlarida ham bu o‘z aksini topgan va qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ilk yoshdn bolalarga tabiat orqali ta’lim va tarbiya berish reja asosida ko‘rsatib berilgan. Maktabgacha ta’lim tahkilotlarida tabiat bilan tanishtirish “Fan va tabiatshunoslik asoslari /ekologiya” faoliayati tarkibida hamda ilm-fan tabiat burchaklari, sayrlar, navbatchilikda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hafta hamda oy mavzulari ham tabiat undagi o‘zgarishlar, yil fasllariga monand tarzda tuziladi. Tarbiyachilar oldida turgan asosiy vazifa bolalarni tabiat va insonga, ular atrofidagi narsalar va narsalar dunyosiga qimmatli, insonparvar munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash, mazmunli istak va qobiliyatni rivojlantirishdir. Bola tabiatni bevosita, sezgilar yordamida idrok etadi. Shuning uchun u uning oldida shakl, o‘lcham, rang, tovush, hid, harakatning xilma-xilligida namoyon bo‘ladi. Bu uning hissiy rivojlanishini yaxshilaydi va unga tabiat haqidagi dastlabki yorqin, aniq g’oyalarni

shakllantirishga, tabiat hodisalarining aloqalarini ko‘rish va tushunishga, aloqa va munosabatlarni tushunishga imkon beradi. Tabiatda kuzatish, o‘ynash, ishlash jarayonida bolalar nafaqat ob’ektlar va tabiat hodisalarining xususiyatlari va fazilatlari bilan tanishadilar, balki ularda bolalarning faolligi rivojlanadi. Bundan tashqari, tabiatdagi mehnat - bolalar mehnatining eng qulay turi - bolaning shaxsiyatini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Insonlar paydo bo‘lib jamiyat bo‘lib shakllanishining ilk davrlardayoq tabiat bilan inson birligi masalasi chuqur anglangan, insonlar faoliyati bevosita tabiat bilan aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlikda anglanilgan. Qadimdan odamlar o‘zlarini tabiat bilan doimo birlikda tasavvur etganlar va uni muqaddas, ilohiy kuchga ega deb hisoblashgan. Mazkur yondashuv diniy marosimlar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalari - afsona, ertak, topishmoq, maqol, doston, she’r va qo‘shiqlarda ham o‘z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish negizida ma’naviy- axloqiy me’yorlar mavjud bo‘lib, ularga doimiy ravishda qat’iyat bilan va og‘ishmay amal qilish nafaqat tabiiy biotsenozni aslidek saqlab qolishga imkon beribgina qolmay, balki insoniyat hayoti havfsizligi va salomatligini ta’minlashning muhim sharti ham sanaladi. Shuning uchun, necha yillardan buyon tabiat va inson munosabatlari, uning oqilona bo‘lishiga erishishga e’tibor berib kelingan. Atrof-muhitga oid mavjud manbalar bilan tanishish tabiat va atrof-muhitga mas’uliyatli yondashish masalalari juda qadimdan o‘rganilib kelinganligiga bugungi kunda ishonch hosil qilinadi.

Ilmiy asarlarni o‘rganish hamda ularda ilgari surilgan fikrlarga tayangan holda ta’limning tarixiylik xususiyatiga egaligi yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiqdir. Xalq merosi na’munalarining aksariyatida tabiatni e’zozlash, hayvonot va o‘simliklar dunyosini asrash haqidagi g‘oyalari yetakchi mavzu qilib olingan. Jumladan, xalq hikmatlarida ham tabiat va atrof-muhitga to‘g’ri munosabatda bo‘lish talabi o‘z ifodasini topgan. Masalan “Suvga tupurma!”, “Quduqqa tosh tashlama!”, “Suvga mag’zava oqizma!”, “Yerni tepma!”, “Nonni tashlama - uvol bo‘ladi!”, “Qushlarni o‘ldirma, qarg‘aydi!”, “Idishda ovqat qoldirma, savob bo‘ladi!” kabi.

Qadimgi muqaddas qo‘lyozma sanalgan “Avesto” xalqimizning bebaho mulki sanalib bugungu kunga qadar ham dono fikrlari bilan qadrli hisoblanadi. Bu eng qadimiy meros sanalgan kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam shu zaminda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimizning biz kelajak avlodlarga qoldirgan ma’naviy tarixiy muhim yodgorligidir. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” da inson va tabiat munosabatlariga juda keng o‘rin ajratilgan hisoblanib, ayni o‘rinda bu asarda geografik ma’lumotlar ham yoritilgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududidan oqib o‘tuvchi ikki yirik daryo - Amudaryo va Sirdaryo, ikki

daryo o‘rtasidagi joylarning havosi, tabiati, tabiiy boyliklari, o‘simliklari va boy hayvonot dunyosi, insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Asarda ekologik masalalar umumiy tarzda «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalami pok va bus-butun asrashga burchlidir» degan g‘oya negizida yoritiladi. Manbada, shuningdek, yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e’tibor berilgan. “Avesto”da qabristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o‘rab qo‘yish, maxsus tozalikka rioya qilish, murda tekkan libos, yerlarni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon o‘ligi tushgan suv inshoatlarini bir necha marta tozalash (suvga to‘ldirib bo‘shatish) ta’kidlanadi. Shuningdek, tuproqning tozaligini buzgan va uni asrash qoidalarini mensimagan shaxslar “400 qamchi bilan urish jazosi”ga giriftor qilingan. “Avesto” da muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalari sifatida quyidagilar ta’kidlangan:

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko‘mib tashlash.

2. Otash va sovuqlik bilan ofat va balolarni yo‘qotish.

3. Kul , sirka, sharob, turli giyohlar (isfand, misxak, sadaf, piyoz, sandal) tutatish.

Asarda turli kasalliklarning qushlar, hayvonlar va parrandalar orqali tarqalishi va ularning zararli oqibatlarga olib kelishi ham qayd etiladi. Biroq, kasallik tarqatadigan hayvon va hashoratlarni yo‘qotish maqsadga muvofiqligi bilan birga uy hayvonlarini ehtiyot qilish zarurli aytiladi. “Avesto”, ayni zamonda, bu qadim o‘lkada buyuk davlat, yuksak ma’naviyat va madaniyat bo‘lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. “Avesto” tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarini ma’naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg’unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o‘rganishga chorlaguvchi falsafadir. “Avesto”da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to‘g’risida tavsiyalar berilgan. “Avesto”da yer, suv, xona, inson tana a’zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko‘chalar, butazorlaru o‘tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko‘mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlami yo‘qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to‘g’ri parvarish qilish yo‘llari ham ko‘rsatilgan.

O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkir olimlaridan Muhammad al-Xorazmiy hayoti davomida juda ko‘plab asarlarni yozib katta meros qoldirgan. Uning “Kitob sur’at al-arz” nomli asarida dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar,

ekvatorlar, cho‘llar, tog’lar, daryo va dengizlar, ko‘llar va o‘rmonlar, ulardagi o‘simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar, aholisi, urf-odatlari, ijtimoiy faoliyatlari, zichligi va boshqa muhim ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib eng qimmatli va nodir asarlar sirasiga kiradi. Asarda bir necha izohlar, haritalar mavjud bo‘lib, Orol dengizining tasviri ham berilgan. Bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog‘ning geografik tafsilotlari o‘z aksini topgan. Olim tomonidan daryo suvlari qurib, ifloslanib, inson boshiga turli faloqatlar yog‘ishi mumkinligi ta’kidlangan. “Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan” bo‘ladi.

Tabiatshunosliksning turli tarmoqlari bilan shug’ullangan mutafakkir olimlardan biri bu Abu nasr Forobiy bo‘lib hisoblanadi. Uning “Kitob al-hajm va al-minor”, “Kitob al-mabodi al-insonia” (“Insoniyatning boshlanishi haqida kitob”), “Kitob al-a’zo al- hayvon” (“Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob”) nomli asarlari dunyoga mashhur asarlar sirasiga kiradi. Tabiatshunoslikka oid “Odam a’zolarining tuzilishi”, “Hayvon a’zolari va ularning vazifalari haqida” kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a’zolaming tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Odam a’zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so‘z yuritilganda o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalaming o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba’zi hodisalarni quyoshning ta’siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o‘simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o‘simlik va hayvonlar doimo kupayishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan: “Ekin va nasi qoldirish bilan dunyo to‘lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo‘lsada, kunlar o‘tishi bilan bu ikki o‘sish natijasida ko‘payish cheklanmaydi.

Agar o‘simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o‘sishiga sharoit bo‘lmay, o‘sishdan to‘xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo‘lmaydi. Ular birdaniga paydo bo‘lib, birdaniga yo‘qolib ketmaydi. Bordi-yu, yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko‘payishiga ham, daraxtning o‘sishiga ham o‘rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o‘toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar”. Beruniy asarlarida o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va ho‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, “Saydana”, “Mineralogiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida o‘z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan

aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi misollar bilan tushuntirilgan. “Agar hayvonlarda sezgilar oziq topishi va o‘z-o‘zini himoya qilish uchun yaratilgan bo‘lsa,odam zoti hayvonot dunyosini juda ortda qoldirib ketgan, chunki unga xudoning yerdagi noibi bo‘lish,uni obod qilish va uyda targ’ibotni amalga oshirish topshirilgan” Beruniy yer yuzining o‘zgarishi o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bogiiq bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig’anoqni topish mumkin.

Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb ta’kidlaydi alloma. Beruniy “Saydana” degan asarida 1116 xil dori- darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlarida o‘simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Beruniy o‘zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma’lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi. Yirik qomusiy olim sifatida tanilgan Abu Ali ibn Sinoning 450 ta asari mavjud bo‘lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» tibbiyot ilmining shox asari, o‘rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho‘qqisi bo‘lib hisoblanadi. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jaxonga mashhur “Kitob ash-shifo”, ya’ni “Davolash kitobi” asarida bayon etilgan, Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilgan asarlaming 80 dan ortig‘i tabiat va insonning unga bo‘lgan munosabati masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda tabiiy muhitning inson salomatligi va hayotidagi ahamiyati, tabiiy jarayonlarning kechishi, inson salomatligini saqlash shartlari, turli kasalliklami keltirib chikaruvchi geoekologik omillar - suv, yer va havoning tozaligi, yashash muhitining holati (turar-joylarning keng yoki tor bo‘lishi), sanitariya va gigiena qoidalariga amal qilmaslik, turli yuqumli kasalliklar (moxov, chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabilar)ning paydo bo‘lishi va tarqalishida muhit, xususan, yashash joylarining muhim o‘rin tutishi kabi qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Tarixda pedagogika nazariyasi asoslarini shakllantirishda qadimgi Gresiyaning atoqli faylasuflari Platon va Aristotel, italiyalik pedagog Mark Fabi Qvintilianlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Lekin yoshlami tabiat elementlari vositasida tarbiyalash eng avvalo g’arbdagi ilg‘or pedagoglarning

tarixidan boshlandi. Ilmiy pedagogikaning rivojlanishini boshlab bergan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaragan g'arb pedagoglandan biri Yan Amos Komenskiy bo'ldi. Chexiyalik mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy bashariyat tarixidan pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan. Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining "Buyuk didaktika", "Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi", "Fizika", "Falakiyot", "Onalar maktabi", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida uzining muhim pedagogik g'oyalarini Ya.A.Komenskiy maktablarning to'rt turini yilning to'rt fasliga "Onalar maktabi" xushbuy o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. "Ona tili" maktabi yozgi va ayrim erta pishgan mevalarga "Gimnaziya"da dalalar, bogc va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasi"ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Komenskiy tabiatga monandlik prinsipini tabiat va inson rivojlanishidagi universallik, mushtaraklik borligini aniqlab, inson kamol topishining (bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik) davrlarini harakterlab, ular orasida olti oy davom etadigan dastlabki davrga alohida e'tibor berdi. Uning qimmatli fikri shundaki,bola organizmida jadal jismoniy o'sish va his-tuyg'u organlarining rivojlanishi ro'y beradigan mana shu davrda yosh bolalar onalar maktabida, psixologik qobiliyati bo'lgan va o'z tarbiyalanuvchilarini sevadigan dono, onalar rahbarligidagi oilada tarbiyalanishlari kerak. Komenskiy onalar maktabi bolalarga aniq tasavvurlami to'plashi uchun yordam berishi kerak, deb aytadi va u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar egallashi zarur bo'lgan atrof-muhit haqidagi, tabiat haqidagi oddiy bilimlaming keng doirasini batafsil chizib berdi. Uning fikricha, tabiatshunoslik sohasida yetti yashar bola olov, havo, suv va yer,yomg'ir, qor, muz,qo'rg6oshin, temir va shu singarilar nima ekanligini bilishi, Quyosh va Oy, yulduzlami farqlay olishi, qaysi paytda kunlar uzun va qaysi paytda qisqa bo'lishini bilishi kerak. Geografiya sohasidagi bilimlar esa shahar, qishloq, dala, bog6 nima ekanligini tushunish,o'z qishlog'i yoki shaharning nomini bilishini o'z ichiga olishdan iborat bo'lishi va bundan tashqari, yil fasllarini, "soat", "kun", "hafta", "oy", "yil" atamalarini tushunishi kerak, deb ta'lim berdi. Ya.A.Komenskiyning bundan qariyb uch yarim asr muqaddam yaratgan nazariyasi yoshlarni tarbiyalash, tabiat bilan tanishtirishdagi dastlabki qadam bo'ldi.

Inson tabiatdagi hodisalarni anglashda qanchalik ko'p analizator sezgilar birgalikda ishtirok etsa, tasavvur va tushunchalar ham shunchalik aniq, bo'lishi

isbotlangan. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish modelining didaktik imkoniyatlarini oshiruvchi metodga avvalo ko‘rgazmalilikni qo‘yish lozim bo‘ladi, bolalar qo‘li bilan ushlab, tili bilan tamini sezib, burnik bilan hidlab qulog’I bilan eshitgan holda ya’ni narsa va hodisalar ularaing sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etishi, natijasida ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak. Tarbiyalanuvchilarda oilada , hovlida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sayr jarayonlarida, tabiat qo‘ynidagi o‘yinlarda hamda mehnatda bolalar atrof-olamdagi , tabiatdagi narsalarning bolaga ta’siri natijasida bolalarda sezgi tajriba va ko‘nikmalari shakllana boradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bog‘chaga ketayotganlarida ko‘chadagi ob-havo sharoiti (sovuq, issiq, iliq va namlik)ni seza oladilar. Qo‘llarini yuvganlarida, cho‘milish vaktida, o‘yinlarda suvning xususiyatlarini (sovuqligi, iliqligi, sachrashi, toshlarning suvda cho‘kishi yoki yog‘ochning suzib yurishi) ni payqay oladilar. Xayvonlarni parvarish qilishda esa ularning harakatlarini, odatlarini bilib oladilar. Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lishi natijasida, undagi narsa va hodisalarni yaqqol ko‘rib, idrok qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Lekin ko‘pincha bola narsalarni payqamay qolishi yoki muhim bo‘lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto‘g‘ri tasvirlashi mumkin. 3-4 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt ham sezmasligi mumkin. Xayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e’tibor beradi, akvariumda suzib yurgan baliqni ko‘rsaiib uni «yuryapti» yoki «qanotlarini silkityapti», - deb aytadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko‘rsatishning o‘zigina kifoya qilmaydi. O‘rgatish jarayonida maqsadga muvofiq rahbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bolaning idrokini yo‘lga soladigan, diqqatini ko‘rish va eshitishi muhim bo‘lgan narsa va hodisalarga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi so‘zlarida ifodalanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o‘rganish ko‘proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog‘liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko‘ra so‘z bilan aytib idrok qilish mustahkam o‘zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang‘ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks etadi. Tushuncha - bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko‘rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so‘zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo‘ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o‘yin va mehnatda o‘zlashtiriladi va tekshirib ko‘riladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning maqsadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga extiyotkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi bolalarni:

– o‘z o‘lkasi tabiati bilan tanishtirish;
– ona Vatanga mehr muxabbatini uyg‘otish;
– tengdoshlari va kattalar mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish;
– tabiat orqali psixik jarayonlarni
– rivojlantirish(sezgilar,idrok,xotira,xayol,nutq,diqqat);

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar va xayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, xayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta’lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi.

Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va xayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o‘sishiga ta’siri kattadir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda talim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘ladi.

Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad - shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya’ni go‘zallikni his qilishni o‘rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g‘ichirlashi - bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyoini tarbiyalashda va o‘stirishda boy material bo‘lib xizmat qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg‘ularning o‘sishi esa, o‘z navbatida san’atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o‘rganish uchun

zarur shart-sharoit yaratadi. Avval tabiat go‘zalligini, so‘ngra san’at go‘zalligini his etish kerak.

Tabiatdagi va san’atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg‘ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bog‘cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg‘ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, ulardan baxramand bo‘lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg‘onishi uchun oylar, yillar kerak bo‘ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog‘cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog‘ hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruxda tarbiyatashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.

2. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.

3. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y. O‘quv qo‘llanma.

4. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari T.: 2015 y. O‘zPFITI. Uslubiy qo‘llanma.

5. “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi “Xalq so‘zi” 2017-yil 8 fevral.

6. Sh. A. Sodiqova, M. A. Rasulxo‘jayeva “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Fan va taxnologiya”- T.: 2012.

7. O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z.Nodirova “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot matbasi -T.: 2016.

8. Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar” – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.

9. L.A. Alibekov “Inson va tabiat” O‘quv va metodik qo´llanma “Fan va texnologiya” -T.: 2016.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish modelining didaktik imkoniyatlari mavzusidagi mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish faoliyatlarida olib boriladigan didaktik vazifalar, ularning metodik imkoniyatlari, hamda ushbu mavzudagi G’arb va Sharq allomalarining fikrlari, didaktik o‘yinlar o‘rin olgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на тему дидактических возможностей модели приобщения дошкольников к природе собраны дидактические задания, выполняемые в дошкольных образовательных организациях, их методические возможности, а также мнения западных и восточных ученых по этой теме, дидактические игры.

SUMMARY

This article on the topic of the didactic possibilities of the model of introducing preschool children to nature contains didactic tasks carried out in preschool educational organizations, their methodological possibilities, as well as the opinions of Western and Eastern scholars on this topic, and didactic games.

ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ АСОСИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ПЕДАГОГ ХОДИМЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Каримжанова Д.А.
Чирчиқ Давлат Педагогика Университети
Мактабгача таълим факултетини ўқитувчиси.

Таянч сўзлар: таълим тизим, такомиллаштириш, Янги Ўзбекистон, тараққиёт стратегияси, беш устувор йуналиш, ўзликсиз, ҳаракатлар стратегияси, ислоҳотлар, ижтимоилаштириш, малакали педагог, ходим.

Ключевые слова: система образования, совершенствование, Новый Узбекистан, стратегия развития, пять приоритетных направлений, актуальность, стратегия действий, реформы, социализация, квалифицированный педагог, работник.

Key words: education system, improvement, New Uzbekistan, development strategy, five priority areas, act

Жаҳонда кечаётган янгича тараққиёт даврида таълим тизимини ривожлантириш ва унда халқаро ҳамкорликларга таяниш етакчи ўринлардан бирини эгалламоқда. Шу жиҳатдан ЮНЕСКОнинг “Education - 2030” халқаро таълим дастури воситасида жаҳон мамлакатлари таълим тизимларини такомиллаштириш ишлари амалга оширилмоқда. Мазкур жараёнда мактабгача таълим тизими ва бу тизим учун юқори малакали педагог ходимларни тайёрлаш масалаларига ҳам асосий эътибор қаратилмоқда. Таълим тизимининг муҳим босқичларидан бири бўлган мактабгача таълимни ҳар бир мамлакат ўз имкониятларидан келиб чиқиб амалга оширмоқда.

Янги Ўзбекистон ибораси халқимизнинг кундалик демократик қадриятига айланмоқда. Юртимизда Ҳукуматимиз таомонидан ишлаб чиқилган ва бугунги кунда ижобий натижаси билан яққол кўринган Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги бешта устувор йуналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси босқичма-босқич, олий таълим муассасаларни ислоҳ қилишни якунлаш, таълимнинг сифат жиҳатидан янги турига, услуксиз таълимга ўтишни таъминлаш тамоилига қатъий риоя этган ҳолда юзага чиқариб, ёшларни Ўзбекистоннинг янги тараққиёт стратегиясига сафарбар этмоқда. Ҳаракатлар стратегиясининг мақсади олиб борилаётган ислоҳотлар самарадорлигини тубдан оширишдан, давлат ва жамиятнинг ҳар тамонлама

ва жадал ривожланишини таъминлаш учун шарт – шароитлар яратишдан, мамлакатнинг модернизасиялаш ва ҳаётнинг барча соҳаларини эркинлаштиришдан иборат.

Ўзбекистон Республикаси "Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида" ги Қонунига (2019 йил) биноан мактабга таълим ташкилоти – бу "мактабгача ёшдаги болалар қизиқиши, иқтидори, индивидуал руҳий ва жисмоний хусусиятлари, маданий эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда ҳамда болада маънавий меъёрларининг шаклланиши, ҳаётий ва ижтимоий тажриба эгаллашини кўзда тутган ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган яхлит жараён" дир (3-модда).

Бу жуда муҳим, зеро, мактабгача болалик – ҳар бир фарзанд шахси ривожланишидаги ўта аҳамиятли ва мураккаб давр. Агар шу босқичда тўғри ёндашувлар қулланилса, ўғил-қизларимизнинг кейинги таълими ва тарбияси, демакки, бутун ҳаёти ҳам муваффақиятли кечади.

Давлатимиз раҳбари томонидан қуйилаётган вазифалардан келиб чиқиб, педагог ходимлар ҳам ўз профессионал фаолиятидаги устувор йуналишларни қайта кўриб чиқиши, янги вазифаларга мослашувчан бўлиши ва ўз устида тинимсиз ишлашишларини тақозо қилади.

Айтиш жоизки, ҳозирги пайтда болани мактабгача тайёрлаш бу давр талаби булиб, мактаб дастурлари тобора мураккаблашади, шу боис ундан аввалги тайёргарлик қанчалик сифатли бўлса, жжажи фарзандларимизнинг кейинги ўқиши жамиятда ўз ўрнини эгалаши мумкин деб биламиз.

Ўзбекистон мактабгача таълим ташкилотлари учун мутахассислар тайёрлаш жараёни XX асрнинг 30 йилларидан бошлаб амалиётга киритилган. Шу сабабли бизнинг ёндошувимизга кўра, бу жараённи шартли равишда қуйидаги икки даврга бўлиш мумкин:

1) мустақилликгача бўлган давр (1930 – 1991 йиллар);
2) мустақиллик даври (1991 йил сентябрдан то бугунги кунгача).

Мустақилликгача бўлган даврда мактабгача таълим ташкилотлари учун мутахассислар "тарбиячи", "мактабгача таълим методисти" ва "педагог - тарбиячи" номлари билан тайёрланиб келинган ҳамда бу мутахассислар техникумлар (ўрта махсус маълумотли) ва педагогика институтларининг Педагогик таълим йўналишида (олий маълумотли) тайёрланиб келинган.

Мустақиллик даврида мактабгача таълим ташкилотлари учун мутахассислар тайёрлаш жараёнини ички тартибда қуйидаги икки босқичга бўлиш мумкин:

а) 1991 йил сентябрдан 2017 йил сентябргача.

б) 2017 йил сентябр ойидан бошлаб бугунги кунгача. Бу босқичда мактабгача таълим ташкилотлари учун педагог ходимлар тайёрлаш жа-

раёни замонавий талаблар ҳамда жамият эҳтиёжлари асосида амалга оширилмоқда ва бунда Ўзбекистон Республикаси Призидентининг 2017 йил 9 сенябрдаги ПҚ – 3261 - сонли "Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора - тадбирлари тўғрисида" ги Қарорига асосланилган.

Ижтимоий талаблар мактабгача таълим ташкилотларининг узлуксиз таълим тизимидаги ўрни, унинг шахс таълим - тарбиясидаги аҳамияти ва жамиятда тутган мавқеини белгилашда асос бўлади. Чунки мактабгача таълим ташкилотлари 2 - 6 ёшли болаларни ижтимоийлаштириш ишини бошлаб беради. Бунда:

1) тарбияланувчиларнинг ижтимоий онгини шакллантириш;

2) уларнинг ўзгаларга муносибатини таркиб топтириш;

уларни амалий фаолиятга йўналтириш ва мактабга меъёрий - ҳуқуқий ҳужжатларнинг масаласи ишлари амалга оширилади. Бу ўринда ана шу масалаларнинг Тараққиёт стратегиясида вазифа сифатида қўйилиши муаммоси таҳлилига эътиборингизни тортамиз.

1.Тараққиёт стратегиясида сифатли таълимни амалга ошириш вазифалари. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган "Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси" нинг асосий йўналишларини қуйидагилар ташкил этади:

Сифатли таълим – бу таълимнинг мақсади, вазифалари ва уларни босқичлар асосида кутилган амалий самарага эришиладиган таълим жараёнидир. Сифатли таълимнинг уч мезони мавжуд:

1) таълим беришда миллий ва хорижий тажрибалардан уйғун фойдаланиш;

2) янги маълумотлар, ахборотлар, кашфиётлар ва ихтироларнинг натижалари асосида билим бериш;

3) таълим олувчини ўз ўзлаштирган билимларидан келгуси фаолиятда фойдаланишга тайёрлаш.

2. Тараққиёт стратегиясида юқори малакали педагог ходимлар тайёрлаш масаласи. Тараққиёт стратегиясида сифатли таълимга эришиш учун юқори малакали педагог ходимлар тайёрлаш вазифалари ҳам белгиланган. Бунинг учун бизнингча, қуйидагиларга асосланиш тақоза этилади:

а) мактабгача таълим ташкилотларининг юқори малакали педагог ходимларга бўлган эҳтиёжини ҳудудлар кесимида ўрганиш;

б) мазкур тоифа педагог ходимларини тайёрлашнинг ўқув режалари, дастурлари ва адабиётларини халқаро таълим дастурлари асосида такомиллаштириш;

в) давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари ўртасида ушбу тоифа педагог кадрларини сифатли тайёрлаш бўйича соғлом рақобатни таркиб топтириш.

3.Тараққиёт стратегияси асосида мактабгача таълим ташкилотларини ривожлантиришдан кутиладигон натижалар. Тараққиёт стратегияси асосида мактабгача таълим ташкилотларини ривожлантиришдан кутиладиган натижаларини идрок этиш бу борадаги вазифаларни жамият миқёсида кутилган даражада ижросини таъминлаш учун асос бўлади. Шу жиҳатдан Миллий дастуни тасдиқи Мактабгача таълим вазирлигига куйидаги вазифалар юкланган:

а) педагог кадрларни кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш йўналишида:

б) таълим дастурларини такомиллаштириш йўналишида:

в) педагог кадрларини тайёрлаш йўналишида:

Республикамизда олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш консепсиясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармони мамлакатимизни 10 та олий таълим муассасаси 2030 йилга қадар халқаро рейтинглар мингталиги рўйхатидан жой олиши вазифаси белгиланган. Ушбу вазифалар халқаро стандартларда белгиланган талабларга риоя қилиш, таълим сифатини дунё андозалари даражасига олиб чиқишни тақозо этади. Ўтган бир йил мобайнида болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш 27,7 фоиздан 40 фоизга етди, шуни назарга олиш керакки, 2019 йилга қадар 44 фоизга етказиш шубҳасиз



Мамлакатимиз таълим тизимидаги туб ижобий бурилишлар халқаро ташкилотлар томонидан мунтазам эътироф этилмоқда. Европа ва Марказий Осиё давлатлари рейтингида Ўзбекистонда таълим муассасалари 2020 йили 351 + натижа курсатган бўлса, 2022 йил учун эълон қилинган рейтингда 100 пағона юқори кўтарилиб, 251 + ўринни эгалади.

Эътибор берилса, уларга асосланиш педагог ходимларни тезкор тайёрлаш имконини беради. Бунинг натижасида нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари ва уй шаклидаги боғчаларини олий маълумотли педагог ходимлар билан таъминлашга эришилади. Чунки Тараққиёт стратегиясида нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари ва уй шаклидаги боғчаларни моддий, техник ва молиявий кўллаб-қувватлаш назарда тутилган.

Эслатиб ўтиш жоизки, бугунги кунда мактабгача таълим ташкилотлардаги таълим – тарбия жараёнини янгича ёндошувларга асосан такомиллаштириш ҳам керак бўлади. Бу борада қуйидагилар долзарб бўлиб турибди.

Адабиётлар:

1. Жалолова Г. “Болаларни мактабга тайёрлашда ноанъанавий ўйинлардан фойдаланиш”. – Т - .:2004.

2. История дошкольной зарубежной педагогики. Хрестоматия.

Составители Н. Мчедлидзе, А. Лебеденко, Е. Гребенщикова. – М.: “Просвещение”. 1974. – 464с

3. Каримжонов А. Таълим тизимини бошқариш асослари. – Т.: “ FIRDAVS - SHOH”. 2012. – 174 б

4.Каримжонов А, Каримжонов М, Каримжонова Д. Таълим муассасаларида меъёрий ҳужжатлар юритиш. – Чирчиқ.: “ADAST - POLIGRAF” 2020. – 320 б

5.Каримжонов А, Каримжонова Д, Абдумаликова Н. Тожик тилини ўрган Каримжонов А, Каримжонова Д. Бозй ва инкишофи нутқ оиди таълими савод. – Чирчиқ.: “ZEBO PRINTS” 2022. – 230 бамиз. – Т.: “FIRDAVS - SHOH” 2022. – 115 б

РЕЗЮМЕ

Мақолада мактабгача таълим ташкилотларида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида йуқори малакали педагог ходимларни тайёрлаш масаласи эътиборга олинган бўлиб, таълим тизимни биринчи босқичи бўлган мактабгача таълим ташкилотларини ходимларнинг ишини мазмун-моҳияти назарга олинган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрен вопрос подготовки высококвалифицированных педагогических кадров в дошкольных образовательных организациях на основе стратегии развития Нового Узбекистана, а также рассмотрена сущность работы сотрудников дошкольных образовательных организаций, которая является первым этапом системы образования.

SUMMARY

The article examines the issue of training highly qualified teaching staff in preschool educational organizations based on the development strategy of New Uzbekistan, and also examines the essence of the work of employees of preschool educational organizations, which is the first stage of the education system.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNING PEDAGOGIK – PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI

Tashmatova Sh.R.
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, turlicha fikrlash, fikrlash qobiliyatlari,g'oyaviy sermahsullik, ijodiy strategiyala,ijodiy yondoshish.

Ключевые слова: креативность, творчество, иное мышление, навыки мышления, творческая стратегия, творческий подход.

Key words: creativity, thinking differently, thinking skills, creative strategy, creative approach.

Kreativlik-lotincha so'z bo'lib, "ijod" yoki "yo'q narsadan yaratish" kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak.Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jihati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to`xtab o`tmoqchimiz. Bu tushuncha so`nggi yillarda ta`lim-tarbiya jarayonlarida ma`lum darajada qo`llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativl ikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

Ayniqsa bunday izlanishlar psixologiya soxasida keng ivojlangan. A.Yu.Agafonov, Yu.Lotman, V.Rudnevg, S.Batishev, M.Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, V.M.Vil`chek, V.Dil`tey, V.N.Drujinin, D.A.Leont`ev, A.Maslou, A.A.Melik-Pashaev, I.Meyerson, A.Ya.Ponomarev, M.Rorbax, S.L.Rubinshteyn, V.Frankl, R.Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir. Yuqorida tilga olingan psixolog olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarini va boshqalarda kreativlikning mazmun va ma`nosi jihatdan psixolog olimlar quyidagi xulosalarga kelishganligining guvohi bo`lamiz.

1. Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo`ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

2. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo`lib, uning o`z-o`zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog`liq.

3. Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo`yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

A). Shaxsiy mazmun. Ya`ni har bir insonning shaxsiy hayotining umumiy mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog`liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug`ullanar ekan, u kreativlik, ya`ni yaratuvchanlik munosabatda bo`ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o`ziga tortishga yo`naltiriladi. Bu esa o`z navbatida insoniyatning madaniyatga yo`naltirilganligidir.

B). Signifikatsion ko`nikmalar.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo`lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.

2. Kreativlik – bu insonning o`ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.

4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.

5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma`naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog`liq bo`lgan kategoriyadir.

Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o`rganuvchi alohida yo`nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo`nalishi vujudga kelgan.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o`rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o`rganilishi M.S.Bernshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G.Yudin va boshqalar nomi bilan bog`liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo`nalishi ustida g`arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: «Kreativlik o`zida yangicha yo`sinda

amalga oshirilgan o`zlashtirish to`lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e`tirozlariga sabab bo`luvchi faoliyatidir».

Ko`pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o`ziga xosligi va xususiyatlariga e`tibor qaratadilar. J.Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta`sir etuvchi omillar yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo`lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshiidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E.Torrens, 1996-y.)

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik muammosi, jamoaning funktsional-rolli differentsiyasi yo`nalishi bo`yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda.

Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi ta`kidlanadi. V.Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo`lgan ob`ektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg`unligi».

Ko`rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog`liq ekanligi e`tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo`ladigan bo`lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammo sifatida ham tahlil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e`tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo`llanilmayotgan bo`lsa ham bu tushunchani ma`lum darajada pedagogik iste`molga kiritishga doir harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog`liq holda o`rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog`liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida qo`yidagi elementlar qabul qilangan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O`z-o`zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o`rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish qo`yidagi elementlar belgilanishi e`tirof etilgan. Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuatsiya.
3. Dunyoqarash

Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o`zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang`ich ta`limda innovatsiya», «Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o`quv qo`llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to`xtab o`tgan.

Buyuk olim V.A.Slastyonin pedagogning innovatsion faoliyatiga bo`lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlarini qo`yidagicha belgilagan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo`llaganligi.

Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o`z kamolotiga intilish;

- kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o`z ka - molotiga intilish;
- kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyati;
- o`qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur`ati va ish qobiliyati; qat`iyatlik, mas`uliyatlik va xalollik, o`zini tuta bilish.

O`tgan asrning 60-70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o`rganishda keskin burilish yillari bo`ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo`ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta`limining psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o`rgandilar. (V.V.Davidov, LA.Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.)

Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o`ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrlovchi, tabaqalashtirilgan ta`lim sifatida qaraymiz.

Tadqiqotchilar fikrlari orasida kreativ insonlar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar, degan fikr etakchilik qiladi.

O`rganilayotgan muammoga V.A.Slastyonin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo`lishni taklif qiladilar:

1. Potentsial
2. Dolzarb.

Potentsial kreativlik - muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individiumni potentsial joylashuvi ma`lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potentsial kreativlik - ijodning sub`ektiv zarur sharoitidir.

V.A.Slastenin, L.S.Podimova potentsial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o`tishi muammosiga o`ziga xos yondashganlar.

Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko`chirishdan ijodiy nusxa ko`chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o`qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar:

- ba`zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar;
- ikkinchilari to`liq konsepsiya va tizimlarga ega bo`lmasdan turib, ba`zi metodik usullarga o`zgartirishlar kiritadilar;
- uchinchilari ma`lum g`oya asosida to`liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar;
- to`rtinchilar esa ta`lim va tarbiyada o`zlarining kontseptsiya va metodikalarini tavsiya etadilar.

Yuqoridagilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo`lib, to`rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida.

Intellektual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari bilan taqqoslash, ikkala yo`nalish orasida ma`lum mutanosiblikni, innovatsion-pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomillashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko`tarilib borishi kelajakda innovatsion ta`lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, kreativ fikrlashning pedagogik-psixologik jihatlarini o`rganish va tadbiq etish boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Inoyatev U.I., Usmonboyeva M., Inog`omova D. “Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob” / Metodik qo`llanma –T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193-b.

2. Ibragimova G.Ijodkor pedagoglarda shaxs xususiyatlarini namoyon bo`lishi// Xalq ta`limi.-Toshkent,2010. –B.40-43.

3. Amabile, T. (2012), «Componential theory of creativity», No. 12-096, Harvard Business School, http://www.hbs.edu/faculty/Publication%20Files/12-096.pdf (accessed on 28 March 2018).

4. Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, http://dx.doi.org/10.1080/13598139. 2014.905247

5. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang’ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y.

6. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang’ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.

7. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. Toshkent- 2016

РЕЗЮМЕ

Тадқиқот усуллари: сифатида адабиётлар материалларини умумлаштириш ва таҳлил қилиш, педагогик кузатиш, педагогик тажриба, математик статистик таҳли усулларидан фойдаланилди.

Тадқиқот объекти: 10-12 ёшли футболчиларнинг жисмоний тарбия машғулотлари.

Тадқиқот предмети: 10-12 ёшли футболчиларнинг жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари.

Спорт ўйинлари соҳасидаги мутахассисларнинг ҳисоблашларича машғулот жараёни бошқариш назарияси тамойиллари асосича қурилиши лозим. Уларнинг фикрича, ҳозирги пайтда спортчилар организмидаги ўзгаришларни ўрганишда тизимли ёндашиш усулиятини ишлаб чиқиш ҳамда қўллаш зарурияти туғилди.

Ёш футболчилар тайёргарлиги даражасини баҳолаш организм ривожланишининг ёш хусусиятлари, футбол билан мунтазам шуғулланишнинг тайёргарликнинг ҳар хил тамойилларига таъсири ҳамда тайёргарлик босқичини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

Комплекс назорат натижалари ўқув-машғулот жараёни самарадорлиги ҳамда футболчилар тайёргарлигини индивидуаллаштириш мезони ҳисобланади. Комплекс назорат натижалари асосида машғулот нагрузкаларига (юкламаларига) тузатишлар киритилади, машғулотлар ва нагрузкаларни спортчи ҳолатига мослаштириш имкони яратилади, футболчилар ҳолатини тезкор. Жорий ва босқичли баҳолаш бажарилади.

Шундай қилиб, етакчи мутахассисларнинг таъкидлашича, илмий асосланган назорат тизимининг яратилиши турли ҳаракатланиш фаолияти ҳолати тўғрисидаги ахборотнинг олинишига боғлиқ, уни тўплашни эса машғулот жараёнини бошқаришнинг энг муҳим поғонаси сифатида қаралиши зарур.

Футболда машғулот жараёнини бошқаришнинг бу томони болалар-ўсмирлар футболи билан бир қаторда юқори малакали спортчиларда етарлича кенг миқиёсда ишлаб чиқилган.

Бироқ, баъзи мутахассисларнинг фикрича, футболга оид ишларнинг кўп қисми фақат битта ҳаракат сифатининг ривожланиши устидан назорат қилиш (такомиллаштириш мақсадида) мезонларини асослаш ёки футболчилар тайёргарлигининг бирон-бир томонини асослаб беришга тааллуқли. Бу спортчи ҳолатининг интеграл баҳосини олишга имкон бермайди.

Футбол бўйича илмий-услубий ва мағсус адабиётларнинг тахлили шуни кўрсатдики, футболчилар тайёрлаш амалиётида спортчилар тайёргарлиги даражасини миқдоран бахлаш ва уларнинг мусобақа фаолияти сифатини яғшилаш муаммоси асосан хал этилган. Машғулот нагрузкаларини баҳолашга бўлган ёндашишда умуман бошқача вазият юзага келди, чунки кўпгина машқлар комплексли хусусиятига эга бўлиб, бир вақтнинг ўзида спортчиларнинг жисмоний сифатлари ҳамда техник-тактик маҳоратларини такомиллаштириш вазифалари ҳал этилади. Комплекс назо-

ратнинг бу бўлимида баҳолашнинг миқдорий мезонлари фақат қисман ишлаб чиқилган. Мавжуд услублар машқнинг ўлчамлари ва техник-тактик мураккаблигини аниқлашга ҳали имкон бермайди. Боз устига машғулот, микроцикл ва бошқалар йўналишини аниқлаш янада мушкул. Шунинг учун кўпгина мутахассислар машғулот нагрузкаларини баҳолашни деталлашдан қочадилар. Бу эса машғулот жараёнини режалаштиришнинг энг мукаммал шакли –уни дастурлаш ва автоматлаштирилган бошқарувга ўтишга имкон бермайди.

1. Футболчиларнинг техник-тактик маҳорати ва жисмоний тайёргарлигини эксперт баҳолаш.

2. Тезкорлик тестлари (жойидан туриб 5 ва 10 м.га югуриш; 15 м.га турган жойидан югуриш).

3. Тезкор-куч тестлари (турган жойидан юқорига сакраш, зинадан юқорига югуриш).

4. Энергетик мезонлар.

Муаллифнинг фикрича, кўрсатилган тестлар билан бир қаторда мусобақа фаолиятини назорат қилиш футболчиларнинг тайёргарлигини баҳолашда ахборотли кўрсаткич ҳисобланади.

Спортчиларнинг функсионал ҳолати ва техник тайёргарлигини оптимал баҳолаш учун асосий биокимёвий, физиологик ўзгаришларни ифодаловчи комплекс тестлардан фойдаланиш зарур (1.2).

Мусобақа фаолиятини назорат қилиш асосида муаллиф шуни аниқлаганки:

– футболчиларнинг техник-тактик маҳоратини тезкор баҳолаш учун 30 м. ва узоқроққа тўпузатишлар, 30 метр ва узоқроқдан дарвозага зарба йўллаш, 20 метр ва узоқроқдан тўпни отиб бериш, ҳаводан ва ердан узатилган тўп учун курашишда яккама-яккаолишувларни қайд қилишзарур;
– чуқур бахолаш учун Ю.М.Марозов услуби бўйича ўйин усулларининг стенография ёзувидан фойдаланиш лозим.

Шуни таъкидлаш жоизки, бир қатор муаллифлар футболчиларнинг техник тайёргарлигини назорат қилишда ўйинлар давомида педагогик кузатув олиб боришни энг ағоротли услуб деб ҳисоблайдилар.

М.А.Годик махсус баённома карталарда педагогик кузатувларни олиб боришни тавсия этади. Уларда турли хил кўрсаткичлар қийматлари: ўйин пайтида чопиб ўтиладиган масофалар ҳажми ва метражидан тортиб (10 метрдан 100 метргача), то вазият кескинликни ҳисобга олган ҳолда тех-

ник-тактик ҳаракатлар самарадорлиги аниқланганча қайд қилиб борилади.

Адабиётлар:

1. Керимов Ф.А.,Абидов Ш.У., Садыков А.Г. Отсенка психофизиологического состояния атлетов методом биорезонансной спектроскопии //Научно-педагогические школы в сфере физической культуры и спорта. – 2018. – С. 622-626.

2. Усманович А. С. Студй оф тҳе Қуиск-Повер Қуалитй Аффестинг тҳе Течнисал-Тастисал Астионс Перформед бй 16-17-Еар-Олд Фоотбалл Плаерс дуринг тҳе Гаме //Витал Аннех: Интернатионал Жоурнал оф Новел Ресеарч ин Адвансед Ссиенсес. – 2022. – Т.

РЕЗЮМЕ

Ёш футболчилар тайёргарлиги даражасини баҳолаш организм ривожланишининг ёш хусусиятлари, футбол билан мунтазам шуғулланишнинг тайёргарликнинг ҳар хил тамойилларига таъсири ҳамда тайёргарлик босқичини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

РЕЗЮМЕ

Оценка уровня подготовки юных игроков проводится с учетом возрастных особенностей развития организма, влияния регулярных футбольных тренировок на различные принципы тренировки, а также этапа подготовки.

SUMMARY

Assessment of the level of training of young players is carried out taking into account the age-related characteristics of the development of the body, the influence of regular football training on various principles of training, as well as the stage of preparation.

BADMINTON MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MUHIM QOIDA VA TALABLAR

Ismoilova F.I.
SamDU doktoranti

Tayanch so'zlar: mashg'ulot, badminton, jismoniy sifat, tayyorgarlik, xarakteristika, tizim, samaradorlik, texnika.

Ключевые слова: тренировка, бадминтон, физическое качество, подготовка, характеристики, система, эффективность, техника.

Key words: training, badminton, physical quality, preparation, characteristics, system, efficiency, technique.

Dolzarblik. Yoshlar o'rtasida sportning badminton turini ommalashtirish, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida o'quvchilar va talabalar o'rtasida sportning ushbu turi bo'yicha viloyat, Respublika bosqichi turnirlari o'tkazib kelinmoqda. Sport maktablarining murabbiy o'qituvchilari va badminton sport turi bilan shug'ullanayotgan o'quvchilarning soni tobara oshib bormoqda. Ushbu maqolada badminton sport turining tavsifi, Badminton sport turining umumiy xarakteristikasi, Badminton mashg'ulotlarini tashkil etish haqidagi masalalarga doir ma'lumotlar berilgan.

Badminton (Angliyaning Badminton shahri. nomidan)-patli koptok (volan)ni raketka bilan urib o`ynaladigan tennisga o`xshash sport o`yini. O`yin to`rtburchakli maydonchada yakkama-yakka uchrashuvlarda maydon o`lchovi 13,4x5,18 metr va juftli o`yinlarda 13,4x6,1 metr bo'lgan maydonda balandligi 1,55 metr tortilgan to`rda o`tkaziladi. O`yinda raqib urgan koptokchani yani volanni yerga tushirmay unga qaytarish muhimdir. O'yin 21 ochkogacha o'ynaladi. 3 yoki 2 taym o`ynaladi. Ochko 0 va juft bo`lganda koptokcha o`ngdan, toq bo`lganda chapdan uriladi. Juftli o`yinlarda o`ng tomondan boshlanib, har ochkodan keyin o`yinchilar sherigi bilan o`rin almashtiradi. Badminton qadimgi Malayzyada vujudga kelgan, keyinchalik Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqalgan. 19-asrning 70-yillarida Angliyada yaxshi rivojlangan bo`lib, o`yin qoidalari ishlab chiqilgach Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham yoyildi. (IBF) internatsional badminton federatsiyasi yani Xalqaro badminton federatsiyasi 1934yil 5-iyulda tashkil etilgan. Hozirda unga 150 dan ortiq mamlakat a`zo (2023). 1992 yildan Olimpiya o`yinlari dasturiga kiritildi. Ilgari badminton asosan, Xitoy va Hindistonda o'ynalgan. Zamonaviy badminton Angliyada paydo bo'lgan, bu o'yin qadimgi "puni" yoki "peon"

o’ynidan kelib chiqqan. Hindiston koloniyalashtirilgan vaqtda ingliz harbiylari bu o’yinga qiziqib qolishadi vataniga qaytgach o’z uylarida o’ynay boshlaydi. Sport shinavandasi bulgan Lord Bqard Londondan uncha uzoqda bo’lmagan Badminton shahrida badmintonchilar turnirini o’tkazadi. Bu voqea 1873-yilda bo’lib o’tadi. Tarixchilar bu badminton o’yini zamonaviy sport o’yini sifatida paydo bo’lgan yil deb hisoblashadi. O’yin nomi turnir o’tkazilgan shaharcha nomiga qo’yilgan.

Badmintonning umumiy xarakteristikasi. Badminton murakkab koordinatsion asiklik sport turidir; o’yin talablari quyidagilardan iborat.

– harakat tezligi.
– texnik usullar tezligi, maksimal boshlang’ich harakatlar qisqarishi.
– fikrlash tezligi.
– murakkab zarbalar sonining ortishi.

Ishtirokchi musoboqalardagi ishtiroki davomida ko’p energiya sarflanadi va yurak qon tomir sistemasi va nafas sistemasi faol bo’ladi, yurak urishi bir daqiqada 160-180 marta uradi. O’yin davomida kislorodga talab oshadi. Tezkor tempdagi o’yin bir necha talablarni o’z oldiga oladi.

– o’z vaqtida turli ish rejimiga o’tish.
– o’yinning murakkab holatlarida ijobiy sifatlarni qo’llash.

O’yinda tezlik, chaqqonlik, chidamlilik asosiy mezondir. Asr boshida dastlab 250 grammli raketka bilan o’ynashgan, cheti 1 sm qalinlikda bo’lgan, shunday raketka Avstraliyaning Petr shahridagi muzeyda hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Zamonaviy raketka undan uncha farq qilmaydi. Uning og’irligi 85-120 gramm juda yengil va qayishqoq alyumin yoki plastikdan yasaladi.

Tezlik massaga bog’liq yengilroq bo’lsa asta uchadi. Valan 4,7 - 5,6 gramm uni o’yinga yaroqliligi quyidagicha tekshiriladi, pastdan o’ngdan zarba berilganda 4-5 metr balandlikga qarama-qarshi balandlikga uchadi. Sifat yaxshi bo’lsa qarama qarshi chiziqdan 30-70 sm uzoqlikga tushadi. Uning tezligi nafaqat xarakteristikasidan balki zal harorati namligiga ham bog’liq.

O’yin maydoni bir kishilik o’yinda 13,4 – 5,18 metr, juftlik o’yinda esa maydon o’lchami 13,4 – 6,1 metrni tashkil qiladi. Yuzasi tekis va ravon bo’lishi lozim. Chiziqlar qalinligi 4 sm. Hozirgi kunda yopiq inshoatlarda o’yinlar o’tkaziladi. Shift balandligi 9metr maydonlar orasidagi masofa 1,5-2metr bo’ladi. Badminton to’rining uzunligi 6,1metr, eni 76 sm, ustki qismi 7,5 sm.lik oq chegaraga ega bo’lishi kerak.

Badminton raketkasini ushlash usullari. Chap qo’lingiz bilan raketka boshini polga perpendikulyar qilib oling, o’ng qo’l kaftingizni raketka ushlagichiga qo’ying va oling, so’ngra polga raketka dastagini qaratib mo’ljal oling. Badmintonchi raqibini va valanni ko’ra olishi, muvozanatni saqlashi va tezkor harakatlarga tayyor turishin kerak. Oyoqlarni yelka kengligida qo’yib tizzani biroz bukamiz raketka beldan biroz baland tutiladi. Muzanatni saqlash

uchun chap qo'lni kutaring og'irlikni oyoq uchiga tashlab tovvoni biroz kutarish kerak bo'ladi.

Badmintonda zarba turlari. Valanning uchish balandligiga qarab quyidagilar farqlanadi.

– yuqoridan-yelkadan baland
– yonboshdan-beldan yelkagacha
– pastdan-bel pastrog'idan

O'ng tomondagi zarbalar raketka ochiq tomonidan chap tomondagi yopiq tomonidan qaytariladi. Yuqoridan zarbalar-badmintondagi asosiy zarbalar xisoblanadi. Bunda hayolda hamma harakatlarni bajarib ko'ring, harakat holatiga e'tibor bering raketka va valan bir biriga tekkan payti qo'l tekis holatda harakatning aktiv harakati bilan yakunlanadi.

Pastdan zarbalar-o'yinda valanni yuqoridan urishni iloji qolmaganda ishlatiladi. Pastgi zarba himoya usulidir. U ham raketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan amalga oshiriladi. Yonboshdan zarba-valanni uchish tezligi yelka balandligida bo'lganida ishlatiladi. Qattiq yonbosh zarba yassi deyiladi. Bu usulda valan polga parallel ravishta uchadi, bu maydonning turli qismlarida ishlatiladi zarba vaqtida valan yelkadan pastda bo'lmasligi kerak.

Uzatish, birinchi zarba, birinchi zarbaga e'tiborli bo'ling faqat shu usul bilan ochko olish mumkin. Uzatuvchi o'rta va asosiy holatni egallaydi. Valanning boshchasi polga qarab turishi kerak uni otish tavsiya etilmaydi, chunki bunda u tekis tushmaydi. Valan o'yinga raketkaning pastgi zarbasi bilan kiritiladi, zarba vaqtida raketka bosh qismi beldan baland ko'tarilmasligi kerak. Qura tashlash yo'li bilan boshlashi aniqlangan ishtirokchi uzatish uchun o'ng maydonning istalgan qismida turadi. U uzatishning oldingi chizig'idan 1,5metr va maydonning markaziy chizig'idan bir qadam narida turishi qulay bo'ladi. O'yinchi o'z pazitsiyasini eggallaydi valan o'ng tomonda raqib tomonning o'ng tomoniga yo'naltirilishi kerak. Qisqa uzatish-raqib maydonning oldingi burchaklari uzoq va baland uzatish orqa burchaklar valan uzatish texnikasining muhim elementi hisoblanadi. Yakka o'yinda baland va uzoqga uzatish, juft-juft o'yinda esa quyidagicha bo'ladi.

– baland va uzoq uzatish
– qisqa uzatish
– yassi uzatish
– baland hujumli uzatish

Uzatish vaqtida ishtirokchi raketka bilan soxta harakat qilishi va oyog'ini yerdan uzishi taqiqlanadi. Badmintonchilar yakkalik juft-juft va aralash o'yinlarda bellashadilar. Eng ko'p tarqalgan yakka o'yin bunda ikkita sportchilar bellashadilar, ochko olish uchun valanni to'r ustidan yunaltirish raqib qaytara olmaydigan qilib zarba berish lozim. Badminton mashg'uloti asoslari-o'yinni o'rganish, raketkani ushlashdan boshlanadi asosiy diqqat uning to'g'riligi statik holatda emas balki o'yin davomidagi holatga qaratiladi. Bunda jamoa

birdek mashqlarni bajaradi, o'yin texnikasi elementlarini juft holda o'rgatiladi. Masalan ishtirokchilar yuzma-yuz turib zarba berishni o'rganadi, bunda ular bir birini nazorat qilib xato va nuqsonlarni o'rganishadi juft bo'lib ishlaganda mas'ulyat xissi ortib raqobat ham ortadi. Dastlab raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berish o'rganiladi. Maydon yarmidan foydalanib statik holatda zarba berish o'rganiladi, raketka ushlashga e'tibor berilib holatlar muloyim va plastik bo'lishiga etibor qaratiladi. To'g'ri turish va kaft holati juda muhim. Ikkinchi etabda maydon bo'ylab to'g'ri harakatlanish o'rganiladi chapga, o'nga, to'g'riga harakatlanish. Zarbalar berilayotganda chap oyoq orqa tomondan ichki tovoniga tayaniladi faqat tayanish yetmaydi ikki uch va undan ortiq qadam qo'yilishi kerak. Bunda kichik sakrashlar qisqa yugurishlar ham kuzatiladi. Ular ikkala etapni o'zlashtirgach uchinchi etapga o'tiladi. Bunga siljishlardan keyin zarba berish o'rganiladi shug'ullanuvchilar yarim maydonlardan joy egallaydi. Fazalar o'zgargandan keying polda zarbalarni mukammallashtirish uchun bir necha mashqlar davomida ularga quyidagilarni eslatish lozim, taktik elementlar bajarilishida xatolarsiz bo'lmaydi. Harakatlar texnikasi xatosiz bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Harakatlar doimiyga yetishi uchun ko'p harakat qilishi lozim bo'ladi.

Badminton bo'yicha sport tayyorgarlik bosqichlari. Sport bilan shug'ullanish bosqichlarining davomiyligi minimal shaxslar yoshi sport mashg'ulotlari va minimal bosqichga o'tish uchun badminton bo'yicha sport mashg'ulot bosqichlarida guruhdagi shaxslar soni quyidagicha bo'ladi.

(1-jadval)

Mashg'ulotga qabul qilishning minimal yoshlari

T/r	Tayyorgarlik bosqichi	Shug'ullanuv-chilarning minimal soni	Shug'ullanuv-chilarning maksimal soni	Mash-g'ulotga qabul qilishning maksimal yoshi	Taktik, jismoniy, texnik-taktik va sport tayyorgarlik o'quv yilining oxirida
1	Boshlang'ich tayorlov bosqichi	15	30	7	Texnik va jismoniy normativlarni bajarish
2		14	28	8	-
3		14	28	9	-

1	O'quv mashg'ulot bosqichi	8	16	9-10	-
2		8	16	10-11	-
3		8	16	12-13	-
4		8	16	13-14	-
5		8	16	14-15	-
1	Sport takomillashuv bosqichi	2	6	12	-
2		2	6	13	-
3		2	6	14	-

Sport bilan shug'ullanadigan shaxslar tanlovida qatnashish uchun qo'yiladigan talablar tavsiya etiladi. Ishtirokchilarning yoshi va jinsiga rasmiy sport musobaqalari va badminton sport qoidalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar (nizomlar) ga mos kelishi lozim. Sport mashg'ulotlarini o'tkazish rejasini amalga oshirishi, oldindan tanlov o'tkazish, sport bilan shug'ullanadigan kishi tashkilot tomonidan boshqariladi, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari rejasida va sport musobaqalarida va sport tadbirlarida ishtirok etadigan sport tadbirlari uchun sport musobaqalarini o'tkazish kerak bo'ladi.

Xulosa. Badminton mashg'ulotlarini tashkil etishda kuzatish va tahlillar quyidagi xulosalarga kelishga asos bo'ldi. Badmintonning kelib chiqishi va zamonaviy badmintongacha bo'lgan davr uzviy bog'liqdir. Badmintonda mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishda qoida va talablar mukammal o'rganilib chiqishi kerak bo'ladi. Badmintonchilarni guruxga qabul qilishda va seleksiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish eng asosiy vazifalardan sanaladi. Mashg'ulot jarayonlariga iqtidorli sportchilarni izlab topish va yo'naltirish ertangi kelajakningning muhim mezoni bo'lib hizmat qiladi. Yosh badmintonchilarni mashg'ulot jarayonlariga tizimli yillik rejalarni ishlab chiqish natijalarni oshirishga hizmat qiladi. Bunda murabbiylarimizda yetarlicha bilim ko'nikma va malaka shakllangan bo'lishi kerak bo'ladi. Badmintonchilarni asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan mukammal mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish uzoq yillik tayyorgarlik tizimini mukammlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Sport maktablarida badmintonchilarni tayyorlash va ertangi kunga zaxira tayyorlash asosiy vazifa xisoblanadi. Musoboqa jarayonlarida sportchilarimizni natijalarini o'stirish yuqorida atilgan fikrlarni amalga oshirish bilan yuksaltiriladi.

Adabiyotlar:

1. A.Pulatov, O.M.Savatyugin, Sh.Sh.Isroilov. Badminton nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.:2017

2. А.В.Шербаков, Н.И. Шербакова. Игра Бадминтон. Учебно-методическое издания. –М., 2009.

3. В.П. Помиткын. Книга тренера по бадминтону. Теория и практика. ОАО "Первая образцовая типография", "Ульяновский дом печати", 2012. 340с.

4. M.M.Maxammadiyev, K.X.Adilov. Badminton. O’quv uslubiy qo’llanma. Samarqand 2018.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada badmintonning kelib chiqishi va uning umumiy harakteristikasi muhokama etilgan. Badminton bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar tashkil etishda muhim texnik usullar qoida va talablar hamda badmintonchilarni tayyorgarlik tizimlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается происхождение бадминтона и его общая характеристика. Выделены важные технические приемы, правила и требования к организации систематических тренировок по бадминтону и системы подготовки бадминтонистов.

SUMMARY

This article discusses the origin of badminton and its general characteristics. Important technical methods, rules and requirements for organizing systematic training in badminton and training systems for badminton players are highlighted.

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN-QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH

Oblanazarov F.A.
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: murabbiy, ta'lim, mashg'ulot, tiklanish, kombinatsiya, ko'nikma, didaktik, talabchanlik.

Ключевые слова: тренер, воспитание, тренировка, восстановление, комбинация, мастерство, дидактика, требовательность.

Key words: coach, education, training, recovery, association, mastery, didactics, exactingness.

Kirish. Ta'lim va mashg'ulot maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida didaktik qonun-qoidalarga, ya'ni ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi qonun-qoidalarga muvofiq tuziladi.

Ta'lim va mashg'ulotning asosiy qonun-qoidalarga tarbiya beruvchi ta'lim qoidalari, onglilik va faollik qoidalari, ko'rsatmalilik qoidalari, tizimlilik qoidalari, puxtalik qoidalari kiradi. Bu qoidalarning barchasi o'zaro uzviy bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi. Tarbiya beruvchi ta'lim qonun-qoidalar etakchi qonun-qoida hisoblanadi. Murabbiy ta'lim va mashg'ulot jarayonida futbolchilarni zarur maxsus bilimlardan xabardor qilib, kerakli ko'nikma va malakalarni hosil qilibgina qolmay, balki ularda ong va ijobiy xarakter fazilatlari shakllanishiga ham har taraflama yordam beradi.

Murabbiy tarbiyalashning umumiy maqsadlariga amal qilgan holda har bir mashg'ulotda muayyan tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Bunda mashg'ulotni aniq va o'z vaqtida boshlash, murabbiyning shaxsiy namunasi, o'z ishiga muhabbati, yuksak madaniyati, xulqi, talabchanligi, pedagogik nazokati katta ahamiyatga molikdir [2].

Ta'lim va mashg'ulotning tarbiya beruvchi xarakteri murabbiy zimmasiga shogirdlarga o'z kuchiga ishonchini mustaxkamlash, keyinchalik. Sport bobida o'sishi uchun rag'batlantira bilishi yuklaydi. Pedagog bilan vrach nazoratida sport yuklamalarni o'ylab, mulohaza bilan asta-sekin oshirib borish futbolchi mahoratining og'ishmay oshib borishini kafolatlaydi.

Ta’limning onglilik va faollik qonun-qoidalar shogirdning ongli, ijodiy faoliyati bilan pedagogik rahbarlikning eng qulay nisbatini bildiradi.

Mashg‘ulotlarga ongli munosabatda bo‘lmay turib, yuqori sport natijalariga erishib bo‘lmaydi. Shug‘ullanuvchilar bajarayotgan mashqlaridan maqsad va vazifa nima ekanligini tushunishlari zarur. Texnik va taktik usullarni mustaqil bajarib o‘rganish, murabbiy kuzatuvidagi mustaqil mashg‘ulotlar onglilikni o‘stirishning muhim vositalaridir. Bunga futbolchining o‘z xato va kamchiliklarini taxlil qilishni ham ko‘rsatish lozim.

Faollik, ayniqsa, musobaqalarda asqotadi. Futbolchi o‘yin paytida mustaqil harakat qilishi, doimo o‘zgarib turuvchi vaziyatlarda tezda bir qarorga kela olishi, o‘z harakati va qilgan ishiga to‘liq javob berishi lozim. Chunki o‘yin paytida murabbiy yordam bera olmaydi.

Agar futbolchi puxta fikrlashni bilmasa, muayyan vaziyatlarda musobaqa qoidalarini, umumiy taktik rejani buzmagan holda bir qarorga kela olish qobiliyatiga ega bo‘lmasa, u yaxshi o‘ynay olmaydi.

Harakat malakalarini to‘g‘ri shakllantirishda, ularni puxtalashda, mashg‘ulotlarga qiziqishni oshirishda ko‘rsat-malilik qonun-qoidalarining ahamiyati katta. To‘g‘ri tanlangan ko‘rsatma vositasigina murabbiy e’tiborini alohida jalb etmoqchi bo‘lgan vaziyatlarni ravshanroq aks ettirishi mumkin.

Ta’lim va mashg‘ulotda ko‘rsatmalilikka turli usullar bilan erishiladi. Murabbiy usullarni o‘zi ko‘rsatishi yoki bu ishni tajribali futbolchiga topshirishi mumkin. Yuqoriroq maxoratli jamoa o‘yinini futbolchilar bilan birgalashib ko‘rish, mashg‘ulotlarda fotosuratlardan, rasmlardan, sxema, chizma, kinogramma, kinofilmlardan, videoyozuv va shu kabilardan foydalanish mumkin [1].

Ta’lim va mashg‘ulotning hamma bosqichlarida: futbol-chining mahorat darajasidan qat’i nazar, yangi usullarni o‘rganish, tafsilotlarni tushuntirishda, ularni puxtalash va takomillashtirishda ko‘rsatmalik qonun-qoidalari amalga oshiriladi.

Tizimlilik qonun-qoidalari mashg‘ulotlarning o‘zida materiallarni o‘rganishda qat’iy izchillik va muayyan tizimlilikka rioya qilishni ko‘zda tutadi.

Yil bo‘yi tayyorgarlikning har xil turlarini o‘rganish uchun vaqtni taqsimlaganda davrlashtirishni ham hisobga olishi kerak. Mashg‘ulotlarning tez-tez takrorlanish va tartibli tayyorgarlik vazifalari hamda shug‘ullanuvchilar muxtoriga bog‘liq. Masalan, tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotning birinchi bosqichida umumjismoniy, funksional vositalar yetakchi mavqeni egallaydi, ikkinchi bosqichda esa maxsus tayyorgarlik shunday mavqega chiqadi. Ammo bundan mazkur bosqichlarga texnik va taktik tayyorgarlik kiritilmas ekan,

degan ma’no kelib chiqmaydi. Keyingi bosqichlarga nisbatan bunda ularga shunchaki kamroq vaqt ajratiladi, xolos.

Mashg‘ulotlarning bo‘linib qolishi, mashqlarni o‘rganishda izchillikning buzilishi, musobaqalarning haddan tashqari tez-tez o‘tkazilishi, musobaqa va mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan dam olishdagi optimal parametrlardan chekinish ta’lim va mashg‘ulotni qiyinlashtiradi hamda futbolchilarning sportdagi o‘sishini sekinlashtiradi.

Ta’limda tizimlik qonun-qoidalari o‘quv materialini shunday taqsimlashni taqozo qiladiki, bunda keyingi material mantiqan ilgarigisining davomi bo‘lib qoladi. Ta’lim va mashg‘ulot jarayonida bu qoida pedagogik deduksiya qoidasidan kelib chiqib, ya’ni ma’lumdan noma’lumga, egallab olinganidan egallab olinmaganiga, oddiydan murakkabga, asosiydan ikkinchi darajaliliga, umumiydan xususiyga o‘tish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim va mashg‘ulotda ma’lumdan noma’lumga o‘tish qoidasiga rioya qilish bu shug‘ullanuvchilarning oldingi yillarda mashg‘ulot bosqichlarida olgan bilimlariga, tajriba va tasavvurlariga suyangan xolda ish tutib, muayyan izchillikka amal qilishi demakdir. Mana, masalan, to‘pni murakkab uzatishga o‘rgatish zarb bilan tepishni o‘rganib olgandan keyin amalga oshiriladi, chunki to‘pni uzatib berish zarb bilan tepishni yaxshi bilishga asoslanadi.

Yangi texnik usul yoki taktik harakatga o‘rgatishdan oldin shu yangi usul yoki harakat bilan bog‘liq eski tasavvurlarni tiklash, yangi bilan eskini, ma’lum bilan noma’lumni uzviy bog‘lash lozim. Jumladan, hujumchilarning to‘pni u yonidan bu yoniga olib o‘tish taktik kombinatsiyasini qo‘llashga o‘rgatishdan oldin to‘g‘ri ochilishga o‘rgatuvchi bir necha mashq bajarishni topshirish zarur.

Egallab olingandan egallab olinmagan o‘tish qoidasi harakat malakalarini kengaytirishni ko‘zda tutadi. Ma’lumki, futbolda to‘pni kuchli va aniq tepish, erkin to‘xtatish, tez olib yurish, ishonch bilan olib qo‘yish asosiy malaka hisoblanadi.

Shuning uchun ham eng avval shu harakatlar o‘rgatiladi. Ishonchli va xilma-xil malakalarni ko‘paytirish, ular doirasini kengaytirish texnik mahorat cho‘kqilarini egallashga yordam beradi.

Oddiydan murakkabga o‘tish bu eng oddiysidan boshlash demakdir. Shug‘ullanuvchilarni taktik kombinatsiyalarga o‘rgatishdan oldin to‘pni uzatishga o‘rgatiladi; yarim uchib kelayotgan to‘pga zarb berishni o‘rgatishdan avval turgan va uchib ketayotgan to‘pga zarb berishni o‘rgatish, ya’ni shug‘ullanuvchilarni murakkabroq usullarni egallab olishga asta tayyorlab borish kerak. Asosiydan ikkinchi darajaliga o‘tish bu mashg‘ulotning turli yo‘nalishlari, vositalari, shakl va usullari orasidan tayyorgarlikning mazkur bosqichida va

muayyan vaziyatda eng muhimini tanlab olish demakdir. Futbolda umumiydan xususiyga o‘tish qoidasi ham qo‘lla-niladi, bunda o‘rganiladigan usul to‘g‘risida avval shug‘ullanuvchilarga tushunarli bo‘lgan umumiy tasavvur beriladi, keyin uni chuqur o‘rganishga kirishiladi.

Usulni bo‘laklarga bo‘lib o‘rgatishdan oldin uni ko‘rsatish va tushuntirish, undan keyingina usulni to‘liq bajarib ko‘rishlarini topshirish ma’qulroq. Futbolchi turli taktik harakatlarni mashq qilishga kirishguniga qadar jamoada qo‘llashi kerak bo‘lgan taktik tizim to‘g‘risida umumiy ta’savvurga ega bo‘lishi zarur.

Biroq usullarni o‘rgatishda faqat umumiydan shaxsiyga borish kerak ekan, deb o‘ylash to‘g‘ri emas, albatta. Shuningdek, usulni o‘rgatishda shaxsiydan umumiyga o‘tishdan foydalanish mumkingina emas, balki kerak ham. Masalan, futbolchilar bilan muayyan taktik tizimda ikki tomonlama o‘yin o‘tkazish uchun ularni jamoada muayyan joydagi vazifalar bilan oldindan tanishtirib qo‘yish foydalidir. Chunki umumiylik va shaxsiylik o‘zaro yaqin aloqada ham bir-birlarini to‘ldiradilar.

Tushunarlilik qonun-qoidalari ta’lim va mashg‘ulot jarayonini shug‘ullanuvchilarning xususiyatlariga, ularning imkoniyat va tayyorgarlik darajasiga muvofiq tuzishni taqozo etadi.

Nazariy materiallarning mazmuni va hajmi, shuningdek, sport yuklamasi futbolchilarning yosh xususiyatlariga, ularning umumiy va maxsus rivojlanganlik darajasiga, tashqi muxit sharoitiga mos bo‘lishi lozim. Shunday bo‘lganidagina nazariy va amaliy materiallarni o‘zlashtirish qiyin bo‘lmaydi. Ilgarigi tajribaga suyangan holda asta-sekin yuklamani oshirib borish mumkin. Kuch etmaydigan yuklama mashg‘ulotga qiziqishni pasaytiradi hamda futbolchilarning sog‘lig‘iga, mashg‘ulot qilganlik darajasi va oqibatda sport natijalariga yomon ta’sir etadi.

Shu bilan birga, ta’lim va mashg‘ulot jarayonini haddan tashqari engillashtirib yubormaslik kerak. Ta’lim va mashg‘ulotdagi tushunarlilik qonun-qoidalari futbolchini qiyinchiliklarni ham yengillashga, o‘zini noxush sezganda irodaviy zo‘r berishni talab qiladigan mashqlarni bajarishga o‘rgatish zarurligini istisno qilmaydi. Shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlariga qarab nagruzkaning qiyinlik darajasi eng qulay deb topilgan chegarasini belgilab qo‘yish ham kerak albatta

Puxta malakalik qonun-qoidalari bu futbolchining o‘quv-mashg‘ulot jarayonida mashqlarni muntazam ravishda ko‘p marta takrorlashidan iborat bo‘lib, natijada puxta malaka hosil bo‘ladiki, futbolchi buni sport kurashi sharoitida namoyon qila oladi. Egallangan malaka puxta bo‘lishdan tashqari,

doimo harakatda bo‘lishi ham lozim. Bunga egallangan malakani faqat bosqichma-bosqich mustaxkamlab borish, ya’ni mashqlarni murakkablashtirish bilan erishiladi. Yangi, yanada murakkab mashqka, shakllanayotgan malakaning qanchalik puxta egallanganligi va yuklamaga qanchalik moslashilayotganligiga qarab o‘tish lozim.

Futbolchilarning ta’lim va mashg‘ulotda didaktik qonun-qoidalari bilan bir qatorda mashg‘ulot jarayonini boshqarish qonun-qoidalari, ya’ni ob’ektivlik, qulaylik, rag‘batlantirish, ilmiylik, samaradorlik, nazoratning muntazamligi qonun-qoidalaridan ham foydalaniladi. Tayyorgarlikning butun kompleks vazifalarini bilish sport mashg‘ulot tizimi qaysi yo‘nalishda rivojlanib borishini, bunda tayyorgarlik vazifalarining qaysi biri xal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligini oldindan ko‘ra bilish mashg‘ulot jarayonini boshqarishning zarur shartidir.

Zamonaviy sport mashg‘uloti maxsus jarayon sifatida muayyan qonun, qoidalar, ilmiy va uslubiy ko‘rsatmalar asosida yaxlit amalga oshirilmoqda.

Yuksak yutuqlarga erishishga qaratilgan harakat, ixtisosni chuqurlashtirish, sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi birligi, mashg‘ulot jarayonining uzluksizligi, asta-sekinlik va maksimal yuklama tenden-siyasi birligi, yuklama dinamikasining to‘lqinsimonligi, mashg‘ulot jarayonining qonuniyatlari shular jumlasidandir.

Sportga bag‘ishlangan hayotning uzoq yillari mobaynida zo‘r o‘quv-mashq ishlarini olib borish, mehnat va dam olish tartibiga qat’iy rioya qilish, o‘z nazariy bilimlarini oshirib borish, ma’naviy-irodaviy chiniqish va ilmiy-nazariy fikrdan foydalanishga ijodiy yonda-shish yuksak sport natijalariga erishishni rag‘batlantiradi [2].

O‘z oldiga yuksak sport natijalariga erishishni maqsad qilib qo‘ygan futbolchi uchun o‘z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish qonun bo‘lishi kerak. Bunday futbolchi sport yuklamasini qo‘llash va mashg‘ulotni tashkil qilishda chog‘i keladigan eng yuqori ko‘rsatkichlarga tenglashadi, ilg‘or shakl, vosita va uslublardan ijodiy tashabbus ko‘rsatgan holda foydalanadi.

Sportning boshqa turlarida bo‘lganidek, futbolda ham sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi birligiga rioya qilingandagina yuksak sport natijalariga erishish mumkin.

Umumiy tayyorgarlik ko‘rilayotgan mashg‘ulot jarayonida sport ixtisosligining aniq va yorqin xususiyatlari bo‘lmaydi, yuqori natijalar sari yo‘l esa uzoq istiqbol xarakterini kasb etadi. Maxsus tayyorgarlik sport faoliyati jarayonida vaqt hamda intilishlarning mazkur sport turida kamolotga erishish uchun yanada qulayroq sharoit yaratuvchi taqsimlanishi bilan ifodalanadi.

Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligini futbolchiga ta’lim va tarbiya berishda har tomonlamalik qoidasiga qat’iy rioya qilish sifatida tushunish lozim. Shuni ham aytish joizki, bunda murabbiy umumiyda maxsusni va maxsusda umumiyni ko‘ra bilishi kerak. Bu mashg‘ulot vosita va uslublarining shunday o‘zaro ta’sirini ko‘zda tutadiki, bunda ixtisoslashtirilgan jarayon har tomonlama o‘sishga va oqibatda futbol taraqqiyotiga olib keladi. Futbolchilar umumiy va maxsus tayyorgarligining o‘zaro maqbul munosabatlarini izlash – murabbiy, vrach, ilmiy xodim va sportchilarning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari [3].

Futbolchilarning mashg‘uloti – bu musobaqa, mashg‘ulot va dam olishni navbat bilan almashtirib turgan xolda yil bo‘yi uzluksiz olib boriladigan jarayondir. Ko‘pincha futbolchilarning mashg‘ulot va musobaqalari organizm faoliyati qisman tiklanib ulgurmagan bir sharoitda olib boriladi. Bu hol musobaqa, mashg‘ulot va dam olish rejimida ham ko‘zda tutiladi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar mashg‘ulot va musobaqalarni ana shunday sharoitda olib borish mumkinliginigina emas, balki maqsadga muvofiq ekanligini ham ko‘rsatmoqda. Bu xildagi musobaqa rejimiga ko‘nikish va moslashish pirovardida futbolchi organiz-mining ish qobiliyati oshganligida ifodalanadi. Sportchi ikki-uch kun oralatib o‘tkaziladigan musobaqalarda qatnasha olishi mumkin, bu uning kamoloti shartlaridan biri bo‘lib, yil bo‘yi futbol musobaqalari o‘tkazish istiqbolini ochadi.

Ma’lumki, kishi organizmi dinamik tizim bo‘lib, u har xil o‘zgarmas sharoitlarga, bir xil ishga, yuklamalar asta-sekin ortib yoki kamayib borishiga tezda moslashadi. Bir kolipdagi ish vaziyatida futbolchi organizmiga katta yuklamalar o‘rtacha, o‘rtachalari esa juda kuchsiz ta’sir etadi. Kam yuklamali mashg‘ulot mohiyat e’tibori bilan mashiq sifatida ko‘zga tashlanadi. Yuqori malakali futbolchining bir qolipdagi ertalabki badan tarbiya mashqlari, musobaqa oldidan qilgan mashiqlari endilikda fubolchi organiz-mini bo‘lg‘usi ish – musobaqa, mashg‘ulot va boshqalarga to‘la shay holatga keltirishda qo‘zg‘atuvchi rolini o‘ynamay qo‘yadi. Endi yuklamani asta-sekin oshira borib, maksimal darajadagi yuklamani qo‘llash hamda ular orasidagi o‘zaro munosabat masalasiga yondashishga o‘zgartirishlar kiritish zarur bo‘lib qoladi [4].

Shunda vaqti-vaqti bilan stressli yuklamani qo‘llashdek yo‘l topildiki, bu organizmni balanslangan holdan chiqarish imkonini berdi. Keyin o‘rtacha va kamroq yuklamani qo‘llab, organizmni tiklash va to‘la tiklash uchun sharoit yaratish mumkin bo‘ldi. Bularning hammasi dinamik, to‘lqinsimon

xarakterdagi yuklamani asta-sekin oshirib yoki kamaytirib borish bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Futbolchilarning mashg‘ulot yuklamasini asta-sekin va maksimal ko‘paytirish talabini amalga oshirish yuklamaning mashg‘ulotga hamda o‘yinlararo turkumlarga taqsimlanishida o‘z ifodasini topmoqdaki, bunda yuklama to‘lqinsimon shaklda oshib boradi.

Bunda quydagilar ko‘zda tutiladi:

– sport yuklamasini oshirib borishda organizmni keyingi, bir oz ko‘proq yuklamani qabul qilishga tayyorlash;

– musobaqalarga chiqqanda mashg‘ulotning o‘ziga xos bo‘lmagan vositalaridan foydalanish yo‘li bilan organizmning katta imkoniyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratish;

– tiklanish jarayonining yuqori intensivlik holatida, bu jarayonni tezlashtiradigan tiklash mashqi va vositalaridan keng foydalanish yo‘li bilan o‘rganilgan tartibni puxtalash.

– mashg‘ulot jarayonida yuklamani asta-sekin va maksimal oshirib borish talabi qilingan ish va tiklanish birligiga hamda ular orasidagi uzviy aloqaga tayanadi. Bu talablarni amalda qo‘llash ijodiy jarayondir. Mazkur talablar mashg‘ulotning nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham yaxshi tayyorligini, mashg‘ulot uchun normal sharoit bo‘lishini hamda futbolchilarning umumiy va sport tartibiga qat’iy amal qilishlarini nazarda tutadi.

To‘lqinsimon xarakterdagi yuklamalar futbolchilar mashg‘uloti uchun mos bo‘lib, toliqish va tiklanish jarayonining o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda sport yuklamalari bilan dam olish xajmi va shiddatliligini muvofiq tarzda taqsimlash hisobiga futbolchilarga uzoq vaqt yuqori sport formasini saqlash imkonini beradi.

Mashg‘ulot jarayonining asosiy qonuniyatlariga uning davri xarakteri ham kiradi. Haftalik, oylik hamda yillik davrlarda musobaqalarning soni va tig‘izligiga qarab vaqti-vaqti bilan yuklamani kamaytirib turish, mashqlar hajmi va intensivligining o‘zaro ta’siri mashg‘ulot davri va bosqichlariga bog‘liq ekanligi ko‘zda tutiladi. Bular esa mashg‘ulotni rejalashtirish bo‘yicha tavsiyalarda o‘zining amaliy ifodasini topgan.

Musobaqa davriga nisbatan tayyorgarlik davrida mashqlar ko‘proq katta hajmda bajariladi. Ayni paytda mashqlar intensivligi tayyorgarlik davriga nisbatan musobaqa davrida yuqoriroq bo‘ladi.

Shiddatli xarakterdagi haftalik mashg‘ulot va o‘yinlararo sikllar (kichik sikl) mashqlarning hajmi va intensivligi kam, shu jumladan, engilroq mashqlardan

iborat bo‘lgan davrlar bilan almashtirib turiladi. Oylik va yillik davrlari ham muayyan izchillikda navbatlashtirib turiladi.

Sportning taraqqiyoti sport mashg‘uloti jarayoni xususiyatlarini ifodalovchi yangi qonun-qoidalarni keltirib chiqaradi. Ularning asosiylari ixtisoslashtirish, har tomonlamalik, izchillik, takroriylik, individuallik qonun-qoidalar hisoblanadi.

Ixtisoslashtirish qonun-qoidalar futbol mahoratini egallashda etakchi o‘rin tutadi. Futbolda ixtisoslashtirilgan mashg‘ulot, ya’ni to‘p bilan bajariladigan mashqlar eng ko‘p – 80% ni tashkil qiladi, chunki bunda o‘yin tayyorgarligi hal qiluvchi omillardandirki, buning o‘rnini hech qanday mashq bosa olmaydi. Qo‘shimcha mashqlardan (umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va h.k) foydalanilganda, ko‘proq asosiy harakat malakalari bilan ijobiy ta’sir etib, sportchi organizmining a’zo va tizimlarida futbol o‘yini talablariga tatbiq etib bo‘ladigan zarur o‘zgarishlarni vujudga keltiruvchi mashg‘ulot vositalari tanlanadi.

Ixtisoslashtirish yo‘liga o‘tish uchun har tomonlamalik qonun-qoidalarni amalga oshirish lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Bunga esa maxsus tayyorgarlik va maxsus mashqlarni to‘g‘ri va izchil qo‘llash, shuningdek, umumiy va maxsus tayyorgarlikni eng muvofiq tarzda o‘yg‘unlashtirish orqali erishiladi.

Bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazilganda, ixtisoslashtirish qoidasi katta ahamiyatga egadir. Futbol mashg‘ulotlariga bolalarni 7-8 yoshdan jalb qilish mumkin. Futbol bilan shug‘ullanish sog‘lom bo‘lib o‘sishga samarali ta’sir ko‘rsatishi tajribada isbotlangan.

Har tomonlamalik qonun-qoidalar asosida odam orga-nizmida butun a’zo va tizimlarning o‘zaro bog‘liqligiga oid fiziologogik qonuniyatlar, ularning miya yarim sharlari pustlog‘ining yetakchi roli orqali aloqasi yotadi.

Futbolchilarning butun organizmi mashg‘ulot chog‘ida bir butun bo‘lib ishlaydi. Mashg‘ulot didaktik maqsadlardagina uch jihatdan: psixikani, vegetativ va harakat funksiyalarini mashq qildirish jixatidan qarab chiqiladi.

Futbolchilarning har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishi – uning sport ixtisosi asosidir. Har tomonlamalik qonun-qoidalarni nechog‘lik amalga oshirilganligi sportchining jismoniy, taktik, texnik, psixologik va nazariy tayyorgarligida hamda g‘oyaviy-siyosiy jixatdan etukligida o‘z aksini topadi.

Asta-sekinlik qonun-qoidalar mashg‘ulotda yuklamani asta-sekin oshirib va pasaytirib borishni, bajariladigan mashqlarning miqdori va shiddatliligini yoshga qarab oshirish yoki cheklashni, mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkil qilishni ko‘zda tutadi. Tabiatan kishi organizmida sustkashlikka moyillik bor. Har bir

yangi ishga kirishayotganda, buni hisobga olish lozim. Shuning bilan birga yangi ishga organizmning butun tizimi bir xil tezlikda kirishib ketavermaydi. Ayniqsa, markaziy nerv tizimi funksiyasini takomillashtirish nihoyatda ehtiyotkorlik va asta-sekinlik bilan yondashishini talab qiladi. Agar sport faoliyatida organizmning bu xususiyati e'tiborga olinmasa, bu hol noxush hodisalar (zo'riqish, shikastlanish va boshqalar)ga olib keladi.

Futbolchi mashg'ulotda asta-sekinlik qonun-qoidalari mashg'ulotlarda va o'yinlar orasidagi turkum mashg'ulotlarda futbolchining bir yillik va ko'p yillik mashg'ulot rejasida sport yuklamasini oshirib va kamaytirib borish yo'sinida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu qoida turli mashg'ulotlarda mashq bajarishda biridan ikkinchisiga izchillik bilan o'tishda o'z ifodasini topadi.

Asta-sekinlik qonun-qoidalari sport yuklamasini me'yorlash va amalga oshirishda alohida ahamiyatga egadir. Mashg'ulot yuklamasini asta-sekin oshirishni bir me'yordagi, bir tekis jarayon, deb qarash yaramaydi. Futbolchilarning sport mashg'ulotida yuklamani oshirib borish ko'pincha to'lqinsimon, zinapoyasimon xarakterga ega bo'ladi. Kuchni batamom tiklab olish uchun vaqti-vaqti bilan yuklamani pasaytirishga, keyinroq esa yuklamani eng yuqori darajaga ko'tarishga to'g'ri keladi [5].

Asta-sekinlik qonun-qoidalari sport kurashiga shay bo'lib turish, boshqacha qilib aytganda, sport formasi bo'lishi va bu holatni yanada takomillashtirish asosida ko'rilgandir. Futbolchilarning funksional imkoniyatlariga mos bo'lmagan sport yuklamasi esa ularning sport formasida bo'lishigagina emas, balki sog'liqlariga ham zarar keltirishi mumkin.

Takroriylik qonun-qoidalari shartli reflektor asosdagi aloqalarni paydo qilish uchun, organ va tizimlar hamda ular funksiyasini takomillashtirish, o'zgartirish va qayta qurish uchun takroriy ta'sir etish zarurati to'g'risidagi fiziologik talabning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Futbolchi to'g'ri sport harakatini saqlash uchun olgan bilim, egallagan malaka va ko'nikmalarini mustahkamlashi lozim. Bunga erishish uchun o'rganilgan usullarni qayta-qayta takrorlash zarur. Ish va dam olishni ham maqbul tarzda navbatlashni unutmaslik darkor.

U yoki bu texnik usullarni, taktik kombinatsiyalarni takrorlash ilgari o'rganilgan va bir oz unutilayozganlarini qayta mustahkamlab olish uchun kerak. Futbolchi mashg'ulotlarda u yoki bu harakatlarni, usul va kombinatsiyalarni ko'p marta takrorlash bilan ularni chuqurroq anglab oladi hamda o'yin sharoitida ularni bajarishning yangi, ma'qulroq va ishonchliroq variantlarini topadi.

Xulosa. Mashqlarni, sport yuklamasini takrorlash miqdori futbolchining tayyorgarligiga, yoshiga, mashqlarning harakteriga, mashg'ulotning sharti va boshqalarga bog'liq. Bu o'rinda mavjud tajriba, tezkor axborot ma'lumotlari,

pedagog va shifokorning nazorati hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishdan foydalaniladi. Muttasil mashg‘ulot va musobaqa o‘tkazib turish takroriylik qoidasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi qonun-qoidalar sport mashg‘ulotida shug‘ullanuvchi organizmining imkoniyatlari bilan unga qo‘yilayotgan talablar orasidagi muvofiqlikka qat’iy amal qilish zarurligini eslatib turadi.

Buni amalga oshirish uchun mashg‘ulot yuklamasi, tanlangan jismoniy mashqlar, ularning intensivligi va davomiyligi, bajarish uslublari shug‘ullanuvchining yoshiga, uning funksional imkoniyatlari darajasiga, sport tayyorgarligi va salomatligi holatiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Arkadev B.A. Taktika futbolnoy igrы. M., FiS, 1962.
2. Akramov R.A. Otbor i podgotovka yunыx futbolistov. Uchebnoe posobie. Tashkent, «Meditsina», 1989.
3. Sergeev G.M. Texniko-takticheskie deystviya zaщitnikov. V sbornike nauchnыx trudov. Tashkent, 2000.
4. Iseev Sh.T. Futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida futbolchilarning standart vaziyatlaridan samarali foydalanish. «Pedagogik ta’lim». J. № 2, 2003.
5. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. – T., 2012.

РЕЗЮМЕ

Ta’lim va mashg‘ulotning asosiy qonun-qoidalarga tarbiya beruvchi ta’lim qoidalari, onglilik va faollik qoidalari, ko‘rsatmalilik qoidalari, tizimlilik qoidalari, puxtalik qoidalaridan iboratdir.

РЕЗЮМЕ

К основным правилам воспитания и обучения относятся правила воспитания, правила сознания и деятельности, правила обучения, правила систематичности, правила тщательности.

SUMMARY

The basic rules of education and training include the rules of education, the rules of consciousness and activity, the rules of education, the rules of systematicity, and the rules of thoroughness.

15 -16 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ

Махмудов А.
Спорт психологияси ва педагогика кафедраси доценти

Таянч сўзлар: спорт, руҳий, ирода, хотира, техника, футбол, мусобақа фаолияти.
Ключевые слова: спорт, психологический, воля, память, техника, футбол, соревновательная деятельность.
Key words: sport, mental, will, memory, technique, football, competitive activity.

Долзарблиги. Ҳозирги замон футболи ривожланишининг шундай юқори даражасига етдики, жисмоний, техник ва тактик тайёргарлик энг кучли жамоаларда деярли бир хил меъёрда тараққий этмоқда. Шунинг учун футбол ўйинининг натижаси кўпинча психологик омиллар билан белгиланади. Мусобақа (ўйин) қанчалик масъулиятли бўлса, кураш шунча кескин бўлади. Шунга кўра футболчининг психологик ҳолати катта аҳамият касб этади.

Футболда жамоанинг жисмоний, техник ва тактик тайёргарлигига қараб қилинган барча башоратлардан қатъий назар, нисбатан бўш жамоа ғалаба қилган мисолларни кўп келтириш мумкин. Бу одатда, психологик омиллар билан тушунтирилади. Жумладан баъзи бир ҳал қилувчи бахсларда ғалаба қилиш истаги, юқори хиссий кўтаринкилик кўпинча кучли рақибдан устун келишини белгилаб беради. Демак, бошқа барча шароитлар бир хил бўлгани ҳолда спортчилари мақсадга эришиш нияти кучлироқ, психологик функциялари, сифатларининг ривожланиш даражаси юқорироқ, психологик ҳолатини бошқариш қобиляти, иродавий хусусиятларининг юзага чиқиши устунроқ бўлган жамоанинг ғалаба қилиш имкониятлари ҳам кўпроқдир[2].

Ишнинг мақсади. Ёш футболчиларни тайёрлашда психолгик тайёргарликка оид илмий манбаларни умумлаштириш.

Вазифалари.

1. Спортда ижтимоий-иродавий сифатлар ва спортчиларни психологик тайёргарлик хусусиятларини ўрганиш.

2. Футболчиларни фаолиятида психологик тайёргарлик асосларини ўрганишлар бўлди.

Олинган натижалар таҳлили. Кўпгина мутахасисларнинг фикриларига кўра катта мусобақаларда, айнан ижтимоий сифатлар мамлакат учун, юқори мақсадларга эришишга туртки бўлади. Шунда инсонни кўринмас кучлари намоён бўлади ва у оддий шароитларда бажараолмайдиган нарсаларни ҳам бажариши мумкин бўлади.

Шуғулланувчиларни машғулотларида ва бошқа вақтларда, уларга иродавий сифатлар ташки муҳит қийинчиликлари билан амалий курашда ва ўз-ўзи билан бўладиган курашда шаклланишини доим ёдларига солиб туриш керак. Иродавий сифатлар ҳақида айтилган сўзлар, спортчини шахсида қолиши учун, фаол ўз-ўзини тарбиялаш керак бўлади.

Юқорида ижтимоий-иродавий сифатлар ҳақида айтилган сўзлар, спортчиларда психологик тайёргарликни шакллантиришга замин яратади. Жумладан, қийин ва баъзи ҳолларда хавфли машғулотларда, мусобақаларда ва психологик зўриқиш кўп бўлган ўйинларда бу ҳол намоён бўлади.

Одатда, мусобақалашув шароитларига махсус мослашган психологик тайёргарлик, мусобақалардаги иштирок этишларда шакланади деб ҳисобланади. Бу аҳамиятли омил бўлиши аниқ, агарда, мураббий ўзини шогирдини ўй-қарашларини тўғри ва оқилона старт олдида йўлга қўя-билса, айтилгандек шогирдлар билан ижтимоий-иродавий сифатлар ҳақидаги суҳбатлар катта аҳамиятга эга, жумладан юқори мотивация ва мақсадгакучли ҳохиш билан интилиш, уларда психологик тайёргарликни шакллантиради. Лекин ҳар доим ёдда тутиш керакки, мураббийи кўрсатмалари спортчини ўзини психологик тайёргарлиги ва ўй-қарашлари бўлмаганда бефойдадир[2,3,6].

Психологик тайёргарлик умумий ва махсус кўринишга эга. Бу дегани, ҳар бир аъло даражадаги умумий психологик тайёргарликка эга бўлган спортчи, барча психологик қийинчиликларни самаралироқ егиб ўтади. Бу эса махсус тайёргарликка ҳам ижобий таъсир этади. Лекин асосийси бу-махсус психологик тайёргарликдир. Унда ҳал қилувчи ахамиятни шундайлар ташкил қилади: майдондаги курашга тайёрлаш, тактик харакатлар орқали психологик вазифаларни ҳал қилишни ўрганиш, психик ҳужумларни ривожлантиришда ва ўйин машқларини машғулотларда бажариш жараёнида психик кайфият даражасини ўзгартириш ҳоллари тушунилади.

Табиийки, спортчи бундай машғулотлар жараёнида аввал ўзлаштирган иродавий сифатларни, махсус вазифаларни ечишдаги иродавий сифатларни тўлиқ ўзлаштиради.

Бу ерда, бир вақтни ўзида фукционал имкониятлар ва ҳаракат сифатларини яхшиланишини ҳам инобатга олиш керак.

“Майдондаги кураш” шароитларига мослаштириш.

Йил мобайнида тайёргарликда оптимал шароитларга мос тарзда ва вақти-вақти билан қийин ва ўрта қийин шароитлардаги тайёргарликни олиб бориш керак. Бу билан бирга “майдон кураши” шароитлари моделлаштирилиб борилади.

Албатта бу ерда бир қатор шароитларда олдиндан маълум бўлиши мумкин.

Масалан, старт пистолети овози, югуриб ўтиш масофаси ва бошқалар. Спортчилар бундай шароитларга одатда тез кўникишади.

Лекин асосий мусобақалар яқинлашиши билан барча машғулотлар жараёни мусобақа ҳолатларини таъминловчи шароитларда олиб борилиши керак: кунлик ва соат бўйича дастурлар, денгиз сатҳидан баландликда жойлашиши, об-хаво шароитлари, бассейн, стадион, манемс хусусиятлар, ўйин майдонлари қопламаси ва ҳатто уларни ранги, асбоб-анжомлар ва кўпгина бошқа омилар. Булардан ташқари мусобақани барча ташкил қилувчилари моделлаштирилади, разминкадан бошлаб ва нормативларни бажаришгача.

Ҳар бир спорт турида ўзини хусусиятлари мавжуд ва уларга спортчилар олдиндан тайёргарлик кўришлари ва кўникишлари керак.

Аҳамиятли томонлардан бири бу бўлажак рақибни олдиндан ўрганишдир. қанчалик рақиб ҳақида кўп маълумотга эга бўлинса, шунчалик шу рақибга нисбатан кураш олиб бориш егилроқ кечади.

Юқори малакали спортчиларни тайёрлашдаги амалий билимлар шуни кўрсатадики, мусобақа шароитларини моделловчи машғулотлар-бу энг асосий аҳамиятли омилардан ва умахсус психологик тайёргарликни кескин ошишига сабаблидир[4,5,6].

Бу сифат барча спортчиларга керакли бўлган ва уни шуғулланишни биринчи қадамлариданоқ, шакллантириш керак бўлган сифатдир. Табиийки, уни асоси бўлиб. иродавий сифатлар ҳисобланади. Мусобақа шароитида психик барқарорликни шакллатиришни баъзи кўринишлари.

Мусобақа руҳий тайёрланиш – физиологик ва педагогик муаммо демак. У шунинг учун ҳам руҳий деб аталадики, бунда сўз спорт машғулоти жараёнида техник-тактик ва жисмоний тайёргарликнинг бирлиги асосида ҳар бир алоҳида аниқ мусобақада чиқишга футболчининг руҳий тайёргарлигини яратиш устида боради. Руҳий тайёргарлик руҳий ҳолатлар сирасига кириб, уларни ўрганиш руҳиятшуносликнинг вазифасидир.

Футболчиларни ўқитиш ва тарбиялаш жараёни мусобақага руҳий тайёргарликнинг руҳий жиҳати. Бу масалаларни ўрганиш спорт машғулотлари назарияси ва усулияти соҳасига киради. Шундай қилиб, муаммонинг ечими

руҳшунослар ва педагог-мураббийларнинг биргаликдаги фаолиятларини талаб қилади (бунда руҳшунослар спорт машғулотлари масалалари билан шуғулланадиган бўлиши керак) [8,9].

Рухий тайёргарликнинг умумий мақсади-спортчига спорт камолоти, рухий барқарорлик ва масъулиятли мусобақаларда қатнашишга тайёргарликнинг юқори даражасига эришиш учун зарур бўлган рухий сифатларни ривожлантиришдан иборат.

Футболчининг руҳий барқарорлигини тарбиялаш қийин шароитда ўз ҳиссий ҳолати, меҳнат қобилияти ҳамда ҳаракат фаолиятлари самарадорлиги даражасини сақлаб қолиш ва ҳатто ривожлантириш қобилятининг шаклланишидан юзага келади.

Аниқ мусобақаларга руҳан тайёрланишнинг энг юқори даражасини назарда тутувчи руҳий тайёргарлик сенсон ва сенсомотор сифатлар, диққат, тактик, тафаккур, хотира ҳамда футболчининг ҳаракат фаолиятларини ўз хулқи ва хисларини ихтиёрий равишда бошқариш учун муҳим бўлган бошқа сифатларнинг ривожланиши юқори бўлишини талаб этади.

Футболчининг руҳий тайёргарлиги қуйидагилардан иборат:

1. Техник-тактик маҳоратнинг ривожланиши учун муҳим бўлган руҳий жараёнлар (идрок, диққат, хотира, тафаккур) такомиллашувига ёрдам бериш;

2. Айтиб ўтилган руҳий жараёнларнинг энг мақбул, бир текис юзага чиқишга, меҳнат фаолиятининг ва машғулот ҳамда мусобақаларнинг мураккаб шароитида ҳаракат фаолияти самарадорлигини ошириш ва сақлаб қолинишига таъсир кўрсатувчи футболчи шахсий руҳий хусусиятларини шакллантириш;

3. Машғулот ва мусобақалар жараёнида энг мақбул руҳий ҳолатларни яратиш;

4. Фаолиятнинг одатдан ташқари, кескин шароитларида ўз руҳий холатларини бошқариш қобилиятини ривожлантириш;

5. Бўлиб ўтадиган мусобақалар ҳақида олдиндан билиш қобилияти юзага келишига шароит яратиш;

6. Жамоаларда ижобий “руҳий иқлим” яратиш.

Ўйин ҳаракатларининг мазмуни ўйинчининг жамоада эгалланган ўрни, ўйин вазифалари билан белгиланади. Демак, дарвозабоннинг ҳаракатлари, унинг вазифаларидаги ўзига хослик туфайли майдон ўйинчилари фаолиятидан тубдан фарқланади.

Футболчи реакциясининг хусусиятлари.

Футбол ҳар бир футболчидан реакция тезлигининг юқори даражасини талаб қилади. Футболда оддий реакциялар йўқ, мураккабларининг ўзига хос хусусияти, шундаки, футболчи "жавоб" бериш лозим бўлган қўзғатувчилар катта маконда, фақатгина унинг олдида эмас, ўнг ёки чап томонидан ҳам, кўпинча орқасида ҳам жойлашган бўлади. Футболчининг реакция тезлиги доимий катталик эмас. Маълум даражада у хиссий ҳолат билан (старт олди, лоқайдлик) алоқадордир.

Кўриш идроки. Имкон борича кўп ўйинчиларни, уларнинг ҳолатлари ва майдондаги ҳаракатларини, тўпнинг тўхтовсиз ҳаракатларини кўра олиш, мураккаб вазитларда қандай амал қилишни билиш футболчиларнинг энг муҳим сифатлари ҳисобланади. Улар аввало кўриш идрокининг муайян қобилятлари ривожланиши билан боғлиқдир.

Кўриш майдони хажми. Ўйин фаолияти футболчининг кўриш майдони кенг бўлишини талаб қилади. Бундай қобилятнинг паст ривожланганлиги ўйинчи тактик ҳаракатларини анча бирлаштириб қўяди.

Бир қатор муаллифлар томонидан ўтказилган тадқиқотлар кўрсатишича, мунтазам равишда ўтказилган машғулотлар натижасида футболчиларда кўриш майдони чегаралари анча кенгайиб, катта одамнинг, шунигдек, бир қанча бошқа спорт турлари вакилларининг кўриш майдони ўртача кўрсаткичларига нисбатан анча юқори бўлиб қолар экан.

Чуқур кўриш. Футболчилар маҳорати кўпинча кўз билан чамалаш аниқлигига (чуқур кўриш) боғлиқ бўлади.

У ёки бу техник приёмнинг тўғри ва ўз вақтида бажарилиши ҳаракатланаётган ўйинчилар, тўп орасидаги масофани тўғри баҳолаш қобилятининг юқори даражада ривожланганлиги билан ўзвий алоқада бўлади. Масофанинг ўз вақтида ва аниқ белгиланиши ўйинчининг тўпга тўғри чиқишини таъминлайди: жамоадаги шериккача ёки бўлган масофани тўғри чамалаш эса тўпнинг учиш йўли аниқлигини, йўналишини ва зарба кучини белгилайди.

Тадқиқотлар гувоҳлик беришича, футбол чамалаш қобилиятини ривожлантиради. Масалан, футболчининг чуқар кўриги аниқлиги гимнастикачи, сузувчи. Курашчиникидан 1,5-2.5 марта яхшироқ. Шу ҳам аниқланганки, жамоада ҳар хил вазифаларни бажарадиган футболчиларда ҳам кўз билан чамалаш аниқлиги турлича.

Масалан, ҳужумчилар ва ўрта чизиқ ўйинчиларида чуқур кўриш аниқлиги ҳимоячиларникига қараганда яхши тараққий этган. Чуқар кўриш аниқлиги унинг ҳажми каби шуғулланганлик ҳолатига тўғридан-тўғри боғлиқ.

Масалан, спорт формасидан бўлган кишининг кўз билан чамалаш аниқлиги шуғулланмаган кишиларникига нисбатан ўртача 35-40 % юқори бўлади.

Ихтисослашган идрок. Футболчининг юксак спорт маҳорати белгиларидан бири тўпга мукаммал эгалик қилиш, яъни унда "тўп ҳисси"нинг мавжудлигидир. Унинг асосида тўп билан ишлаш пайтида турли анализаторларга таъсир қилувчи қўзғатувчиларни жуда нозик ва аниқ фарқлаш ётади.

Бундай мураккаб ихтисослашган идрокда асосий ролни мушак-ҳаракат ва кўриш сезгилари ўйнайди, улар туфайли футболчи тўпнинг хусусиятларини, унинг оғирлиги, таранглигини, ўзининг тўпга берган зарбаси кучини яққол хис этади, бу билан ўз ҳаракатларини мувофиқлаштиради. Унинг ҳаракатлари тўп билан муомалада энг катта аниқликни таъминлайди.

"Тўп ҳисси" узоқ ва тартибли машғулотлар жараёнида шаклланиб, футболчи учун унинг техник маҳорати ҳамда спорт формаси ҳолатининг ишончли кўрсаткичи бўлиб ҳисобланади.

"Тўп ҳисси"дан ташқари футболда "вақт ҳисси", "маконҳисси" сингари бошқа ихтисослашган идрок хиллари ҳам бор.

Ўқув-машқ ишлари жараёнида фақатгина юқори малакали спортчини (унинг жисмоний, техник ва тактик сифат ва кўникмалари нуқтаи назаридан) тайёрлаш эмас, ҳозирги замон спортчиси шахсини шакллантиришга, унинг феъл-атворини ривожлантиришга ҳар томонлама қизиқишлари, спортга тўғри муносабати ва муҳаббатини тарбиялашга ва ҳ.к. ижобий таъсир кўрсатиш жуда муҳим. Чунки бу сифатлар спорт фаолиятида муваффақият қозонишнинг бош омилларидан саналади.

Шахсни шакллантиришнинг энг муҳим омили ўз-ўзини тарбиялаш бўлиб, уни ташкил этиш мураббий томонидан бошқарилади.

Футболчи шахсининг маънавий жиҳатлари ва сифатлари шаклланишининг хусусиятлари ҳамда уларнинг юзага чиқиши футболнинг жамоавий хусусияти билан мустаҳкам алоқадордир. "Фақт жамоада шахс унга ўзидаги қобилият куртакларини ҳар томонлама ривожлантириш имконини берувчи воситаларга эга бўлади".

Жамоанинг таъсири беқиёсдир. У жамоа таркибига, ундаги анаъаналар ўзаро муносабат ва алоқаларга боғлиқ. Одатда жамоа спортчи шахсининг ижобий хусусиятлари шаклланишига самарали таъсир кўрсатади.

Афсуски, тарбиявий ишга мураббий томонидан аҳамият кам ажратилган жамоаларда кўпинча яхшигина ўйин кўрсатаоладиган, лекин маънавий жиҳатдан беқарор футболчилар пайдо бўлади. Улар баъзан жамоага жуда ёмон таъсир ўтказади, носоғлом вазиятни вужудга келтиради. Шуни доимо ёдда тутиш керакки, футбол жамоасининг маънавий ҳолати спортчиларнинг

ҳам ўйиндаги, ҳам шахсий ўзаро алоқаларига тўғридан-тўғри боғлиқдир. Спортчиларнинг жамоатчилик, ўртоқликка интилиши, бирдамлиги жамоанинг муваффақиятли чиқишлари учун зарур шарт ҳисобланади. Шунинг учун футболда шахслараро муносабатлар, жамоанинг ташкилий масалалари алоҳида ўринга эга бўлиши лозим.

Техник приёмларни (узатишлар, зарбалар) бажаришда катта роль ўйнайдиган оёқ мушаклари зўриқишлари аниқ идрок қилинишининг тадқиқ этилиши натижасида кўникадики, аниқлик шуғулланганлик ҳолатига қараб анчагина ўзгаради. Бунда ҳужумчилар ва ўрта чизиқ ўйинчиларида даражаланиш аниқлиги ҳимоячиларникидан 1,5-2 марта юқорироқдир.

Демак, мушак-ҳаракат сезгисини ривожлантиришга, айниқса, ҳимояда ўйнайдиган спортчилар катта аҳамият беришлари керак. Бунинг учун мушак зўриқишларини даражалашнинг ривожланишига ёрдам берадиган турли машқлардан иложи борича кўпроқ фойдаланиш зарур.

Футбол ўйини ҳар бир спортчидан реакция тезлигининг олий даражасини талаб қилади. Футболчининг бутун фаолияти вақт танқис пайтда жавоб реакцияларини бажаришга тайёрлик билан алоқадор. Футболчиларнинг барча ҳаракатлари танлашнинг мураккаб реакциялари механизми бўйича ўтади ва идрокнинг ҳам, жавоб ҳаракатининг ҳам катта тезлиги билан ҳам характерланади. Спорт формасида бўлган спортчиларда фақат реакция вақти қисқариб қолмай, яна ҳам муҳими бу реакциялар барқарорлашади – ўйин ишончлилиги юқори даражага етади[9].

Машғулотлар жараёнида вестибуляр барқарорликни ривожлантиришга алоҳида вақт ажратиш мувозантини сақлашга доир мураккаб машқлардан –акробатик ва гимнастик ҳаракатлардан батутда сакраш, айланма харакатлар, тезланишлар. Югуриш йўналишини тез ўзгартириш. Кескин тўхташ, сувга сакраш, сузиш, кураш элементлари ва ҳ.к.дан кўп фойдаланиш керак, чунки улар шуғулланувчилардан катта фаоллик талаб қилади. Аммо у ёки бу техник приёмни бажариш билан боғлиқ бўлган машқлар айниқса кучли таъсир кўрсатади (масалан ўмбалоқ ошиш ёки айланма ҳаракатдан сўнг зарба бериш).

Кўз билан чамалаш, “масофа ҳисси”ни қандай қилиб мумкин. Энг муҳим талаб –машғулотларда тўп узатишлар, зарба бериш вақтида иложи борича масофа ўзгартиришларни кўп қўллаш, спортчини масофанинг арзимас ўзгаришларини ҳам диққат билан кузатиб боришга ўргатиш лозим. Чуқар кўриш қобилятини волейбол, баскетбол, теннис ва бошқа спорт турлари ўстиради.

Кўз чамасини ривожлантиришу чун тўпни олиб юриш ва унга зарба бериш билан боғлиқ бўлган, ҳам тўпни, ҳам шерикларни назорат қилиб бажариладиган якка ва гуруҳли машқлардан фойдаланилади. Кўриш майдони ҳажми, чамалаш аниқлигини ривожлантириш учун машқлар жуда кўп.

Диққатни ривожлантириш.

Аввало киши ўзини ҳар қандай ишда ва ҳар қандай шароитда диққатли бўлишга ўргатиш керак. Жисмоний тайёргарлик етишмаслиги тез толиқишга олиб келади, толиқишда эса диққат тез пасайиб кетади. Шунинг учун футболчилар УЖТга эътибор беришлари шарт.

Диққат ҳажми энг турли-туман усуллар билан масалан, ўқув машғулотлари учун махсус шарт-шароитлар яратиш йўли билан ривожлантирилади. Бу шарт-шароитларни хал этиш учун футболчи бир неча динамик ва статистик объектларни (8-9 дан ортиқ эмас) идрок этиши лозим.

Диққатни тақсимлаш, уни объектдан бошқасига ўтказишни жой алмаштиришлари бўлган машқларни киритиш зарур; уларда диққат бир ҳаракатдан бошқасига тез-тез ўтиб туради, муҳим объектлар ва ҳолатлар иккинчи даражалилар ҳисобига жратиб олинади.

Футболчиларда тактик маҳоратни юксалтириш учун қуйидаги қобилиятларни ривожлантириш керак: зийраклик-беллашув жараёнида мусобақа курашининг муҳим ҳолатларини тез ва тўғри илғаб олиш, ўйин вазиятида тез ва тўғри ориентирланиш; зеҳнлилик-мураккаб вазиятларни тезв а тўғри бахолай олиш ҳамда уларнинг оқибатларини ҳисобга ола билиш қобилияти; ташаббускорлик-самарали тактик приёмларни тез ва мустақил равишда қўллай билиш; олдиндан кўра олиш ўзи ва шерикларининг ҳаракатлари натижаларини олдиндан била олиш.

Спорт руҳшунослигида қуйидаги мақсадларга, қўлланиладиган махсус приёмлар ишлаб чиқилган:

А) жисмоний толиқишни йўқотиш ёки камайтириш ҳамда спорт ишчанлигини тиклаш учун;

Б) асаблар толиқишини йўқотиш ёки камайтириш ҳамда машғулотлар чоғида ҳиссий зўриқиш билан боғлиқ толиқишни йўқ қилиш;

В) мусобақалар олдидан ёки ўйин пайтидаги номақбул ҳиссий ҳолатларни йўқ қилиш ёки камайтириш, ҳаддан ортиқ ҳиссий таъсирчанликда ўзини босиш;

Г) уйқусизлик билан курашиш учун.

Мураббийлар томонидан фаолият олиб боришда қуйида келтириб ўтилган технологиядан фойдаланиш катта самара беради. Бу “Рақобатлашиш

технологияси” бўлиб буни ўқув-тренировка жараёнига тадбиқ қилиш психолгик ёндашув асосларини белгилаб беради[11].

1-жадвал

Ёш футболчиларни машғулот ва мусобақадаги фаоллигини оширишга қаратилган “Рақобатлашиш технологияси” нинг мазмуни

Машғулотда фаол иштирок этиб мусобақада яхши натижа кўрсатиш	**Педагогик технологиянинг мақсади**
“Рақобатлашиш технологияси” нинг мазмуни	
Машғулотнинг қисмлари	**Рейтинг баллар**
Машғулотнинг тайёрлов қисми учун максимал 3 балл	
Машғулотга ўз вақтида келиб, сафда туриш қоидасига риоя қилиш	1 балл
Юриш, югуриш машқлари ҳамда тренер томонидан берилган буйруқларни сўзсиз бажариш	1 балл
Умумий ривожлантирувчи машқлар (УРМ) ва махсус жисмоний тайёргарлик машқлар (МЖТ) машғулотларига жиддий ёндашиш ва машқларни аниқ бажариш	1 балл
Машғулотнинг асосий қисми учун максимал 6 балл	
Техник-тактик ҳаракатлар (ТТХ) ни бехато бажарса	6 балл
2 маротаба хато қилса	3 балл
Хатолар 2 тадан кўп бўлганда	2 -1 балл
Машғулотнинг якуний қисми учун максимал 1 балл	
Машғулот якунида ўрта тезликда югуришдан кейин юришга ўтиш, қайта тикланиш машқлари	1 балл

Хулосалар. Мазкур маълумотларни ўрганиш ва таҳлил қилиш футболчиларнинг руҳий тайёргарлик ҳолатини шакллантириш учун асосий аҳамиятга қуйидагилар эга бўлади;

а)интилувчанлик ва ғалаба қозониш истагини кучайтириш;

б)ўйинчиларнинг ўз кучига ва жамоа кучига ишончини мустахкамлаш;

в)ҳаракатлар мақсади, вазифалари ва дастурларини аниқлаб олиш;

г)асаблар қўзишининг олдини олиш;

д)салбий ҳиссиётларни енгиб ўтиш.

Мазкур омиллар ўқув машғулот жараёни ва мусобақа фаолиятидаги боғлиқликни белгилаб беради. Жумладан хотира, идрок,тафаккур ва бир

қанча омиллар ёш футболчиларни назарий билимлар асосида тактик кўрсатмаларни тўғри англашларига замин яратиб, мусобақа фаолиятидаги ўйинларда мазкур кўникмаларни аниқ,тўғри ва оқилона қўллашлари учун замин яратади.

Адабиётлар:

1. Бузник, А.И. Ролевые взаимоотношения в юношеской сборной команде по футболу /А.И. Бузник // Физ. воспитание студ. творч. спец. Х., 2002. -№2.-С. 12-16.

2. Гогунов, Е. Н. Психология физического воспитания и спорта. Учебное пособие / Е. Н.Гогунов, Б. И.Мартьянов. М., ФИС, 2004. - 263 с.

3. Загайнов, Р.М. Исследование психических состояний, возникающих в связи со значимой деятельностью в спорте: Автореф. дис. канд. психол. наук / Р.М. Загайнов Л., 1982. - 21 с.

4. Ильина, Н.Л. Динамика мотивации на протяжении спортивной карьеры: Ав-тореф. дисс. . канд. психол. наук / Н.Л. Ильина; СПб ГАФК им. П.Ф. Лесгаф-та.-СПб., 1998.-21 с.

5. Наконечная, Л.Е. Сравнительная оценка личностных и психомоторных характеристик исходя из амплуа игроков в мини-футболе и футболе (на примере женских команд) / Л.Е. Наконечная // Традиции и инновации в системе подготовки спортсменов и спортивных кадров: материалы II Всероссийской отраслевой научной интернет-конференции преподавателей спортивных вузов в режиме on-line. - М.: ФГБОУ ВПО «РГУФКСМиТ», 2014. - С. 50 - 55.

6. Нуримов Р.И.Футбол.Дарслик.Тошкент. 2005й.334-336 –б.

7. Родионов, А.В. Показатели психической работоспособности в длительном турнире / А.В. Родионов // Материалы междунар. научн. конференции «Психологическая надежность спортсменов высокого класса и методы ее совершенствования». - М., 1977. - Т. 1. - С. 58 - 59.

8. Сопов, В.Ф. Психические состояния в спортивной деятельности / В.Ф. Сопов, А.В. Родионов; под ред. А.В. Родионова // Психология физической культуры и спорта. - М.: Академия, 2010. - С. 317 - 335.

9. Яковлев, Б.П. Взаимосвязь мотивации и эмоций в физкультурно-спортивной деятельности / Б.П. Яковлев, Г.Д. Бабушкин, Е.Г. Бабушкин, Н.Р. Усаева // Теория и практика физической культуры. - 2013. - № 2. - С. 87 - 89.

10. Williams, J.M. Applied sport psychology, personal growth to peak performance / J.M. Williams. - Mayfield: Mountain View, 1993. - 115 p.

11. Khasanov O.Kh., GapparovZ.Formation of training motive at young football players not tradition the method. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 10, 2019 ISSN 2056-5852. P.4-18.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада 15-16 ёшли футболчиларнинг ўқув машғулотлари мобайнида психологик тайёргарликнинг аҳамияти мусобақа фаолиятида руҳий томондан ёндашувнинг самарадорлиги бўйича маълумотлар акс эттирилган. Мазкур таҳлилар орқали мураббийлар жамоа аъзоларининг ҳаракатларини самарадорлигини оширишда психологик омилларни инобатга олишлари ва бу орқали ҳаракатлар самарадорлигига самарали таъсир кўрсатиш бўйича маълумотлар оладилар.

РЕЗЮМЕ

В данной статье отражена информация об эффективности психологической подготовки футболистов в возрасте 15-16 лет во время учебно-тренировочных занятий, а также психологическом аспекте соревновательной деятельности. С помощью этих исследований тренеры получают информацию о том, как учитывать психологические факторы для повышения эффективности действий членов команды и, таким образом, продуктивно влиять на результативность действий.

SUMMARY

This article is focused on the importance of psychological preparation during the training sessions of 15-16-year-old football players and the effectiveness of the spiritual approach to competition activities are reflected. Through these studies, coaches will receive information on how to take psychological factors into account when improving the effectiveness of team members' actions and thereby effectively influence the effectiveness of actions.

13-14 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ КООРДИНАЦИОН ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Махмудов А.М.
Спорт психологияси ва педагогика кафедраси доценти

Таянч сўзлар: тактик маҳорат, характер, юклама, воситалар мажмуаси, машқни такрорлаш, баҳолаш мезони, иш қобилияти.

Ключевые слова: тактическое мастерство, характер, нагрузка, набор инструментов, повторение упражнений, критерий оценки, работоспособность.

Key words: tactical skill, character, load, set of tools, repetition of exercises, evaluation criterion, performance.

Тадқиқотнинг долзарблиги. Жаҳонда футбол спорт тури жадал сураътларда ривожланиб деярли барча давлатларда ушбу спортни ривожланиши учун шароитлар яратиш муҳим омил сифатида бўлиб қолмоқда. Зеро футболни ривожлантириш мамлакатни дунёга танитишда муҳим рол ўйнайди. Дунё миқёсида ёш футболчиларнинг ҳаракат самарадорлигини ўрганиш ва таҳлил қилиш бўйича кўплаб тажрибалар тўпланган бўлиб, жисмоний тайёргарлигини ошириш ва бу орқали мусобақа фаолиятини натижаларини яхшилаш муаммоси долзарб муаммо саналмоқда. Юртимизда футбол машғулотларини сифатини ошириш, ўқув-машғулот жараёнига замонавий воситаларни тадбиқ этишга оид қатор чора тадбирлар ишлаб чиқилмоқда Жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида болалар ва ўсмирларнинг футбол билан шуғулланишга бўлган қизиқишини ошириш, ҳаваскор футболни оммавийлаштириш, маҳалла ва ташкилотларда футбол бўйича мусобақаларни мунтазам равишда ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилган [1].

Тадқиқотнинг мақсади 13-14 ёшли футболчиларнинг координацион қобилиятларини юкламаларни меъёрлаш орқали ривожалантириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси. “Координацион қобилиятлар” тушунчаси фанга кейинги 30-40 йиллар давомида чаққонлик ҳаракатланиш сифати тасаввурларни аниқлаштириш учун кириб келди. То шу

кунгача махсус адабиётларда чаққонлик иккита асосий қобилиятлардан: биринчидан, янги ҳаракатланиш амалларини тезкорлик билан эгаллаш қобилияти (тез ўрганиш қобилияти), иккинчидан, вазият кутилмаганда ўзгариб қолиш шароитларида ҳаракатланиш фаолиятини тезда координацияланган ҳолда қайта қуриш қобилиятидан иборат эканлигини ўқиш мумкин. Охирги айтилган қобилиятни баъзида нисбатан стандарт ва вариатив (эҳтимолли) ва кутилмаганда, тез ўзгарувчи вазиятларда намоён бўладиган «моторли адаптация» қобилияти сифатида қарайдилар. Чаққонликнинг бошқа таърифлари ҳам мавжудлигини таъкидлаб ўтамиз. Бу мавзуга оид таҳлилларни бир қатор илмий ишлардан ўрганиш мумкин (2,3)

Шу маънода махсус координацион қобилиятлар деганда «инсон ўзининг отимал бошқарилишга ҳамда келиб чиқиши ва ҳаракатланиш амалларининг маъноси бўйича шунга ўхшаш регуляцияга тайёрлиги имкониятларини аниқлайдиган ҳолати» ёки ўзгарувчан шароитда юзага келадиган қаршиликларни тўғри, тез, оқилона ҳал этиш тушунилади. Шунга кўра назарий ва илмий тадқиқотлар қуйидаги координацион қобилиятлар турларини ажратишга имкон беради: «Махсус», «ўзига хос» ва «умумий» (4).

А.А.Кузнецов фикрича, координацион қобилиятларни ривожлантириш футболчиларда тезкорлик ва ҳаракат амалларини мувофиқлашда ва юксак маҳоратни таъминлашда зарур жиҳат саналади. Муаллиф ҳар бир машғулотда 15-20 дақиқа координацион қобилиятларга йўналтирилган воситаларни машғулотнинг тайёрлов ва асосий қисмида қўллашни тавсия этади. Бунда акробатик машқларни асосий восита сифатида эътироф этади .

Тадқиқот натижалари координацион қобилиятларни баҳолашнинг ҳамма мезонлари мураккаб ҳисобланишини ва кўп маъноли эканлигини кўрсатди. Улар ихтисослашган ва ҳар хил спорт турларида, шу жумладан, футболда ҳамбир-бирлари билан турли бирикмаларда намоён бўлади (7).

Координацион қобилиятларни баҳолашда юқорида зикр этилган мезонлар айрим ҳолатларда очиқ (абсолют), бошқа вазиятларда эса-латент ёки координацион қобилиятлар кўрсаткичларини характерлашини назарда тутиш керак. Абсолют кўрсаткичларда мазкур индивиднинг тезлиги, кучи, тезкорлик-кучи имкониятларини инобатга олмаган ҳолда координацион қобилиятларни ривожланиши даражаси ифодаланади. Нисбий ёки парциал кўрсаткичлар ушбу имкониятларни инобатга олган ҳолда координацион қобилиятларни намоён бўлиши тўғрисида хулоса чиқариш имконини беради (5,6,7).

Ушбу қобилиятнинг ривожлантиришда кўплаб ишлар олиб борилган бўлиб, тадқиқотчиларнинг таъкидлашича координацион қобилиятларни

баҳолашнинг аниқ бир мезони йўқ, бу қобилиятни фақатгина комплекс машқлардан тузилган назорат тестлари орқали аниқлаш мумкин. Яна шунга алоҳида эътибор бериш лозимки, танланган машқлар тез бажарилишини талаб қилиниши ҳисобига фақат тезкорлик қобилиятини ривожлантиришга хизмат қилмаслиги керак. Масалан: Ўмбалоқ ошиб 4 маротаба 5 метрга, 2 маротаба 10 метрга тез югуриш машқида ўмбалоқ ошган спортчи мувозанатини сақлаши ва 5, 10 метр масофага бориб келиш етарлича мураккабликни келтириб чиқаради.

Координацион қобилиятларни ривожлантиришда биз мамлакатимиз ва чет эл олимлари томонидан амалда қўлланилган ва тавсия этилган машқларни танлаб олдик ҳамда уларни қўлланилиш шиддати, ҳажм ва меъёрларини ишлаб чиқдик (1-жадвал).

1-жадвал

13-14 ёшли футболчиларнинг координацион қобилиятларни ривожлантирувчи ишда жисмоний машқларнинг қўлланилиш ҳажм ва меъёрлари

№	Жисмоний машқлар	Машқдан олдинги ЮҚС (Шиддат кичик)	Машқнинг давомийлиги (сония)	Машқлар орасидаги дам олиш (сония)	Машқни бажариш вактида ЮҚС (Шиддат аралаш)	Сериялар орасидаги дам олиш (дак)	Меъёри	
							Такрорлаш сони	Серия
1	Олдинга ўмбалоқ ошиб10 метрга 2 маротаба тез югуриш	114,7±10,7	10-12	60	152,2±15,3	1	4	2
2	Қадамлар частотасини ошириб 10 метрга “зигзаг” (2 м) югуриш	118,3±12,4	10-12	45	151,2±4,2	1	4	2
3	Ўмбалоқ ошиб 2 маротаба 5 метрга, 2 маротаба 10 метрга тез югуриш	119,4±9,8	10-12	60	163,4±17,4	2	3	2
4	6 та фишкалардан (1 м) икки оёқда тезликда сакраб ўтиш ва 6 метрга тез югуриш	108,8±11,1	8-10	45	161,3±16,1	2	4	4
5	10 та устунчалардан (масофа 1 метр) “илон изи” бўлиб югуриб ўтиш ва 10 метрга тез югуриш	118,4±7,9	10-12	60	164,5±12,3	1	4	2
6	Координацион зинада 4 марта чап ён 4 марта ўнг ён билан югуриш.	126,4±8,2	12-15	50	164,5±14,3	2	4	2

Олдинга ўмбалоқ ошиб 10 метрга 2 маротаба тез югуриш машқидан олдин шуғулланувчиларнинг бир дақиқадаги ЮҚС ўртача 114,7±10,7 зарбани ташкил этади. Машқни бажариш вақтида эса уларнинг ЮҚС дақиқасига ўртача 152,2±15,3 мартага етади. Машқни бажариш давомийлиги 10-12 сония, машқлар орасидаги дам олиш 60 сония, сериялар орасидаги дам

олиш вақти эса 2 дақиқани ташкил этади. Машқлар 4 мартадан 2 серия давом эттирилади.

2-жадвал

Педагогик тажриба бошида “ ТФА” ва ТВФА жамоаси ёш футболчиларинг координацион қобилиятлари даражасини аниқлаш натижалари

Координацион қобилиятлар	Тест	Жамоалар			
		ТФА		ТВФА	
		$\overline{X}$		$\overline{X}$	
		Т.б	Т.о	Т.б	Т.о
Ритмга мослашиш қобилиятини баҳолаш учун:	Тўпни товон билан тортиб олиш вақти, с	6,12	5,21	6.23	6,07
Мувозанат сақлаш	Гимнастик скамейкасида бурилишлар сони, марта	7	8	6	6
Ҳаракатлар параметрларини дифференциаллаш қобилиятини баҳолаш учун	Тўп билан нишонга зарба бериш, балл	11	14	8	9
Ҳаракатланиш амалларига мослашиш ва қайта сафланиш қобилиятини баҳолаш учун	Устунларни асососий бўлмаган оёқда тўпни олиб юрган холда айлани бюгуриб ўтиш вақти, с	11,5	9,8	12,11	11,9
	Устунларни асосий оёқда тўпни олиб юрган ҳолда айланибюгуриб ўтиш вақти,с	10,61	9,3	10,39	10,11
Ўзаро мослаштириш қобилиятини баҳолаш учун	Иккита тўпни олиб юриш билан слалом, с	6,55		7,10	

Ўмбалоқ ошиб 2 маротаба 5 метрга, 2 маротаба 10 метрга тез югуриш ЮҚС ўртача 119,4±9,8 мартагача етди. Машқни бажариш давомийлиги 10-12сония, машқлар орасидаги дам олиш вақти 60 сонияни ташкил

қилди. Машқлар 2 мартадан 3серия бажарилади, сериялар орасидаги дам олиш вақти 2 дақиқа этиб белгиланди.

6 та фишкалардан икки оёқда тезликда сакраб ўтиш ва 6 метрга тез югуриш машқини бажариш жараёнида шуғулланувчиларнинг бир дақиқадаги ЮҚС ўртача 160,4±18,2 мартагача етди. Машқни бажариш давомийлиги 8-10 сония, машқлар орасидаги дам олиш вақти 45 сонияни ташкил қилди.

Машқлар 4 мартадан 4 серия бажарилади, сериялар орасидаги дам олиш вақти 2 дақиқа этиб белгиланди. Сериялар орасидаги дам олиш вақтидан кейин шуғулланувчиларнинг дақиқалик ЮҚС ўртача 116,5±9,2 мартагача пасайганлиги кузатилди.

Мазкур тажриба Тошкент шаҳар футбол академияси шуғулланувчилари ўқув машғулотларига тадбиқ қилингандан сўнг натижалар таҳлил қуйидагича натижалар олинди.

Тўпни товон билан тортиб олиш вақти тажриба гуруҳида тажриба бошида 6,12 сонияни ташкил этган бўлса тажрибадан сўнг 5,21 сонияга яхшиланган. Назорат гуруҳида эса дастлабки натижа 6,23 сония кейинги натижа эса 6,07 сонияга ўзгарган(2-жадвал). Гимнастик скамейкасида бурилишлар тестида тажриба гуруҳида дастлабки натижа 7 тажрибадан кейин 8 мартага кўтарилганлиги маълум бўлди. Назорат гуруҳининг дастлабки натижаси 6 мартани тажрибадан кейин ҳам бу натижа ўзгаришсиз қолганлиги маълум бўлди. Тўп билан нишонга зарба бериш тестда дастлабки натижалар қуйидагича: тажриба гуруҳида дастлабки натижа 11балл, назорат гуруҳида 14 балл, назорат гуруҳида дастлабки натижа 8 балл кейингиси 9 баллни ташкил этди. Ҳаракатланиш амалларига мослашиш ва қайта сафланиш қобилиятини баҳолаш тестининг Устунларни асососий бўлмаган оёқда тўпни олиб юрган ҳолда айланиб югуриб ўтиш тестида тажриба гуруҳида дастлабки натижа 11,5 сонияни тажрибадан кейи эса 9,8 сония кўринишида намоён бўлди. Назорат гуруҳида эса бу кўрсакичлар тажриба бошида 12,11 сонияни ташкил этган бўлса, тажриба охирида 11,9 сония эканлиги маълум бўлди.

Хулоса. Илмий манбаларни ўрганиш жарёнидан шундай хулоса қилиш мумкинки координацион қобилиятларни барча намоён бўлиш шаклларига кўра ривожлантиришнинг энг мақбул ёш даври айнан 13-15 ёш тоифасига тўғри келади. Бу эса ушбу ёш даврида юкламаларни меъёрлаш масаласига жиддий ёндашиш лозимлигини белгилайди.

11-12 ёшли футболчиларнинг координацион қобилиятларини тарбиялашда уларга берилаётган юкламаларнинг таъсирини уларнинг юрак

қисқариш сонига қараб белгиланди. Машқлар ёки сериялар сони бундан орттирилганида машқни бажариш техникаси бузилди, яъни чапга ва ўнгга оғиб кетиш ҳолатлари кузатилди, шунингдек шуғулланувчиларда ҳансираш, юрак уруши тезлашиши пайдо бўлди. Мазкур омиллар таъсирида тажриба гуруҳи вакилларининг барча кўрсакичларида сезиларли ўзгариш кузатилди. Жумладан мувозанат сақлаш товон билан тўпни торитиб олиш тестида энг катта ўсиш кузатилган. Назорат гурухида эса қайта тестлаш натижаларида ўзгариш мавжуд лекин статистик томондан ишончсиз кўринишда бўлди. Бу эса координацион қобилиятларни ривожантиришга қаратилган юкламаларни ёш хусусиятларига кўра тақсимлаш катта самара беришидан далолат беради.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 декабрдаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5887-сон Фармони.

2. Артиков А.А., Алимжанов С.И., Шукурова Ш.Т. Футболчиларнинг машғулот жараёнида педагогик назорат. Услубий қўлланма. Тошкент. 2014. – 62 Б.

3. Ахмаджонов У.М., Талипджанов А.И., Исеев Ш.Т. Футболчиларнинг жисмоний тайёргарлиги. –Т.: Илмий техника ахюорот –пресс.2019.-164 б.

4. Годик М.А. Двигательная активность футболистов в условиях соревновательной деятельности // Фан-спортга.2005-№3.С.-17-24.

5. Губа В.П. Интегральная подготовка футболистов-М: Советский спорт. 2010.-208 С.

6. Йўлдашов М.Р. Ёш футболчи қизларнинг координацион қобилиятларини ривожлантириш услубиятини такомиллаштириш. Автореф. дис. док.философии (PhD) Чирчик 2021.-59 С.

7. Кузнецов А.А. Футбол – настольная книга детского тренера. М: Олимпик-человек. 2008. -72 с.

8. Монаков Г.В. Подготовка футболистов. М., 2007.-288 с.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ёш футболчиларнинг координацион қобилиятларини ривожлантириш усуллари такомиллаштирилиб мазкур қобилиятни янада такомиллаштиришга қаратилган тажриба натижалари таҳлил қилинган бўлиб ушбу мақоладага маълумотлар ёшлар билан ишловчи мураббийларнинг назарий билимларнини ошишига катта фойда беради.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются результаты экспериментов, направленных на улучшение координационных способностей юных игроков путем совершенствования методов развития этой способности.

SUMMARY

The article analyzes the results of experiments aimed at improving the coordination abilities of young players by improving methods for developing this ability.

QO‘SHIMCHA TA’LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TAMOYILLARI

Utenov O.U.
pedagogika fanlari nomzodi, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport sohasi, uzluksiz ta’lim tizimi, kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash, malaka oshirish, kadrlarni tanlash va jalb qilish.

Ключевые слова: сфера физической культуры и спорта, система непрерывного образования, профессионального образования, переподготовки, повышения квалификации.

Key words: the sphere of physical culture and sports, the system of continuing education, vocational education, retraining, advanced training.

Dolzarbligi. Jamiyatimiz taraqqiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mamlakatning innovatsion iqtisodiyoti uchun juda zarur bo‘lgan inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha ta’lim oldiga yangi maqsad va vazifalarni qo‘ymoqda. Ta’lim tizimining jamiyatni yuqori sifatli kadrlar resurslari bilan qondirish orqali ushbu vazifalarni hal qilish qobiliyati mamlakatning iqtisodiy va ma’naviy rivojlanish istiqbollarini yaratadi [1,2].

Yangi davlatchilikni shakllantirish sharoitida ijtimoiy rivojlanishning dolzarb ehtiyojlari uzluksiz ta’lim tizimidagi eng moslashuvchan bo‘g‘in sifatida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirishga yondashuvlarni sezilarli darajada o‘zgartirishni talab qilinmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab, dinamik pedagogik tizim bo‘lib, uning samaradorligi pedagogik jarayonning va uni boshqarishning umumiy qonuniyatlari asosida namoyon bo‘ladigan ko‘plab omillarga bog‘liq.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning boshlovchisi bo‘lgan kadrlarning kasbiy mahorati alohida dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ta’minlaydigan maqsadli qo‘shimcha kasbiy ta’limni tashkil etish eng muhim vazifalardan biridir.

Ayni paytda murabbiylar va jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar o‘z faoliyatini sifat jihatidan yaxshilashga qodir bo‘lgan kasb

bo‘yicha yangi bilim manbalarini izlamoqda. Shu tariqa jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz ta’lim g‘oyasi asta-sekin ommalashib bormoqda.

Shu maqsadda murabbiylar shtabi va jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar uzoq vaqtdan beri ijobiy natija beradigan usullarga murojaat qilmoqda. Biroq, yurtimizda ushbu muammolarni tizimli ravishda hal qilish jismoniy tarbiya va sport sohasida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu jumladan ushbu sohada faoliyat ko‘rsatuvchi barcha mutaxassislarning bilim sifatini oshirishga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalari va usullaridan foydalangan holda barcha mutaxassislarning malakasini muntazam oshirib borish zarurati sezilmoqda.

Shunday qilib, mamlakatning jismoniy tarbiya va sport sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan kadrlarning kasbiy malakasini oshirishni, mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini yangilashni ta’minlaydigan qo‘shimcha ta’lim tizimini yaratilmoqda [2].

Tadqiqot usullari. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlili, pedagogik tadqiqotlar, tahliliy xulosalar, malakali mutaxassislar bilan tajriba almashish ishlari olib borildi [3,4,5].

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning uzluksiz malakasini oshirish konsepsiyasining negizi va yangiligi qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasidagi nazariy tahlil va ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosida yaratilgan va tartibga solingan tamoyillar tizimidir, bu esa jismoniy tarbiya va sportning zamonaviy nazariyasi va uslubiyati g‘oyalarini qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasida uzluksiz malaka oshirish tizimiga joriy qilish imkonini berdi.

Uslubiy tadqiqotlar davomida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasida kasbiy tayyorlash uzluksiz malaka oshirish konsepsiyasi g‘oyalarini aks ettiruvchi bir qator tamoyillari aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining qo‘shimcha ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash uchun uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini shakllantirish va uning faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Tizimning jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilganligi [6,7].

Tizim shunday faoliyat yuritishi kerakki, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini har tomonlama anglashga xizmat qiladi va ular tomonidan amalda samarali amalga oshiriladi.

2. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha har bir mutaxassisning ta’lim olish jarayonining uzluksizligi.

Ushbu tamoyil jismoniy tarbiya va sport sohasidagi har bir mutaxassisning jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi bilan qamrab olishini nazarda tutadi.

3. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tanlash va jalb qilish, tizimning yuqori samaradorligini ta’minlashga qartilganligi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi kadrlarini uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining samaradorligi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan talablarga o‘z qobiliyati bo‘yicha eng yaxshi javob beradigan kontingentni tanlash bilan ta’minlanadi.

Ularning o‘z faoliyati davomida tegishli maxsus bilimlarni olish uchun aniq ehtiyoji ko‘rib chiqiladi. Tegishli kasbiy tayyorgarlikdan (qayta tayyorlashdan) o‘tgan mutaxassislar o‘z ehtiyojlari va bilimlariga muvofiq kasbda o‘z o‘rnini egallashlari kerak, bu esa ularga o‘z ish o‘rinida faoliyatlarni yanada samarali bajarish imkonini beradi.

4. O‘rganishning oldindan ko‘rish xususiyati.

Ushbu tamoyil jismoniy tarbiya va sport ilm-fani va amaliyotidagi so‘nggi yangiliklardan foydalanish mutaxassisga jismoniy tarbiya va sport faoliyati sohasidagi yanada murakkab vazifalarni hal qilishga imkon berganda tizimning shunday ishlashini nazarda tutadi.

5. Osonlashtirish (fasilitatsiya) tamoyili.

Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi ta’lim oluvchining ijodiy salohiyatiga tayanish, samimiy ishonch va uning o‘zini samarali namoyon qilish va o‘zini anglashga intilishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Osonlashtirish (fasilitatsiya) tamoyiliga amal qilish - ta’lim oluvchini faoliyatga faol jalb qilish, shaxsning o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni anglatadi.

Osonlashtirish (fasilitatsiya) tamoyili ta’lim jarayonining tarkibiy qismlariga tizimni shakllantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishga, shaxsning bilim tizimiga yangi kognitiv elementlarni qo‘shish orqali ichki ziddiyat ta’sirini kamaytirishga qaratilgan [1].

6. Tanlov (elektiv) tamoyili

Tanlov (elektiv) tamoyili jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassisning kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalashning yakka tartibidagi traektoriyasini tanlash imkoniyatini ta’minlashdan iboratdir.

Bu tinglovchiga maqsadlar, mazmun, shakllar, usullar, manbalar, vositalar, atamalar, vaqt, o‘qish joyi, o‘quv natijalarini baholash erkinligini berishni

anglatadi, chunki ta’lim oluvchi katta insonga ta’lim oshish jarayonida yetakchi o‘rin tutadi.

Tanlov (elektiv) tamoyili ta’lim oluvchilarning yakka tartibdagi xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir kishiga ushbu qobiliyatlarga mos keladigan ta’lim olish qobiliyatini maksimal darajada oshirish imkoniyatini beradigan mutaxassislarni ko‘p bosqichli tayyorlash tizimini yaratishni nazarda tutadi [8,9].

7. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bilan birgalikda insonparvarlik, boshqaruv, iqtisodiy va huquqiy tayyorgarlikning birligini ta’minlash tamoyili.

Ushbu tamoyilga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassisining bilim va ko‘nikmalari to‘rtta asosiy blokni o‘z ichiga olishi kerak:

– ijtimoiy jarayonlar, ularni o‘rganish va ijtimoiy muammolarni hal qilish metodologiyasi va usullari haqida umumiy tushuncha beradigan asosiy fan sifatida gumanitar va ijtimoiy fanlar [9,10];
– boshqaruvning texnologik mohiyatini ifodalovchi markazi sifatida boshqaruv (menejerlik);
– iqtisodiy, bu ijtimoiy hodisalarning iqtisodiy negizini va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy imkoniyatlarini tahlil qilish;
– huquqiy, bu boshqaruv qarorlarining huquqiy asosliligini baholashg [8].

8. Qo‘shimcha kasbiy va oliy ta’limdan keyingi ta’limning barcha turlarini maqbul tarzda tizimning moslashuvchanligi uyg‘unlashtirish tamoyili.

Tizim jismoniy tarbiya va sport faoliyatining barcha darajalarini qamrab olishi kerak, demak, ta’limning barcha darajasini o‘z ichiga olishi, bu darajalarning birlashishi mavjud kadrlar vaziyati uchun optimal bo‘lishi va ushbu vaziyatning o‘zgarishi bilan o‘zgarishi kerak.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida, shaxsiy tahliliy xulosalar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malakali mutaxassislar bilan tajriba almashish, ushbu sohaga oid so‘nggi kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tizimli ravishda malaka oshirish jismoniy tarbiya va sport sohasining eng dolzarb vazifasi bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni zamonaviy tayyorlash darajasini oshirish.

2. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish mutaxassislarni uzluksiz ta’lim tizimiga kiritilgan muntazam mashg‘ulotlar shaklida amalga oshirilishi.

3. Malaka oshirish tizimi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, shuningdek boshqa ta’lim tashkilotlari mutaxassilarini qamrab olishi va ularning kundalik faoliyatini yaxshilash uchun real imkoniyat yaratish.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassisining kasbiy tayyorgarligi g‘oyalarini aks ettiruvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish

konsepsiyasining ta’kidlangan tamoyillari qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasidagi uzluksiz ta’lim tizimining ilmiy va innovatsion komplekslarini yuqori sifatli kadrlar resursiga aylantirish yo‘llarini belgilaydi, bu esa o‘z navbatida, sog‘lom avlodni tarbiyalashga, mamlakatni sifat jihatidan yangilash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. https:// lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 355-son qarori. https://lex.uz/docs/-6093267

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilar uchun so‘rovnoma / Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonining tashkil etilishi va uning mazmuni qanday bo‘lishi lozim? / “Sport” gazetasi 2019-yil 17-sentabr, 36-soni.

4. Maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya intruktorlari uchun so‘rovnoma / Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzining shakllanichiga oid jismoniy tarbiya ishlari va uning tashkiliy mazmuni qanday bo‘lishi lozim? / “Sport” gazetasi 2019-yil 29-sentabr, 37-soni.

5. Oliy ta’lim muassasalari profesor-o‘qituvchilari uchun so‘rovnoma / Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tizimi mazmuni va tashkiliy asoslari samaradorligi qanday bo‘lishi darkor? /“Sport” gazetasi 2019-yil 8-oktabr, 39-soni.

6. Tursunaliev I.I. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini takomillashtirishning nazariy-amaliy asoslari: Monografiya. – Toshkent: «UMID DESIGN», 2023. – 128 b.

7. Возгова З.В. Принципы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников // Современные проблемы науки и образования. - 2011. - № 3.

8. Концептуальные основы разработки и внедрения многоуровневой системы непрерывного повышения квалификации профессионально-педагогических кадров: моногр. /В. В. Латюшин, В. В. Базелюк, Р. С. Димухаметов, Л.И. Дудина. - Челябинск: ООО «Издательство РЕКПОЛ», 2009. - 189 с.

9. Мангер Т.Э. Диверсификация системы непрерывного образования в социокультурной сфере: дис. ... д-ра пед. наук /Т.Э. Мангер. - Тамбов, 2008.

10. Физическая культура и спорт: непрерывное образование: моногр. / С. В. Начинская, Н.В. Масягина. - М, 2012. - 92 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasidagi nazariy tahlil va ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosida yaratilgan va tartiblangan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish konsepsiyasi tamoyillari tizimi keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена система принципов концепции повышения квалификации специалистов в области физической культуры и спорта, созданной и организованной на основе теоретического анализа и научно-методических исследований в области дополнительного профессионального образования.

SUMMARY

This article presents a system of principles of the concept of advanced training of specialists in the field of physical culture and sports, created and organized on the basis of theoretical analysis and scientific and methodological research in the field of additional professional education.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ БЎЙИЧА МУТАХАССИСЛАРНИ КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Олимов А.И.
п.ф.б.ф.д. (PhD), доцент
Жиззах давлат педагогика университети

Таянч сўзлар: спорт, талабалар, жисмоний маданият, жисмоний тарбия ўқитувчилари, фан, касбий тайёргарлик.

Ключевые слова: спорт, студенты, физическая культура, учителя физической культуры, наука, профессиональная подготовка.

Key words: sports, students, physical education, physical education teachers, science, vocational training.

Kirish. Мамлакатимизда босқичма-босқич рўй бераётган таълим тизимини модернизация қилиш жараёнлари бугунги жамиятимизнинг янги талаб ва истакларини руёбга чиқариш таълим тизимининг эришилган ютуқлари билан уйғунлигини назарда тутади. Таълим соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий қисмини, албатта, олий таълим тизимидаги ислоҳотлар ташкил этади.

Кадрларнинг касбий маҳоратини ошириш педагогик кадрлар тайёрлаш тизимини модернизация қилиш моделларини - унинг ташкил этилиши, тузилиши, мазмуни, ўқув амалиёти ва таълимдаги инновацион жараёнлар билан алоқа қилиш тамойилларини ишлаб чиқиш ва экспериментал синовдан ўтказиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Тадқиқот мақсади. Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни касбий тайёрлаш тизимини модернизация қилишнинг тизимини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсилар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот вазифаси

– жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали мутахассисларни касбий тайёрлаш тизими хуқуқий-меъёрий хужжатларини ўрганиш;

– жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали мутахассисларни касбий тайёрлаш тизими муаммоларини ва улар билан боғлиқ ҳолатларини ўрганиш;

Тадқиқотнинг услуби. Педагогик кузатишлар, анкета сўровлардан фойдаланилди. Бунда жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни касбий тайёрлаш тизимини ҳуқуқий-меъёрий хужжатлари ўрганилди ҳамда соҳадаги етакчи давлатлар иш тажрибалари таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари ва таҳлиллар. Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида қабул қилинган олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси мазкур соҳадаги янги ислоҳотлар учун дастури амал бўлиб хизмат қилмоқда. Ушбу ҳужжатга интеллектуал тараққиётни жадаллаштириш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш ҳамда халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш мақсадида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш сингари вазифалар асос қилиб олинган. Концепция мазмуни мамлакатимиз олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини акс эттиради. Унда олий ўқув юртларида таълим сифатини ошириш, рақамли технологиялар ва таълим платформаларини жорий этиш, ёшларни илмий фаолиятга жалб қилиш, инновацион тузилмаларни шакллантириш, илмий тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш, халқаро эътирофга эришиш ҳамда бошқа кўплаб аниқ йўналишлар белгилаб берилган. Буларнинг барчаси таълим жараёнини янги сифат босқичига кўтариш учун хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Мурожаатномалари ва янги таҳрирдаги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги «Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида»ги ЎРҚ-576-сонли қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги «Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-6097-сон Фармонлари мамлакатимизда таълим ва илм-фан соҳасини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Хусусан, таълим тизимида қабул қилинган энг муҳим ҳужжатлардан бири бу – «Таълим тўғрисида»ги Қонуннинг янги таҳрирда қабул қили-

ниши бўлди.. Ушбу қонун 72-моддасида 1997 йилдан буён амал қилиб келаётган эскирган “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги ва шу қонунлар асосида ушбу қонунларга ўзгартириш ёки қўшимчалар киритиш тўғрисидаги хужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш белгилаб қўйилган. Янги қонуннинг асосий фарқлари бу:

Таълим олиш шаклларининг таснифи кенгайтирилди: ишлаб чиқаришдан ажралган (кундузги) ва ажралмаган ҳолда (сиртқи, кечки, масофавий);

- √ назарий - таълим ташкилоти негизида, амалий - таълим олувчининг иш жойида бирга олиб бориладиган дуал таълим;
- √ оилада таълим олиш ва мустақил таълим олиш;
- √ катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш;
- √ жисмоний, ақлий, сенсор (сезги) ёки руҳий нуқсонлари бўлган болалар (шахслар) учун инклюзив таълим;
- √ экстернат тартибидаги таълим - ўқув дастурларини мустақил равишда ўзлаштиришни ўз ичига олиб, унинг якунлари бўйича таълим олувчилардан давлат таълим муассасаларида якуний ва давлат аттестацияларидан ўтиш;
- √ мудофаа, хавфсизлик ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлаш.

Шунингдек, давлат таълим стандартлари ва талаблари, ўқув жараёнига ўқув режалари ва дастурларини, таълим соҳасига экспериментал ва инновацион фаолият таълимни жорий этиш билан боғлиқ масалалар тартибга солинган. Шунга кўра, мазкур Қонуннинг қабул қилиниши ҳамда амалиётга жорий этилиши таълим соҳасида қабул қилинган энг муҳим ҳужжатлардан бири бўлди дейишимиз мумкин.

Ушбу Қонуннинг 2-боб 6-моддасида таълим тизимлари аниқ белгилаб қўйилган. Унга кўра таълим тизими:

- ► давлат таълим стандартларини, давлат таълим талабларини, ўқув режалари ва ўқув дастурларини;
- ► давлат таълим стандартларини, давлат таълим талаблари ва ўқув дастурларини амалга оширувчи таълим ташкилотларини;
- ► таълим сифатини баҳолашни амалга оширувчи ташкилотларни;
- ► таълим тизимининг фаолият кўрсатиши ва ривожланишини таъминлаш учун зарур бўлган тадқиқот ишларини бажарувчи илмий-педагогик муассасаларни;
- ► таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органларини, шунингдек уларнинг тасарруфидаги ташкилотларни ўз ичига олади.

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахасисларни тайёрловчи олий таълим муассасаларида, шунингдек, бутун таълим тизимида жараёнларида алоҳида аҳамиятга эга бўлган бир қанча ўзгаришлар рўй бермоқда. Улар жамиятни, профессор-ўқитувчиларни ва талабани ўзгартириши керак. Замонавий талаба атрофдаги жамиятда тез ва осон ўз ўрнини топиши учун тизим ва профессор-ўқитувчилардан юқори сифатли таълимни талаб қилади. Бунинг учун замонавий ўқитувчи талабани педагогик инновациялар орқали унга ишонч, ақл, ижодкорликни сингдириб, мавжуд ўртача педагогик тартибдан юқорига кўтариши шарт. Шундан кейингина мутахассисни касбий тайёрлаш жараёни турли мақсадларга, мазмунга, натижага олиб чиқиш имкониятига эга бўлади. Аммо бунинг учун ўқитувчининг ўзи ижодий изланувчан, замонавий технологиялар ва ўзига хос методикаларни эгаллаган бўлиши керак. Агар ўқитувчи янги замонавий билимларни берса, талабалар уни ўрганадилар ва ўз иш фаолиятларида қўллайдилар.

Сўнгги йилларда жисмоний тарбия ва спорт соҳаси ва ушбу соҳа мутахассисларини касбий тайёрлаш тизимида янги ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Янги Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий шаклланиши шароитида жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги олий таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий йўналиши рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашга ва уларни ижтимоий буюртма асосида ОТМларда бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини оширишга қатъий йўналтиришга қаратилган.

Таълим жараёнларини ахборотлаштириш ва янги юқори технологияларни ривожлантириш шароитида касбий билим ва касбий ҳаракатчанликка қодир бўлган юқори маълумотли ва малакали мутахассисларни тайёрлашга мўлжалланган. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида модернизация жараёнлари инновацион касбий таълим тизимини ривожлантиришга қаратилган бўлиб, унинг натижаси уларнинг касбий фаолияти соҳасида ва пировардида иқтисодиёт ва ижтимоий соҳада ижобий ўзгаришларни таъминлашга қодир мутахассисларни тайёрлаш бўлиши керак.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги олий таълимнинг ҳозирги ҳолати, мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги сифати ва даражаси шахс, жамият ва давлат эҳтиёжлари талабларини тўлиқ қондирмайди. Давлат ва жамияти ўзининг муаммолари билан, биринчи навбатда, ижтимоий соҳада, соғлом авлодни тарбиялаш, соҳага оид билимларни ривожлантириш ва тарбиялашга мўлжалланган жисмоний тарбия ва спорт соҳасининг замонавий инновацион технологияларига эга бўлган маънавий ва жисмоний баркамолликни, ижодий ҳамкорлик қобилиятини бирлаштирган иннова-

цион турдаги жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни талаб қилади.

Бугунги кунда ҳар бир соҳага илм-фаннинг ривожланиш тенденциялари кириб келмоқда. Ҳатто, таълим соҳасига кириб, кадрлар тайёрлаш жараёнларида ҳам кенг миқёсда қўлланилмоқда. Фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасида интеграцион жараёнлар ривожланиб бормоқда ҳамда ривожланиш жараён ларининг лакомотивига айланиб бўлди. Бу борада жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ҳам илм фан ютуқларининг кириб келиши улкан ўзгаришларни юзага келтирмоқда. Жисмоний тарбиянинг жамият ҳаётидаги ўрни ошиб бориши билан, илм фаннинг жисмоний тарбия жараёнларига инновацион ишланмалар ва воситалар орқали кириб келиши янада кучайишга олиб келди. Айниқса, спортга илм фан ютуқларига асосланган инновацияларнинг кириб келиши инсонларнинг қизиқишини янада оширди. Бу эса мазкур жараёнларни тизимли ривожланишини таъминлаш, соҳада юқори малакали кадрлар тайёр лаш ишларини ривожлантириш заруриятини юзага келтирди. Чунки, ҳар бир соҳа ривожида малакали мутахассислар асосий ролни бажариб, ривожланиш жараёнларини тезлашишида муҳим аҳамият касб этади (2).

Тадқиқотларга кўра, Хитойда туғилган ҳар ўнинчи бола профессионал спорт билан шуғулланади. Хитойдаги Жисмоний тарбия институтидаги ётоқхоналарда чекланган миқдордаги одамлар ўқиши ва яшаши мумкин. Агар бирор киши яхши натижа кўрсатса, у Пекин институтига ўтказилади. Шундай қилиб, маҳаллий даражада мураббийларнинг етишмаслиги бартараф этилади. 2006 йилдан бошлаб оддий мактабларда ҳам жисмоний тарбия дарсларига катта аҳамият берила бошланди. Ўқувчилар ҳафтасига уч марта у ёки бу мактаб ўзлари учун танлаган ихтисослаштирилган спорт турлари волейбол, ушу, енгил атлетика билан шуғулланади (3).

Модернизация, E. D. Днепров талқинида, замонавийлик талабларига мувофиқ такомиллаштириш, янгиланиш, ўзгаришдир. Таълимни модернизация қилиш-бу жамиятнинг фаол ёрдами билан амалга ошириладиган давлатнинг кенг кўламли ҳаракати. Бу мамлакат таълимининг янги сифатига эришишга олиб келиши лозим, биринчи навбатда унинг замонавий ҳаётининг ҳозирги ва истиқболли талабларига мувофиқлиги билан белгиланади. Таълимни модернизация қилиш провардида таълимнинг янги сифат босқичига эришишига олиб келиши керак, бу биринчи навбатда унинг мамлакатдаги замонавий ҳаётнинг ҳозирги ва истиқболли эҳтиёжларига мувофиқлиги билан белгиланади.

Бугунги куннинг замонавий аудиториялари ўн йил аввалгиларидан жуда катта фарқ қилади ва синф хоналари компьютерлар, iPad, планшетлар, смарт-доскалар ва бошқа турдаги таълим технологиялари билан жиҳозланган. Бундай рақамли муҳитга эга бўлиш ва у билан доимий ўзаро муносабат натижасида бугунги кун талабаларининг фикрлаши ва ахборотларга ишлов бериш жараёнлари олдинги фикр юритиш ва ахборот жараёнларидан тубдан фарқ қилади. Ахборот ва коммуникация технологияларига асосланган инновацион таълим технологиялари ва дидактик моделларни яратиш, тадқиқ қилиш, ижобий самарадорлиги оммавий ва самарали қўллаш орқали таълим тизимини рақамли авлодга мослаштириб модернизация қилиш зарур. Шу билан бирга, таълим жараёнида тадқиқотга асосланган ёндашувдан фаол фойдаланиш лозим ва бу билан илмий тадқиқотда талабаларнинг билим кўникмаларини ривожлантириш ва IT- компетенцияга асосланган ижодий қобилиятларини ва ижодий фикрлашларини шакллантириш мумкин бўлади.

Таъкидлаш лозимки ахборот ва коммуникация технологиялари – таълим тизимидаги барча муаммоларга ечим эмас, балки рақамли авлод учун маърузалар ва семинарларни маълумотларга бой ва интерактив қилиб амалга ошириш воситасидир. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, ўқитувчилар талабаларнинг эҳтиёжларига йўналтирилган интерфаол ўқув жараёнида асосий ролни сақлаб қолади.

Ўқитувчининг обрўси ва унинг фаолиятининг самарадорлиги фақатгина курс мазмунидаги билимлар даражаси ва унинг педагогик қобилиятига эмас, балки муайян ўқув материалини тўплаш, қайта ишлаш ва ўқитишда ўқитувчининг қанчалик замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини қўллаш даражасига боғлиқ бўлади. Бошқача қилиб айтганда, рақамли асрда таълим қайта кўриб чиқилиши ва таълим парадигмаси ўзгартирилиши шарт, чунки талабалар ортиқ анъанавий услубда ўқишни хоҳламайдилар ва ўқитувчилар ҳам бу каби одатий усулда ўқитишни давом эттиришлари керак эмас.

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни касбий тайёрлашда ёдлаш амалиёти ҳали ҳам асосан кенг тарқалган бўлиб, бу узоқ вақтдан бери юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш талабларига жавоб бера олмаган ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ҳажмининг ошиши, муаммоли маълумотлар ўқув жараёнини талабаларнинг ижодий тафаккурини ҳар томонлама ривожлантиришга йўналтиришни талаб қилади. Шуни ёдда тутган ҳолда, олий таълим мазмунининг моҳиятини асосан ахборотдан ахборот-методологияга йўналтириш керак. Бутун

таълим тизими мутахассиснинг услубий ва фундаментал тайёргарлигини таъминлаши, шу асосда унинг ижодий қобилиятлари ва мутахасисликка йўналтириб ривожлантириши керак. Бу жиҳатдан олий таълим учун энг муҳими таълимни фан билан бирлаштириш тенденцияси, бу уни амалга оширишнинг янги усуллари ва шартларини излашга ундайди. Жумладан:

- жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни тайёрлаш босқичларининг ўқув ва илмий адабиётлар билан таъминотини замонавий адабиётлар билан таъминлаш зарур ҳисобланади. ОТМларининг замонавий ўқув ва илмий адабиётлар билан таъминлананлиги талабаларнинг улар билан танишиш имкониятини яратиб беради. Шунингдек, соҳага оид маълум бир турга ихтисослашган илмий адабиётлар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш имкониятига эга бўлади;
- ОТМларда назарий фанлар ҳамда амалий машғулотлар, ёки мутахассислик фанларини кўпроқ ўқитиш бўйича муаммоли вазиятлар кўп учрайди. Албатта, ҳар бир фанининг малакали мутахассис тайёрлашда ўзига хос ўрни бўлади. Лекин, бугунги кунда билимли, соҳага оид малакаси етарли ва амалий тажрибага эга бўлган мутахассисларни тайёрлаш масаласи тобора долзарблашиб бормоқда. Чунки, мутахассислар ўз ишини амалиётда кўрсата олмаслиги ортидан кўпгина муаммолар юзага келади. Шунинг учун ҳам жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни тайёрлаш жараёнларида амалиётга эътибор қаратиш билан бирга айнан амалий машғулотларда керак бўладиган билимларни беришга қаратилган назарий машғулотларни ташкил қилишга эътибор қаратиш керак;
- жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни тайёрлаш жараёнида илмий-тадқиқот ишларини кўпроқ ташкил қилиш ҳамда ўтказишда бевосита талабаларга ўрганилаётган муаммо юзасидан тушунтириш ишларини ташкил қилиниши уларда ўзидаги камчиликни аниқлаш ва уни бартараф этишда замонавий методикани қўллаш малакаси шаклланишига олиб келади;
- бугунги кунда олий таълим соҳасида янги мутахассисликларни ташкил қилишда шу мутахассислик бўйича малакали профессор-ўқитувчилар мавжудлигига эътибор қаратилмаяпти. Хориж тажрибаси эса олдин шу йўналишда ёш мутахассисларга таълим бера оладиган малакали мутахассислар ёки профессор-ўқитувчилар мавжудлиги ҳолатидан келиб чиққан ҳолда ташкил қилишга рухсат берилишини талаб қилади. Ушбу жараёнда малакали мутахассисларни

хорижда қайта тайёрлаш, малака ошириш тажрибасидан фойдаланиш ҳамда таълим муассасалари сайтларида спортдаги ютуқларга бағишланган платформаларни ташкил этиш ўз самарасини беради.

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни касбий тайёрлашнинг замонавий мазмунини ўрганиш ва ривожлантиришнинг мураккаблиги ушбу муаммо билан боғлиқ услубий қоидаларга эътибор қаратиш зарурлигини белгилайди. Ўрганилаётган муаммо бўйича аниқ услубий ёндошув ва услубий тамойилларни ишлаб чиқиш жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни касбий тайёрлаш тизимини модернизация қилиш учун маълум асос яратади.

Адабиётлар:

1. А.Б. Хасанов – Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш захираси тизимини –такомиллаштириш. // Фан-спортга илмий–назарий журнал . - 2022.№8, -Б. 71-73.

2. Н.Э. Дўсанов – Жисмоний тарбия ва спорт таълимини узвийлик тамойили асосида ривожлантириш муаммолари. // Фан-спортга илмий –назарий журнал . - 2022.№7, -Б. 68-70.

3. А.Н. Шопулатов – Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали мутахассислар тайёрлаш тизимини хорижий тажриба асосида такомиллаштириш. // Фан-спортга илмий – назарий журнал . - 2022.№5, -Б. 64-67.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада олий таълим муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт бўйича кадрларни тайёрлаш, профессионал касбий жиҳатлари самарадорлиги, касбий тайёргарлиги тизимининг ҳолати таҳлилларидан олинган натижалари баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны результаты анализа подготовки кадров по физической культуре и спорту в высших учебных заведениях, эффективность профессиональных навыков, состояние системы профессиональной подготовки.

SUMMARY

This article describes the results of the analysis of personnel training in physical culture and sports in higher educational institutions, the effectiveness of professional skills, the state of the professional training system.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Matniyazov X.K.
UrDU Jismoniy madaniyat fakulteti o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: uzluksizlik, amaliyot, tahlil, sintez, abstrakt, umumiylik, moslashtirish, pedagogika, ta’lim, tarbiya.

Ключевые слова: преемственность, практика, анализ, синтез, реферат, обобщение, адаптация, педагогика, образование, воспитание.

Key words: continuity, practice, analysis, synthesis, abstract, generality, adaptation, pedagogy, education, upbringing.

Kirish. O‘zbekiston jahon ta’lim hamjamiyatiga integrasiyalashayotgan davrda nazariya bilan amaliyot aloqadorligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tizim joriy qilishga qaratilgan tashkiliy pedagogik ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda o‘quv-tarbiyaviy ishlarning pedagogik nazariyasi va amaliyot bilan aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bosqichida uzluksiz ta’lim jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo, birinchi navbatda, mamlakat va alohida bir shaxs hayoti, uning professional faoliyatiga moddiy va ma’naviy ta’sir ko‘rsatuvchi, ayni paytda ijtimoiy rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashishi sababli yuzaga keldi. SHuning uchun ham bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslariga ustuvor tarzda qarash talab etiladi.

Bu jarayonda, shubhasiz, nafaqat nazariya bilan amaliyot, balki davrlar, bosqichlarda to‘plangan tajribalar uzluksizligi ta’lim amaliyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Pedagogika soxasida “uzluksiz ta’lim” tushunchasi borasida ko‘plab tadkikot ishlari amalga oshirilgan. G.P.Zinchenko uzluksiz ta’lim muammosi “tushuncha” shaklidagina emas, balki g‘oya shaklida tushuniladi, deb hisoblaydi. Muallif ushbu fikrni yarim taxminlar, yarim g‘oyalar shaklida Platon va Aristotellar ham aytadilar, deb ko‘rsatadi. R.M.Volter, I.V.Gyote, YA.A.Komenskiy, J.J.Russo va boshqalarning gumanistik qarashlarida ham

ushbu fikr o‘z aksini topadi. Rossiyada shu kabi g‘oyalar taraqqiyparvar pedagoglar konsep-siyalarida ham ilgari surilgan. Jumladan, N.I.Pirogov, K.D. Ushinskiy ham ushbu fikrni turlicha bayon etganlar. Ushbu fikr D.I. Pisarev tomonidan «Realistы» asarida o‘ziga xos ta’riflanadi: «Maktabda bilim olish kerak, ammo maktabni tugatgandan so‘ng yanada ko‘proq o‘qish kerak va bu ikkinchi o‘qish insonga va jamiyatga o‘zining oqibatlari bilan, o‘zining ta’siri bilan birinchisidan ancha muhimdir».

CH. Kupisevich uzluksiz ta’lim zarurligi to‘g‘risidagi fikr pedagoglarning xayollari natijasi emas, balki so‘zsiz ilmiy-texnik taraqqiyot oqibati, deb hisoblaydi.

Butun hayot davomida bilim olish zarurligi g‘oyasi «uzluksiz ta’lim» atamasiga aylandi. Bu muammo bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganligi bois xalqaro miqyosda tadqiq etilmoqda.

Biroq qator mutaxassislar uzluksiz ta’lim g‘oyasi amalda qanday yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib, uzluksiz ta’lim yaxlit hayotiy konsepsiyasi amalda mavjud emas degan xulosaga keladilar. Masalan, I. Savitskiy shunday hisoblaydi, «uzluksiz ta’limning hech qanday konsepsiyasi yo‘q, shunchaki ushbu mavzu bo‘yicha tarqoq fikrlar mavjud»ligini ta’kidlaydi. Bu fikrga qo‘shilgan holda hamda bunday konsepsiyani yaratish murakkabligini ta’kidlar ekan, S. Ващenko hozircha shunday konsepsiyaga topshiriqning o‘zi bilan cheklanishni taklif etadi. Unga ko‘ra, avvalo, mavjud sharoitlarda uzluksiz ta’lim muammosining qaysi aspektlari alohida e’tiborga loyiq ekanligini anglab olish lozim.

YUqoridagi tushunchalarda uzluksiz ta’lim insonning shaxs sifatida butun hayoti davomida ta’lim olishi, rivojlanishini anglatadi.

G.A. YAgodin dunyoni bilish va o‘zgartirish yangi va yana yangi cho‘qqilarga doimiy yuksalish jarayonining maqsadi va yakuniy natijasi sifatida insonni uzluksiz ta’limni asosiy tizimlashtiruvchi omil, deb hisoblaydi.

O.V. Kupsovning fikriga ko‘ra, uzluksiz ta’limning asosiy mazmuni qo‘shimcha bilimlar olish jarayoni hisoblanadi. Qo‘shimcha ta’limning barcha turlari,uning fikri bo‘yicha, o‘zining mustaqil ifodasiga ega emas. Insonlarning uzluksiz rivojlanib borishida ularning jismoniy barkamolligi asosiy omil hisoblanadi. SHuning uchun V.F.Litvitskiy ham O.V.Kupsovning fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu fikrlarga qarama-qarshi tarzda B.S.Gershunskiyning fikricha, uzluksiz ta’limning mohiyati individning barkamol rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan tashkil topgan bo‘lib, uning yoshi, dastlabki egallagan kasbi, mutaxassisligi, motivlari, qiziqishlari, qadriyatli yo‘nalishlari inobatga olinmaydi.

Natija. Talabalar pedagogik amaliyotning barcha bosqichlarida kompleks yondashishni hisobga olib, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni o‘tkazishga o‘rganishlari lozim. Pedagogik amaliyotni barcha talabalar uchun ikkinchi kursdan bitiruv kursigacha kompleks va majburiy o‘quv hamda tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘ladigan tarzda tashkil etish zarurligi yanada yaqqol ko‘rinib bormoqda.

Urganch davlat universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti hamda Buxoro davlat universiteti talabalari pedagogik amaliyotlari dasturi va uning ko‘p vazifalilik xususiyatini hisobga olib, uzluksiz pedagogik amaliyot me’yoriy hujjatlarini, o‘qituvchi, murabbiy mehnatini diagnostika qilishga zamonaviy yondashishlar, pedagogik amaliyotni tashkil etish bo‘yicha universitetlar tajribalarini o‘rganish va tahlil qilish asosida ishlab chiqildi.

Kelgusida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyot mazmunini ishlab chiqishda tizimli-faoliyatli yondashishni qo‘llash muhim pedagogik shartlardan biri bo‘lib, uning mazmunida quyidagi komponentlar bo‘lishi talab etiladi.

1. Talabaning uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyatini modellashtirish.

2. Pedagogik amaliyot dasturini tuzishda uning komponentlari o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratish, shuningdek, metodist va talabalarga individual dastur tuzishlariga va pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etish.

3. Pedagogik amaliyotni talabalarning kasbiy tayyorgarliklari uchun pedagogik refleksiyaning ahamiyatini anglab etishlariga yo‘naltirish.

4. Uzluksiz pedagogik amaliyotning barcha bosqichlarida ijodiy topshiriqlar orqali vazifalarni individual tarzda amalga oshirish mumkinligi.

5. Tizimli-faoliyatli yondashish nuqtai nazaridan talaba-amaliyotchilarning maktab, ta’lim muassasalarida haqiqiy o‘quv-tarbiyaviy ishlarni o‘rganish metodlarini egallashga yo‘naltirilgan faoliyatlarining tadqiqotchilik komponentini amalga oshirish.

6. Munosabatlarni insonparvarlashtirishni ko‘zda tutuvchi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Uzluksiz pedagogik amaliyot dasturi tuzilishi (2015 yil tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja asosida) quyidagi bosqichlarda tuzilgan:

1. “O‘quv amaliyoti” bosqichi – umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv amaliyot. 2-kurs talabalari. 4-semestr (may, 2 hafta, 1 kunda - 6 soat, jami 72 soat).

2. “Malakaviy amaliyot” bosqichi – maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs talabalari. 5-semestr (noyabr-dekabr, 4 hafta 1 kunda- 6 soat, jami 144 soat).

3. “Pedagogik amaliyot” bosqichi – kasbga yo‘naltirilgan amaliyot: maktabgacha ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 4-kurs talabalari 8-semestr (fevral-mart, 8 hafta, 1 kunda - 6 soat, jami 288 soat).

Pedagogik amaliyot dasturi ma’lum tuzilishga va bo‘limlari mazmuniga ega. Pedagogik amaliyot dasturi quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik amaliyot mazmuni.

2. Pedagogik amaliyotni tashkil qilish.

3. Pedagogik amaliyot davrida talaba bajargan ishni hisobga olish va baholash.

4. Pedagogik amaliyot kundaligini yuritish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar.

Pedagogik amaliyot yakunlari bo‘yicha talabalarning kasbiy tayyorgarliklariga asosiy talablar, DTSga muvofiq talaba egallashi kerak bo‘lgan faoliyat turlari va ularni bajarish sifati, bajarilgan ishlar darajasi, ularning mustaqil bajarilishi, ish joyini tashkil etish, o‘zini nazorat qilish, tahlil qilish va o‘z faoliyatiga baho berish malakalariga, kasbiy ko‘nikmalarni egallaganlik darajalariga ko‘ra baholanadi.

Pedagogik amaliyot o‘tayotgan talabalar pedagogik amaliyot bo‘yicha ko‘rsatmalar konferensiyasi ishida ishtirok etishi; tashkilot ta’lim ishlari tizimi bilan, jumladan, o‘quv-tarbiya bazasi, pedagogik jamoa faoliyati, metodik birlashmalar, sinf rahbarlari, o‘quv mashg‘ulotlari, jadvali va boshqalar bilan tanishishi; o‘quvchi shaxsi va sinf jamoasi, shaxsiy hujjatlar, pedagogik kartalar, sinf jurnali, kundaliklarni o‘rganishi; jismoniy tarbiya bo‘yicha dars va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish tartiblarini o‘rganishi; ilg‘or o‘qituvchilarning pedagogik tajribalarini o‘rganishi; pedagogik amaliyot davri uchun maxsus ishlab chiqiladigan individual ish rejasini tuzishi; amaliyot yakuni bo‘yicha hisobot tayyorlashi va himoya qilishi darkor bo‘ladi.

Tadqiqotimizda foydalaniladigan amaliyot dasturi amaliyotchining faoliyati ko‘p funksionalligini ko‘rsatadi, bu talabalarning o‘z amaliy ishlarida kasbiy-pedagogik va metodik bilimlarini ongli ravishda qo‘llashni maqsadga muvofiq o‘rgatish zarurligini tasdiqlaydi.

Uzluksiz pedagogik amaliyot davrida talabalarning bilimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari, birinchidan, qo‘yilgan amaliy masalalarni hal qilish uchun lozim bo‘lgan ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini yodga olishni, ikkinchidan, ularni birlashtirishni nazarda tutadi.



Kuzatishlar, Urganch davlat universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetida pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish shaxsiy ko‘p yillik tajribamiz, uning mazmunida bilimlarni sintez qilish, birlashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunga sabab o‘quvchilarni rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitish kabi pedagogik jarayonlar bilan amaliy ishlarda rahbarlik qilib, talabalarning psixologiya, pedagogika, fanni o‘qitish metodikasi kabi kurslarni o‘rganishida olgan nazariy bilimlarini birlashtiradilar. Bilimlarni birlashtirish ularda pedagogik hodisalar haqidagi yaxlit va har tomonlama tasavvurlar yaratadi.

Pedagogik amaliyotni bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda akademik litsey va o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari shart-sharoiti bilan tanishish va u joyda kursdosh talabalar bilan hamkorlikda ishlash va amaliyot rahbari ko‘rsatmalariga binoan rejaga muvofiq darslarga individual mahoratiga tayangan holda darsni tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlarini tahlil qilish, kunlik hisobot tayyorlash pedagogik amaliyot yakunida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yozma hisobotini kafedra professor-o‘qituvchilaridan tuzilgan komissiya oldida himoya qila olish to‘g‘risidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim.

Pedagogik jarayonda maxsus fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar ham amalga oshiriladi. Darsni samarali o‘tkazish uchun o‘qitilayotgan fan bo‘yicha maxsus bilimlarni mukammal bilish; ta’lim jarayoni va tamoyillari mohiyati haqidagi bilimlarni jamlash va qo‘llashni bilish; dars nazariyasini bilish; o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning aniq shakllari va uslublari haqida, turli yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo‘lish kerak.

Uzluksiz pedagogik amaliyot davrida talabalarning nazariy bilimlarni amalga oshirishi ularni faqat mustahkamlashga emas, balki ilmiy mazmunini

yanada chuqurroq yoritishlariga, yanada anglagan holda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa.

1. Oliy ta’lim muassasasi jismoniy tarbiya yo‘nalishi talaba-larining uzluksiz pedagogik amaliyotlari tizimini tizimlashtirish asosiy pedagogik shartlari quyidagilar hisoblanadi:

1) uzluksiz pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonini yaxshi rejalashtirish;

2) talabalarning kasbiy faoliyatlarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish;

3) uzluksiz pedagogik amaliyot o‘tkazilishi monitoringini amalga oshirish;

4) amaliyot metodistlari kasbiy malakalarini oshirish;

5) uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish samaradorligini tahlil qilish.

Adabiyotlar:

1. Allaqulov X.X. Barkamol avlod - vatan kelajagi.// “Bolalar va yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1qism, – Termiz: 2003. – B. 3-4 b..

2. Atoev A.K., Nosirov M. Jismoniy tarbiya va shaxsni axloqiy tarbiyalash. –T.: 1993. – 143 s.

3. Asqarova O‘.M. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. T: Istiqlol» 2005 y. – 24 b.

4. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida). Avtoref. dok., Toshkent-2017 y. 19 – b.

РЕЗЮМЕ

Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotlarini tashkil etish jarayonini tahlil va sintez qilish, umumiy, abstrakt qoidalarni belgilash va aniq ma’lumotlardan chetlanish, xususiydan umumiylikni faxmlash, umumiylikning turli darajalari bilimlarini yagona tizimga muvofiqlashtirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni vazifa talablariga muvofiq moslashtirish, bir hodisa yoki hodisani turli tizimlar aspektida tushunib etish qobiliyatini nazarda tutuvchi bilimlarni amaliyotda qo‘llash murakkab tahliliy-sintetik jarayondir.

РЕЗЮМЕ

Анализировать и синтезировать процесс организации непрерывной педагогической практики студентов, определяя общие, абстрактные правила и избегая конкретной информации, отличая общее от частного, согласовывая в единую систему знания разного уровня общности, адаптируя полученные знания в соответствии с Требования задачи, сопоставление одного события или явления с различными практическими применениями знаний, что предполагает способность к пониманию с точки зрения систем, представляет собой сложный аналитико-синтетический процесс.

SUMMARY

Analyzing and synthesizing the process of organizing continuous pedagogical practices of students, defining general, abstract rules and avoiding specific information, distinguishing the general from the particular, harmonizing the knowledge of different levels of generality into a single system, adapting the acquired knowledge in accordance with the requirements of the task, comparing one event or phenomenon to different practical application of knowledge, which implies the ability to understand in terms of systems, is a complex analytical-synthetic process.

ДИСЦИПЛИНА «ГИМНАСТИКА И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ» КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Тойлибаев С.М.

Заведующий кафедрой «Единоборств и естественных дисциплин» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, д.ф.п.п.н. (PhD), и.о. доцента

Tayanch so'zlar: mutaxassis tayyorlash, o'quvchilar faoliyati, pedagogik faoliyat, o'quv jarayoni, ko'nikmalarni shakllantirish, o'quv jarayonini tashkil etish, asosiy gimnastika vositalari.

Ключевые слова: подготовка специалиста, деятельность студента, педагогическая деятельность, учебный процесс, формирование навыков, организация учебного процесса, средства основной гимнастики.

Key words: training of a specialist, student activity, pedagogical activity, educational process, skills formation, organization of the educational process, means of basic gymnastics.

Введение. Известно, что гимнастика является одним из важнейших дисциплин, университетов физической культуры, а также университетов педагогической направленности на факультетах физической культуры. Владение на должном уровне знаниями и практическими умениями по гимнастике имеет серьёзную значимость, как для учителя физического воспитания, так и для тренера и не только по видам гимнастики. Строгий порядок, четкая регламентация деятельности занимающихся, выполнение упражнений согласованно, по точной команде - все это присуще гимнастике и прививает каждому занимающемуся весьма полезные качества.

Регулярные тренировки гимнастикой предъявляют к занимающимся свои особые требования и оказывают на них специфическое воздействие. Устные указания преподавателя в сочетании музыки и надлежащей обстановки для занятий гимнастическими упражнениями могут в значительной степени повлиять на развитие у ученика индивидуально-личностных качеств, также воспитать у занимающихся различные практические навыки, знания и умения [1].

Гимнастика – это исторически сложившаяся совокупность специфических средств и методов гармонического физического воспитания человека. Гимнастика считается спортивно-образовательной дисциплиной. Продуктивность занятий гимнастикой зависит от многих факторов, таких как мастерство учителя или тренера, от его словесного воздействия, от внешних обстоятельств, от музыкального сопровождения в которых проводятся занятия. Продолжительные занятия гимнастикой, в принципе, как и любым прочим видом спорта, оставляет характерный отпечаток на занимающихся. Но больше всего у гимнастов хорошо развиты гибкость, дисциплинированность, способность точного управления движениями, целеустремленность, прыгучесть, мышечная сила, настойчивость, самообладание, а также манера грамотного исполнения любых упражнений.

Также гимнастика является одним из основных предметов цикла общепрофессиональных дисциплин, изучаемых в учебных заведениях, готовящих кадры преподавателей-тренеров по физической культуре и спорту. Профессиональные знания и умения, приобретенные на курсе по дисциплине «Гимнастика и методика преподавания» формируют опыт, необходимый учителю, преподавателю физического воспитания, тренеру. Нет такого вида спорта, где не применялись бы гимнастические упражнения:

- средства общей или специальной физической подготовки, упражнений, помогающих освоить технику основных движений в конкретном виде спорта.

Профессиональные знания и умения, приобретенные на гимнастике, имеют чрезвычайно важное значение, и для преподавателя физического воспитания, и для тренера независимо, от вида спорта, каким он, будет занимается с учеником. Гимнастика содействует воспитанию организованности и дисциплинированности, как у детей, учеников, так у студентов и спортсменов. Воспитательные функции гимнастики проявляться с началом выполнения первых командно-строевых упражнений. Коллективными действиями и организованностью точного выполнения совместных пространственных упражнений на ограниченной площади зала закрепляются навыки воспитания дисциплины [2]. Развитие способностей, обучающихся гимнастике (и самоорганизация преподавателей и учителей на уроках) продолжается в групповых упражнениях с предметами и на снарядах, последовательных прыжковых и скоростно-силовых гимнастических эстафетах, привыканием к строгим правилам управления упражнениями и дисциплине регламентов урока гимнастики или тренировочного занятия. Программа государственного образовательного стандарта по дисциплине

«Гимнастика и методика преподавания» предусматривает ознакомления студентами теории и методики гимнастики, освоение техники выполнения гимнастических упражнений, овладение профессионально-педагогическими умениями и навыками, необходимыми для проведения занятий по физическому воспитанию на всех этапах структурных подразделениях будущей деятельности специалистов [3]. Предмет «Гимнастика и методика преподавания» включает разделы: теории и методики обучения гимнастическим упражнениям, семинарских, практических занятий, а также учебной практики по проведению занятий.

Основными задачами гимнастики как вида физической активности является:

улучшение физической подготовленности, укрепление здоровья, формированию правильной осанки и содействие физическому развитию занимающихся;

обогащение обучающихся специальными знаниями и гимнастическо-гигиеническими навыками, выработка желания к регулярным самостоятельным занятиям гимнастическими упражнениями. Помимо прочего, осваивание новых элементов движений и передвижений, развитие и улучшение двигательной практики, также улучшения эмоциональной, эстетической, нравственной, волевой и трудовой базы обучающихся;

развитие и становление ведущих (лидерских) и профессионально прикладных навыков и умений, требующихся для результативной педагогической деятельности;

формирование и улучшение двигательных (быстрота, гибкость, сила, ловкость и выносливость) и психических (созерцания, самоощущения, память на движения, мышление и т.д.) способностей, необходимых для успешного овладения гимнастическими упражнениями различной сложности, бытовыми, профессиональными, военно-прикладными двигательными умениями и навыками;

улучшение волевых, эстетических, культурных качеств, а также добропорядочного, сознательного отношения к учебным и спортивным занятиям, к труду, чувству товарищества, патриотизма; подготовка квалифицированных спортсменов по спортивной, художественной гимнастике, акробатике как независимым, отдельным формам спорта. Плодотворное решение вышеуказанных задач предполагает всестороннее педагогическое влияние на обучающегося, на его характерные особенности, достигающихся специфическими для гимнастики средствами и методами [4].

Главная роль в решении этих задач принадлежит подготовке будущего специалиста как преподавателя – педагога.

Учитель физического воспитания является основным лицом, основополагающий управлением педагогической технологии как процесса, координатором педагогических занятий, носителем содержания образования, обеспечивающих плодотворность урока или тренировки. Также характерные свойства педагога сочетают в себе объективные и субъективные педагогические ценности.

Учитель или тренер – это эксперт в регулировании движением и профессионалом в построении запланированного практического или теоретического занятия. Его деятельность, соотнесена с деятельностью наставников, которая неделимо вовлечена в общую структуру занятия.

Понятие руководство это направленная деятельность кого или чего-нибудь. Управлять своими движениями - это, значит, выстроить их по направлению, скорости, силе, количеству, качеству, амплитуде и степени мышечной мобилизации; это значит уметь выполнить цепь действий, подготовленных и зафиксированных на занятии в условиях разнообразных эмоциональных напряжений.

Проблемы формирования педагогического мастерства учителя физической культуры в настоящее время рассматриваются исследователями не только с точки зрения знания области физической культуры и спорта, но и владения методикой педагогического воздействия. В значительной мере недостатки в работе учителя обусловлены недопониманием важности владения методикой профессионального общения, направленной на воспитание усвоение учащимися общегражданских норм и жизненных ценностей.

Современные исследователи считают, что педагогическое общение - это профессиональное общение педагога с учащимися на уроке и вне его, которое имеет определенные функции, средства и ориентацию.

В процессе становления педагога большое внимание должно уделяться оптимизации педагогического процесса. В частности, оптимизация учебного процесса означает отбор оптимального варианта решения возникшей педагогической задачи при данных условиях. Оптимизация обучения опирается на методологическое положение о необходимости выделения главного звена в деятельности, а последнее представляет собой интеллектуально-волевой акт.

Словесные указания и задания учителя, как способ и возможность целенаправленного влияния на учащихся будет результативном в том случае,

когда гимнастические упражнения будут применены в совокупности музыкального сопровождения, благоприятными условиями для получения соответствующего мастерства. В данном случае слово учителя это - рычаг всей образовательной структуры занятия. Переоценить всю силу и мощь слов не представляется возможным. Это хорошо отражено в пословицах и поговорках народов мира «Доброе слово и вершину гор расплавит», «Слова - ключи к сердцу» и т. п.

На занятиях основной гимнастикой сила слова определяется его значением для занимающихся в том, в какой степени оно затрагивает их жизненные интересы. В этой связи для выражения мыслей педагога большое значение имеют удачный подбор слов и их эмоциональная окраска. При этом следует учитывать психологическое состояние занимающихся и их готовность воспринимать содержание слов педагога [5]. От этого зависит убеждающая и внушающая сила слова.

Как считают специалисты, владение голосом, мимикой, позой, взглядом, поведением, словом - для педагога, не исполнение какой - то актерской роли, а средство достижения задуманного педагогического воздействия. И при этом педагог всегда должен оставаться самим собой, помня, что его действия, находятся под сильнейшим контролем окружающих.

Убеждение словом – это метод влияния на чувства и ощущения людей (в нашем случае занимающихся гимнастикой), на их сознание, убеждения, жизненный опыт и пр. Сила словесного убеждения достигает своего пика, в том случае, когда слово наставника схоже с тем, что он может и умеет делать сам и может продемонстрировать это действие на практике, лишь в этом случае слово педагога будет приниматься в серьёз и незамедлительно выполняться его учениками.

Внушение словом - представляет собой психологическое воздействие педагога на своих учеников, с тем, чтобы вызвать у них желаемые ему двигательные действия, поведение, суждения, представления.

Прямое словесное внушение осуществляется путем непосредственного воздействия самой речи.

Опосредованное словесное внушение - предусматривает использование какого-либо предмета или гимнастического упражнения.

Словесные указания наставника для выполнения разнообразных по сложности гимнастических упражнений вместе с музыкальным сопровождением - является действенным способом влияния на обучающихся. Очевидно, поэтому подготовка современных всесторонне подготовлен-

ных кадров физического воспитания, должна быть ориентирована на – подачу распоряжений четким, уверенным, командным голосом;

техника комбинирования умения показывать и объяснять последовательность реализации выполняемых упражнений; и их назначение;

умение выбирать хорошее место для демонстрации и выполнения упражнений;

владение гимнастической терминологией для объяснения упражнений;

оказание помощи и страховки при выполнении упражнений;

определение причин ошибок и способов их устранения при изучении и выполнении упражнений;

умение терминологически правильно записывать вольные упражнения без предметов, с предметами, упражнения на снарядах и акробатические упражнения;

составление комплексов упражнений для подготовительной части урока, для разминки и тренировочных занятий, для физкультурных пауз, физкультминуток, гимнастики до занятий, подвижных перемен, для занятий с лицами различных возрастных групп; умение использовать в учебном процессе технические средства.

Заключение. Специалисты утверждают, что уровень методической подготовленности выпускников упрочняется и продолжает свой рост после окончания ВУЗа, уже непосредственно в качестве специалиста физического воспитания на новом месте работы.

Литература:

1. Тойлибаев С.М. Основная гимнастика как средство повышения профессиональной деятельности студентов факультетов физической культуры: Авто- реф. дис. ...д-ра философ. по пед. наук. (PhD) - Чирчик, 2022. - С. 31-33.

2. Eshtayev A.K.va bosh. «Gimnastika nazariyasi va uslubiyoti» Darslik. / T.: 2017. - 500 b.

3. Umarov M.N. va boshq. Gimnastika (yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari): Darslik. M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, D.R.Ishtayev, G.M.Xasanova / T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. - 552 b.

4. Гимнастика и методика преподавания: учебное пособие /

А.К. Эштаев, С.М. Тойлибаев – г. Чирчик: УзГУФКС, 2022. - 165 с.

5. Теория и методика гимнастики: учебное пособие / Г.М. Хасанова – г. Чирчик: УзГУФКС, 2021. - 97 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya talabalarining kasbiy tayyorgarligini modernizatsiya qilish va chuqurlashtirish uchun zarur strategiyani aniqlashga harakat qilindi. Ushbu tadqiqot mavzusining vazifalaridan kelib chiqib, jismoniy tarbiya bo'limlari talabalari uchun o'quv jarayoni kontseptsiyasini qurish uchun asos sifatida asosiy gimnastika vositalari qabul qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье была предпринята попытка определить необходимую стратегию по модернизации и углублению профессиональной подготовки студентов физкультурной направленности.

Исходя из задач темы данного исследования были взяты на вооружение средства основной гимнастики, как основа построения концепции образовательного процесса студентов факультетов физической культуры.

SUMMARY

In this article, an attempt was made to determine the necessary strategy for the modernization and deepening of the professional training of students of physical education. Based on the objectives of the topic of this study, the means of basic gymnastics were adopted as the basis for building the concept of the educational process of students of the faculties of physical culture.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»
№ 5/1
Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:
А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:
А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:
П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 06.10.2023. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 27 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №